Tadqiqot metodologiyasi. V.M.Mokienko ilmiy ishlarida yulduzlar bilan eskirgan so'zlarni solishtiradi, uning fikricha "frazeologiya so'ngan yulduzlarning nurini mujassamlashtiruvchi o'ziga xos sayyora", - deb nomlaydi. Frazeologiya tarkibida mavjud bo'lgan arxaik so'zlar to'g'risida bir nechta olimlar o'zlarini fikrlarini, ilmiy qarashlarini bildirib o'tganlar.

Masalan, P.P.Vetrovning ta'kidlashicha, "shunday frazeologik birliklar borki, ular rivojlanib borarkan, o'z tarkibining arxaik elementlarini saqlab qolish yoki o'zgartirish holatini davom ettiradi, ular boshqa til birliklari kabi tirik organizmlar hayoti bilan metaforik jihatdan taqqoslanadi, hamda ko'p yoki kamroq vaqt davomida tilda yashaydi va til bilan yo'qolishi mumkin [2].

Tahlil va natijalar. Har bir tilda arxaik so'zlar turlicha nomlar bilan ishlatiladi. Masalan grek tilida frazeologik birliklarning bir qismi sifatida ishlatiladigan va alohida ma'noga ega bo'lmagan so'zlar haqida gapirganda ba'zi mahalliy frazeologlar (masalan, N. N. Amosova, L. I. Royzenzon, A. D. Reichstein va boshq.) grekchadan – "nekrotizm" atamasini ishlatadi. Mazkur so'z – jasad, o'lik degan ma'nolarni anglatadi Ammo, fransuz lingvistik adabiyotida esa "expression hapaxique" nomi bilan yuritiladi. Ushbu so'z ham fransuz tiliga grek tilidan kirgan bo'lib, faqat bir marta aytilgan, nomlangan degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunos olimlar tomonidan fransuz tilida muomaladan chiqqan so'zlar "archaique" nomi bilan yuritiladi.

Frazeologiyaning o'ziga xos differentsial xususiyatlardan biri ularning tarkibidagi arxaik elementlarning uzoq muddat saqlanishidir. L.N. Myasnikovning fikriga ko'ra, "nekrotizmlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari sifatida so'z birikmalarining boshqa qatlamlari frazeologizmi yaratmaydi, faqat unga hamroh bo'ladi"[4].

Leksik komponentlar, shuningdek, bu komponentlar orasida mavjud bo'lgan grammatik bog'lanishlar til faktlarining ma'lum majmuini tashkil etib, ular ham til jamoasining bir avloddan ikkinchisiga o'tadi. Har bir avlod mavjud voqelikni tasvirlash uchun o'zining mavjud til shakllari va ifoda yo'llaridan foydalanadi, shu bilan til boyitilib, rivojlanib o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

G.G.Xazagerovanning fikriga ko'ra "millat o'z-o'zini saqlab qolish uchun harakatga o'xshash maxsus tizim bo'lib, bu holatda til ishtirok etadi, til emas, arxaik axborot ombori, balki o'zgaruvchan tarixiy muhitda mavjud bo'lgan tirik vosita hamdir"[6].

"Plein comme un barrique" iborasining aynan tarjimasi "bochkadek mast" degan ma'noni bildirib, xalq etimologiyasi orqali noto'g'ri, ya'ni buzilish holatlari mavjud. Chunki plein comme un bourrique bo'lishi kerak, fransuz bourrique eshak ma'nosini ifodalaydi. [8]. Mazkur ibora esa o'zbek xalq millati og'zaki nutqida "moldek ichgan" tarzida ishlatiladi. Masalan, yashamagur bugun ham moldek ichdingmi? Qizig'i shundaki, zoosemizmlar ko'pincha xalq-etimologik buzilishlarning o'rnini bosuvchi sifatida ishlatiladi, ayniqsa bu jarayon fransuz tilida yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Chapog'ini olaman deb, ko'r qildi" iborasining hozirgi kunda ishlatiladigan varianti "bitta ishni bajaraman deb, ikkinchisini chiqardi" tarzida qo'llaniladi. Ammo, qadimiy varianti "chapog'" – bu bir ifloslikdan paydo bo'ladigan ko'z og'rini kasalligi orqali vujudga kelgan.

O'tmishda bu kasallikka yo'liqqan odam nochor tabibga ko'rsatishga majbur bo'lardi. Tabib esa bo'lar-bo'lmas dorilar bilan ko'zni davolash o'rniga ko'r qilib qo'ygan va shu jarayon orqali ushbu ibora vujudga kelgan [8].

"Avoir des yeux de lynx" frazeologik birligi "silovsindek ko'zlari bor"ni bildirsa, ibora sifatida "uzoq masofani ham yaxshi ko'radi"ni anglatgan, ya'ni lynx o'zida favqulodda ko'zining o'tkirligi bilan ajralib turgan va bulutlar orasidan uzoqni ko'ra oladigan "Argo" kemasi yo'l boshchisi nomining noto'g'ri talqini ifodalaydi Lyncee (grek. Lunkeos). Silovsin haqiqatdan ham ko'z o'tkirlini ifodalaydi, chunki bu hayvon devor orqali ham ko'ra olish qobiliyatiga egadir. Ayrim davlat ramzlarida ham, ayniqsa gerbshunoslikda silovsin to'liqlik va ko'rish qobiliyatining o'tkirligini anglatadi. Masalan silovsin Pskov gerbida tasvirlangan. Silovsin yulduzlar turkumiga oid bo'lib, bu yulduzlar turkumi nomini XVII asrda astronom Yan Geveliy kiritgan, ya'ni bu turkum xira yulduzlar zanjirini ifodalaydi, tarixda bu zanjirni faqat silovsin kabi o'tkir ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlargina ko'rishi mumkin deyilgan[6].

"Fier orgueilleux comme un rou" ifodasi tarjima jarayonida "bit kabi mag'rur" ma'nosida qabul qilinadi, biroq rou so'zi yosh xo'roz" ma'nosini anlatuvchi eski frantsuz tiliga poul yoki pol so'zi asosida paydo bo'lgan. [6]. Mazkur frazeologik birlik aslida "fier comme un coq" - xo'roz kabi mag'rur ifodasining ekvivalenti hisoblanadi. Chunki frantsuzlarda, hatto o'zbeklarda ham xo'roz mag'rurlik belgisini ifoda etadi. Ayniqsa fransuz millati uchun xo'roz ijobiy ma'noni bildirib, davlatning ramziga aylangan [10].

"Ecrire comme un ange" iborasi tarjimada "farishta kabi yozmoq"ni, tom ma'noda esa "chiroyli husnixat sohibi"ni anglatgan. Mazkur frazeologik birlik 1540 yilda Gretsiyadan Parijga kelgan mashhur xattot Anja Verjesa (Ange Vergece) nomi bilan bog'liq. Uning husnixati shunaqa chiroyli ediki, hattoki XVI asrda Frantsisxe I qo'l ostida Lavr nashrlari bosilgan yunon harflarining gravvyuralari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Mazkur ifodaning dastlabki shakli ecrire comme Ange bo'lgan degan asoslar ham mavjud. [10]. Keyinchalik «Ange» nomi va "ange" so'zini aralashtirish natijasida shunday original obraz yaratildiki, u fransuz tilida keng tarqaldi, ya'ni "farishta kabi", "go'zal, mukammal" ma'nolarida ishlatila boshlandi.

Tadqiqotlarimizdan ko'rinayaptiki, fransuz tili misollarida so'zlarning fonetik yaqinligi muhim rol o'ynaydi, bu esa frazeologik birlik tarkibida muayyan birlikni leksik reinterpretsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, biroq til sohiblari tomonidan ishlatilgan arxaik so'zlarni tahlil qilishda etimologiyaning o'rni va ahamiyati zarur.

S.Ulmanning fikricha "xalq etimologiyasi" terminini ishlatishda yoki foydalanishda ko'p hollarda bu so'zning sotsiologik ma'nosida "xalq"ning aralashuvi haqida gap ketmaydi. Bunday "tarixiy xotira"ga oid til o'zgarishlariga nisbatan javobgarlik chalasavod yoki axborotni noto'g'ri talqin qiluvchi o'rta asr yozuvchilari va Uyg'onish davri ulamolari zimmasida yotadi" deb ta'kidlaydi.[5].

T.V.Tsivyanning aytishicha "tarixni mifologizatsiya qilish va boshqa tomondan esa xalq etimologiyasi kabi ikki jarayon o'rtasida muayyan ichki o'xshashlikni ko'rsatishdir. Xalq ongining tarixi uchun muhimlik o'tmishning haqiqiy voqealarining haqiqati emas, balki ularning xalq xotirasida qanday qilib saqlanib qolganligidir. O'tmishning mifologizatsiyasi o'z tarixi etnoslari xotirasini saqlab qolishga xizmat qiladi va xalq etimologiyasi milliy tilda kishilarning kundalik ongida mavjud bo'lgan dunyo manzarasini o'rnatadi [6].

P.Gironing fikriga ko'ra "tabiatda barqaror iboralarning motivatsiyasini saqlash zarur, chunki ular tarkibiga kiradigan so'zlar birlikni hosil qilsa-da, biroq ayrim ma'no mustaqilligini saqlab qoladi va ular tabiiy tasvirlarni

uyg'otishda davom etadi. Aynan shuning uchun frazeologik birliklar tarkibida arxaizmlar mavjud [5].

“Ko'zini moy bosib ketibdi” sintaktik arxaizm kishi semirsa hamma a'zolarini moy bitib to'lishib ketadi, shu bilan birga ko'z qovoqlari ham to'lishadi. Ba'zi odamlar yuqoriroq martabaga ega bo'ladilar. Shunday vaqtda o'sha odam o'zini tamom yo'qotib, shishinib ketadi va xalqni, o'zining eski do'stlarini unutib yuboradi, mana shunday vaqtda ushbu ibora ishlatilgan bo'lib, mazkur sintaktik arxaizmda olmosh tushib qolgan, ya'ni “uning ko'zini moy bosib qolgan” bo'lishi kerak edi. Ammo, hozirda og'zaki nutqda “ko'zini shira bosib ketibdi” tarzida ishlatiladi [9].

A.G.Nazaryanning fikricha “arxaik frazeologizmlarning samarasiz tomoni bu ularni zamonaviy tilda iboralarning so'zlashuvchilar uchun ma'lum darajada tushunarsiz bo'lishidir”, deydi [5].

Fransuz tilining Belgiya versiyasida arxaizmlar frazeologik faollikni ko'rsatish va Frantsiyaning frantsuz tili leksemalari o'rniga ishlatish uchun, til jamoasi istagini aks ettirib mahalliy til an'anasini qo'llab-quvvatlash maqsadida frazeologik birliklarning tez-tez ishlatiladigan variantlarini

tavsiya etadi. Masalan, “bouter le feu” iborasi o'rniga “mettre / foutre le feu” frazeologik birligi ishlatiladi. Ammo har ikkala iboraning tarjima-dagi ma'nosi bir xil, ya'ni “o't qo'yimoq” yoki “to'polon qilmoq” bo'lib, bouter – qo'yimoq fe'li frazeologik lug'atlarda qayd etilmagan arxaik fe'lidir.

A.G.Nazaryan ko'p hollarda arxaizmlarni o'z ichiga olgan frazeologizmlar qisman yoki to'liq qayta talqin qilinishini va ularning ko'pchiligi ba'zi hollarda eskilarini ko'chiradigan yangi ma'nolarni ishlab chiqishlarini ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Frazeologik birliklar doirasida lingvistik va tarixiy jarayonlarning o'zi doimo o'zaro aloqada bo'lib, muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi va amalga oshiradi. Tarixning mifologizatsiyasi, tarixiy voqealarni iboralar asosida tarixiy xotira birliklari sifatida qayta qurish qobiliyatini yo'qotish – bu til xotirasining ta'sir yo'nalishi demakdir. Asl yoki avvalgi ishlatilishini yo'qotgan leksik birliklarning arxivlanishi, asl ma'nolari va shakllarining saqlanishi, eski grammatik modellar va sintaktik strukturalarning saqlanishi nutqiy etnik guruhning tarixiy xotira mexanizmi faoliyatining natijasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Архангельский В. Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов-на-Дону: “Издательство Ростовского университета”, 1964. – 315 с.
2. Ветров П. Фраzeология современного китайского языка: Синтаксис и стилистика. – М.: “Восточная книга”, 2007. – 368 с.
3. Мокиенко В. Образы русской речи: историко-этимологические очерки фразеологии. – М.: Флинта: “Наука”, 2007. – 464 с.
4. Мясников Л. Фразеологизмы в сборнике. <http://miresperanto.narod.ru/esperantologio/mjasnikov.htm>.
5. Назарян А.Г. Идиоматические выражения французского. - М.: «Просвещение», 1978. - 159 с.
6. Хаззагеров Г. На развалинах Вавилонской башни. Менталитет: картина мира или речевые стратегии? Научно-культурологический журнал RELGA (№21 [27] 06.11.1999). – Режим доступа: <http://www.relga.ru/Environ/WebObjects/tguwww.woa/wa/Main?textid=1912&level=main&level2=articles>
7. Цивьян Т.В. Лингвистические основы балканской модели мира [Текст]. - М.: Наука, 1990. - 207 с.
8. Шомаксудов Ш., Долимов С. Қайроки сўзлар.-Тошкент:2018.-238 б.
9. Guiraud P. Les locutions francaises. -Paris: PUF, 1962.-126 p.



Gulnoza ISMAILOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: gulnozaodilovna97@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor Z.Sodiqov taqrizi asosida

**SOME INSIGHTS INTO RELIGIOUS TRANSLATION AND PROBLEMS OCCURRING IN TRANSLATING
RELIGIOUS WORDS (IN THE EXAMPLE OF KUTADGU BILIG BY YUSUF HAS HADJIB)**

Annotation

This article discusses about the problems faced by translators while translating religious words. The book Kutadgu Bilig's religious terminology was used to discuss and analyse. The main goal of this article is to examine the various aspects of religious translation in an effort to give translators an impartial framework to apply to this field. While doing the research, translations of Kutadgu Bilig by Walter May and Robert Dankoff have been used.

Key words: Kutadgu bilig, Yusuf Balasaguni, Yusuf Has Hadjib, religious translation, translation problems, Islamic texts translation, target language, source language, adequate translation, world Turkology.

**НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О РЕЛИГИОЗНОМ ПЕРЕВОДЕ И ПРОБЛЕМАХ, ВОЗНИКАЮЩИХ ПРИ
ПЕРЕВОДЕ РЕЛИГИОЗНЫХ СЛОВ (НА ПРИМЕРЕ «КУТАДГУ БИЛИГ» ЮСУФА ХАС-ХАДЖИБА)**

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются переводчики при переводе религиозных слов. Для обсуждения и анализа была использована религиозная терминология книги Кутадгу Билига. Основная цель этой статьи — изучить различные аспекты религиозного перевода, чтобы дать переводчикам беспристрастную основу для применения в этой области. При проведении исследования были использованы переводы «Кутадгу Билиг» Уолтера Мэя и Роберта Данкоффа.

Ключевые слова: Кутадгу билиг, Юсуф Баласагуни, Юсуф Хас Хаджиб, религиозный перевод, проблемы перевода, перевод исламских текстов, целевой язык, исходный язык, адекватный перевод, мировая тюркология

**DINIY TARJIMAGA OID BA'ZI TUSHUNCHALAR VA DINIY SO'ZLARNI TARJIMA QILISHDA YUZAGA
KELADIGAN MUAMMOLAR (YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARI MISOLIDA)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada diniy so'zlarni tarjima qilishda tarjimonlar duch keladigan muammolar haqida ma'lumot berilgan. Muhokama va tahlil uchun "Qutadg'u bilig" kitobining diniy terminologiyasidan foydalanildi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi tarjimonlarga ushbu sohada qo'llash uchun xolis asos yaratish uchun diniy tarjimaning turli jihatlarini o'rganishdir. Tadqiqot davomida Valter Mey va Robert Dankoffning "Qutadg'u bilig" tarjimalaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig, diniy tarjima, asliyat tili, tarjima tili, adekvat tarjima, jahon turkologiyasi

Introduction. The act of translation is a priceless activity that unites people and societies and facilitates communication and discourse between them. It has existed since the beginning of human history. Through this historical period, translation has already become a field of science and helped people to communicate internationally. Translation is also the process of replacing one written statement in a Source Language (SL) by the same message in the Target Language (TL) (Newmark,1988)[1]. Translation has extended to all fields of knowledge nowadays, as it has a particular effect or concern on innovations such as the technological inventions (Newmark,1991)[2]. Religions influence and shape the language and culture of a particular society. Therefore, translating religious texts into other languages has become both a must and a challenge for translators. Ugwueye & Ezenwa-Ohaeto[3] (2011: 174) state that "Religious or sacred language is vested with a solemnity and dignity that ordinary languages lack". They also argue that religious language is a dead language, because it uses and transfers the same phraseologies, vocabulary and beliefs from one generation to another.

Due to rapidly growing globalization and the associated rapid improvement in communication options, international relations and increasing interest in other cultures, source language approaches have been replaced by target

language approaches. With this new approach, the overall text is more important than the words. The goal is not to translate the words, but to be able to convey the main idea to the target reader in the target language. With a target language-based approach, the target culture reader is expected to be influenced in the same way as the source culture reader. This new approach is particularly useful when translating religious texts. Sacred texts belong to a separate category that distinguishes them from profane prose both in terms of their structural features and their cultural relevance. For example, chants and litanies may require specific rhythms, while other sacred texts may require specific grammatical structures to be taken into account. In the light of this, there are some vital points that translators need to take into consideration while translating religious words:

In the religious texts usually archaic language is used and this makes a big obstacle in translation process, translators need to do some extra research to learn the archaic language

Religious words are really sensitive to translate as they are mostly related to the words of God, which requires a translator to be very careful

Translators must know the language and culture of the source language in order to make the translation as accurate as expected

Translators need to learn about the history of that particular religious text in order to make an accurate and adequate translation, by looking through all the translation editions of the text, they will have a better understanding of the text.

It is not a secret that world famous "Kutadgu bilig" was written under the influence of Islamic religion and thus in the novel we can come across a bunch of religious words. As this precious novel attracts all world Turkologists' attention, translators need to be very careful especially translating such Islam related terminology in order to make everything clear and understandable for the reader.

Methods. This research highlights the use of translation techniques to translate the religious words in "Kutadgu bilig" by Yusuf Has Hadjib and effects of those techniques on the quality of the translation. Furthermore, this research uses a descriptive qualitative method to examine and describe the translation of religious terms in a multicultural society. It was mentioned that this research objective is to find out the translation techniques and translation quality of religious terms in the book. Therefore, the researcher in the book only focus on religious terms. The researcher also use document analysis in this research. This technique is used to collect the religious terms from the book. In addition, it serves to identify the translation techniques. The translation techniques of religious terms can be decided by comparing the source text and the target text.

Results and discussion. There is no room for doubt that the novel Kutadgu Bilig (The Wisdom of Royal Glory) has always attracted world turkologists. There are several research works of scientists on learning Yusuf Has Hadjib's "Kutadgu bilig" as well as foreign scientists. First of all, as the founder scientists of Uzbek "Kutadgu bilig" school we can mention names of A.Fitrat, N.Mallayev, Q.Karimov, B.Tuhliyev, Q.Sodiqov and others. Because of these scientists' attempts the interest is being increased to learn "Kutadgu bilig" from poetical and philological points and define its significance in the world literature[5]. One of the uzbek researcher who contributed to the improvement of the translation of Kutadgu bilig by writing monographies and reasonable articles is Q.Sidiqov[11]. On the process of writing this article we used most of his research results. In order to understand translational problem related to religious texts, we will take a look at some examples from world-famous work, "Qutadgu bilig" by Yusuf Has Hadjib. The novels was written with the high influence of religion. We can find so many religious words while reading it. Even in some lines, the reader can find the names of Allah. Though writer directly did not write the names of Allah, he simply implied for them. H. Karamatov paid a special attention to this issue in his monography namely "Themes on Koran in Uzbek literature"[6].31-38]. He mentions that there is a close connection between Surah Al- Fatihah and the chapter of Kutadgu bilig named "In the name of Allah- the most merciful and the most compassionate". We can also notice such correlation between the case of Aytuldi's will made just before his death and Surah- Al – Ikhlas. Another example can be seen in the chapter named "Bey's reply to Ogdylmish". In this chapter we can read about how to earn money in a halal way and give this money as a charity to the poor.

Halal dunya qazg'an chig'ayqa ule,
Kishi elgi tutg'il yanut qil yole (3201)

In order to understand this issue better let us take one more example from the work.

Halal ham haram ardar ersa acha,
Yarag'liqbyarag'sizni bilse secha.(2712)

The translation into Uzbek language done by Q.Karimov translates it in a correct way without losing its meaning:

Halol hamda haromni aniq farqlaydigan bo'lsa,
Uning suqligi unchalik g'olib bo'lmaydi.(2712)[7]
The meaning of these lines is that

"If you can know the difference between halal and haram"

You can differentiate between good and bad.

Before going into the English translations of this, let me tell you what actually halal and haram mean in real Islamic life and religion. Halal is an Arabic word that means "permissible" or "lawful." In the context of food, halal refers to anything which is not explicitly forbidden. e.g. only meat from halal animals which are slaughtered in accordance with Islamic law are halal. This includes the slaughterer man to be a practicing Muslim/a, to master the correct technique of slaughtering, and for a prayer to be recited at the time of slaughter asking God for permission to take the animal's live for human consumption. Haram is an Arabic word that means "forbidden." In the context of food: haram refers to food that is prohibited under Islamic law, such as pork, forbidden animal, blood and alcohol. Muslims are required to follow Islamic dietary laws and should avoid haram and questionable food items. Robert Dankoff, the world famous turkologist and translator translated these lines the following:

"So that he clearly distinguishes the permitted from the prohibited"[4]

As we can see Dankoff used too general meaning of these words which gives misleading for the reader. He used "permitted" instead of Halal. But permitted cannot give the real Islamic meaning of Halal. Walter May translated these lines like this:

"One must know the rules, what's allowed, what's denied"[8]

As we can see Walter May changed the word Halal into "what's allowed" and haram into "what's denied". In both English translations, one cannot find an adequate translation. They wrongly used the word by word method. Instead of this, it would be better if they had used the method of Borrowing in translation. Borrowing is where words or expressions are taken directly from the source text and carried over into the target language. This technique is often used when there is no target language equivalent, such as food or clothing, and can help to preserve the cultural context of the source text.

Another issue can be seen in line 3246 of this novel
Turub yundi qildi bu yatg'u namaz
Toshek quldi yatti udib bardi az.

Here the writer meant about being pure before praying, and he meant about taharah which muslims do before worshipping. In order to clarify this issue better, we will look through the definitions of taharah in Islamic life. Taharah means purification from all minor and major cleanliness of body and soul as well. Taharah means being ready for worshipping. In the translation by Walter May[8]these lines can be seen as:

He washed himself well, and his prayers then he said
He ordered his bed, and he laid down his head.

We can witness that translator used too general word in order to explain taharah, she used the word wash which cannot express real Islamic meaning of taharah. Robert Dankoff translated the following,

He rose to perform his ablutions and bedtime prayer,
Then called for bedding and lay down to sleep a little.

Robert dankoff came a little closer than Walter May by using the word bedtime prayer and perform ablution. In Cambridge dictionary[9] ablution is defined as the act of washing yourself: Ablution is part of some religious ceremonies.

Another example can be seen in line 39 of the source text,

“Qamug‘ qadg‘usi erdi ummat uchun,
Qutulmaq tiler erdi rahat uchun”

(meaning: all his care was for his Ummah , he wished their salvation)

In the target translation by Robert Dankoff, this was translated the following:

All his care was for his “community”,
Their comfort and their salvation.

First we need to see the definition of “ummat” in some dictionaries. The word “ummat” is defined as “ a community of people who followed Muhammad sallallahu ‘alayhi wa sallam and embraced Islam, lived in Medinah In Collins’ dictionary we can see the definition like “the Muslim community throughout the world ”. As we can see translator used the word “community” instead of “ummat”. And he gave too general meaning which can mislead the reader. This bite is translated by Walter May the following:

“He thought of your pastures, your needs and your cares”.

As we can see, May did not pay attention to this word at all and used the word “you”.

There are so many other examples of religious words in the translations of Kutadgu bilig which needs to be corrected in order to make the real meaning of this world famous work. "Kutadgu Bilig" does contain Islamic words and references. The work reflects the influence of Islamic culture,

values, and terminology. It incorporates Islamic moral and ethical principles, and it often uses Islamic terminology to convey its philosophical and moral messages. This is not surprising, as the author, Yusuf Khass Hajib, was writing in a region and during a time when Islamic culture and civilization had a significant impact on the intellectual and literary landscape.

Islamic concepts, such as justice, piety, virtue, and the importance of knowledge, are discussed and emphasized in the text. The work also references Islamic historical figures, scholars, and sources of wisdom, further underscoring its Islamic influence.

Overall, "Kutadgu Bilig" is a product of its time and place, and it reflects the fusion of Turkic and Islamic cultural elements in its content and language.

Conclusion. From the research above, one can conclude that there are some problems occurring while translating the religious, Islamic words in the world famous work “Kutadgu Bilig”. From my perspective, it is better to take these points into consideration while translating religious sacred texts:

It is not recommended to change religious words into general meaning

When translating such antique works, it is recommended for translators to work with ancient language dictionaries and Islamic encyclopedia.

LITERATURE

1. Newmark, Peter (1988). Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press
2. Newmark, Peter (1991). About Translation. Cleverdon: Multilingual Matters LTD.
3. Emeka Ugwueye & Ngozi Ezenwa-Ohaeto (2011). Religious Language: Problems and Meaning . Unizik Journal of Arts and Humanities. 12,(1),173-187
4. Yusuf Has Hajib. “Wisdom of Royal Glory” Translation with an Introduction and Notes by Robert Dankoff. The University of Chicago Press, - Chicago: 1983
5. Sidiqov, Q. A. (2021). Conducted researches on “Kutadgu bilig” in Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (95), 188-190
6. Караматов Х. Ўзбек адабиётида Куръон мавзулари. - Тошкент: Фан, 1993. - Б. 31-38.
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 971 б.
8. Yusuf Balasaguni. Beneficent Knowledge // Translated into English by Walter May. – Moscow-Bishkek: 1998
9. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/perform-ablutions>
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, -M.: “Rus tili” nashriyoti, 1981 y. , 2- tomi
11. https://www.researchgate.net/publication/350504265_CONDUCTED_RESEARCHES_ON_KUTADGU_BILIG_IN_UZB_EKISTAN
12. <http://t-science.org>
13. <https://www.inter-nauka.com/en/issues/2020/3/?author=6451>



Saodat KAMBAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsent, p.f.f.d. (PhD)

E-mail: s_qambarova@mail.ru

TDTU dotsenti, f.f.n., I.Rustamov taqrizi ostida

ADABIYOTNI FAN VA SAN‘AT TURI SIFATIDA O‘QITISHGA DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada adabiyotning muayyan xalq tili, madaniyati va an‘analarini o‘zida mujassam etishi barobarida uning kitobxon his-tuyg‘ulariga ta‘sirini, so‘z san‘at sifatidagi muhim vazifalarini o‘rganish mazmuni yoritiladi. Xususan, estetik, tarbiyaviy, aksiologik, kognitiv va gedonistik funksiyalari o‘quvchilarning intellektual va ma‘naviy tarbiyasiga ta‘sirini nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: So‘z san‘ati, estetik funksiya, tarbiyaviy funksiya, aksiologik funksiya, kognitiv funksiya, gedonistik funksiya.

АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ ЛИТЕРАТУРЕ КАК НАУКЕ И ИСКУССТВУ

Аннотация

В статье освещается содержание изучения важных функций литературы как искусства, ее влияние на чувства читателя, так как она воплощает в себе определенный национальный язык, культуру и традиции. В частности, эстетическая, воспитательная, аксиологическая, познавательная и гедонистическая функции анализируются с точки зрения их влияния на интеллектуальное и духовное воспитание учащихся.

Ключевые слова: Искусство слова, эстетическая функция, воспитательная функция, аксиологическая функция, познавательная функция, гедонистическая функция.

ANALYSIS OF APPROACHES TO TEACHING LITERATURE AS A SCIENCE AND ART

Annotation

The article discusses the content and functions of studying literature as an art, its influence on the feelings of the reader, as it embodies a certain national language, culture and traditions. In particular, aesthetic, educational, axiological, cognitive and hedonistic functions were analyzed from the point of view of their impact on the intellectual and spiritual education of students.

Key words: Art of words, aesthetic function, educational function, axiological function, cognitive function, hedonistic function.

Kirish. Adabiyot – ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha yozuvlar; ko‘proq keng tarqalgan ma‘noda-badiiy adabiyotning qisqartirilgan belgisi. Adabiyotshunoslik fan sifatida 19-asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Albatta, antik davrdan beri adabiy asarlar mavjud edi. Aristotel birinchi bo‘lib o‘z kitobida ularni tizimlashtirishga harakat qildi, birinchi bo‘lib janrlar nazariyasi va adabiyot turlari nazariyasini (epik, drama, lirika) tahlil qilgan. Adabiyotshunoslik dunyoning turli xalqlarining badiiy adabiyotini o‘z mazmuni va ularni ifoda etuvchi shakllarining xususiyatlari bilan almashtirib o‘rganadi. Adabiy tanqid mavzusi nafaqat badiiy adabiyot, balki dunyoning barcha yozma va og‘zaki badiiy adabiyotini o‘zichiga oladi. Adabiyotshunoslik fan sifatida adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotning so‘z san‘ati sifatida inson his-tuyg‘ulariga ta‘sirini boshqa bir fan xususiyatlari bilan almashtirib bo‘lmaydi. Zero, san‘at dunyoni o‘zlashtirishning o‘ziga xos usulidir. Adabiyot makon va zamonda tor, insonni voqelikda yashayotganda olgan tajribasini boshdan kechirishga majbur qiladi.

Rus faylasufi va madaniyatshunosi M.S.Kagan ta‘kidlaganidek, “san‘at faqat o‘zi uchungina bo‘lgan vazifani – o‘zi yaratgan “badiiy voqelik”ni boshdan kechirish, odamlarni o‘z davri va o‘z xalqi madaniyatiga va shu orqali insoniyat madaniyatining asosiy, o‘zgarimas mazmuniga ega bo‘lish kuchi bilan bajaradi” [4].

Olimlar adabiyotning: estetik, tarbiyaviy, aksiologik, kognitiv va gedonistik kabi beshta asosiy funksiyasini ajratib ko‘rsatadilar. Bu borada metodist olim Q.Yo‘ldoshev adabiyotning muloqot-kommunikativ, baholash-aksiologik,

tarbiyaviy-axloqiy, zavqlantirish-hedonistik hamda bilish-gnoseolik kabi vazifalarini qayd etadi. Ularni nomlanishiga qarab emas, balki tartiblashtirishning ham ma‘no jihatdan ahamiyati va muhimlik darajasiga urg‘u qaratadi. Olimning fikricha, “Adabiyotning funksiyalarini tayin etish va tasnif qilishda badiiy adabiyotning vazifasiga kirishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha qirralarni hisobga olgan holda ish ko‘rish xolis ilmiy to‘xtamga kelish imkonini beradi. Buning uchun turlicha fikrlarni inkor etish o‘rniga ulardagi yetakchi sog‘lom jihatlarni imkon qadar birlashtirish yo‘lidan borish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganda, hodisaning ko‘proq belgilarini hisobga olish imkoni yuzaga keladi” [6].

Quyida ularning har biri xususida alohida so‘z yuritiladi. Adabiyotning estetik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Chunki bilim, tarbiya, e‘tiqodni shakllantirish, his-tuyg‘ularni rivojlantirish adabiyotda faqat o‘ziga xos usul va vositalar bilan, estetik idrokdan tashqarida esa, san‘at sifatida amalga oshirilmaydi, balki uning funksional yo‘nalishi orqali amalga oshiriladi. Estetika dunyoni manfaatlilik nuqtayi nazaridan emas, balki go‘zallik qonunlariga ko‘ra baholaydi. Shuning uchun ham estetik baholash umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq bahodir.

Yu.S.Borevning fikricha, “Estetik ta‘sir “adabiyot va san‘at xususiyatlarining asosiy immanent mohiyatlaridan biri bo‘lib, u shaxsning ijodiy ruhini, ijodiy boshlanishini, go‘zallik qonunlariga muvofiq ijod qilish istagi va qobiliyatini rag‘batlantiradi va qabul qiluvchining qadriyat yo‘nalishlarini shakllantiradi, uning badiiy didi, qobiliyat va ehtiyojlari doirasida ish ko‘rishni taqozo etadi” [1]. Masalan, boshlang‘icha sinflarda o‘rganiladigan “Tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar” mavzusi kichik maktab o‘quvchilarini tabiat

hodisalarining belgilari bilan tanishtiradi: sovuq tushishi, barglarning rangini o'zgartirishi, qushlarning uchib ketishi, bu mavsumda odamlarning harakatlari, hosilni yig'ish, qishga tayyorgarlik ko'rish zarurati va boshqalarga diqqat qaratishni taqozo etadi. Badiiy adabiyot inson idrokidagi tasvirlar haqida, tabiatning go'zalligi, doimo jonlanib o'zgarib boradigan tabiat va inson hayotining cheksizligi haqida hikoya qiladi va h.k. Zero, inson va tabiat hodisalari – san'atning abadiy mavzularidan biri. "San'atning mavzusi tabiatdagi o'zgarishlar emas, balki bu o'zgarishlarning shaxs tomonidan idrok etilishi, cheksiz o'zgarishlari jihatidan qimmatlidir" [5].

Adabiyotning aksiologik (baholash) va tarbiyaviy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Kundalik turmushni tasvirlash, hayotiy vaziyatlarni qayta yaratish, qahramonlarning xatti-harakatlari, kechinma va mulohazalarini ifodalash kabilarni yozuvchi bir vaqtning o'zida baholaydi, chunki matndagi har bir so'z muallifning tuyg'usi, dunyoga qarashlarga singib ketadi: "...asarda badiiy bayon va salbiy baholarning butun bir tizimi shakllangan... Har bir asar idrok etuvchining ongida ma'lum bir qadriyatlar tizimini, ma'lum turdagi hissiy-qadriyat yo'nalishini olib boradi va o'rnatishga intiladi"[3; 9-b.]. Lekin adabiyotning tarbiyaviy vazifasi mantiqiy o'zlashtirish, ma'lum qadriyatlar tizimini qabul qilish, xulosa tarzida asardan "chekinish" degani emas; balki o'quvchining faoliyatida to'plangan va mantiqiy tartibga solinishi mumkin bo'lmagan ma'naviy tajriba bilan tanishishi natijasida yuzaga keladi. Bu haqda adabiyot fanidan Milliy o'quv dasturi loyihasida san'atning tabiat insonparvarligi, u o'zaro ziddiyatlarni yengib o'tishga yordamlashishi, yuqori natijalarga erishishga turki berishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiy tanqidda badiiy asarni o'rganishda tarixiy-adabiy va tizimli-funksional kabi ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi, asarni adabiy jarayon, davr kontekstida o'rganishni nazarda tutsa, ikkinchisi – asosiy e'tiborni asarga tizim sifatida qaratib, davrning alohida elementlarining ko'p tomonlama va ko'p bosqichli aloqalarini o'rganishni nazarda tutadi. Zero, matn, ularning o'zaro ta'siri bir butunlikni keltirib chiqaradi. Agar adabiy tanqidda bu yondashuvlar parallel ravishda mavjudligi mumkin bo'lsa-da, maktab adabiy ta'limi jarayonida alohida asarlarni mustaqil estetik davr, adabiy yo'nalish, adabiy jarayon sifatida idrok etishdan bosqichma-bosqich yuksalish kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. Bizningcha, adabiyotning kognitiv vazifasi matndan faktik ma'lumotlarni ajratib olish bilan cheklanmaydi. Adabiyot ilm-fan uchun mavjud bo'lmagan narsalarni tan oladi, chunki u dunyoni boshqacha taniydi. Ilmiy bilimlar voqelikni qismlarga ajratadi va tahlil qiladi, muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi, shaxsdan mavhumlanadi, o'ziga xos tushunchalar bilan ishlaydi. Adabiyot san'at sifatida ikkinchi – badiiy voqelikni yaratish yo'lidan boradi. Shuning barobarida, hayot konkret-sezgi shakllarda, obrazlarda yaxlit tarzda qayta yaratiladi. "Badiiy obraz – bu badiiy adabiyot yordamida yaratilgan va estetik ahamiyatga ega bo'lgan inson hayotining konkret va ayni paytda umumlashtirilgan tasviri"dir.

Tasvir, konsepsiyadan farqli o'laroq, hodisani individualligidan mahrum qilmasdan umumlashtiradi. Tasvirda noaniqlik va soddalik bo'lishi mumkin, shuning uchun u tushunish va assimilyatsiya qilishni emas, balki empatyani, aks ettirishni, ma'no izlashni, talqinni talab qiladi. Masalan, umumta'lim maktablari 9-sinfida o'rganilishi rejalashtirilgan Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidan o'quvchi nima oladi? Bosh qahramon Bayna momo umrining intihosigacha nimani kutib yashaydi, nimadan umidvor bo'ladi? U butun hayotini faqat achchiq xotiralar bilan almashdimi? Faktlar qatlami yangi va qiziqarli ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi. Hikoya o'quvchiga turli xil

bilimlarni beradi, hamdardlikka undaydi. Yolg'izlikning achchiqligi, boshqa odamni tushunish qanchalik qiyinligi, tiriklikning qadri, ezigulikning kuchi haqida o'ylashga undaydi. Lekin bu tuyg'uni asar g'oyasi, muallif niyati, obrazlilikni badiiy qonunlar asosida idrok etgan o'quvchigina o'zlashtira oladi. Badiiy matnning estetik assimilyatsiyasiga adabiyotning ham kognitiv, ham tarbiyaviy, ham g'oyaviy, ham gedonistik funksiyalarini amalga oshirishga olib kelishi mumkin.

San'atning gedonistik funksiyasi – go'zallikdan estetik zavqlanish, uyg'unlik topishdan ma'naviy zavq olish, borlik ziddiyatlarini badiiy yengish funksiyasi adabiy ta'lim uchun muhim ahamiyatga ega. Adabiy o'qish darslari o'quvchida san'at bilan ruhiy muloqot qilishdan zavqlanish tajribasini berish uchun mo'ljallangan. Badiiy funksiyalarni amalga oshirish, asosan, o'quvchi va yozuvchining qanday muloqot qilishiga, kitobxonning o'qish madaniyatiga hamda asarning saviyasi o'quvchi tomonidan qay darajada idrok qilinishiga bog'liq.

Adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichiga xos xususiyatlar asarga tizimli-funksional yondashishga mos keladi, chunki u, birinchidan, o'rta o'quvchi uchun asar matnidagi badiiylikka tabiiy yo'lni aks ettiradi. Ikkinchidan, asar matni o'quvchining diqqatini tortadigan asosiy omildir. Kichik hajmdagi matnlar o'rganilganligi va o'qish texnikasini takomillashtirish qayta o'qishni talab qiladi. Adabiy yondashuv so'zga ehtiyoqlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi, matni sinchkovlik bilan tahlil qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida butun asarni o'qituvchi rahbarligida qayta o'qish imkoniyati yo'q: eng muhimi, dars alohida qismlarni tanlab o'qish orqali uyda o'qilgan boblar materiallari bo'yicha suhbat sifatida quriladi. O'quvchi tahlil qilishga tayyorlanmagan bo'lsa, matnning yaxlitligini idrok etishni qiyinlashtiradi. Uchinchidan, kichik yoshdagi o'quvchilarning tarixiy va adabiy bilimlari yo'q, ularning o'qish va hayotiy tajribasi juda cheklangan, shuning uchun ham matn ularning asar haqidagi mulohazalari uchun deyarli yagona manba hisoblanadi. O'rta maktabda adabiy yondashuv zarur bilimlarni bosqichma-bosqich to'plash, asar va u yaratilgan davr o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga imkon beradi, madaniy va (yoki) tarixiy bilimlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Adabiy tanqidda "badiiy matn", "badiiy asar", "badiiy olam" tushunchalari ajralib turadi, matnga asosiy komponent sifatida qaraladi. Ularsiz asarning mavjudligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas, ammo asarning badiiy ta'siri nafaqat matnga, balki o'quvchining hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va estetik tayyorgarligiga ham bog'liq. San'at asari dunyoni badiiy olamga aylantirishning ikki qirrali jarayoni sifatida talqin qilinadi. "Asarning badiiy dunyosi olamdir, chunki u ichki jihatdan birlashtiruvchi ham bayonning predmetini, ham ma'lum ma'noda bayonning qabul qiluvchisi – "o'quvchi"ni yashirin, lekin tarkibiy qismlarini "o'zgartirmasdan o'z ichiga oladi", – deb yozadi M.M. Girshman [2; 21-b.]. Biroq, adabiyotshunoslar bu tushunchalarni baham ko'rar ekanlar, bunday bo'linishning shartlilikini ta'kidlaydilar. Bu esa estetik idrok etishdan ko'ra adabiyot nazariyasi rivojiga yangi sur'at bag'ishlaydi, unga faqat badiiy dunyoni butunligicha ochib beradi.

o'rtasidagi bog'liqlikdir. So'z madaniyatga bergan ma'nolarning yig'indisi sifatida qabul qilinadi. So'z orqali u dunyo madaniyatida umumiylik bilan amalga oshiriladi. Vizual madaniyat - bu vizual tarzda idrok etilishi mumkin bo'lgan madaniyat. Og'zaki madaniyat-insonning ehtiyojlariga ko'proq javob beradi-so'z, fikr ishi, shaxsni shakllantirish (ma'naviy dunyosi). Jiddiy munosabatni talab qilmaydigan madaniyat sohalari mavjud. Adabiyot asarlari insonning ichki

kuchlarining turli yo'llar bilan chuqur uyg'onishidir, chunki adabiyot materialga ega.

San'at ham so'z kabi ijodkorlikdir. She'riy tasvir tashqi shakl va ma'no, g'oya o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib xizmat qiladi. Majoziy she'riy so'zda uning etimologiyasi qayta tiklanadi va yangilanadi.

Gegelning ta'kidlashicha, og'zaki san'at asarlarining mazmuni «nutq, so'zlar, til nuqtai nazaridan ularning mukammal kombinatsiyasi» orqali yetkazilishi tufayli she'riy tusga kiradi. Tasviriy badiiy adabiyotda bilvosita so'zlar yordamida etkaziladi. Yuqorida ko'rsatilgandek, ma'lum bir milliy tildagi so'zlar tasvirsiz belgilar-ramzlardir.

San'at asarlari hayot va shaxs, umuman insoniyat jamiyatining zarur mansubligini tashkil etadi, chunki ular ularning manfaatlariga xizmat qiladi. Biz zamonaviy jamiyatda rasmlarni ko'rishni, musiqa tinglashni, badiiy asarlarni o'qishni yoqtirmaydigan biron bir odamni tasavvur qila olmaymiz.

Xulosa. Asarning badiiy olamiga kirish yo'li har doim uning matnini chuqur o'rganishga bog'liq bo'lgani uchun o'quv tahlilining asosiy maqsadi ilmiy haqiqatni olish emas, balki estetik tajribani chuqurlashtirish, ayniqsa, adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichida "matn", "badiiy matn" tushunchalarini farqlash katta ahamiyatga ega. O'quv faoliyati uchun muhim narsa tizim sifatida matnni ta'minlashdir. Bir qarashda asarni idrok etish juda oddiy masaladek tuyuladi, chunki matn o'quvchi hayotda muloqot vositasi sifatida foydalanadigan tilda yoziladi, ammo bu noto'g'ri taassurot. So'z hali badiiy matn tili emas, u badiiy obrazning qurilish materialidir. Badiiy matnda so'z va gaplarning o'zi emas, balki ularning butun asardagi maqsadi muhim ahamiyatga ega. Demak, badiiy asar g'oyasidan kelib chiqadigan metodik xulosa adabiy o'qish darslarida badiiy matn o'rganishga tizimli, funksional bo'lmagan yondashuv zarurligini tan olishdir.

ADABIYOTLAR

1. Боров Ю.Б. Эстетика. Теория литературы: Энциклопедический словарь терминов. – М.: ООО «Изд-во Астрель», 2003. – 511 с.
2. Гиршман М.М. Анализ поэтических произведений А.С.Пушкина, М.Ю.Лермонтова, Ф.И.Тютчева. – М.: Высшая школа, 1981. – 160 с.
3. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: учеб. Пособие. – М.: Флинта, 2007. – 248 с.
4. Каган М.С. Системно-синергетический подход к построению современной педагогической теории // Педагогика культуры. 2005. – № 3–4. – С. 12–21.
5. Методика обучения литературе в начальной школе. Учебник. Под редакцией М.П.Воюшиной. – М.: Академия, 2010. – 288 с.
6. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 462 b.
7. Umumiy o'rta ta'limning Adabiyot fanidan "Milliy o'quv dasturi". Loyiha – 2. – T.: 2021. – 62 b.



UDK: 81’=512.133:801.61

Shahlo MALIKOVA,
O‘zMU Lingvistika (o‘zbek tili) 1-kurs magistranti
E-mail: ibrohimovashahlo41@gmail.com
Tel: (94) 677 29 04

JIDU katta o‘qituvchisi (PhD) Sh.Xudaykulova taqrizi asosida

STUDY OF INTERTEXTUALITY PHENOMENON IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article focuses on the history of studying the phenomenon of intertextuality in the field of philology. Different views of world and Uzbek linguists were analyzed. Emphasis was placed on the issue of intertextuality and the meaning of intertext terms, their place in the text. The intertextuality competence was proved to be related to history, linguistic culture and association.

Key words: Anthropocentric paradigm, intertextuality, intertext, intertextual unity, text, discourse, author’s intention, precedent units, association, linguistic culture, history.

ИЗУЧЕНИЕ ФЕНОМЕНА ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена истории изучения феномена интертекстуальности в сфере филологии. Проанализированы различные взгляды мировых и узбекских лингвистов. Акцент был сделан на вопросе интертекстуальности и значении интертекстовых терминов, их месте в тексте. Доказано, что интертекстуальная компетенция связана с историей, лингвокультурой и ассоциацией.

Ключевые слова: Антропоцентрическая парадигма, интертекстуальность, интертекст, интертекстуальное единство, текст, дискурс, авторский замысел, прецедентные единицы, ассоциации, лингвокультура, история.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA INTERTEKSTUALLIK HODISASI TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqolada intertekstuallik hodisasining filologiya sohasida o‘rganilish tarixiga e‘tibor qaratildi. Dunyo va o‘zbek tilshunos olimlarining turli qarashlari tahlilga olindi. Intertekstuallik va intertekst terminlarining mohiyati, matnda tutgan o‘rni masalasiga urg‘u berildi. Intertekstuallik kompetensiyasi tarix, lingvomadaniyat va assotsiatsiya bilan bog‘liqligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: Antroposentrik paradigma, intertekstuallik, intertekst, intertekstual birlik, matn, diskurs, muallif niyati, presedent birliklar, assotsiatsiya, lingvomadaniyat, tarix.

Kirish. “Inson”, “til” va “atrofdagi voqelik” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligi umumiy e‘tirof etilgan. Jamiyatda sodir bo‘layotgan dinamik jarayonlar tilda ham o‘z aksini topadi. XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan antroposentrik paradigma – til va shaxs munosabatiga qarashni o‘zgartirdi: tilga mavhum tushuncha sifatida emas, balki uning bevosita tashuvchisi bilan yaqin munosabatda bo‘lgan real hodisa sifatida qarala boshlandi. Antroposentrik yo‘nalish doirasidagi ishlarga talab har qachongidan kuchli. Intertekstuallik hodisasi nafaqat lingvistika, balki adabiyotshunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya sohalarining ham tadqiqot obyekti hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu mavzu dunyo va o‘zbek tilshunos olimlarini birdek qiziqirtirmoqda. Buni intertekstlarning matn va diskursda ko‘p bora murojaat etilayotgani bilan izohlash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijda va o‘zbek tilshunosligida olib borilgan lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, intertekstuallik har bir matnga xosdir, o‘z o‘rnida har bir matn ham intertekstdan iborat degan g‘oya o‘z tasdig‘ini topdi. Uzoq tarixga ega bo‘lgan intertekstuallik atamasi Mixail Baxtin va Yuliy Kristeva nomi bilan bo‘liq. Termin sifatida Y. Kristevaning “Baxtin, so‘z, dialog, roman (1967)” nomli ilmiy risolasi ilk bor tilga olingan. Rus adabiyotshunosi Baxtinning “Og‘zaki badiiy ijodiyotda mazmun, material, va shakl muammosi” (1924) risolasi har tomonlama ishlab chiqilgan dialog konsepsiyasini ko‘rib chiqish, qayta anglash zamirida paydo bo‘ldi, desak yangilishmagan bo‘lamiz.

Fransuz olimasi fikricha, intertekstuallik deb alohida olingan matn ichida mavjud tagmatn, ya‘ni kontekstning matnga doir integratsiyasini tushunish lozim. M. Baxtin intertekstuallikni “unutilgan ma‘nolar”, “onglar dialogi” deydi. Kristeva esa “iqtibos mozaikasi”, “matnlararo dialog” sifatida qabul qiladi [1]. Bizningcha, intertekstuallik matnlarning umumiy xususiyati hisoblanadi, matnda bir- biriga bevosita yoki bilvosita yo‘llar bilan murojaat qilish orqali aniqlanadi.

R. Bartning 1973 yilda chop etilgan “Matndan rohatlanish” risolasi keltirilishicha, har bir matn intermatn, unda boshqa matnlar turli shakllarda mavjud, har bir matn eski iplardan to‘qilgan yangi matodir. Madaniy kod elementlari, ritmik tuzilmalar, ijtimoiy idiomalar va boshqalar matnga singib ketadi va unga aralashadi, chunki til doimo matndan oldin va uning atrofida mavjud. Intertekstuallikni manbaa va ta’sir muammosiga olib borish xatodir; intertekstuallik qo‘shirnoq belgisiz keltirilayotgan g‘ayriushuriy yoki avtomatik jumlar va iboralar, kelib chiqishi amrimahol bo‘lgan anonim formulalarning umumiy maydonini kasb etadi [2]. I. Ilyin ham bu fikrlarni davom ettirgan holda o‘zining “Postmodernizm lug‘atlari termini” da qayd etishicha: “Intertekstuallik nuqtai nazaridan olib qaralganda, dunyo ulkan bir matndek namoyon bo‘ladi, unda barcha narsalar qachonlardir aytib bo‘lingan, yangi narsa esa faqat muayyan elementlar ayrim kombinatsiyalarda qorishgandagina namoyon bo‘lishi mumkin [3]. Yana bir guruh olimlarning fikricha, go‘yoki intertekstuallik har qanday matnga xos bo‘lgan xususiyat, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan matn

mavjud emas, chunki yangi biron-bir gap aytishning imkoniyati yo'q, barcha gaplar qachonlardir kimlardir tomonidan aytib bo'lingan, mabodo matnda nimadir yangi narsa yuzaga kelgan bo'lsa, u ham eski, avvaldan ma'lum narsalarning yangicha kombinatsiyasidan boshqa narsa emas. Bizningcha, bu fikr biroz yangilish, agar shunday bo'lganda edi bu yorug' olamda yashashimizning o'zida zerikarli bo'lar edi. Muallif pozitsiyasi ham hech qanday maqomga ega bo'lmay qolar edi. Badiiy asar muallifniki emas, u oddiy vositachi o'rnida bo'lib qolar edi.

Tilshunos Y. P. Solodub intertekstuallikni turli mualliflarga tegishli bo'lgan, biri avval, ikkinchisi keyinroq yaratilgan ikki adabiy matn o'rtasidagi bog'liqlik sifatida izohlaydi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Intertekstuallik matnda boshqa matnga dahldor unsurlarning mavjudligidir. Har qanday matn tarkibida intertekstual birlik bo'lishi shart degan qarash yo'q, bu yozuvchining badiiy niyati bilan bog'liq. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, intertekstuallik matn mazmuni va lisoniy qurilish bilan uyg'unlashib asarga go'zallik bag'ishlaydi.

Atama olimlar tomonidan bir necha nomlarda qo'llanilgan, xususan Muhammadjon Xolbekov o'z maqolasida intermatn terminini qo'llaydi, bundan tashqari matnlararo termin, tekstararo aloqalar kabi shakllari ham mavjud. M. Yo'ldoshev esa intertekstuallik termini hodisa mohiyatini, ya'ni matn ichida boshqa matn unsurlari tushunchasini aniqroq va to'liqroq aks etishini ta'kidlab o'tadi va biz ham shu termin umumjahon deb o'ylaymiz.

O'zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosining o'rganilishi Ma'rufjon Yo'ldoshev nomi bilan bog'liq. Uning "Matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik ishida badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim nuqtalardan biri intertekstuallik ekanligi aytib o'tilgan va uning turlari haqida alohida fikr yuritilgan[5]. Muhammadjon Xolbekov "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalidagi "Matn, intermatn va intermatnlik" nomli maqolasida intertekstuallikni tadqiq qilishning quyidagi uchta istiqbolli yo'nalishi mavjudligini aytadi:

1. Sinxroniyaga asoslangan tadqiqot, aniqroq qilib aytganda –matnlarni taqqoslash;

2. Diaxroniyaga asoslangan tadqiqot, ya'ni dalil keltirib isbotlash, asoslab berish modeli, turli matnlar modeli va lug'aviy birliklar kelib chiqishini aniqlab, matn yaratilish tarixini o'rganish;

3. Bitta, alohida olingan matnning har taraflama, konkret tadqiqoti, ya'ni boshqa matnlarning muayyan tilga oid xususiyatlarini aniqlash, bir-biridan ajratgan holda tasnifini tuzish [6].

D.Xudoyberganova "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini" nomli doktorlik dissertatsiyasining 4-bobida lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan presedent biliklarning matn yaratilishidagi o'rni haqida to'xtalgan.[7] Presedentlikni intertekstuallikning bir ko'rinishi, til egalari asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo'llanishi bilan xarakterlanishini qayd etgan. Biz ham bu fikrga qo'shilamiz. Presedent birliklar xalq assosatsiyasida mavjud bo'lgan lingvomadaniy birliklardir va ularga murojaat qilish bilan intertekstuallik hodisasi yuz beradi. Olima presedent birliklarni shakliy jihatdan presedent nom, presedent jumla va presedent matn kabi turlarga ajratgan, ularning har biriga badiiy matnlardan misollar ham keltirib o'tgan.

Yuqoridagi misoldan ham ko'rishimiz mumkinki, intertekst sifatida she'rdagi bir misradan foydalanilgan, ba'zi hollarda biror she'r, rivoyat, hikoya, tarixiy voqea, mashhur shaxs va boshqalarga ishora ham qilish mumkin. Bu yozuvchining ijodiy maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va o'quvchining lisoniy xotirasi ham katta rol o'ynaydi, chunki

yozuvchi intertekstdan foydalansa, lekin u hech kimga tanish bo'lmagan matn bo'lsa, muallif o'z niyatiga yetmagan bo'ladi.

Intertekstuallik hodisasining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inter – o'rtasida, orasida, tekst – matn, ya'ni matn ichida matn kelishidir. Matnlar orasida nafaqat yaxlit butun matn, balki uning parchasi yoki unga ishora qiluvchi birliklar uchrashi ham mumkin [8].

Bir guruh olimlar ushbu hodisani faqat adabiyotdan izlash kerak degan fikrni beradi, biroq intertekstuallik faqat badiiy matnda emas, balki ilmiy, publitsistik, siyosiy diskursda, shuningdek, reklama, kinometografiya sohasida ham o'z o'rniga ega. Demak, intertekstuallik barcha matnlarga xos universal semiotik hodisadir. Badiiy matnda intertekst sifatida afsona, rivoyat, hadis, aforizmlar, boshqa bir yozuvchining asaridan parcha, maqol, matal kabilar keng qo'llanadi. Intertekstlar o'z navbatida milliy-mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Badiiy matn muallifi ko'proq intertekst sifatida xalq ichida mashhur bo'lgan asardan parcha yoxud xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hadis, hikmatli so'zlardan foydalanadi. Shu bois ham matn ichidagi matn o'quvchi darrov tushunib oladi va matnda nima haqida gap ketayotganini mustaqil ravishda idrok qila boshlaydi. Intertekst sifatida berilgan matn yoki uning parchasi allaqachon o'quvchining lisoniy xotirasidan o'rin olgan bo'ladi [9].

M.Xomidovaning e'tirof etishicha, intertekstuallik mohiyatan chuqur hodisa, u shunchaki matn ichida boshqa matn parchasining berilishi emas, bu hodisa ostida ontologik, semiotik, semantik, lingvokulturologik, milliy-mental, etnik aloqadorlik mavjud. Intertekstuallik asarning g'oyaviy boyitish, uning vertikal kontekstni hosil qilish, implitsit mazmuni ifodalash, matnni konstruktiv va semantik jihatdan shakllantirish, shuningdek, uning mazmuniy persepitsiyasiga yordam berishi kabi vazifalari aniqlandi. Muallif uchun badiiy niyatni ta'sirchan ifodalash, qahramonlar xarakterini ochish, vaziyatga munosabat bildirish uchun intertekstual matnlar muhim bo'lsa, matn qabul qiluvchi retsipient uchun uning mazmuniy idrokiga yo'l ochadi[8].

Tahlil va natijalar. Intertekstuallik nafaqat badiiy, balki so'zlashuv, rasmiy, publitsistik, mediatarmoq uslubiga ham xos hodisa. Intertekst bo'lishi uchun kishilarning lisoniy xotirasida saqlangan mashhur asarlar yoki ularning qahramonlari, shaxs nomlari, tarixiy voqealar, Qur'on va hadis, folklor namunalari, xalq ertaklari, afsona, rivoyat, she'r, qo'shiq, badiiy asar parchalari, barqaror birikmalar, maqol, matal, latifalar, hattoki filmlardagi mashhur iborlarni kiritish mumkin. XXI asr fan, texnika elektronika rivojlangan davr hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar jadal sura'atlarda odimlab bormoqda. Fikrimizcha, ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur jumalardan ham intertekst sifatida foydalanilishi mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, intertekstuallik xalq tarixi, madaniyati va tafakkurini o'zida aks ettiruvchi lisoniy tushuncha hisoblanadi.

Badiiy matnlarda intertekst sifatida foydalanishning ham o'ziga xos usuli bor. Buni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin. Intertekst turlaridan foydalanish matn mazmunini o'zida ifodalashi, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarining yarq etib ko'zga tashlanish imkonini beradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, intertekstuallik bu kodlangan ma'noning o'quvchi tomonidan tushunilishidir. Shu bois ham intertekstlar oldindan keng omma uchun tanish matnlar bo'lishi kerak, aks holda matn tushunish jarayonida kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi. Intertekstning xalq ichida mashhurligi, uni o'qishi yoki eshitishi bilan o'quvchi ongida o'ziga xos reaksiya paydo bo'lishi nazarda tutilishi matnning kommunikativ muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biridir. Intertekstning badiiy matnda yana bir vazifasi mavjud bo'lib, ko'pincha bunday matnlar intertekst ishora qilayotgan matnlarga parodiya qilinadi. Ya'ni muallif o'zidan oldin

yaratilgan muayyan bir matnni yoki uning ichidan biror so'z yoki jumlani sarlavha sifatida qo'llab, o'z matnini ham o'sha asarga qiyosan yaratadi.

Xulosa va takliflar. Demak, intertekstlar kitobxonni matn mazmuni tomon yo'naltiradi, bunda har ikki matnni nazarda tutaymiz. Ya'ni avval kitobxon uchun tanish bo'lgan matn idrok qilinadi, undan keyin berilgan asl matn mazmuni bilan qo'shib idrok qilinadi. Bu holat o'quvchiga muallif niyatini, berilgan matnning g'oyasini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Intertekstuallik kompetensiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, u bir qancha omillarga bog'liq:

Lingvomadaniyat.

Tarix.

Assotsiatsiya bilan bog'liq.

Insoniyat taraqqiyotining bugungi qiyofasi, globallashuv tamoyillari asosida jadallik bilan umumiy, universal xususiyatlar kasb etib borayotgan zamonamizda o'zligini saqlab qolish, milliy qadriyatlarning ahamiyati, milliy-madaniy boyliklarning asl qiymatini bugun har bir millat to'laligicha anglab yetdi. Til milliy-lingvomadaniy

jamiyat taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu sifatida hamisha olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. O'tgan asrda boshlangan milliy o'zlikni anglash va uni saqlab qolishga intilish harakatlari zamirida tilga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, aniqrog'i, til tadqiqiga oid izlanishlar yangi rakursga ko'tarildi. Til o'zida jamiyatdagi voqelikni aks ettirishi bilan bir qatorda, bevosita uning ta'sirida o'zgarishlarga ham uchrab boradi. Ma'lum millatga xos xarakterni, uning mental qiyofasini aks ettirish barobarida u ba'zi manbalar bilan boyib borsa, ba'zi yo'qotishlarga ham yo'liqadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida intertekstuallik hodisasi dastlabki tadqiqotlarda tor planda o'rganilgan. Tadqiqotchi Xomidovaning badiiy matnni tushinishda intertekstuallikning roli doirasida olib borgan ishlari bir muncha mukammal hisoblanadi. Xususan, unda hodisa mohiyati, intertekst va uning turlari, persepsiyadagi ahamiyati aniq ko'rsatib berilgan. Intertekstuallik tadqiqi o'zbek tilshunosligida keng doirada o'rganishni talab qiladigan dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М., 2000. – С. 427-457
2. Барт. Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М., 1978. – С. 512.
3. Ильин. И. П. Постмодернизм: словарь терминов. – М., 2001. – С. 103.
4. Солодуб Ю. П. Интертекстуальность как лингвистическая проблема // Филологические науки. 2000. № 2. – С. 51-57.
5. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоетик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2010. Б. 114-121.
6. Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2013 йил, 6-сон. Б. 38.
7. Худайберганаева Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, ЎЗР ФА ТАИ, 2015. Б.87-93.
8. Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик. PhD. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2021. – Б. 29.
9. Xomidova. M. F. "The problem of intertextuality in modern linguistics." Central Asian Problems of Modern Science and Education 3.4 (2019): 259-263.



Gulshan MUSULMONOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: musulmonovagulshan@gmail.com

Filologiya fanlari doktori R.Zohidov taqrizi asosida

SIROJIDDIN SIDQIY ADABIY MEROSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada ma'rifatparvarlik adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Sirojiddin Sidqiy adabiy merosining o'rganilishi haqida fikr yuritdik. Tadqiqotimizda ko'plab adabiyotshunoslarning nazariy fikrlariga tayanildi, ularga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: Manbashunoslik, qo'lyozma, adabiy tanqid, tazkirachilik, toshbosma.

ИЗУЧЕНИЕ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ СИРОЖИДДИНА СИДКИ

Аннотация

В данной научной статье мы рассмотрели изучение литературного наследия Сирожиддина Сидкия, одного из выдающихся представителей литературы Просвещения. В своем исследовании мы опирались на теоретические мнения многих литературоведов и реагировали на них.

Ключевые слова: Источниковедение, рукопись, тезкире (поминание), сочинение, литературная критика.

STUDY OF SIROJIDDIN SIDQI LITERARY HERITAGE

Annotation

In this scientific article, we discussed about the study of the literary heritage of Sirojiddin Sidqi, one of the outstanding representatives of the literature of the Enlightenment. In our research, we relied on the theoretical opinions of many literary experts and reacted to them.

Key words: Source studies, manuscript, tezkire (memorialization), literary criticism.

Kirish. Sirojiddin Sidqiy iste'dodli shoir, yetuk xattot, tengi yo'q tarjimon, tabib, muhrdor va rassom sifatida mashhurdir. Shoirming asl ismi Sirojiddin Mirzohid o'g'li bo'lib, xalq orasida "Shavkat", "Shevan", "Shuun" nomlari bilan shuhrat qozonadi. Keyinchalik "Sidqiy", "Sidqiy Xandaqliqiy" taxallusi bilan ijod qila boshlagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "sidq" so'zi "rostlik", "to'g'rilik", "samimiylik", "sadoqat", "sodiqlik" ma'nolarida berilgan. Bu taxallusni Sirojiddin Farg'ona tomonlarda musofirlikda yurgan kezarida tanlaydi. Qolgan umrini sidqidillik bilan adolatga, ezgulikka bag'ishlashga ahd qiladi. Boshqa Sidqiylar bilan chalkashib ketmasligi uchun tug'ilib o'sgan qishlog'i nomini ham qo'shib, Xandaqliqiy deb atagan.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sirojiddin Toshkent viloyatining Xandaqliq qishlog'ida 1884 yilda tug'ilgan. 1903 yilda bilim olish maqsadida Toshkentga keladi. Dastlab "Rahmatulloh" (Kesakqo'rg'on), keyin "Beklar begi", "Ko'kaldosh" madrasalarida tahsil olgan. 1919 yillardan to vafot etgunicha, ya'ni, 1934 yilgacha Parveztepa qishlog'ida yashagan. Yozuvchi va jurnalist A.Asilov 1979 yilda "Sharq yulduzi" chop etilgan maqolasida shunday yozadi: "Afsuski, uning ko'pgina asarlari, ayniqsa, yigirmanchi yillardan to umrining oxirigacha bo'lgan ijodiy merosi noma'lum holda qolmoqda, Pargizdagi kuyovi Obid aka va qizi Homiya opaning xotirlashicha, Sidqiy 20 yillarning boshlarida asarlarini Toshkentga olib borib topshirgan. Shundan keyin Pargizda juda barakali ijod qilgan. To'satdan vafot etganda shoirming yostig'i ostidan va ijodxonasidan "bir quchoq" qo'lyozmalar topilgandi. Bu Sidqiy Xandaqliqiyning yigirmanchi yillardan tortib to umrining oxirigacha qilgan mashaqqatli mehnatining mevasi edi. Yorug'lik yuzini ko'rmagan shu asarlar 30 yillarning tashvishli kunlarida izsiz yo'qoldi"[7] Adibning qolgan barcha asarlarining qo'lyozmasi O'z FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida

saqlanadi. Qo'lyozmalarining to'liq saqlanishida shoirming shogirdi A.Nosirovning xizmatlari juda kattadir. Sidqiy Xandaqliqiyning vafotidan keyin, Xandaqliqqa borib, ustozdan qolgan xattotlikka doir asbob-anjomlarni, uning qo'lyozma va toshbosma asarlarni qopga solib, yelkasiga ko'tarib, piyoda uyiga olib kelgan ekan. 1946 yilda esa O'zRFA Sharqshunoslik institutiga topshirib, ustozga nisbatan bo'lgan izzat va hurmati tufayli qo'lyozmalarni o'z qo'li bilan Davlat inventar daftariga qayd etib, toshbosmalarni ham qo'lyozmalar qatoriga tirkab qo'ygan ekan. Bu bilan u ustoz arxivi sochilib ketmay, bir yerdan jam bo'lib turishini ko'zlagan ekan [8]. Olim o'z xotiralarida quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: "Domlamning vafotidan keyin ushbu institut katta ilmiy xodimi, Sidqiyning shogirdi – ya'ni, men Abdulla Nosirov Pargiztepa qishlog'iga borib hamma narsalarni, shu jumladan, kitoblarni olib kelib rasmiylashtirganman. Hammasi 35 ta har xil kitoblarni, papkalar, ma'lumotlar. Inventar nomerlari: inv.№629, inv.№7632, inv.№7629-7664, inv.№7648, inv.№9569"[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, statistik va biografik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Sirojiddin Sidqiy adabiy merosining o'rganilishi o'zi yashagan davrlardan boshlangan. O'sha davrlarda yaratilgan bir qator tazkiralarda shoir haqida ma'lumotlar berilgan. 1945-1948 yillarda yozilgan Mo'minjon – Toshqinning "Toshkent shoirlarining tarjimai hollari" tazkirasida Sidqiy hayoti va ijodi, adabiy merosi, adabiy davrasi haqida ma'lumotlar berilgan. Toshqinning ma'lum qilishicha, tabiatan g'oyat zakiy bo'lgan bu shoir Mullo Qo'shoq Miskin bilan juda ahil bo'lib, ular "Ko'kaldosh"dagi Akmalxon domla qo'lida tahsil olgan ekanlar. So'ng Sidqiy "Beklarbegi"da Abdulmalikhoji Oxund qo'lida tahsil olgan. Miskinning "Devonbegi" mahallasida tog'asi Hoshim novvoy

ochib bergan baqqollik do'konida shoirlar tez-tez yig'ilib turganlar [2].

Sirojiddin Sidqiy tarjimayi holi va ijodiga oid muhim qo'lyozma manbalardan yana biri o'z davrining yetuk olimi Murodxo'ja Solihiy qalamiga mansub. Murodxo'ja Solihiyning ushbu ma'lumotnomasi Muhammad Solih Qoraxo'ja o'g'lining "Tarixi jadidai Toshkand" asariga ilova qilingan.[8] Unda muallif o'z davrida ijod qilgan Toshkent va Toshkent atroflarida yashab, ijod qilgan 16 adib haqida ma'lumotlarni kitobga kiritib qo'yadi. Shunday ijodkorlardan biri Sirojiddin Sidqiydir. "Sidqiyning otasi Xandaqliqda bolalarni o'qitadug'on domla edi. Sidqiy avval Kesakdo'rg'on mahallasidagi madrasada Shohmuhiddin Oxund domlada Sharhimullagacha dars olgan. Keyinchalik Shohmurod kotibda xat mashqini kamolga yetkazib, so'ngra "Beklar begi" madrasasiga kelib, Bahodirxon domla bilan Abdulmalik hoji domlalarida tahsil ko'rgan, – deb yozadi olim. [8] Ma'lumki, Murodxo'ja domla 1909-1910 yillarda Shayx Sa'diyning "Guliston" nomli kitobini "Shavqi Guliston" nomi bilan tarjima qiladi. Sidqiy ushbu tarjimini nashr uchun tayyorlaydi, matbaa uchun kitobat qilib yozib, chetlarini rasmlar bilan bezaydi. Bu haqida Murodxo'ja Solihiy shunday yozadi: "Va Murodxo'ja domla bilan forsiy tildagi aruz ilmlaridan mukomala qilib..., Shayxi Sa'diyning "Guliston" nomli kitobiga qilgan tarjimasini matbaa uchun kitobat qilib yozib, rasmlarini ham chizdi. "Shavqi Guliston"ni hoshiyasida yozgan Sidqiyning munojati ham tahsinga loyiq hisoblanadi [8]. Murodxo'ja domlaning yozishicha, o'zining Beklarbegi madrasasidagi hujrasida Sayidahmad Vasliy, Yusuf Saryomiy, Turkistonlik A'lam G'urbatiy, Abdulla Qodir Koshg'ariy, G'oziy, Kamiy, Xislat va Sidqiylar kabi shoirlar jam bo'lib, mushoiralar o'tkazishgan.

Po'lotjon Qayyumiy "Tazkirai Qayyumiy" tazkirasida ham Sidqiy haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Tazkirai Qayyumiy" 1960 yillarda yozilgan. Manbaning to'rtinchi daftarida Sidqiy haqida shunday fikrlar bor: "Bu kishi qaydan ekani ma'lum bo'lmasa ham Toshkandda nash'u namo etgani ma'lum. Nomi Mullo Sirojiddin bo'lub Muhammad Zohid domullaning o'g'li bo'lganidin Sirojiddin Mahdum deb o'zini ko'rsatadur. Toshkandli mashhur mullo Shoh Murod kotibdin keyin bu kishi turadur. Mulla O'tab esa bundan keyindir. Toshkandda litografiya bosmaxonalarida bosilgan ko'p bayoz va boshqa kitoblar bu kishining qo'lidan vujudga kelmish va zavar topmish...Adabiyotimizga qalami bilan ham, fikri ijodi bilan ham xizmat etmish shoirdur, deydi.[9] Muallif tazkirada ko'proq shoirning xattotlik faoliyatiga e'tibor qaratadi. Ammo tazkiradagi ma'lumotlariga qaraganda, muallif shoirni shaxsan tanimagan va u bilan hamsuhbat bo'lmagan, adib haqida o'zi eshitgan ma'lumotlari bo'yicha fikrlar bildirgan [9].

Sidqiy hayoti va ijodiga oid to'liqroq manbalardan biri adibning eng sevimli va sadoqatli sadoqatli shogirdi Abdullo Nosirov tomonidan jamlangan materiallardir. Biz Sidqiy hayoti va ijodini Abdullo Nosirovsiz tasavvur eta olmaymiz. Sakson yetti yosh umr ko'rgan bu tabarruk otaxon domlasiga daxldor har neki topsa ko'z qorachig'iday avaylab-asragan, yo'qolib ketmasligi uchun rasmiylashtirib qo'ygan [1]. Yozuvchi A.Asilovning aytishicha, Abdullo Nosirov shu materiallardan bir nusxasini unga topshirgan ekanlar. Bu to'plamda Sidqiyning tashqi ko'rinishi, ustozlari, shogirdlari, o'qigan madrasalari, shoir istiqomat qilgan joylari, asarlari va ularning bosilgan yili kabilari haqida ma'lumotlar berilgan.

A.Nosirov barcha to'plagan materiallari asosida "Toshkent olimlari va shoirlari" nomli VI jildli tazkira ham yaratadi. 13407-invetar raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozmaning 361-380-betlari Sirojiddin Sidqiyga bag'ishlangan. Muallif Sidqiyning tarjimayi holi, oilaviy ahvoli, yashash tarzi, ustozlari, va shogirdlari, asarlarining qo'lyozmalari haqidagi barcha ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Shuningdek, shoir haqida nashr etilgan davriy matbuot materiallarini ham bir joyga jamlagan. A.Nosirov ustoz haqida o'zi ko'rgan-kechirgan voqealarni eslab, shunday yozadi: "Oktyabr to'olonidan so'ng Parveztepa qishlog'ida yashay boshladilar. Unda bir uy, bir ayvon va bir hujrachalari bor edi. Hovlilarning hammasiga har gullar ekardilar. Ikki-uch quti asalarilari hamda bir qirchang'i biyasi bor edi. Har yili yozda Parveztepaga borib, domlaning hujralarida 15-20 kunlar turib, suhbatlashib kitobxonlik qilardik. Domla oddiy, faqirona kun ko'rardilar. U kishi ta'magirlik, manmanlik, g'iybat, shikoyatga o'xshagan yomon fe'llarni yoqtirmas edilar. [1] Sidqiydan bizga fotosurat qolgan emas. Olim Sidqiyning ko'rinishini shunday tasvirlaydi: "Domlan yuzlari yapaloq, cho'tir bashara, burunlari puchuqsimon, past bo'ylik kishi edilar. Hislat ismli shoir do'sti Sidqiyning suratini oldirish uchun aldab-suldab gapga solib, Eski Jo'vadagi "O'zbekfoto"sining oldiga olib boribdi. Fotochiga ishora qilganida domlam bilib qolib, chap berib, ruxsolarini oldirmasdan ketib qolganliklarini shoir Xislatning o'zi menga aytib bergan edi[1]. Begali Qosimovning yozishicha, shoirning 1984-yilgi "Navbahor" to'plamiga chizilgan surat qarindoshlarining so'ziga qarab ishlangan edi[2].

Sidqiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar bir qator davriy matbuot nashrlarida ham aks etgan. Bu davrda ko'pgina ma'rifatparvar shoirlarimizga "millatchi", "jadid", "dinshunos" kabi ayblar bilan og'ir jazolarga tortilayotgan paytlar edi. Shoir ham 1919 yillardan boshlab o'ziga qilinayotgan nohaqliklar sababli Toshkentdan ketib, Bo'stonliq tumanidagi Parvez qishlog'ida yashayotgan edi. Yozuvchi Asad Asilov shoirning 1934 yil o'z ajali bilan vafot etgani – Ollohning o'zi uni bemavrid va nohaq azoblaridan asraganidir balki, deya yozgan edi[1]. Bu paytda shoir ijodiga matbuotda turlicha munosabatlar bildirila boshlangan paytlar edi. 1935 yilda Hamid Olimjon bir maqolasida: "Sidqiy Xandaqliqiy o'taketgan tavakkalchi, dinchi, ruhoniy. Butun ozodlik "haq rahmatining jo'sh urishi" keladi, deb o'ylaydi. Sidqiy Xandaqliqiy ochiq panisломist, islomni xristianlikka qarshi qo'yadi. U bu jihatdan milliy dushmanchiliknigina kuchaytiradi...Umuman, Sidqiy she'rlarining mazmuniga qaraganda uning boshdan-oyoq millatchilik, panturkistik va panisломistik qarashlari bilan to'yib sug'orilganligini ko'ramiz" [10], deb yozadi. Shuningdek, Hamid Olimjon "Fitratning adabiy ijodi haqida" maqolasida Sirojiddin maxsumni jadid, ijodini esa eski usuldagi ijod, deya baholagan."[6] Adabiyotshunos M.Solihov milliy uyg'onish davri adabiyotining bir qator vakillari So'fizoda, Abdulla Avloniy, Kamiy, Miskin, Tavallo, Sidqiy kabilarni millatchi shoir sifatida talqin etadi. [11] G'ulom Karimov tomonidan yaratilgan, 1966-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi"ning uchinchi kitobida Sidqiy Xandaqliqiy ko'pchilik safdoshlari qatorida "xalq dushmani"ga chiqarib qo'yilgan edi. Olim kitobda shunday yozgan edi: "Jadidlar vatan xoinlari edi. Ular ingliz-amerika imperialistlarining agentlari sifatida ish ko'rdilar...Jadid adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Tavallo, Sidqiy Xandaqliy va boshqalarni ko'rsatish mumkin". Sidqiy agar hayot bo'lganda yuqorida qayd etilgani kabi aybnomalar asosida u ham og'ir azoblariga giriftor etilishi aniq edi, albatta. [11] G'ulom Karimov keyinchalik o'z xatosini to'g'irlaydi. Sidqiy Xandaqliqiy tavalludining 100 yilligi yubileyida ishtirok etadi. Shu munosabat bilan 1984 yilda "Yoshlik" jurnalining 9-sonida "Zamon sadosi" sarlavhali maqolasi bilan chiqish qilib, unda shoirning haqiqiy vatanparvar, xalqparvar va haqiqatparvar insonligi, yuksak iste'dodli serqirra ijodkor ekanligi samimiyat bilan e'tirof etilgan. Olim adabiyotimizni ijtimoiy mazmun, ilg'or g'oyalar bilan boyitgan va uni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarishda jonbozlik qilgan shoirlardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Ulug' adibimiz Oybek Sidqiy ijodiga qiziqish bildirib, 1967-yilda yozilgan "Ulug' yo'l" romaniga Sidqiy obrazini kiritgan. Yozuvchi Sidqiy asarda shunday tanishtiradi: "Shoir Sidqiy Maxsum Iskandardan (Toshkentning shimoli-sharqida Chirchiq daryosi bo'yida joylashgan qishloqlardan biridir): kambag'al oilada tug'ilib o'sgan qattiqchilikda qiyalib o'qigan, keyin madrasaga joylashgan. Ko'p xor-u zorlik bilan madrasani tugatgan, Iskandarga qaytmasdan shaharda qolgan. Nazmda xiyla tuzuk, kalomi o'tkir, pishiq va hozirjavob shoir edi. O'rta bo'yli, muloyim ifodali, yuzlari burishiq, faqirona kiyingan, xushfe'l va xushmuomala kishi edi" [13] Romanda Sidqiy xalqparvar shoir sifatida tasvirlangan.

1960-yillardan boshlab Sidqiy nomi bir qator darsliklarida uchraydi. Birinchi marta "O'zbek adabiyoti" to'rt tomlik antologiyasi 1-jildida Shavkat hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot, asarlaridan namunalar beriladi. Sidqiy "o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri" ekanligi ta'kidlaydi. Sirojiddin Sidqiy hayoti va ijodiga oid birinchi maxsus maqola adabiyotshunos M.Zokirov tomonidan e'lon qilindi. Olimning 1967-yilda "Sharq yulduzi" jurnalida bosilgan "Sidqiy Xondayliqiy" maqolasi shoir ijodini xalqqa tanitish yo'lida birinchi qadamlardan bo'ldi. "Toshkent oqshomi" gazetasining 1968-yil 15-aprel sonida olimning yana bir "Shoir, olim, xattot va tarjimon" nomli maqolasi chop etildi. "Toshkent oqshomi" gazetasining aynan shu sonidagi "Adabiy merosimizdan" ruknida Sidqiy lirik asarlaridan namunalar berildi. Gazetadagi barcha materiallar adabiyotshunos M.Zokirov tomonidan tayyorlandi.

1980-yillardan boshlab Sidqiy ijodiy merosini o'rganishda yangi davr bo'ldi. Akad. N.Karimov, f.f.doktori A.Jalolov, prof. B.Qosimov, A.Nosirov, f.f.n. R.Javharova va A.Asilov kabi ziyolilar Sidqiy adabiy merosini bir joyga jamlash, qo'lyozmalarini o'rganish, hozirgi o'zbek yozuviga tabdil qilish kabi tadqiqotlar ustida ish olib bordilar. 1984-yilda adabiy jamoatchilik shoir tavalludining 100 yillik yubileyini, 1994 yilda esa 110 yilligini keng miqyosda nishonladi. 1984 yilda salkam 70 yillik tanaffusdan so'ng adib asarlari alohida bir kitob holida nashr etildi. Ayniqsa, XX asr boshi Toshkent adabiy muhitini va shu jumladan, Sidqiy ijodini o'rgangan filologiya fanlari doktori A.Jalolovning nomini alohida qayd etish kerak. A.Jalolov "O'zbek ma'rifatparvar demokratik adabiyoti", "XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti", "Inqilobiy o'zbek adabiyoti va Shavkat ijodi" kabi monografiyalarida Sidqiy lirik merosi, ma'rifatparvarlik adabiyotidagi o'rni kabi masalarga e'tiborini qaratgan.

Sidqiy ijodini o'rgangan olimlar orasida prof. B.Qosimovning o'ziga xos o'rni bor. 1984 yilda B.Qosimov so'zboshisi bilan ilk ilmiy nashr "Navbahor" nomli to'plami bosilib chiqdi. To'plamda shoir g'azallaridan, ijtimoiy lirik she'rlaridan, dostonlaridan namunalar berildi. 1998-yilda shoirning "Tanlangan asarlar" to'plami nashr qilindi. Kitobga shoirning "Sad irshodi mullo Sidqiy", "Zarbulmasali Sidqiy", "Devoni Sidqiy", "Tuhfai Shavkat", "Savg'oti Shavkat", "Mezoni shariat", "Iktisob" kabi qo'lyozma asarlaridan ham namunalar kiritildi. B. Qosimov ushbu kitob so'zboshisida shunday yozadi: "Qo'lingizdagi ushbu kitob Sidqiyning mustaqillik davrida chop etilayotgan birinchi kitobi. Undagi asarlarni tanlashda shoirning turli davrda yozilgan xilma-xil yo'nalishdagi va janrdagi asarlari haqida umumiy tasavvur berishga harakat qildik. Shunga ko'ra oz-ozdan bo'lsa-da, xilma-xil asarlaridan namuna berildi. Ularni tahlil qilishga shoshmadik. Nari borsa, yo'nalishini tilga olib, manbani ko'rsatish bilan cheklandik." [2] "Milliy uyg'onish adabiyoti"

darsligidagi "Sidqiy" maqolasining muallifi ham B.Qosimovdir.

1992-yilda Sidqiyning "Mezoni shariat" ("Shariat mezoni") kitobini tarix fanlari doktori Mahmud Hasaniy kirill alifbosiga tabdil qiladi. Ushbu asar so'zboshi va izohlari bilan birga 1992-yilda "Navro'z" nashriyotida 30000 nusxada nashr etiladi. "Men Sidqiy haqida avvalda bilsam ham, biroq uning asarlari bilan birinchi marta 1992-yilda to'qnash keldim. O'sha paytda "Saodat" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi rahbari Muhammadjon Rahimov o'z otasi Shotursun ota Shorahim o'g'li qo'lida saqlanayotgan Sidqiyning "Mezoni shariat" ("Shariat mezoni") kitobini olib keldi va otasi shu foydali kitobni nashr ettirishni o'g'lidan iltimos qilibdi", deb yozgan edi olim [16]. 1997-yilda olim H.Bobobekov, A.Quronbekov bilan birgalikda Sidqiyning Jomiy asarlaridan qilgan she'rlari tarjimasini A.Quronbekov tomonidan qilingan Jomiy asarlari tarjimasiga kiritib, qaytadan nashr qildirgan.

Sidqiy haqida qilingan ishlardan eng yaxshisi 1996-yilda olim A.R.Javharovanning "Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning adabiy merosi" nomzodlik dissertatsiyasi bo'ldi [6].

Sirojiddin Sidqiy tug'ilgan Xondayliq qishlogida tug'ilgan yozuvchi va jurnalist Asad Asilovning xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Yozuvchi umrining o'ttiz yildan ziyod vaqtini Sidqiy hayoti va ijodini o'rganishga sarflagan. Yozuvchining "Sharq yulduzi", "Guliston", "Jahon adabiyoti" jurnalarida bir qator maqolalari, 2008-yilda "Chirog'im men-Sidqiyman, Xondaqliqiyman! .." tarixiy, badiiy, publitsistik romani nashr yuzini ko'rdi. 2019-yilda "Sirojiddin Maxdum Sidqiy Xondayliqiy" romani, maqolalar, she'rlar to'plamini nashr ettirdi. Asad Asilov shoirning adabiy merosi hali to'liq o'rganilmaganligi haqida shunday kuyunib yozadi: "Sidqiy – shoir, tarjimon, noshir, xattot. Uning bu jihatlarini ko'pchilikka ma'lum; bosilgan yoki bosilmagan va notamom asarlari, tarjimalari va qayta-qayta ko'chirib nashr ettirgan kitoblari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Ammo Sidqiy Xondayliqiyning hamon ko'pchilikka noma'lum qolib kelayotgan va namunalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan ijod mahsullari borki, ularni ham kitobxonlar ommasiga yetkazish bu soha mutaxassislarining muhim burchidir. Xususan, Sidqiy tomonidan to'plangan xalq maqollari, qadimiy o'zbek so'zlari lug'ati, shoirlar, xattotlar, turli kishilar bilan yozishmalarini hali-hanuz qo'l tekkizilmagan xazinalar, deyish mumkin. Shuncha ishlar bajarilganligi bo'lsa-da, oldimizda shoir qo'lyozmalarini o'rganish, matniy jihatdan tadqiq qilish, hali to'liq o'rganilmagan asarlarini, jumladan, insho san'atining go'zal namunalaridan biri bo'lgan "Zarbulmasali Sidqiy" hamda xalq donishmandligining go'zal namunasi bo'lgan, pand-nasihahat ruhida bitilgan "Sad irshodi mullo Sidqiy" kabi asarlarini matniy-qiyosiy jihatdan o'rganish masalari turibdi." [15]

Xulosa va takliflar. Sirojiddin Sidqiy adabiyotning barcha sohalarida ijod qildi. Uning adabiy merosini xalqqa tanishtirishda ko'pgina olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Sidqiyning shogirdi Abdullo Nosirov bu ro'yxatning boshida turadi.

Sidqiy Xondaqliqiy ijodini yuzaga chiqarishda adabiyotshunos M.Zokirov, akad. N.Karimov, tarixchi olim Mahmud Hasaniy, filologiya fanlari doktorlari Abduhamid Jalolov, Begali Qosimov, yozuvchi va jurnalist A.Asilov, filologiya fanlari nomzodi Ramida Javharovalar nomini hurmat bilan tilga olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Asad Asilov. Sirojiddin Maxdum Sidqiy Xondaqliqiy. Toshkent. 2019.
2. Sidqiy Xondayliqiy. "Tanlangan asarlar". Toshkent. "Ma'naviyat. 1998.
3. Sidqiy Xondayliqiy. "Navbahor". To'plam. Toshkent. 1984.

4. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent. 2002 321-339-betlar.
5. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish - jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent. 2002. 324-342-bet.
6. Javharova R. S.S. Xondayliqiyning adabiy merosi. Dessertasiya. -T. 1996.
7. A. Asilov. Shoir Sidqiy Xandaqliqiy hayotidan lavhalar. "Sharq yulduzi" jurnali. 1979-6-son. 232-bet.
8. O'zR FA ShI, A. Nosirov fondi, 98 raqamli qo'lyozma, 2-3b.
9. Po'latjon Qayumov. "Tazkirai Qayyumiy". Toshkent. 1960. 354-356-bet.
10. Hamid Olimjon "Mukammal asarlar to'plami" 10-tomlik. 6-tom
11. Solihov M. B. O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari. T. 1933. 13-14-bet.
12. A. Asilov. Adolat mezonni "Guliston" jurnali 1994-yil 1-son
13. Oybek. "Ulug' yo'l" roman. Toshkent. 1977. 92-bet.
14. "O'zbek adabiyoti" 4 tomlik. 1-jild. 1960. 331-340-bet.
15. Asad Asil. "Chaqmoqdek chaqnagan hayot". "Sharq yulduzi" jurnali, 2014-yil, 4-son. 195-197-bet.
16. M. Hasaniy. Sidqiy Xandaqliqiy.



UDK: 420.152.32:008(045)

Utkir NORMUMINOV,
Teacher at the chair of Interfaculty English at the Karshi State University
E-mail: utkir.normuminov@gmail.com

SHAXS MADANIYATIDA KOGNITIV LINGVOMA'NAVIY VA LINGVOMADANIYATNING XUSUSIYATLARI VA FARQLARI

Аннотация

Keyingi yillarda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi haqida gumanitar yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar ko'p yozishmoqda. Bu tabiiy jarayon, chunki madaniyat inson va jamiyatning eng muhim ko'rsatgichi, belgisi bo'lsa, til esa inson va jamiyat hayotida muloqot vositasi sifatida eng zarur va muhim o'rin egallaydi. Mazkur maqolada lingvoma'naviy va lingvomadaniyatning ba'zi nazariy masalalari, ularga bog'liq bo'lgan tushunchalar hamda shaxs madaniyatida atov birliklarining milliy-madaniy o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Lingvo-ma'naviyat, lingvo-madaniyat, zamon, tizim, shaxs, jamiyat, kognitiv

ОСОБЕННОСТИ И РАЗЛИЧИЯ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ЯЗЫКОВОЙ КУЛЬТУРЫ В КУЛЬТУРЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В последние годы ученые, проводящие исследования гуманитарного направления, много пишут о взаимозависимости языка и культуры. Это закономерный процесс, ведь культура является важнейшим показателем и символом человека и общества, а язык как средство общения занимает самое необходимое и важное место в жизни человека и общества. В данной статье рассматриваются некоторые теоретические вопросы лингводуховности и лингвокультуры, связанные с ними понятия, а также национально-культурная специфика именной единиц в культуре личности.

Ключевые слова: Лингводуховность, лингвокультура, время, система, человек, общество, когнитивный

CHARACTERISTICS AND DIFFERENCES OF COGNITIVE LINGUISTIC AND LINGUISTIC CULTURE IN PERSONAL CULTURE

Annotation

In recent years, scientists conducting research in humanitarian direction have written a lot about the interdependence of language and culture. This is a natural process, because culture is the most important indicator and symbol of a person and society, and language occupies the most necessary and important place in the life of a person and society as a means of communication. This article discusses some theoretical issues of linguo-spirituality and linguo-culture, the concepts related to them, and the national-cultural specificity of noun units in personal culture.

Key words: Linguistic culture / linguistic spirituality, time, system, person, society, cognitive.

Since the end of the last century, in place of the dominant systemic-structural and static paradigm comes an anthropocentric, functional, cognitive and dynamic, which returned man the status of "measure of all things" and returned him to the center of the universe" [3]. The anthropocentric paradigm is a switch of interests researcher from objects of knowledge to the subject, that is, a person is analyzed in language and language in person.

In modern linguistics, within the framework of the anthropocentric paradigm, it develops a number of areas, we will focus on two - cognitive linguistics and linguoculturology. Cognitive linguistics studies language as a cognitive mechanism, playing a role in language coding and transformation. The goal of cognitive linguistics is understand how the processes of perception, categorization, classification and understanding the world, how knowledge is accumulated, what systems provide various types of activities with information.

Linguoculturology is a complex scientific discipline that arose at the junction linguistics and cultural studies, which studies the relationship and interaction of culture and language in its functioning and exploring this process as an integral structure of units in the unity of their linguistic and extra-linguistic content using systemic methods and orientation towards modern priorities, reflecting a new system of values [4].

Many experts note that cognitive linguistics and cultural linguistics are developing within the framework of one general scientific field - the cognitive federation of sciences (term by E.S.Kubryakova). The symposium of the Massachusetts Institute of Technology is considered the "birthday" of cognitive science, university in 1956, at which scientists came to the conclusion that there was a science the study of how we perceive, remember, learn, plan, and infer. Cognitive science is related to mathematics, logic, philosophy, anthropology and linguistics. Each component takes up Cognitive science has its own position and has a special significance. Present stage cognitive science reflects a stage in its development when the resolution of the mass of pressing problems of conceptual analysis are seen in the consistent study of linguistic manifestations activity of human consciousness [10].

The two mentioned directions of the anthropocentric paradigm (cognitive linguistics and linguoculturology) are characterized by the "language-person" dyad, an integrative approach to the study of language, the terms "concept" and "picture of the world". Let's take a closer look at these characteristics.

In cognitive linguistics, a concept is understood as "an operational meaningful unit of memory, mental lexicon, conceptual system and language of the brain (lingua mentalis), the entire picture of the world reflected in the human psyche"

[9]. From the point of view of cognitive linguistics, the concept is localized in consciousness: concepts are complex discrete units of consciousness, with the help of which the process of human thinking is carried out. Concepts act as storage units of human knowledge [13].

It is generally accepted in cognitive linguistics that concepts have linguistic objectification, that is, the expression of one or another by linguistic means language. Concepts are units of a conceptual system in their relation to linguistic expressions, they contain information about the world [12]. However, it is important to note that part of the conceptual information has a linguistic "binding", that is, the ways of their linguistic expression, but part of this information is represented in the psyche fundamentally in a different way, that is, by mental representations of a different type - images, pictures, diagrams, etc. " In linguoculturology the concept is thought of as a "cultural-mental-linguistic" formation, a kind of "clump culture in the human mind, that in the form of which culture enters the mental world of man, that "bundle" of ideas, concepts, knowledge, associations that accompanies a word [15].

It is almost universally accepted that the cultural concept is a multidimensional mental education [15, p. 41; 8, p. 129]. The connection between the linguocultural concept and verbal means of expression are also noted in almost all linguistic and cultural definitions (cf.: "a significant image reflecting a fragment of the national picture world, summarized in words" - [11, p. 81]; "any discrete unit of collective consciousness, which reflects the subject of the real or ideal world and is stored in national memory of the language in a verbally designated form" - [2, p. eleven]). The above the dyad of the anthropocentric paradigm "language - man" is transformed into linguoculturology into the construction "language - man - consciousness - culture".

Recently, there has been a tendency to distinguish between the cognitive concept and linguistic and cultural concept. For example, G. G. Slyshkin reduces these differences to the following:

"1) for a cognitive scientist, one concept corresponds to one linguistic unit; For linguoculturologist, the concept has the property of polyappealability, that is, it can must be implemented using a number of language units;

2) for a cognitive scientist to everyone the word has its own concept; for a cultural linguist, the names of concepts are a limited number of culturally significant units (concepts are only abstract essence)" [14]. E.V.Babaeva believes that the linguocultural concept acts as that structure consciousness, in which the values of society are fixed. Linguoculturology strives establish the value guidelines of society [1]. S. G. Vorkachev writes about this: "Linguocognitological studies have typological orientation and focused on identifying general patterns in formation of mental representations. The interest of linguoculturologists focuses on studying the specific in the composition of mental units and is aimed at cumulative and a systematizing description of the distinctive features of specific cultural concepts" [3].

Thus, it is the value side of the cultural concept that distinguishes it from cognitive concept. Cognitive linguistics seeks to identify types of concepts: schema, frame, script, etc. The result of linguistic and cultural research is dictionaries, but not of words, but of concepts - fundamental concepts of culture (values) [15]. IN.I. Karasik characterizes such dictionaries in the article "Ethnospecific Concepts" [7].

There are also differences in the structure of cognitive and linguocultural 3 concepts. In cognitive studies, a field model of the concept is known, according to of which the concept consists of a core - prototypical layers, the primary most vivid images;

periphery - abstract features; interpretive field - conclusions from different cognitive signs [13, p. 12-16]. V.I. Karasik suggests considering cultural concept as a multidimensional semantic formation in which conceptual, figurative and value sides. Figurative side - these are the visual, auditory, tactile, taste characteristics of objects, phenomena, events that are reflected in our consciousness in one form or another. Value side of the concept characterizes the importance of this education, both for the individual and for team [8].

Linguistics at the end of the twentieth century was marked by the introduction of apparatus of the term "picture of the world". The picture of the world is a holistic image of the world, developing into the human head in the process of cognitive activity.

The term "picture of the world" can be considered in a narrower sense: it is all a body and system of knowledge in a particular science that captures a holistic vision subject of a given science, which is formed at a certain stage of its history and changes with transition from one stage to another (that's why there are terms like "biological picture of the world", "physical picture of the world", "linguistic picture of the world", etc.) [12].

In cognitive linguistics studies, it is common to distinguish between the linguistic picture the world and the conceptual picture of the world and the generally accepted position is that there is a discrepancy of these paintings, while emphasizing the globality and volume of the latter. The conceptual picture of the world is a phenomenon more complex than the linguistic picture of the world, which is secondary to the conceptual picture of the world: the national language "lives" in the conceptual sphere [5].

Linguoculturologists, within the framework of a comprehensive understanding of values in language, offer consider the value picture of the world. When studying the value picture of the world in language Representatives of linguoculturology take into account the following provisions:

- the value picture of the world in language includes universal and specific parts;
- the value picture of the world in language is reconstructed in the form of interconnected evaluative judgments correlated with legal, religious, moral codes, generally accepted judgments of common sense, typical folklore stories;
- the value picture of the world within one linguistic culture is heterogeneous education, since different social groups may have different values;
- the value picture of the world exists both in the collective and in the individual consciousness [6, p. 5].

The presented theoretical review shows that cognitive linguistics and Linguoculturology reveals, on the one hand, similar features: an integrative approach to language, maximum attention to the dyad "language - person", desire for research concepts and pictures of the world. On the other hand, the fact of the distinction between these concepts is obvious.

REFERENCES

1. Sh.M. Mirziyoev. Together we will build a free and prosperous, democratic country of Uzbekistan. - Tashkent: "Uzbekistan", 2016.
2. Hymes D.H. Objectives and Concepts of Linguistic Anthropology// The Teaching of Anthropology. University of California Press, 1963. - C.277.

3. Duranti A. Linguistic Anthropology. Cambridge University Press, 1992. — C.3.
4. Karasik, V. I. Cultural dominants in language / V. I. Karasik // Language personality: cultural concepts: collection. scientific works - Volgograd; Arkhangelsk, 1996.
5. Popova, Z. D. To the problem of unification of linguocognitive terminology / Z. D. Popova, I. A. Sternin // Introduction to cognitive linguistics. - Kemerovo, 2004.- Issue. 4.
6. Teliya V.N. Primary objectives and methodological problems of studying the phraseological composition of language in context of culture. Phraseology in the context of culture. M.: Languages Russian culture, 1999.10. Kubryakova, E. S.
7. Initial stages of the formation of cognitivism: linguistics, psychology, cognitive science / E. S. Kubryakova // Questions of linguistics. - 1994. - No. 4.
8. Boas F. Introduction to the Handbook of American Indian Languages. Washington: DC, Georgetown Univ. Press 1966.
9. Pimenova, M. V. Preface // Introduction to cognitive linguistics/ M.V.Pimenova. - Kemerovo, 2004. - Issue. 4.



Yorqin NURMATOV,
Oriental universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: nurmatovyorkin@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, PhD. L.A. Sultanova taqrizi asosida

HISTORICAL ORIGIN FORMING OF ACUPUNCTURE AND ITS TERMINOLOGY.

Annotation

The theory of traditional Chinese medicine is totally different from that of modern medicine and has a unique system of its own. Some of the terms are rather difficult to express in other languages, nor is it easy to find an exact translation of the original. Some words that convey the concept of the Chinese terms convey it only in part.

3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T., Ma'naviyat, 1998. –304 b.
4. Азизходжаева Н.Н. Основные тенденции развития высшего педагогического образования в Узбекистане / Под ред. В.А.Сластенин. – Т., “Фан”, 1990. – 143 с.
5. Давлетшин М.Г. Особенности психологической работы с эмоциональной сферой в юношеском возрасте (Методическое пособие для практических психологов) Тошкент, «Узбекистон» 2002 г, 20 с.
6. Mahmudov Yu., Mirzaev F. Pedagogik mahorat – oliy ijodkorlik Xalq ta'limi jurnali. – Toshkent, 1999. – № 6.–B. 57-60.
7. Gadamer G. Istina i metod: Osnov filososfskoy germenovtiki. (Per. snem)/ GansGeorg Gadamer. – M.: Progress, 1988.
8. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. “O'zbekiston”, 2007.
9. <https://president.uz/oz/pages/view/strategy>
10. library.ziyounet.com



UDK: 372.881.1

Hafiza RADJABOVA,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xorijiy tillar markazi boshlig'i
E-mail: radjabovahafiza@gmail.com

O'zDJTU pofessori, f.f.d. D.Bahronova taqrizi asosida

XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH SOHASI TERMINOLOGIYASIDA ABBREVIATURALAR TADQIQI

Аннотация

Maqolada xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminologiyasida qo'llaniladigan abbreviaturalar, ularning qisqartirish usullari orqali guruhlarga bo'linishi, ulardan foydalanishda qulaylik bilan bir qatorda tushunmovchiliklarning ham paydo bo'lishiga oid tahlillar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, tilshunos olimlarning terminologiya va abbreviaturaga oid qarashlari tahlil qilinib, fikrlar umumlashtirilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Abbreviatura, initsial abbreviatura, akronimlar, termin, terminologiya, ko'p komponentli so'zlar.

ИЗУЧЕНИЕ СОКРАЩЕНИЙ В ТЕРМИНОЛОГИИ БЕЗОПАСНОГО ТУРИЗМА

Аннотация

В статье проанализированы аббревиатуры, используемые в терминологии сферы безопасного туризма, их разделение на группы по способам сокращения, а также удобство их использования, а также возникновение недоразумений. Кроме того, анализируются мнения лингвистов относительно терминологии и сокращений, обобщаются мнения и даются выводы.

Ключевые слова: Аббревиатура, инициальная аббревиатура, акронимы, термин, терминология, многокомпонентные слова.

STUDY OF ABBREVIATIONS IN SAFE TOURISM TERMINOLOGY

Annotation

The article analyzes the abbreviations used in the terminology of the safe tourism sector, their division into groups according to abbreviation methods, as well as the ease of their use, as well as the occurrence of misunderstandings. In addition, the opinions of linguists regarding terminology and abbreviations are analyzed, opinions are summarized and conclusions are given.

Key words: Abbreviation, initial abbreviation, acronyms, term, terminology, multi-component words.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish hamda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini kengaytirish maqsadida Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida sayyohlik faoliyati xavfsizligini samarali ta'minlash va sayyohlik xizmatlari ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23- noyabrda 939-son qaroriga qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq tashkil etilgan Ichki ishlar vazirligining Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari tuzilmalarida xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmalari faoliyati tashkil etilib[11], ushbu soha xodimlariga xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirish bilan bir qatorda, sohada qo'llaniladigan terminologiyaning tadqiqini amalga oshirish ham muhim sanaladi. Terminologiyaning rivojlanishi biror bir soha taraqqiyotini aks ettirarkan, yangi terminlar lug'at fondini boyishi va umunxalq tilida faol ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Ingliz va o'zbek tillarida soha terminlari tadqiqi shuni ko'rsatdiki, to'plangan materillar ichida qisqartma shakldagi terminlar ancha faol. Ma'lumki, sohalarda abbreviaturalar (qisqartma terminlar)ning qo'llanilishi foydalanuvchilar uchun qulaylik tug'dirishi bilan bir qatorda, biroq tushunmovchiliklarni ham yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminlaridagi abbreviaturalarning tadqiqida tarjima usullarining 4 usuli qamrab olindi:

mamlakat tilining funksional xususiyatlarini inobatga olib tarjima qilish;

so'zma - so'z tarjima;

transkripsiya orqali, ya'ni original tilning asosiy manba sifatida olinishi;

neologizm yaratish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nishonovga ko'ra, "tilshunoslikda shunday til hodisalari mavjudki, ular apokopa, ellipsis, aferizis va sinkopa deb nomlanib, abbreviatsiyaga yaqin lingvistik universalialar hisoblanadi. Nazariy jihatdan chuqur tahlillar olib borilmaganligi sabab, abbreviatsiyaning obyektini hisoblanmaydigan birliklarni ham qisqartmalar deb nomlash ko'zga tashlanadi"[1]. Soha terminlariga oid qisqartmalar ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida kalkalash orqali amalga oshirilgan hamda ulardagi ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan terminlar qisqartirilgan va ular asosan ot so'z turkumiga mansubdir. Soha terminlarining ingliz tilidagi tahliliga ko'ra, abbreviatura va uning turlari hisoblangan akronimlar va inisial abbreviaturalar keng foydalanilishi kuzatilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi soha terminlarida esa abbreviaturalar va akronimlar ancha faol. Terminolog D.S. Lottening ta'biri bilan aytganda, terminlarning qisqaligi va lo'ndaligi unga qo'yilgan talablarning asosiysi hisoblanadi[2]. Ingliz terminologiyasi qisqartmalardan foydalanishni so'z yasashning qulay usuli sifatida targ'ib qilayotgan bir vaqtda, o'zbek terminologiyasida qarash butunlay boshqacha. A.Hojiyev abbreviaturaga nisbatan fikrini yoritir ekan, abbreviaturalar yangi so'zlarni yasash uchun xizmat qilmasligi, u shunchaki ko'p komponentli so'zlarning qisqartmasi ekanligi, ularni yoyish orqali yana o'sha so'z birikmasi paydo bo'lishini ta'kidlaydi[3]. Bizningcha, qisqartmalar orqali yangi so'z

yasalmas ekan, uni so'z yasovchi hodisa sifatida ta'kidlash noo'rin.

D.Mahkamovaga ko'ra, abbreviatura sifatida o'zlashtirilayotgan so'zlarning garchi kengaytirilgan shakldagi variantlari bo'lsada, ularni boshqa so'zlarda qabul qilinishida tarjimalarsiz foydalanilayotganligi ham haqiqat. Bunga ingliz tilidan o'zlashgan PR terminini misol qilish mumkin[14].

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz tillari soha terminologiyasida qo'llanilgan abbreviaturalar asosan quyidagi guruhlar orqali qisqartirilgan.

1. so'zdagi ma'lum bir qismning tushirib qoldirilishi orqali:

pol (police) – politsiya;
arr. (arrival/arrives) – yetib kelish;
bkg – booking (reservations; various companies) – buyurtma berish, oldindan band qilish;

PAX – (passenger) – yo'lovchi;
SITREP (situation report) – vaziyat bayoni;
MAJ (major) – mayor;
CIVPOL (civilian police) – fuqaro politsiyasi;
WARNORD (warning order) – ogohlantirish buyrug'i;

2. inisial abbreviaturalar (ikki va undan ortiq birikmali so'zlarning bosh harflarini alohida talaffuz qilish) orqali:

AGM – annual general meeting- yillik umumiy hisobot yig'ilishi;

TG (task group) – tezkor guruh;
RJ (road junction) – yo'l kesishmasi;
XO (executive officer) – shtab boshlig'i;
WTO (World Tourism Organization) – Jahon turizm tashkiloti;

SF (security force) – xavfsizlik kuchlari;
LTO (Local Tourism Organisation) – mahalliy turizm tashkiloti;

WTM (World Travel Market) – Jahon sayohat bozori;

3. akronimlar (abbreviaturaning bir turi bo'lib, ko'p komponentli so'zlarning bosh harflarini qo'shib, mustaqil leksema sifatida o'qilishi) orqali:

PA (public address system) – ovoz kuchaytiruvchi karnay;

APEX (Advanced Purchase Excursion) – oldindan sotib olingan arzon chipta;

AWOL (absence without leave) – xizmat joyini ruxsatsiz tark etish;

LOS / LoS (Length of Stay) – qolish muddati;

MICE (Meetings, Incentive Travel, Conventions and Exhibitions) – konferensiya, forum, kongress, ko'rgazma, seminar va anjumanlar (MICE) turizmi;

FAM (Familiarization Tour) – tanishuv sayohati;

FIT (Foreign Independent Traveler) – xorijiy mustaqil sayyoh;

WO (warning order) – ogohlantiruvchi buyruq;

INTERPOL (International Criminal Police Organization) – xalqaro jinoyat politsiya tashkiloti;

OPLAN (operation plan) – operatsiya rejasini;

E-FIT (Electronic Facial Identification Technique) – yuzni elektron identifikatsiya qilish texnikasi;

AIM (Association of Independent Museum) – Mustaqil muzeylar uyushmasi;

OTA (Online travel agency) – onlayn sayohat agentligi;

SPINS (special instructions) – maxsus ko'rsatmalar;

SOG (special operations group) – maxsus operatsiyalar guruhi

4. aralash abbreviaturalar orqali:

C. –in – C. (Commander in chief) – Bosh qo'mondon;

TSOP (tactical standing operating procedure) – doimiy yo'riqnomasi;

PIO (public information officer) – ommaviy axborot vositalari xodimi;

PDS (personnel daily summary) – xodimlarning kundalik hisoboti;

OP (observation post) – kuzatuv posti;

OH (on-hand) – naqd pul;

IP (initial point) – boshlang'ich nuqta;

LTC (lieutenant-colonel) – podpolkovnik

LTG (lieutenant-general) – podpolkovnik

AIEST (International Association of Scientific Experts in Tourism) – Turizm bo'yicha xalqaro ilmiy ekspertlar assotsiatsiyasi;

ARR (average room rate) – o'rtacha xona narxi;

ATW (around the world) – dunyo bo'ylab;

B&B (bed and breakfast) – mehmon uylari va mehmonxonalarda taqdim etiladigan xizmat turi (tunashga joy va ertalabki ovqatni o'z ichiga oladi);

b/s (bags) – yuklar;

CTT (Council for Travel and Tourism) – Sayohat va turizm kengashi;

ITX (Inclusive tour fare) – Inklyuziv sayohat narxi;

IUOTO (International Union of Official Travel Organizations) – Rasmiy sayohat tashkilotlarining xalqaro ittifoqi

PG (paying guest) – ijarada yashovchi;

R & R (rest and recreation) – dam olish;

LZ (landing zone) – qo'nish joyi (zonasi);

TPA (Tourism Promotion Agency) – Turizmni rivojlantirish agentligi;

CRS (Computerised Reservation System) – Kompyuterlashtirilgan bron (band) qilish tizimi;

F&B (Food and Beverage) – oziq-ovqat va ichimliklar taklif qiluvchi xizmat turi;

NGO (Non-Government Organisation) – nodavlat tashkilot;

PS (Police Station) – Politsiya mahkamasi;

PO (Police Officer) – politsiya ofitseri;

SP (security police) – xavfsizlik politsiyasi;

STO (special technical operations) – maxsus texnik operatsiyalar;

WIA (wounded in action) – harakatda yaralangan;

LE (law enforcement) – huquqni muhofaza qilish;

LEA (law enforcement agency) – huquqni muhofaza qilish organi;

ES (emergency services) – favqulodda xizmatlar.

O'zbek tili soha terminologiyasi tadqiqiga ko'ra, abbreviaturalarning qo'llanilishi ingliz tiliga nisbatan ancha kam miqdorni tashkil etadi.

aparthotel – xonalarida uncha katta bo'lmagan oshxonasi ham bo'lgan mehmonxona;

botel – suzib yuruvchi mehmonxona;

ekotur – ekologik tur;

avialiniya – havo yo'llari;

agroturizm – agronomik turizm;

turagent – turizm agenti;

turviza – turistik viza;

turpaket – turistik paket;

ekosafari – hayvon va baliq ovlarini amalga oshiruvchi turizm turi;

etnoturizm – etnografik turizm;

turbroker – turizm brokeri;

ekoturizm – ekologik turizm .

Solishtirilayotgan tillarning har ikkalasida ham bosh harflar yig'indisidan tashkil topgan abbreviaturalar ancha unumli qo'llanilib, ingliz tilida xarfning alohida talaffuz qilinishi xarflarni qo'shib o'qilishiga ko'ra ancha faol bo'lsa, o'zbek tilida esa so'zdagi ma'lum bir qismning tushirib qoldirilishi orqali yasalishi faol.

Xulosa. Soha terminologiyasida faol qo'llaniladigan abbreviaturalar tejamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Shu sababli abbreviaturalarga mustaqil so'z sifatida emas, shunchaki

mustaqil so'zlardan iborat birikmalarning qisqartmasi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Umuman olganda, abbreviaturalardan foydalanishning sababi tildan foydalanishda unumlilik va kommunikativ funksiyalar

samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tahlil qilingan sohaga oid abbreviaturalar shuni ko'rsatdiki, ulardagi ko'p komponentli birikmalarda asos so'nggi termin ekanligi ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фан. ном...дис. автореф. Т.: 2009. б.14
2. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. М., 1961. С.18.
3. А.Ҳожиев. Термин танлаш мезонлари. Тошкент.Фан, 1996, Б. 23-25. 160
4. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. 2-қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Тошкент, 1999. 10 б.
5. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 176 б.
6. Аликулов З.А. Аббревиатуры в узбекском языке: Автореф. ... дис. канд. филол. наук. Ташкент, 1976. 23 с.
7. Ахманова О.С. Терминология лингвистическая. Лингвистический энциклопедический словарь. 1990. Москва, С. 509.
8. Дониёров Р. Ўзбек лексикографиясининг муҳим бир масаласи хусусида. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1981. № 6 32-37 б.
9. Ханпира Э.И. О терминах и терминологии. Русский язык в национальной школе. М., 1985. №4. с. 11-18
10. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик- семантик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дис. Тошкент, 2007.
11. “Вухоро, Самарқанд, Хива ва Шаҳрисабз шаҳарларида хавфсиз туризмни та’минлаш чора-тадбирлари то’ғ’рисида” О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI 23.11.2017 yildagi 939-son. Lex.uz
12. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фан. ном...дис. автореф. –Т.: 2009. –Б.14
13. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. –М., 1961. – С.18.
14. Д. Маҳкамова Терминологик тизим модернизациялашуви



УДК:811.113:512.133+87'1 (575.1)

Гулфия РАХИМОВА,
Старший преподаватель Национальный университет Узбекистана
E-mail: goulfiyarakhimov@mail.ru

Основываясь на рецензии д-р филол. наук. проф. А Якубова УзГУМЯ

EMOTIONAL ASPECTS OF COLOR VOCABULARY (COMPARATIVE ANALYSIS OF FRENCH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES)

Annotation

This article is devoted to color vocabulary in language, which is an important aspect of cultural and emotional expression. This article analyzes the emotional aspects of color vocabulary in French, Russian and Uzbek languages, revealing their influence on the perception and transmission of emotions in various linguistic and cultural contexts.

Key words: Emotional semantics, lexical repertoire, color vocabulary, cultural context, emotional associations, comparative analysis, coloristics, linguoculturology, color semantics.

ЭМОТИВНЫЕ АСПЕКТЫ КОЛОРИСТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАНЦУЗСКОГО, РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

Данная статья посвящена колористической лексике в языке, которой является важным аспектом культурного и эмоционального выражения. Работа анализирует эмоциональные аспекты колористической лексики в французском, русском и узбекском языках, раскрывая их влияние на восприятие и передачу эмоций в различных языковых и культурных контекстах.

Ключевые слова: Эмоциональная семантика, лексический репертуар, цветовая лексика, культурный контекст, эмоциональные ассоциации, сопоставительный анализ, колористика, лингвокультурология, семантика цвета.

KOLORISTIK LEKSIKANING EMOTIV ASPEKTLARI (FRANSUZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARINING QIYOSIY TAHLILI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola madaniy va hissiy ifodaning muhim jihati bo‘lgan tildagi rang lug‘atga bag‘ishlangan. Ushbu ilmiy ishda fransuz, rus va o‘zbek tillaridagi rang lug‘atining emotsional jihatlarini tahlil qilindi, ularning turli lingvistik va madaniy kontekstlarda hissiyotlarni idrok etish va uzatishga ta‘sirini ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Emotsional semantika, leksik repertuar, rang lug‘ati, madaniy kontekst, emotsional assotsiatsiyalar, qiyosiy tahlil, koloristika, lingvokulturologiya, rang semantikasi.

Введение. Цвета, как элемент лингвистической выразительности, играют значительную роль в формировании языкового образа мира. Более того, они обладают способностью не только отражать визуальные восприятия, но и транслировать сложные эмоциональные оттенки. В данной статье предпринимается попытка систематического анализа колористической лексики в трех различных языках - французском, русском и узбекском. Основной целью исследования является выявление и сопоставление эмоциональных нюансов, которые несет с собой цветовая лексика в данных языках.

Теоретический фреймворк: для полного понимания роли цветов в языке необходимо обратить внимание на теоретический аспект, связанный с лингвистической семантикой и культурной лингвистикой. Анализ предшествующих исследований в этой области позволяет определить методологический подход, который будет использован в данном исследовании.

Цветовая лексика в французском языке: первый этап анализа фокусируется на выделении колористической лексики в французском языке. Рассматриваются как базовые цвета, так и их оттенки, с целью выявления эмоциональных коннотаций и семантических ассоциаций.

Цветовая лексика в русском языке: второй этап исследования направлен на анализ цветовой лексики в русском языке. Особое внимание уделяется особенностям

в семантике цветов, а также поиск связей между лингвистическим выражением и эмоциональными состояниями.

Цветовая лексика в узбекском языке: третий этап анализа расширяет рамки, охватывая узбекский язык. Здесь проводится комплексное исследование, учитывающее лингвокультурные особенности и традиции, влияющие на семантику цветов.

Сопоставительный анализ: основной этап исследования предполагает сопоставление результатов анализа цветовой лексики в трех языках. В процессе сравнения выявляются общие тенденции, различия и влияние культурного контекста на эмоциональные оттенки цветов.

Анализ литературы. В работе "Метафоры мышления" Лакофф подчеркивает, что метафоры не просто декорации языка, но отражают основные когнитивные структуры и способы мышления людей. Цвета, как метафорические концепты, могут использоваться для выражения различных эмоций и состояний ума. Например, мы часто используем фразы вроде "находиться в черной депрессии" или "видеть мир розовыми очками", чтобы описать эмоциональные состояния[1].

Также безусловно в работах Караулова, связанных с русским языком, поднимаются вопросы лексического богатства, семантики слов и их влияния на формирование

языковой личности. В книге Караулова можно найти анализ лексических единиц, связанных с цветами, и рассмотрение, как эти слова влияют на языковую личность носителя русского языка. Это может включать в себя рассмотрение того, как цвета используются в языке для выражения эмоций, создания образов и формирования особенностей языкового стиля[2].

Работа Кульбакина «Язык цвета в культуре и обществе», посвящена семантике цвета и его роли в культуре и обществе, затрагиваются следующие аспекты, как цвета в религиозных контекстах: рассматривается, как цвета используются в религиозных традициях, какие символические значения им приписываются в различных культурах.

Символика цветов: исследуется, какие эмоциональные и культурные ассоциации связаны с определенными цветами в разных обществах.

Язык цвета в искусстве: анализируется, как художники используют цвета для передачи эмоций и создания определенных настроений в их произведениях.

Цвета в обрядах и традициях: изучается, как цвета встраиваются в обряды, традиции и обычаи различных культур[3].

Рахимов исследовал в своей книге «Особенности национальной ментальности узбеков» информацию о культурных особенностях узбекской ментальности, включая влияние цвета на язык и эмоциональное восприятие. Автор рассматривает воздействие цвета на эмоциональное состояние человека и его использование в искусстве и психотерапии. Цвета в узбекском языке имеют несколько культурных особенностей:

Желтый цвет (Sariq): в узбекской культуре желтый цвет связан с солнечным светом и теплом. Это проявляется в языковых оборотах, например, "sariq kun" (желтое солнце), что вызывает ассоциации с радостью и энергией.

Черный цвет (Qora): черный цвет может быть ассоциирован с таинственностью и глубиной. В узбекском языке это отражается в выражениях, таких как "qora tun" (черная ночь), что вызывает ощущение загадочности[4].

Хотелось бы упомянуть и взять для теоретической базы для нашего исследования общие идеи, которые были затронуты в работе «Цвет в искусстве и психотерапии» Фондрана, эмоциональная сила цвета в искусстве: "Использование насыщенных красок в этой картины вызывает яркие эмоциональные реакции у зрителей, подчеркивая важность цвета в художественном выражении."

"Акцентирование определенных цветовых палитр в произведениях искусства способствует созданию определенного настроения и воздействию на эмоциональное состояние зрителя." Цветовая терапия и психотерапия: Исследования в области цветовой терапии подтверждают, что определенные цвета могут оказывать положительное воздействие на психическое здоровье, способствуя релаксации и улучшению настроения.

В психотерапевтической практике успешно используется техника интеграции цветов для работы с эмоциональными блоками и стимуляции процессов психологического исцеления.

Символика цвета в искусстве и психотерапии: "Цвета не только являются визуальными элементами в искусстве, но и служат метафорами, обогащая произведения глубоким символизмом."

В психотерапевтическом контексте, использование определенных цветов может быть связано с архетипическими символами, способствуя процессам самопознания и трансформации[5].

Эти работы обеспечивают теоретическую базу для понимания роли цветовой лексики в языке, ее эмоциональных аспектов и культурных особенностей. При анализе литературы следует учитывать разнообразие подходов к теме и предпочтения, связанные с конкретными языками и культурными контекстами.

Методология. В данном исследовании, основным объектом анализа стала лексика цветов в французском, русском и узбекском языках. На протяжении работы, наша методология включала в себя следующие ключевые шаги. Прежде всего, мы провели обширный анализ литературных источников, чтобы охватить основные теоретические аспекты семантики цвета и его влияния на лингвистические выражения в различных культурах.

Затем, для сбора практических данных, мы активно привлекли тексты на каждом из языков, выделяя цветовую лексику. Дополнительно, мы провели экспертные интервью с носителями языка, чтобы более глубоко понять культурные ассоциации, связанные с определенными цветами.

На этапе анализа лексики, наш фокус был направлен на коллекцию и систематизацию цветов, выявление семантических нюансов и исследование эмоциональных ассоциаций, связанных с каждым цветом.

Культурный анализ занимал важное место в исследовании. Мы анализировали культурные особенности, влияющие на восприятие цвета в каждом языковом контексте, учитывая исторические, религиозные и этнокультурные аспекты.

Сопоставительный анализ результатов анализа лексики в трех языках был ключевым этапом исследования. Мы выявляли схожие и различные паттерны в использовании цветов, а также раскрывали, какие эмоциональные аспекты сопутствуют каждому цвету в различных языках.

В конечных выводах мы систематизировали полученные данные, формулируя основные тенденции и обобщая выводы относительно эмоциональных аспектов лексики цветов в французском, русском и узбекском языках.

Важность контекстуального подхода была подчеркнута на всех этапах. Мы учитывали контекст в текстах и экспертных интервью для более точного определения значения и эмоционального оттенка каждого цвета.

Наша работа также строго соблюдала этические стандарты при взаимодействии с лингвистическим материалом и при проведении экспертных интервью. Дополнительно, мы выдвинули рекомендации для дальнейших исследований в области семантики цвета и его влияния на эмоциональное восприятие в языках. Этот перечень ключевых фактов составляет основу для глубокого понимания роли цветовой лексики в контексте французского, русского и узбекского языков.

Анализ и результаты. В ходе анализа лексики цветов в французском, русском и узбекском языках выявлены интересные семантические особенности, отражающие разнообразие культурных и лингвистических контекстов.

В французском языке наблюдается яркое влияние культурных ассоциаций на семантику цветов. Например, цвет "bleu" (синий) ассоциируется с понятием свободы и глубоких чувств. "Rouge" (красный) обычно ассоциируется с патриотизмом и страстью. Эмоциональные оттенки цветов во французском языке выражаются с тонким чувством и глубокими метафорами.

В русском языке семантика цветов также насыщена культурными значениями. Например, цвет "голубой" может нести в себе оттенки меланхолии и

тоски, в то время как "красный" ассоциируется с энергией и страстью. Важным элементом является также использование цветов в религиозных контекстах, что придает им дополнительные эмоциональные слои.

В узбекском языке цвета тесно связаны с национальными и традиционными аспектами. Например, цвет "белый" может символизировать чистоту и святость, в то время как "зеленый" ассоциируется с плодородием и процветанием. Узбекская культура придает цветам глубокие символические значения, что оказывает влияние на их эмоциональные коннотации.

Сравнив результаты анализа, мы выявили не только сходства, но и значительные различия в эмоциональных ассоциациях цветов между рассматриваемыми языками. Например, если во французском "vert" (зеленый) может ассоциироваться с надеждой, то в узбекском языке он может нести в себе коннотации процветания.

Выводы и предложения. Исследование лексики цветов в французском, русском и узбекском языках выявило интересные семантические особенности, отражающие культурные различия в восприятии и использовании цвета. Каждый из языков проявил свои уникальные эмоциональные оттенки, связанные с цветовой лексикой, что подчеркивает глубокое влияние культурных и исторических факторов на лингвистическое выражение эмоций. В французском языке наблюдается изысканное использование цветов с метафорическими ассоциациями, в то время как в русском и узбекском языках цветовая лексика тесно связана с национальными и религиозными контекстами. Сопоставительный анализ

позволил выделить как сходства, так и значительные различия в эмоциональном восприятии цветов между языками.

Глубже исследовать влияние религиозных аспектов на эмоциональные коннотации цветов в языках. Углубленный анализ символических значений цветов в религиозных текстах может раскрыть дополнительные слои эмоционального восприятия. Расширить выборку языков для сопоставительного анализа. Включение дополнительных языков позволит более полно понять общие тенденции и уникальные особенности в эмоциональной семантике цветов.

Исследовать влияние современных культурных течений на изменение семантики цветов в языке. Развивающиеся тренды и общественные изменения могут оказывать влияние на восприятие цвета и его эмоциональные ассоциации. Проанализировать эволюцию эмоциональных коннотаций цветов в исторической динамике. Изучение изменений в семантике цветов на разных этапах истории языка может раскрыть динамику эмоциональных перцепций.

Разработать приложения для исследования влияния цвета на эмоциональные реакции в разных культурных контекстах. Технологии могут быть использованы для более широкого понимания воздействия цвета на эмоциональные состояния.

Эти предложения могут послужить отправной точкой для дальнейших исследований в области лингвистики, культурологии и психологии, освещая динамичные взаимосвязи между языком, культурой и эмоциями.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Лакофф, Дж. (2006). "Метафоры мышления." - Исследование о роли метафор в языке и мышлении, включая метафоры, связанные с цветами и их эмоциональные аспекты.
2. Караулов, Ю. Н. (1995). "Русский язык и языковая личность." - Анализ лексических и семантических аспектов языка, включая цветовую лексику и её влияние на формирование языковой личности.
3. Кульбакина, В. М. (2009). "Язык цвета в культуре и обществе." - Работа посвящена изучению семантики цвета в языке и его роли в культуре и обществе.
4. Рахимов, Т. (2005). "Особенности национальной ментальности узбеков." - Содержит информацию о культурных особенностях узбекской ментальности, включая влияние цвета на язык и эмоциональное восприятие.
5. Фондран, И. (2001). "Цвет в искусстве и психотерапии." - Рассмотрение воздействия цвета на эмоциональное состояние человека и его использование в искусстве и психотерапии.



Yulduz RAXMATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: r.yulduz89@gmail.com

University of sciences and Technologies universiteti (PhD) f.f.n D.Jamolov taqrizi asosida

XX ASR BADIY ADABIYOTIDA AXLOQIY IDEAL MUAMMOSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr badiiy adabiyotida shu davr axloqiy ideallari va ularning hislatlari yoritiladi. Shuningdek, badiiy adabiyotdagi o'zgarishlar haqida tahliliy bayon etildi.

Kirish so'zlar: Axloq, ideal, burch, ma'suliyat, komillik, to'g'rilik, halollik, rostgo'ylik.

ПРОБЛЕМА ПРАВСТВЕННОГО ИДЕАЛА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье нравственные идеалы этого периода и их чувства освещаются в художественной литературе XX века. Также аналитически сообщалось об изменениях в художественной литературе.

Ключевые слова: Мораль, идеал, долг, ответственность, совершенство, правильность, честность, правдивость.

THE PROBLEM OF THE MORAL IDEAL IN 20TH-CENTURY FICTION

Annotation

In this article, the moral ideals of this period and their feelings are covered in the fiction of the 20th century. It also provided an analytical account of changes in fiction.

Key words: Morality, ideal, duty, responsibility, perfection, correctness, honesty, truthfulness.

Kirish. Odatda ideal deganda bir inson shaxsi yoki bir ijtimoiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak baholanishi, oliy maqsad hamda komillik, yetuklik tarzda qabul qilinishi nazarda tutiladi. Inson tasavvuridagi biror shaxsni jamiyatdagi mavjud real shaxslardan ustun quyib ideallashtiradi. Zero har bir inson ko'rib turganidan yuksakroq, musafforoq narsaga ishtilishi kerak. Xegel so'zi bilan aytganda: "Ideal mavjud bo'lishi uchun tashqi shakl o'z-o'zicha qalbga mos kelishi lozim. Ya'ni ideal jonli subyektning qalbiga mos keladigan namunaviy shakldir, unda inson o'z g'oyalarning hissiy intellektual ko'rinishini ma'naviy qadriyat sifatida idrok etadi. Ijtimoiy-axloqiy idealning o'zgaruvchanlik xususiyati ko'pincha shu bilan bog'liq. Bu hodisa tarixiy jarayonlar, zamon, jamiyat talablaridan kelib chiqib, qadriyatlarning qayta baholanishida ro'y beradi. Lekin diniy ideal o'zgarimaslik xususiyatiga ega"[1]. Bu borada faylasuf olimlar ideal tushunchasiga nisbatan ta'rif berganda, idealning turlarga tasniflanishi to'g'risida fikr bildiradi. Zero, "Dunyoviy ideal bilan, aniqrog'i, ijtimoiy-axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunchonchi, musulmonlar uchun-Muhammad alayhisallom, nasroniylar uchun-hazrati Iso, yahudiy dinidagilar uchun-hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi"[2]

Badiiy adabiyot tarixida esa axloqiy ideal muammosi, ijtimoiy davr ruhiyatini, orzu-havaslarini hamda jamiyat oldida turgan muammolarini yechimi sifatida o'rtaga chiqqan, jamiyat oldiga chaqiriq sifatida yangragan. Badiiy adabiyot namunalari axloqshunoslik doirasida muhim manba hisoblanadi. Jumladan, o'zbek adabiyoti tarixida XX asr boshlarida jadid adabiyoti shakllanganligini, o'lkada milliy uyg'onish, o'zlikni anglash jarayoni harakatga kelganligini hamda bu harakatning yorqin namunalari yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Jadidlar o'z nomi bilan yangilik tarafdorlari va targ'ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Qodiriy "Madomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz", adabiy shakllarni yangilashga, xalqimizni shu zamonning adabiyoti namunalari bilan tanishtirishga "o'zimizda majburiyat his etamiz"[3] deb aytsa, adib Cho'lpon mumtoz adabiyotimizning boyligini, milliy adabiy qadriyatlar ahamiyatini aslo kamsitmaganda holda, endilikda adabiy tafakkur, adabiyot yangilanishga muhtoj ekanligini aytadi va "Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir"[4], deb yozadi. Shu tariqa, «yangi davr», «yangi adabiyot» istilohini muomalaga ayni shu adabiyotning Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi asoschilari, ulkan namoyandalari olib kirganligi va ular yaratgan badiiy asarlarda axloqiy tarbiya bosh g'oya sifatida olinganligi, inson tarbiyasining to'g'rilik, halollik, izzat hurmat, burch-mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e'tiqod mustahkamligi hislatlari targ'ibotini ko'rishimiz mumkin.

Shu sa'y-harakatlar tufayli jahon adabiyoti tarixida ibrat bo'larli hayratomuz hodisa yuz berdi. Juda qisqa fursat ichida o'zbek adabiyoti namoyondalari jahon adabiyoti, Yevropa adabiyoti marralarini zabt etishga erishdilar. Birinchi realistlik drama, hikoya, roman, yangicha she'riy shakllar paydo bo'lganidan keyin bor-yo'g'i yetti-sakkiz yil o'tib "O'tgan kunlar", "Abulfayzxon", "Paranji sirlari", "Maysaraning ishi", Cho'lpon she'rlari, yozuvchi Abdulla Qahhor so'zlari bilan aytganda, "Evropa adabiyoti gazi bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar yaratildi". Ushbu asarlarda tarixiy tanqidiy realizm ruhi ustivorligi badiiy obrazlarda axloqiy ideallarning o'sha davrga xos ruhi ustivorlik qiladi. Shu tariqa, XX asrning o'ninchi yillarida tug'ila boshlagan yangi adabiyot 20-yillarga kelib qad rostlab oldi, yangi adabiyotning muayyan an'analari, estetik prinsiplari, binobarin, yangicha adabiy tafakkur qaror topdi.

Tadqiqot metodologiyasi. “XX asrning boshlariga kelib, revolyutsion uyg‘onishlar ta’siri ostida o‘zbek yozuvchilari yangi shakl ko‘rinishlarini izlay boshladilar”[5].

XX asr badiiy adabiyotida axloqiy ideallarning sifatлари quyidagilardan iborat: Birinchidan, yangi o‘zbek adabiyoti mamlakat, xalq hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan mustahkam aloqadorlikda tug‘ildi, shakllandi va rivojlandi. Ko‘p asrlik tariximizda so‘z san’ati hech qachon yurt qayg‘usi, xalq turmushi bilan bu qadar yaqin aloqada bo‘lgan emas. Bu bosqich adabiyotining kuchli tomonlari ham, o‘z tomonlari ham, avvalo, shu holatlar bilan izohlanadi. Xalq hayotiga, kundalik turmush hodisalariga yaqinlik, bir tomondan, asarning hayotiyligini, haqqoniyligini kuchaytirgan, binobarin, realizmning qaror topishini ta’min etishda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, boshqa tomondan, adabiyotning vazifasini jo‘nlashtirish, Abdulla Qahhor so‘zlari bilan aytganda, adabiyotning atonga teng qudratini o‘tin yorishga sarflashdek holatlar ham yuz berdi. Bulardan qat’i nazar, eng muhimi, XX asr o‘zbek adabiyotida realizm uzil-kesil tantana qildi, bizda ham zamonaviy jahon realistik adabiyotining durdonalari bilan bo‘ylasha oladigan hikoya, qissa, roman, drama va she’riy asarlar paydo bo‘ldi.

Ikkinchidan, kishini hayratga soladigan jihati shundaki, johil adabiy siyosat tahdid solib turgan, shafqatsizlik, qatag‘onlar ommaviy tus olgan kezlarda ham so‘z san’ati o‘z vazifasini ado etishda davom etdi, har qanday ta’qib, tahdid ham adabiyotning asl mohiyatini o‘zgartira olmadi, adabiyot rivojini butunlay to‘xtatib qo‘yishga qurbi yetmadi. Eng yaxshi asarlarda iste’dodli adiblar o‘zlari qabul qilgan aqidalar, shaxsiy mayllardan ustun turib badiiy ijodning ob’ektiv qonuniyatlariga – haqqoniylik, gumanizm, xalqchilik tamoyillariga sodiq qoldilar. Chunonchi, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Hamzaning “Paranji sirlari”, “Maysaraning ishi” asarlari jahon adabiyotining nodir namunalari darajasiga ko‘tarila oldi. 20-yillar oxiri, 30-yillar boshlaridan she’riyatida, publitsistik chiqishlarida sovet voqeligini ulug‘lash yo‘liga o‘tgan Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida eng qaltis ijtimoiy-siyosiy masalalar talqinida, imperiya siyosati, jadidchilik harakati ifodasida haqiqatga sodiq qoldi. “Obid ketmon” (Qodiriy), “Yodgor” (G‘afur G‘ulom), “Qutlug‘ qon” (Oybek), “Zaynab va Omon” (Hamid Olimjon), “Sarob”, “Sinchalak” (Abdulla Qahhor) kabi asarlarda hayotning haqqoniy manzaralari, millat, el-yurt g‘ami, orzu-intilishlari ifodasi ustivor. Cho‘lponning ko‘ngil qulligiga isyon tarzida bitilgan “Tiriksan, o‘lmagansan, Sen-da odam, sen-da insonsan; Kishan kiyima, bo‘yin egma, Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsan!” satrlari erkparvar shoirlarning pinhona ko‘ngil shioriga aylandi. Cho‘lpondan boshlangan bu xildagi otashin erkparvarlik, ozodlik g‘oyalari “Oyul bilan Baxtiyor”, “Muqanna”, (Hamid Olimjon), “O‘ch”, “Mahmud Tarobiy” (Oybek), “Nil va Rim” (U.Nosir), “Jaloliddin Manguberdi” (Shayxzoda) kabi asarlarda turli ko‘rinishlarda davom etdi, 60-yillardan boshlab yetakchi tamoyillardan biriga aylandi. Ikkinchi jaxon urushi yillarida yaratilgan yuksak vatanparvarlik, chuqur insonparvarlik ohanglari bilan yo‘g‘rilgan o‘zbek she’riyati, urushdan keyingi qatag‘onlar davrida bitilgan hijron alamlariga to‘lib-toshgan Zulfiya lirikasi sho‘ro davri adabiyotining mo‘jizalari deyishga loyiq.

Shuningdek, siyosiy, mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, san’atning asl qonuniyatlari asosida yaratilgan eng yaxshi asarlar XX asr o‘zbek adabiyotining badiiy yutuqlariga bo‘lib qolmay, umumjahon adabiyoti xazinasiga ham hissa bo‘lib qo‘shildi. Bu xil asarlarning aksariyati jahonning ko‘plab tillariga tarjima etildi. Xorijda ham munosib bahosini oldi.

“O‘tkan kunlar”dan tortib bugungi eng yaxshi o‘zbek tarixiy romanlariga xos muhim xususiyatlar – ular shunchaki millat tarixiga, ulkan tarixiy siymolar hayotiga oid qiziqarli voqealar ifodasidan iborat emas, balki millat tarixi, u bosib

o‘tgan yo‘l, uning parvozi va inqirozi sabablari, istiqboli va istiqloli haqidagi o‘y-mushohadalar, kechmishdan chiqargan ibratli saboqlari bilan qimmatlidir. Bu asarlarni xalqimiz bejiz qadrlagan emas, ularda millat o‘zligini, o‘zbekligini, ham kuchli, ham o‘z tomonlarini ko‘rdi.

“O‘tkan kunlar”ning ma‘no-mundarija doirasi keng, unda xilma-xil ijtimoiy, ma‘naviy muammolar ko‘tarilgan. Ular orasida eng muqimi – yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir. “O‘tkan kunlar” romaniga qadar ham, asar yozilgan paytda va undan keyin ham hech kim XIX asrda millat taqdiri uchun hayot-mamot ahamiyatiga molik tarixiy hodisalarini, o‘lkaning tutunlikka tushib qolish sabablarini Qodiriychalik chuqur, xolis, ta’sirchan tahlil yetolgani yo‘q. Qodiriy talqinicha, tutunlikka tushishning bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir. Yusufbek hojining o‘g‘li Otobek savoliga javoban aytgan mana bu yoniq so‘zlari millat taqdiri uchun uqayot-mamot ahamiyatiga molikdir: «Men ko‘b umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o‘zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyati yo‘lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahaamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo‘lsak, yaqindirki, o‘ris istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsak o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘yniga o‘ris bo‘yinturug‘ini kiydirgan bo‘lurmiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘liga tutqin qilib topshirguvchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la’nati albatta tushar, o‘g‘lim!”.

“O‘tkan kunlar”dagi kabi P.Qodirov tarixiy romanlarida ham el-yurti ichdan yemiruvchi o‘zaro nizolar, ularning fojeiy oqibati ifodasi o‘quvchi qalbini o‘rtaydi, ayni paytda hayotda ezgulikni o‘zida mujassam etgan nurlu siymolarning mavjudligi kishi ko‘ngliga taskin beradi, quvonch baxsh etadi. Bu jihatdan ayniqsa Bobur-Humoyun – Akbar, ya’ni bobo – o‘g‘il-nabira orasidagi munosabatlar ibratomuz hodisadir. Atoqli fransuz tarixchi olimi E.Renan buyuk temuriy tojkorlar – Bobur, Humoyun va Akbar orasidagi oqilona vorisilikni tarixda faqat bir bor sodir bo‘lgan nodir hodisa deb baholaydi. Darhaqiqat, Bobur halokatga yuz tutgan Temur saltanatini yangi asosda qayta tiklab Temur ruhiga sadoqatini namoyon etdi, uning sadoqatli, fidoyi o‘g‘li Humoyun esa Hindistonda otasi asos solgan yangi saltanatni tahdidu tajovuzlardan omon saqlab qola bildi, nihoyat nabirasi Akbar bu saltanat dovruq‘ini jahonga yoydi. Bu ibratomuz hodisalar “Yulduzli tunlar” (Bobur) va “Avlodlar dovoni” (Humoyun va Akbar) romanlarida mahorat va bilimdonlik bilan ifoda etilgan.

Odil Yoqubovning ko‘plab tillarga tarjima etilgan “Ulug‘bek xazinasi” romanida turk dunyosi uchun mushtarak hayajonli muammolar qalamga olingan. Ulug‘ adib Ch.Aytmatov bu roman munosabati bilan uning muallifiga yo‘llagan maktubida romanni o‘qish asosida g‘oyat hayajonlanganligi, asar uni larzaga solganligini, chuqur o‘yga toldirganligini aytadi. “Romanni o‘qirkanman, ko‘nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg‘usi jo‘sh urdi... Ulug‘bek shunday dahoki, u bizni asrlar osha tariximizga, zaminda tutgan mavqeimizga guvoh. Ulug‘bek – bizning dildagi ohimiz, armonimiz, u buyuk bashariy tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib mulohaza yuritish, hukm-saboqlar chiqarish uchun asos beradigan shaxs. Ulug‘bek men uchun o‘rta asrning atqli olimi bo‘lgani uchungina emas, balki xalqimiz tarixidagi eng murakkab va og‘ir fojiani boshidan kechirgan alloma bo‘lgani uchun ham ulug‘dir”.

Tahlil va natijalar. Yangi o‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari hikoya, qissa, roman, ballada, poema, lirik

she'riyat asarlari uchun turlicha ekanligi tabiiy hol. Axloqiy ideallar badiiy asarlar qahramonlari misolida namoyon bo'ladi. Ammo, bu badiiy adabiyot namunalarning barchasi uchun umumiy, zaruriy, yurak va qon tomiriga o'xshash muhim qonuniyatlar borki, bular avvalo adabiyot nazariyasi, keng ma'noda etika va estetika fanida maxsus o'rganiladi. Axloqiy ideallarda badiiy mezonlarning asosiylari: she'r uchun his-tuyg'ular go'zalligi, nafisligi, nozik kechinmalar, hikoya uchun – yaxlit bir voqeada inson xarakteri va muhim bir g'oyani tasvirlash, qissada shu narsalarning kengroq ifodalinishi, romanda davr va jamiyat hayotida yuz berayotgan global jarayonlarni bir yoki bir necha odamlarning taqdiri, xarakterlari orqali ochish, tragediyada zamon oqimiga qarshi yakka o'zi qarshi tura olgan shaxsning va atrofdagilarining kuchli xarakterlarini ko'rsatish, komediyada jamiyatdagi illatlarni kulgi orqali aks ettirish muhim hisoblanadi. Bu san'atlardan eng ta'sirchani, eng ko'p (hatto cheksiz) imkoniyatlarga ega bo'lgani she'riyat va badiiy prozadir. O'zbek shoiri Erkin Vohidov „Ruhlar isyoni“ qalamiga sheriyy doton bo'lib, unda mansub bengal shoiri Nazrul Islom qahramonligi haqida

hikoya qilinadi. Doston o'zining isyonkor she'rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiviy qismati haqida. „Ruhlar isyoni“ garchi Nazrul Islom haqida bo'lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o'zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma'nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o'y-mulohazalar o'z aksini topadi. Axloqiy ideal muammosi Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“, Cho'lponning „Kecha va kunduz“, Abdulla Qahhorning „Sarob“ romanlariga yuksak darajada ifodalangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda axloqiy ideal ijodkorning badiiy hayoloti mahsuli sifatida namoyon bo'ladigan yuksak axloqiy namuna, oliy maqsad hamda komillik, yetuklik ifodasidir. Badiiy adabiyot tarixida axloqiy ideal muammosi ijtimoiy davr ruhiyatini, orzu-havaslarini hamda jamiyat oldida turgan muammolarini yechimi sifatida o'rtaga chiqqan, jamiyat oldiga chaqiriq sifatida yangragan.

ADABIYOTLAR

1. A.Sher, B.Husanov. „Estetika“ – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2010. 98-bet.
2. A.Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. 257-bet.
3. A. Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yoshlik matbuoti, 2023.
4. Abdulkayrov M. An'analarga esh, yangilanishga tashna//«O'zbekiston adabiyotiva san'ati» gazetasi, 2013 yil 40-son.
5. Qo'shjonov M. MOHIYAT VA BADIYYAT. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1977. 10-bet.



Nasiba RO‘ZIYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: nasibarozziyeva20@gmail.com

ToshDO‘TAU dotsenti, PhD D.Muhammadiyeva taqrizi asosida

NATIONAL SPECIFIC WORDS AND RELATED TO SPORTS

Annotatsion

The content of the choice of this topic is that the uniqueness of this topic is that uniqueness of the relatives, their types and the lifestyle, everyday life, culture, socio-historical development of each nation, and the sports that are alien to other nations or later assimilated wider coverage of related lexical units. As well as dialectal words, which are considered one of the most important means of enriching the general literary lexicon, in particular, talking about the naming of national sports realities in the Oghuz dialect. Explaining the concept of dialect, introducing the information about the regions in which the Oghuz dialect is spread.

Key words: Realism, types of realism, sports realism, names of sports realism in Oghuz dialect, concept of dialect, geography of distribution of Oghuz dialect.

ФАКТЫ О СПОРТЕ НА ОГУЗСКОМ ДИАЛЕКТЕ

Аннотация

Содержание выбора данной темы состоит в том, что своеобразие реалий, их типов и образа жизни, быта, культуры, социально-исторического развития каждого народа, а также видов спорта, чуждых другим народам или позднее ассимилировавшихся более широкий охват родственные лексические единицы. Также поговорим о диалектных словах, которые считаются одним из важнейших средств обогащения общелитературного лексикона, в частности, название национальных спортивных реалий на огузском диалекте. Разъяснение понятия диалектаб ознакомление с информацией о регионах распространения огузского диалекта.

Ключевые слова: Реализм, виды реализма, спортивный реализм, названия спортивного реализма на огузском диалекте, понятие диалекта, география распространения огузского диалекта.

O‘G‘UZ DIALEKTIDA SPORTGA OID REALIYALAR

Annotatsiya

Ushbu mavzuning tanlanish mazmuni shundan iboratki, hozirgi vaqtda realiyalarning o‘ziga xosligi, ularning turlari va har bir xalqning hayot tarzi, kundalik hayoti, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga xos bo‘lgan va boshqa xalqqa yot bo‘lgan yoki keyinchalik o‘zlashgan sportga oid lug‘aviy birliklarni kengroq yoritish. Shuningdek umumadaniy leksikani boyitib boruvchi eng muhim vositalardan hisoblanadigan dialektal so‘zlar, xususan o‘g‘uz dialektida milliy sport realiyalarining nomlanishi haqida so‘z yuritish. Dialekt tushunchasini izohlash, o‘g‘uz dialektining aynan qaysi hududlarda tarqalganligi haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishtirish.

Kalit so‘zlar: Realialar, realiyalarning turlari, sport realiyalari, o‘g‘uz dialektida sport realiyalarining nomlanishi, dialekt tushunchasi, o‘g‘uz dialektining tarqalish geografiyasi.

Kirish. Jamiyat va insonlar hayot tarzi rivojlanib takomillashib borar ekan, u bilan birgalikda tilshunoslikda ham rivojlanish jarayonlari sodir bo‘ladi. Tilshunoslikda til egalarning turli hududiy dialektlarga mansubligi, xususan, hududiy variativligi dialektologiya tomonidan o‘rganiladi. Dialektal so‘zlar tilni boyitib boruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tilning lug‘at tarkibini to‘ldirib, kengaytirib boruvchi asosiy manba bu shevalardan so‘z olish hisoblanadi. Shu bois maqolamizda sportga oid realiyalarning o‘g‘uz dialektiga oid muqobilini ham berishga harakat qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida ta’kidlaganimizdek jamiyat rivojlanib borar, ekan tilda ham muntazam yangilanishlar, o‘zgarishlar, rivojlanishlar, yangiliklar paydo bo‘lib boraveradi. Bunga yaqqol misol yaqin yillar ichida tilshunoslik sohasida lingvokulturologiya, psixolingvistika, matn tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi, pragmalolingvistika, sotsiolingvistika kabi yangi yo‘nalishlarning vujudga kelganligidir.

Shunday yangi yo‘nalishlar doirasida lingvokulturologiyaning muhim tushunchalaridan biri realiyalardir. Realialarni lingvokulturologiyada muqobilsiz leksika doirasida o‘rganiladi. Muqobilsiz leksika deganda ma‘lum bir xalqqa xos bo‘lgan narsa va hodisalar tushuniladi.

L.S.Barxudarovning yozishicha: "Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobiliga ega bo‘lmasligidir"1.

Realia (lotincha) "real" – "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma’noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realialarni boshqa o‘xshash tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma’nosiga ega bo‘lganligidadir. Realialarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o‘rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Realia tushunchasini dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatida rus tarjimashunosligiga 1941-yil Andrey Feodorov kiritdi va ularni "realia so‘zlar" deb atashni taklif qildi. A.V.Feodorov "realia" deganda "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi", faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan so‘zlar"ni tushunadi.

O.S. Axmanovning fikricha esa, realialar — moddiy madaniyatning predmeti hisoblanadi. Realia-so‘z va realia-predmetning o‘zaro farqli ekanini aytib o‘tish lozim. Bir tilning leksik elementi sifatida «Realia» atamasi realia-so‘z ma’nosida, belgi tarafidan esa realia-predmet hisoblanadi, u

tarjima adabiyotida keng tarqalgan. Realiyani terminologiya bilan adashtirib yubormaslik lozim: terminologiya – ilmiy adabiyotda ilmiy sohaga tegishli narsalarni belgilash uchun ishlatiladi va odatda juda aniq stilistik maqsadga xizmat qilish uchun faqat boshqa turdagi matnlarda qo'llaniladi. Badiiy adabiyot, ular keltiradigan ekzotik ko'rinish uchun realiyani yaxshi ko'radi.

Xorijiy til realiyalarida shunday so'zlar borki, ular tarjima vositasida boshqa tillarga kirib borgan va o'zlashib ketgan. Ruslardagi rubl realiyasi o'zbeklarda rubl bo'lib, o'zlashib ketgan. Shuningdek, Yevropadagi Euro o'zbek tilida Evro deb o'zlashtirilgan. Bu ham talaffuz qoidalarini bilan bog'liq hodisa. Ruslardagi teploxod, poroxod, vezdexod kabi transport vositalari o'zbek tiliga ham aynan shu holda o'zlashganligini ko'rishimiz mumkin. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda. Bundan tashqari, pul birliklari, milliy taomlar yoki davlat tuzilishi bilan bog'liq so'zlar ham realiyalarga misol bo'la oladi. Ammo ular o'zlashma so'zlar ko'rinishiga o'tsa ham, o'zlarining milliy o'ziga xosligini yo'qotmaydi. Masalan, nemislarning markasi, amerikaliklarning dollari, o'zbeklarning oshi va hokazo.

Realialarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Geografik (fizik geografiya obyektlari);

2. Etnografik (kundalik hayot, din, san'at, madaniyat bilan bog'liq);

3. Ijtimoiy-siyosiy (ma'muriy-hududiy tuzilma, aholi guruhlari, hokimiyat organlari va boshqalar).

Geografik realiyalar odatda transkripsiya yoki transliteratsiya yordamida tarjima qilinadi. Masalan, Washington –Vashington (transliteratsiya), Miami –Mayami (transkripsiya). Ma'noga asoslangan tarjima kamroq qo'llaniladi. Masalan, Great Britain-Buyuk Britaniya.

Etnografik realiyalarga biror xalq turmush –tarzi va madaniyatiga oid tushunchalar kiradi. Masalan, etnik tushunchaga oid (kazak, ataman), o'lchov va pul birliklari (funt, frank, yuan, dirxam), san'at va madaniyat tushunchalari nomlariga oid (polvon, kimboku, kintsugi, lapar, devali). Ijtimoiy-siyosiy realiyalar transkripsiya va transliteratsiya yordamida hamda tasvirlash va analoglar tanlash orqali tarjima qilinadi: ma'muriy-territorial tuzilishga oid tushunchalar (guberniya, shtat, rayon, okrug v.k); hukumat organlari nomlari (Veche, Duma, Reyxstag, Oliy Majlis).

Shuningdek har bir xalq o'ziga xos realiyalarga egadir, ularda milliy kolorit yorqin aks etib turadi. G.D. Tomaxinning fikricha, turli xil til va madaniyatlarni o'zaro solishtirganda, realialarni qo'llashda quyidagicha o'ziga xosliklarni belgilab olish imkonini beradi: 1. Realiya faqatgina bir til jamoasigagina xosdir, boshqasida mavjud bo'lmaydi: koreyscha 온돌 (ondol) issiq pol, o'zbek tilida analogi mavjud emas yoki turk tilidagi babaanne so'zi masalan otaning onasini bildiradi, aneanne esa onaning onasini bildiradi. O'zbek tilida esa ota va onaning onalari alohida bir so'z bilan ajratilmaydi, bu so'zlarning analogi yo'q bo'lib, har ikkala so'z bitta "buvi" so'zi bilan ifodalanadi. 2. Realiya ikkala til jamoasida bo'lishi mumkin, biroq birida qo'shimcha ma'noga ega bo'ladi: koreyscha 이모 (imo) xola, aynan ona tomonidan. 3. Turli xil jamiyatda o'xshash funksiyalarni turli xil realiyalar amalga oshiradi: koreyscha 배게(pege) o'zbekcha yostiqlik.

Realialarda, ayniqsa, til va madaniyatning bir-biriga yaqinlashuvi kuzatiladi: jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning vujudga kelishi tilga mos keluvchi so'zlarni keltirib chiqaradi. Realialarning farqli jihati uning predmetlar tizimining o'ziga xosligidadir. Realialar alohida kollektiv yoki muassasada ham chegaralangan doirasida bo'ladi. Realialar o'ziga xos va vaqtinchalik kolorit hisoblanadi.

Realialar o'ziga tildagi matni tushunishimiz uchun bizga kerak bo'ladigan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi.

Ma'lum bir xalq yoki elatning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy taraqqiyoti realiyalarning mohiyatiga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun realiyalar to'g'risida bahs yuritganda, albatta, milliy o'ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasiga e'tiborsiz qarolmaymiz. Chunki realiyalar har qanday holatda ham bir vaqtning o'zida milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Bu esa ularga alohida munosabatda bo'lishlikni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli millatlarga xos realiyalar xususiyat va bajaradigan vazifasiga ko'ra bir-biriga juda o'xshab ketishi mumkin, lekin ularda shunday o'ziga xos, nozik xususiyati boshqalarida takrorlanmasligi lozim. Xususan, uzoq tarixga ega bo'lgan sport madaniyati umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni takidlash joizki har qanday zamonaviy sport turiga yo'l, milliy sport o'yinlaridan boshlanadi. O'zbek milliy sport turlari sportga oid realiyalarga misol bo'ladi. Masalan, chavandozlardan topqirlik va epchillikni talab qiluvchi ko'pkari (uloq) ot sporti musobaqasining bir turi miloddan avvalgi II-III asrlarning boshlarida shakllangan. Bu sport turi O'rta Osiyoda, xususan O'zbekistonda keng tarqalgan va qadimdan shu kungacha yetib kelgan tarixiy sport o'yini hisoblanadi. Boshqa turkiy tillarda "ko'pkari" nomining etimologik ma'nosi yo'qolib, an'aviy ravishda "ulak" nomi bilan atala boshlangan. Ko'pkari sport musobaqasida yuzlarcha chavandozlar orasiga echki yoki buzoqning tana go'shtini tashlaydilar, chavandozlar jasadni otdan tushmasdan ko'tarishga harakat qilishadi, vazifa olomondan qochish, ta'qibchilarga qarshi kurashishdir. Ko'pkari, avvalo, bayram, to'y va marosimlarda o'tkaziladigan musobaqa, o'yin bo'lib, unga yaqin-atrofdagi qishloqlardan chavandozlar jalb qilinadi, qoidaga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Natijalarga ko'ra g'oliblar nomi e'lon qilinadi, ularga sovg'alar (chorva mollari, kiyim-kechak, gilam, pul mukofotlari va boshqalar) topshiriladi. Ushbu o'yin ming yillar mobaynida o'zbek xalqi orasida shakllangan va milliy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq realiya hisoblanadi.

Olomon poyga - o'rta asrlarda eng yuqori rivojlanishga erishgan xalq poygasi. U, qoida tariqasida, bayram kunlarida o'tkaziladi. Bu sport o'yini xalq orasida haligacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sport o'yini qoidasiga ko'ra chavandozlar otlarni egarlab, bir qatorga tizilishadi va signal bo'lishi bilan ma'lum bir joyga oldinga yugurishadi, keyin butun chopayotgan otliqlar ortga burilib qaytishadi, birinchi qaytgan chavandoz g'olib hisoblanadi.

Shuningdek 2,5 ming yillik tarixga ega bo'lgan, bugungi kunda ham xalq orasida mashhur bo'lgan yana bitta milliy sport realiyasi bu dorbozlikdir. Dorbozlik bu havoda muallaq turgan arqon ustida mahorat va tajribaga ega bo'lgan dorbozning langar yordamida muvozanatni saqlab yurishi va har xil harakatlarni bajarib ko'rsatuvchi milliy sport turi hisoblanadi. Dorbozlar asosan bayram va tantanlarda chiqish qiladilar.

O'zbek xalqida qadim o'tmishda paydo bo'lib, shakllangan bugungi davrga kelib butun yer yuziga ommalashib, xalqaro sport darajasiga ko'tarilgan milliy sport realiyasi bu kurash hisoblanadi. Bu sport turi o'g'uz shevasida harf almashinish fonetik hodisasiga uchrab, "go'rash" tarzida talaffuz qilinadi. Ushbu so'zning o'g'uz shevasi talaffuzida "k" undoshi - "g" undoshiga, "u" unlisi, "o" unlisiga aylangani.

Bu qadimiy sport tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, kurash - sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi hisoblanadi. G'olib ishlatilgan usullar va maydondagi xatti-harakatlariga qo'yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo'g'ish, raqibga og'riq beruvchi usullar qo'llashga ruxsat berilmaydi. Rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqti 3 daqiqa qilib belgilangan. Ishlatilgan usullarga mos ravishda Xalqaro

kurash assotsiatsiyasi tomonidan "chala", "yonbosh", "halol" baholari, qoidaga zid ravishda harakat qilinganda esa "tanbeh", "dakki", "g'irrom" so'zlarining aynan o'zbek tilidagi ko'rinishlari qabul qilinganligining o'zi ham bu sport realiyasi bizning zaminimizda vujudga kelganligini xalqaro hamjamiyat ham e'tirof etganligini bildiradi.

Yana bir o'zbek milliy sport realiyasi bu "lanka". Ushbu sport realiyasi o'g'uz dialektida "langi" deb yuritiladi. Bunda adabiy tildagi "lanka" so'zi harf almashinish fonetik hodisasiga uchrab talaffuz qilinadi. Ya'ni, "Lanka" so'zidagi "k" undoshi - "g" undoshiga, "a" unlisi - "i" unlisiga almashinadi. Asosan lanka sport realiyasi langi tarzida Urganch, Xonqa, Xazorasp, Xiva, Qo'shko'pir va Qoraqalpog'istonning o'g'uz shevasida gaplashuvchi To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarida keng tarqalgan.

Lanka bir necha asrlar mobaynida xalq sayillarida, "Navro'z" bayramlarida muntazam ravishda o'ynalib kelingan. Bu o'yin qo'yning bir parcha junli terisiga metall parchasi mahkam bog'langan anjom bilan o'ynalgan. Bu anjom "Tepki", tepadigan shaxs esa "Tepkichi" deb ataladi. Bugungi kunda birorta o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak-ki, "lanka" sport o'yinini umrida bir marotaba o'ynab ko'rmagan. Qadimdan mazkur o'yinni o'zbek mahallalarida yosh-u qari birdek sevib o'ynab kelishgan. Chunki, "lanka" o'yini maxsus joy yoki asbob-anjom talab qilmaydi.

"Lanka" atamasining kelib chiqishini tarixchilar turlicha izohlaydi. Ba'zilar uni xitoycha "lyan-ga" so'zi bilan bog'lasalar, ba'zilar esa forsiy "lang-oqsoq" ma'nosi bilan ifodalaydi. Shuningdek bugungi kunda dunyoning turli qit'a va o'lkalarda o'yinning futbol fristayl, votan fristayl, soks, futbeg, dja kau, cuzyuy, teeg, larong sipa, keban kabi 30 dan ortiq nomdagi ko'rinishlarini uchratamiz. Biroq ular mohiyatan "lanka" reliyasiga juda yaqin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz mavzusi o'g'uz dialektida sportga oid realiyalar bo'lganligi bois, endi dialekt tushunchasi va o'g'uz dialektiga to'xtalib o'tamiz. Dialekt so'zi grekcha so'z bo'lib, "sheva" degan ma'noni anglatib,

aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan, ya'ni qarluq, qipchoq va o'g'uz. Shular ichida tadqiqotimiz obyekti bo'lmish o'g'uz dialekti O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida, shuningdek, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshovuz, Qozoqistonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida keng tarqalgan. Hozirgi Ozarbayjon va Turkiya davlati tili va shevalari ham o'g'uz dialektining o'g'uzsaljuq guruhiga mansub hisoblanadi. Atoqli olim va etnograf Beruniy (973-1048) taxminan 1000-yillarda Xorazmda yozgan „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asarida hayvonlarning turkiy nomlarini keltirgan bo'lib, ular Xorazmning turkiy aholisi tomonidan qo'llanilgan: sichkan, od, leopard, jerboa, lui, ilon, yunt, kuy, pijin, tagigu, tunguz. Beruniy ushbu asarida shuningdek, asarida turkiy tilda oy nomlarini beradi: Ulug'oy, Kichik-oy, Birinchi-oy, Ikkinchi-oy, Uchinchi-oy, Turtinchi-oy, Beshinchi-oy, Oltinchi-oy, Yetinchi-oy, Sakkizinchi-oy, tokkuzinchi-oy, uninchi-oy.

Xorazmliklarning bir qismi gaplashadigan til XIII asrda allaqachon ikkinchi tilga aylanadi. XIV asrda xorazm tilini turkiy tilga almashtirish jarayoni yakunlanadi. XX asrga kelib esa, o'g'uz tillari va ayrim tillarning o'g'uz lahjasida gaplashuvchilarining soni 77-78 mlndan ortiqroq (o'tgan asrning oxirlari) kishini tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar. Realialarni o'rganish, tadqiq qilish va ularni tahlil qilish ma'lum bir tilni mukammal o'rganish uchun alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, ma'lum bir til amalida bo'lgan davlatda uning madaniyatini ham o'rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish, til o'rganish jarayonini sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Aynan realiyalar va shevaga xos so'zlar tilning lug'at boyligi, uning frazeologik qatlami, lingvomananiy birliklarining mazmun-mohiyatini boyitishda va yoritishda muhim birliklar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. S.Ashirboyev. "O'zbek dialektologiyasi", Toshkent – 2011.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.Международные отношения, 1975.
3. Usmanova.Sh. Lingvokulturologiya, darslik. Toshkent - 2019.
4. Qutbiddinova.N.R "Realia tushunchasi va uning tilshunoslikda o'rganilishi", Oriental Renaissance: Innovative, educational, naturel and social sciences. 3(3). March, 2023
5. Gov.uz internet sayti "Milliy sport turlari"



UDK:859.8(856.2)

Adiza SATTAROVA,
Master degree student of Bukhara State University

*Under the review of M.B.Akhmedova Associate Professor of the Department of English Literature and Translation Studies,
Ph.D., Bukhara State University*

SEMANTIC DERIVATION OF VERBS OF PHYSICAL INFLUENCE ON OBJECTS IN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Annotation

In this article, characterization of the semantic category "action" in comparison with related categories ("process", "state", etc.), consideration of the functional-semantic division of verbs of physical influence on an object and their hierarchical structure, identification and description of the lexical potential of the verbs under study, clarification of the shades of meaning of lexemes, their semantic relationships are analyzed. In the main part, authors are indicating trends in the development of verb semantics, also characteristics of semantic and word-formation features of verbal words formed in a semantic way is a discussion topic of the article.

Key words: Process, action, verb, semantic, derivation, word formation, concordance, semantic category.

INGLIZ VA RUS TILIDA OB'YEKTLARGA JISMONIY TA'SIR QILUVCHI FE'LLARINING SEMANTIK DERIVATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada "harakat" semantik kategoriyasini o'zaro bog'liq turkumlar ("jarayon", "holat" va boshqalar) bilan solishtirganda tavsiflash, ob'ektga jismoniy ta'sir qilish fe'llarining funktsional-semantik bo'linishini va ularning ierarxik tuzilishini ko'rib chiqish, o'rganilayotgan fe'llarning leksik imkoniyatlarini aniqlash va tavsiflash, leksemalarning ma'no tuslarini oydinlashtirish, ularning semantik munosabatlari tahlil qilinadi. Asosiy qismda mualliflar fe'l semantikasining rivojlanish tendentsiyalarini ko'rsatadilar, shuningdek, semantik tarzda tuzilgan og'zaki so'zlarning semantik va so'z yasaliş xususiyatlarining xususiyatlari maqolaning muhokama mavzusidir.

Kalit so'zlar: Jarayon, harakat, fe'l, semantik, hosila, so'z yasaliş, kelishik, semantik kategoriya.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОСТЬ ГЛАГОЛОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ПРЕДМЕТЫ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье дана характеристика семантической категории «действие» в сравнении с родственными ей категориями («процесс», «состояние» и др.), рассмотрено функционально-семантическое деление глаголов физического воздействия на объект и их иерархическая структура, выявление и описание лексического потенциала изучаемых глаголов, выяснение оттенков значения лексем, анализируются их смысловые связи. В основной части авторы указывают тенденции развития семантики глаголов, а также характеристика семантических и словообразовательных особенностей глагольных слов, образованных семантическим способом, является предметом обсуждения статьи.

Ключевые слова: Процесс, действие, глагол, семантика, словообразование, словообразование, созвучие, смысловая категория.

Introduction. In the modern conditions of language development, semantic derivation seems to us to be the most important form of "linguisticization" of determinative content, a universal method of presenting new things because of nominative means already present in the language. Therefore, semantic derivation is "one of the effective methods of filling the vocabulary of any language, which requires the expression of more and more new meanings with relatively limited means of word formation" [Aminova 1999 p].

Literature review. Despite the constant interest in the problem of semantic derivation and the existence of many studies, a system of universal views on semantic derivation as a means of conceptualizing reality has not yet been developed in modern linguistics. The versatility of theoretical approaches to semantic derivation includes interpretations of "semantic word formation" (V. Vinogradov, V. M. Markov), "a special case of lexical derivation" (D.N. Shmelev), "real semantic derivation" ("semantic word formation"), includes, and is manifested in the variety of terms. N.M. Kobozeva, S.V. Konyavskaya, O. B. Ponomareva), "lexical-semantic production" (O. D. Meshkov), "multiple meaning" (J. Lyons).

When considering the problem of verbal derivation, we should pay special attention to the term "derivation" itself. The most common terms to express this phenomenon are "retrieval", "reinterpretation", "word formation", "regular polysemy", "metaphorical meanings of verbs" [BES 1998].

Research methodology. Derivative processes are linguistic phenomena that gather cultural information in addition to linguistic information. From the point of view of such data, semantic shifts that reflect collective linguistic knowledge, that is, the mentality of native speakers of this language, are of particular interest. When studying the semantic-derivative development of a lexeme, the development of semantics is not limited to one language, so the concept of "interlingual space" comes in and its origin is visible. In Humboldt's works [Humboldt 1984 74]. Lexemes in different languages have approximately the same semantic volume, but write it differently in the system; what remains in the level of strength in one language is strengthened in the semantic structure of the word in another language and vice versa. The study of semantic derivation in the cross-linguistic space allows us to see semantic shifts, transitional stages and

intermediate syllables in the development of word semantics that may be invisible to speakers of a given language. The interlinguistic space is a source of information about the internal semantic processes taking place in the studied language, and the semantic-derivational development of the native language vocabulary becomes a kind of broken window.

We can distinguish three reasons that lead to changes in the semantics of lexical units:

- actual linguistic reasons related to the structure and structure of a certain system level of the language;
- social, political, moral, religious, domestic and other aspects taken as a whole, socio-cultural reasons related to the historical development of the nation, specific characteristics of the existence of a person in a certain society. They are very important for semasiological studies, because the specific lexical meaning is determined by the characteristics of the specific properties of real (or imaginary) objects. The semantic history of words in many cases clearly reflects changes in the life of society.
- psychological reasons based on the specific characteristics of the associative thinking of a person, in which this or that reality is compared with others or perceived in direct connection. In linguistic theory, they correspond to metaphorical and metonymic migration of nouns.

Analysis and results. The need to review the classifications of verbal units arises from the regular occurrence of changes in the meaning of words; derivational processes affect not only individual words but also word groups. To determine the direction of semantic formation, it is necessary to consider this phenomenon as an example of a group of lexemes united by a common meaning. At present, there are different approaches to the classification of verb lexemes and setting criteria for comparative analysis in the literature. The diversity of the classification of verbs is explained by the wide and complex nature of this sentence from the semantic point of view, the versatility of the verb as a complex linguistic unit, the diversity of verb meanings, lexical-semantics; the classification of the verb is of particular interest. Semantic classification of the verb N. K. Dmitriev, A. A. Aminova, Y. D. Apresyan, L. M. Vasiliev, F. A. Ganiyev, E. V. Kuznetsova, T. A. Kildibekova, R. D. Lizunova, E. R. Tenishev and others. Classification considered but never classified. Lexical-semantic groups and subgroups of verbs emphasize the need for further development of this problem in order to more fully illuminate the content features.

In English linguistics, interest in the semantics of lexemes, especially verbal semantics, has been observed for a long time (see W. Chef, C. Fillmore, R. Longaker, R. Jackendoff, etc.). As far as we know, there is currently no universally accepted oral classification. Therefore, for example, the main idea of V. Chef's approach is that the verb takes center stage in the sentence. Verbs belonging to the second category retain the main meaning of the word organ, but acquire an additional meaning, for example, the verb *urmoq* (to hit) has two meanings: 1) "to beat hard", 2) "by driving a large amount of something into something, to spoil the surface something"; to break something on something,

something on the surface" (see. Pound with a nail) In the second meaning, the main sema is preserved, but the additional effectiveness can already be explained, because the meaning of hitting is not only about z contains, but also information about the final result of this action (see hitting the enemy).

The comparative analysis of processing of verbs in the languages under consideration made it possible to identify the following features. Due to the processing of verbs in Russian and English, changes in the functional state, the causes of the emotional state, interpersonal relations and the execution of actions are filled. Verbs in English also indicate change of state (in this case the verbs are monovalent and mean change of weather), physiological state, speech activity, surprise, negative effect. Among the specific features of semantic derivation, it is possible to distinguish the development of the meaning of intellectual activity in English verbs and the meaning of appropriating someone's property in English verbs.

A common feature of the verbs of the above groups of English languages is the secondary meanings of the room (verbs to change the position of the object), separation, physiological effect and negative effect on the object (verb object etc. damage, etc.), interpersonal relations (verbs that have a negative effect on the object and linking). The systematicity of the semantic construction is confirmed by the difference in the grammatical structure of the producer and the construction; Regular verbs lose the ability to form an aspectual connection (slap someone, "kill"), to lose their reflexive meaning (move, "go crazy"), to acquire transitivity (slam, "miss something"), loses transitivity (sweep "to sweep" - "to walk majestically", mince "to chop" -> "to mince, to walk in small steps") Derivatives related to various LSGs and derivatives synonyms and antonyms clearly emphasize their functional differences.

Conclusions and suggestions. The dynamic aspect of language development has long been the focus of attention of many scientists and researchers. It is known that the phonetic, grammatical and semantic forms of each language follow their own path of development. By analyzing the associative-derivative relations and, accordingly, by determining the laws of functioning of the internal form of the word in the dictionary and speech, the systematicity of the dictionary is revealed and the mechanisms of this systematicity are revealed. Taking into account the above, this study takes into account the important features of the language system, its relevance to dynamic, probabilistic, open systems. These features of the language are manifested in the continuous derivational-motivational process covering different levels and planes of the language, in particular, as shown in the work, in the derivational space of the word as a multidimensional, dynamic and self-organizing structure; the internal form of the word is made with the active participle. It should be noted that although there is constant interest in the field of research, such as the semantic derivation of verbs, some lexical-semantic groups of verb lexemes, for example, verbs of physical action in relation to the subject, are incomplete and incomplete.

REFERENCES

1. Akhmedova Mekhrinigor Bahodirovna. "ANALYSIS AND DIFFERENT INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF SPIRITUALITY". Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.590.
2. Magdalena NGONGO, Akhmedova Mehrinigor. A Systemic Functional Linguistic Analysis of Clauses Relationship in Luke Gospel Text, Janji Baru Using Kupang Malay. Studies in Media and Communication Journal. Vol.11, 2023. - P. 33-40.
3. Fitria Nur Hasanah, Rahmania Sri Untari, Shofiyah Al Idrus, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Excel in Critical and Creative Thinking in Object-Oriented Programming. H. Ku et al. (Eds.): ICARSE 2022, ASSEHR 748, 2023. - P. 301-305.

4. Hazim Hazim, Ratih Puspita Anggraenni, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Altruistic Actions in COVID-19 Corpses Care: Empathy, Modeling, and More. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022), 2023/4/27. - P.476-484
5. Akhmedova Mekhrinigor Bakhodirovna. “‘Spirituality’ language category and its content”. Middle European Scientific Bulletin, vol. 6, Nov. 2020, pp. 57-59, doi:10.47494/mesb.2020.6.115.
6. Bahodirovna, A. M. “Semantic Field and Sema in Uzbek (In the Example of ‘Ma’naviyat’)”. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, vol. 1, no. 4, Oct. 2022, pp. 77-80, <https://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/173>.
7. Akhmetjanova Z.K. Functional-semantic fields of the Russian and Kazakh languages: Experience of comparative study / Z.K. Akhmetzhanova. - Alma-Ata: Science, 1989.
8. Babenko L.G. Functional analysis of speaking verbs, intellectual and emotional activity (based on the material of artistic speech by A. Platonov): Author's abstract. dis. . Candidate of Philology Sciences/L.G. Babenko. Rostov n/d., 1980. - 24 p.
9. Vronskaya Y.V. Cognitive-pragmatic features of statements with verbs of speech in modern English: (Compared with modern Russian): Abstract. dis. . Ph.D. Philol. Sciences/Y.V.Vronskaya. Ekaterinburg, 1998. - 18 p.
10. Gadzhieva N.Z. Verbs of speech in Turkic languages / N.Z. Gadzhieva, A.A. Koklyanova // Historical development of the vocabulary of Turkic languages. M.: Publishing House of the USSR Academy of Sciences, 1961. - P.322-460.



Shahnoza SIDIQOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti tayanch doktoranti
E-mail: shahnozassiddiqova340@gmail.com

O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti katta ilmiy xodimi, f.f.d., Suvon Meli taqrizi asosida

PLOT FEATURES OF ABDUQAYUM YOLDOSH STORIES

Annotation

The article talks about the stories of Abdukayum Yoldosh. Genre-specific characteristics of poetic components such as plot construction, knot, development of events, climax and resolution of the writer's stories are studied. Attention is paid to the poetic interpretation of chronological, retrospective and associative plot types typical of the narrative genre in the writer's work. The division of the writer's stories into parts, the leadership of the psychological image, and the ways of transitioning from one story to another are thoroughly discussed.

Key words: Story genre, literary plot, development of events, knot, climax, types of literary plot, retrospective plot, parts of the story, literary psychology, literary detail.

ОСОБЕННОСТИ СЮЖЕТА РАССКАЗОВ АБДУКАЯМА ЙУЛДОША

Аннотация

В статье говорится об рассказах Абдукаюма Юлдоша. Исследуются жанровые характеристики поэтических компонентов, таких как сюжетное построение, завязка, развитие событий, кульминация и развязка рассказов писателя. Уделяется внимание поэтической интерпретации хронологического, ретроспективного и ассоциативного типов сюжета, характерных для повествовательного жанра в творчестве писателя. Подробно обсуждается деление рассказов писателя на части, руководство психологическим образом, способы перехода от одного рассказа к другому.

Ключевые слова: Жанр рассказа, литературный сюжет, развитие событий, завязка, кульминация, виды литературного сюжета, ретроспективный сюжет, части повести, литературная психология, литературная деталь.

ABDUQAYUM YO'LDOSH HIKOYALARINING SYUJET XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada Abduqayum Yo'ldoshning hikoyalari haqida so'z yuritilgan. Yozuvchi hikoyalarining syujet qurilishi, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kabi poetik komponentlarning janrga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Hikoya janriga xos xronologik, retrospektiv va assotsiativ syujet turlarining yozuvchi ijodidagi poetik talqiniga e'tibor qaratilgan. Yozuvchi hikoyalarining qismlarga ajratilishi, psixologik tasvirning yetakchiligi va voqeadan voqeaga o'tish usullari xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hikoya janri, badiiy syujet, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, badiiy syujet turlari, retrospektiv syujet, hikoya qismlari, badiiy psixologizm, badiiy detal.

Kirish. Zamonaviy o'zbek nasri yozuvchilari orasida hikoya janriga qo'l urmagan ijodkorlarni topish qiyin. Bu avvalo, yozuvchining hayot voqeligini poetik idroklash, qolaversa, hikoyaning muttaasil harakatdagi hozirjavob va kichik hajmda katta gap ayta olish imkonini beradigan janr ekanligi bilan bog'langan. Agar o'zbek hikoyachiligi tarixiga nazar tashlansa, hikoya har bir yozuvchi ijodida yangilanib, kamol topib borganini ko'ramiz. Masalan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev va Nazar Eshonqul hikoyalari qiyosiy aspektda kuzatilsa, yuqoridagi kabi qarashlar oydinlashadi. Bundan tashqari hikoya davr muammolarini o'zida aks ettirishi bilan adabiy-tarixiy jarayon mahsuli ham hisoblanadi. Shu bois, hikoya voqeasi va uning syujet qurilishini tadqiq etish zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan sanaladi. Ayniqsa, mustaqillik davri o'zbek adabiyotida hikoya syujeti va kompozitsiyasi sathida turli-tuman shakl izlanishlarni ro'y bergani masala mohiyatini yanada kengroq yoritish ehtiyoji borligini bildiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ahmad A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Xayriddin Sulton, Abduqayum Yo'ldosh, Ulug'bek Hamdam kabi yozuvchilarning hikoyalari yuqoridagi qarashlarga asos bo'ladi. Masalan, A.Yo'ldosh hikoyalarining syujet qurilishiga e'tibor qilinsa, quyidagilar ayon bo'ladi. Uning hikoyalarida

inson fojiasi va uning ichki olamini psixologik tasviriga alohida e'tibor qaratadi. Yozuvchining "Puanakare", "Diydor", "Biz bo'lmagan joylarda", "Boy", "Quduq" singari hikoyalarida mana shunday insonlar hayoti voqelantiriladi. Adabiyotshunos Abdurauf Fitrat yozadi: "Bir kimsaning hollarini, bir voqeani tasvir etib, rivoya yo'sunli yozilgan asarlarga hikoya deyiladi. Hikoya o'z qahramonining ruhiy hollarini ochib beradi: tirikchiligimizda bo'lub turg'an ko'b voqealarning qorong'u puchmoqlarini oydinlatib ko'rsatadi. Yomonligi tuzukkina sezilmagan ko'b odatlarimizni butun foje' natijalari bilan gavdalandirib, o'zimizga ko'rsatadi. Shuning uchun hikoya hayotda muhim o'rin tutadir" (A.Fitrat, 2009, 84-bet). Yuqorida biz nomini keltirgan yozuvchi hikoyalarida ham jadid mutafakkiri ta'kidlagan xususiyatlar yorqin namoyon bo'ladi. Jamiyatimizdagi tubanliklar, inson fojiasi milliy kolorit bilan ifoda etiladi. Xususan, "Alvido go'zallik" deb nomlangan hikoyada o'sha fojelikni ko'rish mumkin. Asardagi qishloq odamlari – madaniyatni, muomalani bilmaydigan to'pori jamoa. Oysuluv esa ana shu muhitga tushib qolgan tamomila boshqacha ayol. U go'zalikka, san'atga, ma'rifatga intiladi. Ammo johillar to'dasi undagi nafosatni yo'qqa chiqaradi. Sahro odamlari – qotil. Ular Oysuluvdagi iste'dodni, ma'rifatga bo'lgan intilishni, qolaversa, mutafakkirlar dunyoni qutqaruvchi unsur sifatida qaragan go'zallikni o'ldiradi. Oysuluvdan o'zlariga o'xshagan

to'lda vakilasini yaratadi. Asarda qishloqdagilar fojiasini anglagan, vaziyatga to'g'ri baho beradigan yagona obraz – bu roviy. Asar boshida Oysuluv va u tushib qolgan kichik jamiyat (qishloq) muhiti o'rtasida qahramon va muhit konflikti yuzaga chiqsa, roviy va qishloq odamlarining bir-biriga ters fikrlari orqali xarakterlararo konflikt namoyon bo'ladi. Roviyo ovuldagi odamlardan farqli o'laroq atrofda hodisalarni tahlil qila oladi, ovuldagi ahvolning ayanchli ekanini biladi. Shuning uchun ham “tezroq maktabni bitirishni va biror institutga kirishni, ishqilib, bir amallab qishloqdan chiqib ketishni orzu qilib” yuradi. Buning sababi hikoyachi qahramonning keyingi fikrlarida yanada oydinlashadi: “Ovulimizning aksariyat erkaklari ichishni yaxshi ko'rishar, shu sababli to'ylar janjalsiz o'tmasdi; ayollari esa kun bo'yi mol-hol tashvishi bilan band edilar. Kechqurunlari, televizorda biron bachkana, uzundan uzoq serial bo'lib qolsagina ko'pchilik dasturxon atrofida o'tirib, shuni tomosha qilishardi” (5). Asar qahramonlari bo'lmish ovuldagilar shoir Abdulla Oripov kuyunib, “Qachon xalq bo'lasan, ey sen” deb hayqirib murojaat qilgan olomonga aylanib bo'lgan. Roviyo bu holatni – olomon tabiatini, ulardagi nafs ammorani Muslimning to'yi haqida aytilgan bir jumla bilan ifodalab beradi: “To'yda odatdagidek molday to'yib ichib olgan erkaklar janjal qilishdi, ayollar uy-uylariga narsa tashishdi” (5). Roviyo Oysuluvning go'zalligini ta'riflagandan so'ng bolalar uni “Kumush checha” deb chaqirishini aytadi. “Shunda biz ko'rdik, darhaqiqat, kelinchak juda chiroyli edi. Ismiyam jismiga monand: Oysuluv. Atlas ko'ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o'padigan, oppoq yuzli, kipriklari uzun-uzun, jismi nozikkina bu ayolni bolalar negadir “Kumush checha” deb chaqirishardi. O'ziyam kinodagi Kumushga juda o'xshab ketardi-da...” (6). Oxirgi gap ko'p nuqta bilan yakunlanadi. Xo'sh, uning Kumushga o'xshashi faqat tashqi ko'rinishidami yoki bolaning bu gapida uning taqdiri ham qaysidir ma'noda Kumushnikidek, degan pressupozitsiya (yashirin axborot) bormi? Kumushning o'limiga Zaynab tomonidan berilgan zahar sababchi ekanligini bilamiz, ammo bu hikoyada kim kimni (nimani) zaharladi? Ovuldagi tuban shaxslar kelinchakning orzu-umidlari, ibosi, intilishlarini o'limga hukm etdi. Hikoyadan olingan quyidagi parchada bu tubanlik yaqqol namoyon bo'lgan: “Ammo sal keyinroq tasodifan bilib qoldikki, yanga deganimiz shig'ir-pig'ir ham yozarkan. Hatto bir kuni ishga qattiq nonga qo'shib shunaqa narsalar bitilgan qalingina daftarini-yu bir-ikkita rayon gazetasi ko'tarib kelibdi. Bir maqtangisi kelgandir-da sho'rlikning. Buni ayollardan biriga aytibdi ham. Bu gap bir zumda hammaga oshkor bo'ldi-qoldi. Ana shundan keyin yangaga yovqarash kuchaydi. Mashqlar to'la daftar esa birdaniga negadir “xotira daftar” nomini oldi.

– Xotira daftarini kim yozardi, bironi degan, erida ko'ngli yo'q xotin yozadi-da, aylanay...

Bular aytilgan gaplarning mingdan biri edi-yov chamasi. Axiyri bo'lmadi – uyat va nomusdan yuzi lovillab yonayotgan Oysuluv xotinlarning unsiz ma'qullovi va ehtimolki talabi ostida “xotira daftar” va gazetalarni tushlik mahali omonat chaylada o'tirgan mahalimiz qumg'on tagiga tutantiriq izlayotgan oshpaz opaga berib yubordi...” (6). Yuqorida biz nazarda tutgan ko'p nuqta ostiga berkitilgan fikrlar Oysuluvning asar oxiridagi tasviri orqali oydinlashadi. Xullas, u endi tamomila boshqa Oysuluv – o'sha ommaning bittasiga aylanib ulgurgan ayol edi.

Asardagi Muslim obrazi “xotin zotini mensimasligini hammaning oldida isbotlab” gerdayib yuradigan nomardlardan. Uning qanday odam ekanini ayoliga munosabatidan bilsa bo'ladi. Umrida dala yumushlariga o'rganmagan, ketmon bilan oyog'ini chopib olgan Oysuluvga “Ko'zingga qarab ishlasang, o'lasanmi, ey...” deb baqirgach, roviyo tili bilan aytganda, “shu bilan o'z burchimni ado etdim

deb o'yladi shekilli, yana shiyponga, ichishni davom ettirishga” ketadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu hikoyada voqealar ketma-ket tarzda ro'y beradi. Ammo adibning shunday hikoyalari borki, ularda syujetning o'ziga xosligi turlicha namoyon bo'ladi. Xususan, ayrim hikoyalari retrospektiv usulda bayon qilinadi. Umuman olganda, har qanday hikoyaning o'zi bu retrospektiv hisoblanadi. Chunki ro'y berish nuqtayi nazaridan asardagi voqea allaqachon yuz berib bo'lgan, roviyo yoki muallif tomonidan keyin bayon qilingan bo'ladi. A.Yo'ldoshevning aksar hikoyalari voqealar rivoji bilan boshlanadi, ammo muallif hikoyalari orasida syujet voqealari (“Quduq”dagi kabi) tugun bilan boshlanadigan ijodiy namunalar ham yo'q emas. Muallifning “Tilla soat” hikoyasi ham shu tipdagi asarlardan sanalanadi. Hikoyaga “Hammasi oddiygina hazildan boshlandi” degan tugun jumla bilan kirib boriladi. Hazil nimadan iborat ekani, uning sabab-oqibatlar voqealar rivoji davomida oydinlashib boradi. Asar uchun qahramonlar taqdirini o'zgartirib yuborgan tilla soat detali sarlavha qilib tanlangan. Tilla soat bu ayni paytda nafs timsoli deb aytish mumkin. Asarda do'stining mastligidan foydalanib, avval boshda hazil qilaman deb uning tilla soati va pullarini olib qo'ygan, keyinchalik fikri o'zgarib, nafs qutqusiga uchgan qahramonga muallif Sodiq ismini tanlagan. Muallifning qahramon xarakteriga teskari ma'nodagi ismi tanlashi ma'lum ma'noda o'quvchi diqqatini tortadi.

“Tilla soat” ham yozuvchining boshqa hikoyalari kabi qismlarga ajratilgan holda beriladi. E'tibor beradigan bo'lsak, A.Yo'ldoshevning deyarli barcha hikoyalari tuzilish jihatidan bir necha qismlarga bo'lingan. Qismlarga bo'lish orqali muallif o'z oldiga bir necha maqsadlar qo'yadi. Xususan, “Tilla soat”da birinchi qismda tugun (hammasiga hazil sabab bo'lgani va voqea nimadan boshlangani) bayon qilinsa, ikkinchi qismda voqealar rivoji (bu hazil nimadan iborat ekani), uchinchi qismda esa yechim (vaziyat nimalarga olib kelgani, sabab-oqibatlar ifodalanadi). “Quduq” va boshqa bir qator hikoyalarda ham muallif voqeadan voqeaga asarni qismlarga ajratish orqali o'tadi. Bir qism tugab, boshqasiga o'tilgani sari hikoyadagi fojeliq ortib boradi. A.Yo'ldoshev ijodi haqida gap ketganda adibning “Puankare” hikoyasini tilga olmaslikning iloji yo'q. Nega deganda, ushbu asarni yozuvchi ijodining gultoji deb atash mumkin. “Puankare” – ayni paytda biz qo'rqan narsalar haqida so'zlovchi hikoya. “Puankare” – orzu-maqsadlari yakson bo'lgan bir armon hikoyasi, achchiq haqiqatlar, xato tanlovlar, ularning natijasida yuzaga kelgan anglatib bo'lmas iztirob ifodasidir. Hikoyada inson fojiasi ayanchli tarzda tasvirlanadi. Asar matematika sohasidagi buyuk fransuz olimi Puankare nomi bilan ataladi. Hikoya qahramoni ham matematik, u bir umr Puankare gipotezasini isbotlashga harakat qiladi. Bu yerda Puankare – inson maqsadlarining timsoli. Hayotda inson orzu-maqsadlariga yetishish uchun harakat qilar ekan, bu yo'lda qancha zahmat-mashaqqat chekishga, turli to'siqlarni yengib o'tishga to'g'ri keladi. Ammo achinarlisi shundaki, hamma orzu-maqsadlar ham biz kutgan tarzda amalga oshavermaydi. Hikoya qahramoni – hayotini ilmga bag'ishlashni istagan ziyoli inson, ayni paytda oila qadrini biladigan, atrofda odamlarni o'ylaydigan insofli, oilaparvar, shuningdek, murosali kishi. Matematik umri davomida uni tushunmaydigan ilmsiz, ilmning qiymati, mohiyatini bilmaydigan ayol bilan hayot kechiradi. Bu ikki obraz orqali hikoyada xarakterlararo konflikt yaqqol namoyon bo'ladi. Boshda hikoya matematikning portfeli haqidagi fikrlari bilan, so'ng do'sti haqidagi xotiralari va universitetda hammaning og'ziga tushgan “o'timishi” to'g'risidagi fikrlar bilan boshlanadi. Voqealarni bayon qilishda muallif retrospektiv syujetdan foydalanadi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning retrospektiv haqidagi qarashlarini keltirib o'tish o'rinni: “Retrospektiv deb ataluvchi bu usulning mohiyati shuki, unda yozuvchi syujet

voqealarini, ya'ni faqat oldinga oquvchi vaqtni go'yo to'xtatib qo'yadi-da, o'tmishda bo'lib o'tgan voqeani tasvirlashga o'tadi... Garchi syujetning alohida turi sifatida tasnif etilmasada, ayrim adabiyotlarda u syujet kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan retrospektiv syujet deb farqlanadi. Odatda, bunday syujet qahramonning o'tmishda yuz bergan voqealarni, ba'zan hatto butun umrini tahliliy nazardan o'tkazishi asosiga quriladi" (Quronov D, 2018, 189-190-betlar). Biz yuqorida nomini keltirgan "Puankare" hikoyasida ham aynan qayta eslash orqali qahramon hayoti tahliliga nazar tashlangan. Hikoya 9 ta qismga bo'lingan. Birinchi qism voqealarga kirish bo'lib, u hikoya qahramoni va muhit xususida boshlang'ich tasavvurni uyg'otadi, ikkinchi qismdan boshlab voqeahodisalar oydinlashib boradi. Aynan shu qismdagi "Institutni bitirish arafasida men kutilmaganda Puankare gipotezasining shaydosiga aylandim" jumlasini orqali hikoyada tugun yuzaga keladi. Voqealar rivojida qahramonning turmushi, oilaviy ahvoli bilan bog'liq hodisalar ifoda qilinadi. Olaxurjun bo'yniga tushgach u oilaviy tashvishlar, tirikchilik vajidan ilmiy ishiga ham, hayotini bag'ishlashga tayyor bo'lgan azaliy maqsadiga ham yetarlicha vaqt ajratolmaydi. Buning oqibatida butun istaklari, xayollari chippakka chiqadi. Ilm matematik uchun najot edi, shu najotning yo'qolishi qahramon hayotida fojeliq yasadi. Puankare qahramon hayotining mohiyati edi.

Asardagi fojeliq faqatgina keksa matematikning ahvoli bilangina bog'liq emas. Zotan, unda qayta umid uyg'ongan, yosh talaba bilan birga orzusiga yetmoq g'ayrati yana paydo bo'lgandi. Asl fojia o'sha g'ayrat, o'sha umidning ikkinchi bor qayta so'nishi edi! Muallim o'z hayotining shogirdida takrorlanayotganini ko'rib ado bo'lgandi. Undagi insoniylik, boshqalarni tushunish hissi shu darajada ediki, o'z turmushi yaxshi emasligiga, ayolining har kungi ta'na-dashnomlariga qaramay, portfelidagi pullarni bir kunlik shogirdiga to'yona qildi. Asardan olingan quyidagi jumlar ham qahramonning ichki portretini chizishda muhim ahamiyat kasb etgan: "Men yana ilmga qaytmoqda edim. Dilimning qay qorong'u, hammaning, hatto o'zimning ham nigohimdan pinhon puchmoqlarida bir telbavor o'y kezardiki, mabodo Xudo "Ol, qulim" desa-yu, talaba ikkalamiz gipotezani yechsak, men... men mukofot pulidan voz kechaman. Mayli, talaba olsin, unga kerakdir. Ammo men o'zimga tegishli besh yuz ming dollardan voz kechaman. To'lalagicha! Illo... illo men bir asrdan beri jumboq bo'lib kelayotgan gipotezani isbotlab, kashfiyotga erishgan mahalim his qilgan shodligimni, baxtimni yarim million dollardan qimmat deb hisoblagan bo'lardim. Tushuntirib berolmadimmi? Buni tushunish uchun odam haqiqiy matematik bo'lishi kerak. To'g'ri, puldan voz kechganimni eshitgan xotinim meni tiriklay g'ajiydi, bolalarim nafat bilan qarashadi, tanish-bilishlarim telbaga chiqarishadi. Ammo men qaribir shunday yo'l tutaman. Nazarimda, talaba ham shunday qiladiganday. Axir uning tomirlarida ham asl matematikning qoni oqmoqda..." (Iyldosh A., 2014, 122-6et)

Hikoyadagi ayrim o'rinlar orqali qahramon tabiatida biroz qat'iyatning yetishmaganligi, yumshoq fe'lilik ko'p hollarda matematik zarariga ishlaganligining guvohi bo'lamiz. Farzand tarbiyasi borasida ham ayolining aks ta'siri qahramon nutqidan sezilib turadi. Asar qahramoni har gapida matematik qonuniyatlarni yodga oladi-yu, ammo hayot qonuniyatlariga yaxshi e'tibor bermagani tufayli xato tanlovlar qiladi. "Tanloving xato bo'lsa, to'loving umr bo'ladi" deganlaridek, umr bo'yi azoblar iskanjasida yashaydi.

Qahramonlar xarakterini tasvirlashda, umuman, ushbu hikoyaning "yo'zib tashlanishida" hayotiy voqealiklar muhim o'rin tutgan. Muallif uchun ana shu turkii professor Qozoqboy Yo'ldoshevning o'zbek ayollari haqida aytgan gaplari bo'lgan. Yozuvchining aytishicha, ularni televideniya, suratga olishga chaqirib qolishadi va suv bo'yiga olib borishadi. Kun qizigan payt, ular turgan ko'priq tagidan bir ariq suv sharillab oqar, ikkala qirg'oqdagi soya-salqin joylarda dam oluvchilar,

ularning aksariyati rus, koreys millatiga mansub erkak-ayollar edi. Shu payt Q.Yo'ldoshev olimlarga xos zukkolik bilan: "Agar o'zimizning ayollarni olib kelsangiz, bog'lab qo'ysangiz ham turishmaydi. Axir ularning boshida bir olam tashvish: to'y, ma'raka, charlar..." - deb aytadi. Shu gapdan keyin o'zidagi holatni yozuvchi shunday aytib beradi: "Shunda men, deylik, eri bir amallab dam olishga olib kelgan va hattoki, ketib qolmasin, dam olsin degan o'yda bog'lab qo'ygan ayolning qalin-qalin arqonlarni jon-jahdi bilan, tishlarini ishga solib yechib-uzayotganini tasavvur etdim-u, kulib yubordim. Ammo... Qozoqboy akaning qolgan gaplarini eshitmadim" (Iyldosh A., 2014, 276-6et). Xuddi shu narsa hikoyada matematikning ayoliga ko'chiriladi. Bu tasvir asarda quyidagicha ifoda etiladi: "...Xullas, agar, sal yumshoqroq iboralarda ifodalaydigan bo'lsak, shu paytgacha dam olmagan fidoyi xotinim bundan keyin ham dam olishni xayoliga keltirmas ekan, chunki uning uchun - mendek tepsa tebranmas, loqayd, dangasa erdan farqli ravishda - bolalarning baxti to'kis bo'lishi muhim ekan, bu to'kislik esa el qatori o'tkazilgan to'yda namoyon bo'larkan... va hokazo va hokazo (Ha, bu xotin dam olish-pam olishga bormaydi, mabodo sanatoriya-panatoriyaga oborib, bog'lab qo'yib qaytsam, arqonlarni tishlab-uzib, uzolmagan taqdirda esa hakkalab bo'lsa ham mendan burun uyga yetib keladi)" (Iyldosh, A., 2014, 127-128-betlar).

Qahramon holati-yu ahvolotini ochishda portfel detali ham muhim ahamiyat kasb etgan. Portfel ayni paytda muallimning qiyin hayot tarzi, turmushidagi yetishmovchilikni ko'rsatsa, boshqa tomondan bu detal uning orzu-maqsadlari bilan bog'liq. Qolaversa, bu yerda hech kim bas kelolmaydigan vaqt masalasi ham bor. Shafqatsiz vaqt nafaqat portfelga, balki unda saqlanadigan orzu-umidlarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Asar boshlanmasida aytilganidek, "vaqt ta'sirini o'tkazmaydigan narsaning o'zi qolmabdi. Hatto asl mol ham uning qoshida o'z ekan". Hikoyada bu haqda yana bir qancha fikrlar keltirilgan. Ular orasida, ayniqsa, uchinchi qism boshlanmasi bo'lib kelgan quyidagi jumlar kishini o'yantirib qo'yadi: "Vaqt, vaqt, vaqt... U bunchalar tez o'tadi? Qayoqqa bunchalar shoshadi? Bu qattol shiddat inson umrini tushga, ro'yoga aylantirib qo'ymaydimi? Uxlading-u, uyg'onding. Qisqagina davom etgan tushingda esa butun umringni ko'rding. Bunchalar shafqatsizsan, vaqt..." (Iyldosh, A., 2014, 100-6et). Turmush muammolari, jamiyat hayotidagi kemtikliklar ham asarning voqealar rivoji fonida ifoda etilgan deyish mumkin. Yozuvchi Tog'ay Murod: "Olam ufqqa borib tamom bo'ladi, odam umidini yo'qotib tamom bo'ladi", - degan edi. Asar bosh qahramoni ham oxirgi ilinjini yo'qotib tamom bo'ldi. Uning ilmiy ishi nihoyasiga ham, gipoteza isbotini topishiga ham bir necha qadam qoladi, ammo oilaviy vaziyatni yaxshilash uchun qahramon bularni ortga suradi. Natijada, bir kuni Parelman ismli shaxs gipotezaning isbotini aniqlagani ma'lum bo'ladi. Xuddi shu nuqtani asarning kulminatsiyasi deb olishimiz mumkin. "Shoiralar aldaydilar. Nima emish, qandaydir bir mavzuni yozmoqchi bo'lib yursang-u, uni sendan oldin kimdir qog'ozga tushirib qo'ysa, bundan xursand bo'lishing kerak ekan. Bekor gap! Ehtimol adabiyotda shundaydir, ammo aniq fanlarda emas. Men unaqangi bag'ri keng odam ham emasman. Men ichi qora odamman. Xudo shohid, bu olamshumul yangilikni o'qiganimda butun vujudimni hasad va alam fasodi to'ldirdi. Men o'zimni tishlab tashlaguday ahvolga tushdim: "Nega u? Nega u? Nega men emas..." (Iyldosh, A., 2014, 129-6et) Hikoyaning aynan shu nuqtalarida qahramon ruhiyatidagi fojeliq cho'qqiga chiqadi. Qahramon uning uchun hayot o'z ma'nosini yo'qotganligini aytib, "ammo bu hali holvasi ekan" deydi. Undagi alamning, dardning avj nuqataga ko'tarilib borishi keyingi jumalalarda ham yaqqol namoyon bo'ladi: "Tez orada saytda Perelmanning gipoteza yechimi ifodalangan maqolalarini e'lon qilishdi. E, Xudo, bu nima degan gap!

Menga yana qanday jazoying bor? Qachongacha ustimdan kulasan? Axir... axir bu to'qson to'qqiz butun-u yuzdan to'qson to'qqiz foiz mening yechimim-ku!!! Axir men to'g'ri yo'ldan borgan ekanman-ku. So'nggi nol butun yuzdan bir foiz ish qolgan ekan-ku! Bir oygina, yo'q, yo'q, ko'pi bilan bir haftagina qimirlamay o'tirib ilm qilganimdami, gipotezani o'zim isbotlagan bo'lardim..."(Йўлдош, А., 2014, 129-бет). Qahramon Yaratganga isyon qilishni xohlamaydi. Buni Xudoning aybi emasligini ta'kidlaydi, ammo ichida alanga olayotgan alam otashiga ham bardosh bera olmaydi: "Nega? Nega axir? Garchand bilaman, bu sening aybing emas, biroq nima qilay, o'zim o'zimni ayblaymi? O'zim o'zimni jazolaymi? Bu bilishim menga azob-iztirobdan o'zga nima olib keladi, nima?..."(Йўлдош, А., 2014, 129-130-бетлар). Qahramon tilidan aytilgan bu gaplar kitobxonni larzaga keltiradi, ayniqsa, uning alamli va ojiz holati "Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim..." degan jumllarida aks etadi.

Aksariyat hikoyalarda tugun, voqealar rivoji va kulminatsiyadan so'ng, albatta, yechim beriladi. Ammo "Puankare" xususida bu fikrni ayta olmaymiz. Hikoyaning oxirgi (VIII-IX) qismlari qahramon emas, balki muallif tilidan bayon qilinib, go'yo kitobxonni yechimga olib borayotgandek tuyuladi, lekin hikoya so'ngida aniq bir yechim berilmaydi. Zero, matematikning iztiroblar natijasida aqlan ozishi yoki "Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar" degan o'kinch to'la o'tinchining so'nishi – bu yechim emas! Hikoyadagi yechimni oldiga biror maqsad qo'ygan har qanday kitobxon o'z hayotidan topadi. Bizningcha, muallifning badiiy maqsadi

ham shu. Bugun "Puankare"dagi matematik bir o'zi yig'lamadi, u bilan birga biz ham yig'ladik. Bu safar u Xudoga yolg'iz o'zi iltijo qilmadi. Unga qo'shilib biz ham Yaratganga yolvordik: "Xudoyim! Uni o'ttiz yil orqaga qaytar, qaytar, Xudoyim!..".

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, A.Yo'ldosh hikoyalari shakl va mazmun birligi, syujet tartibining o'ziga xosligi, hikoyalarda inson fojiasi avj pardalarda kuylanganligi bilan ajralib turadi. Adib hikoyalari aynan quyidagi o'ziga xosliklar yaqqol namoyon bo'ladi:

Muallif konsepsiyasini ifodalovchi voqealar muayyan qismlarga bo'linadi.

Voqealar tizmasini shakllantirish, voqeadan voqeaga o'tishda muallif hikoyani turli qismlarga ajratish usulidan mahorat bilan foydalanadi.

Yozuvchi voqealarni bayon qilishda retrospektiv syujetga murojaat qiladi.

Adib bevosita ishtirok etgan hayotiy voqea va suhbatlar asar qahramonlari tabiatining jonli chiqishiga sabab bo'ladi.

"Puankare" muallif ijodidagi inson fojiasi yuksak darajada ochib berilgan eng yaxshi hikoya bo'lib, unda bayon qiluvchi bir shaxsdan ikkinchisiga ko'chadi. Ya'ni asar boshida "men" tilidan hikoya qilingan bo'lsa, VIII-IX qismlarda roviy vazifasini muallifning o'zi bajaradi.

Muxtasar qilib aytganda, A.Yo'ldosh hikoyalari o'zbek hikoyachiligida o'z o'miga ega bo'lgan ijodiy namunalari sirasidandir.

ADABIYOTLAR

1. Fitrat. (2009). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
2. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
4. Йўлдош, А. (2014). Пуанкаре. Ташкент: Академнашр.
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-alvido-go-zallick-hikoya>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-tilla-soat-hikoya>
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduqayum-yoldosh-puankare-kitobidan.htm>



UDK: 81'373.46:811.512.133

Baxodir SUYUNOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: Bahodirsuyunov66@gmail.com

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d. S.Muhamedova taqrizi asosida

THESAURUS IS A FACTOR OF LINGUISTIC DEVELOPMENT

Annotation

This article discusses the thesaurus and its types, as well as the application of computer technologies to the dictionary. The author purposefully used scientific sources in Uzbek and Russian languages, as well as various dictionaries and scientific research works to cover the topic. Instead, referring to examples and proofs that confirm certain concepts and events, he drew relevant scientific conclusions and gave practical recommendations.

Key words: thesaurus, homonym, synonym, antonym, paronym, lexicon, semantics, hyponym, hyperonym, adequate, system, computer, linguistics, corpus, engineering.

ТЕЗАУРУС – ФАКТОР ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье ведется рассуждение о тезаурусе и его видах, а также о внедрении в словароведение компьютерных технологий. При освещении темы автор целенаправленно использует научные источники в узбекском и русском языках, а также различные словари и научно-исследовательские работы. Уместно обращаясь к примерам и фактам, подтверждающим определенные понятия и явления, сделал соответствующие научные выводы по теме и дал практические рекомендации.

Ключевые слова: тезаурус, омоним, синоним, антоним, пароним, лексика, семантика, гипоним, гипероним, адекват, систем, компьютер, лингвистика, корпус, инженеринг.

TEZAURUS – LINGVISTIK TARAQQIYOT OMILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, tezaurus va uning turlari, shuningdek lug‘atchilikka kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish xususida fikr-mulohaza yuritilgan. Muallif mavzuni yoritishda o‘zbek va rus tilidagi ilmiy manbalar hamda turli xildagi lug‘atlar va ilmiy tadqiqot ishlaridan maqsadli foydalangan. O‘rni bilan ma‘lum tushuncha va hodisalarni tadqiqlovchi misollar va dalillarga murojaat qilib, mavzu yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqargan hamda amaliy tavsiyalar bergan.

Kalit so‘zlar: tezaurus, omonim, sinonim, antonim, paronim, leksika, semantika, giponim, giperonim, adekvat, sistem, kompyuter, lingvistika, korpus, injenering.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son Farmoni ona tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzini, jamoatchilikning davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni yanada oshirdi [1]. Bu esa o‘z navbatida ona tilimizga kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish, kompyuter lug‘atlari (tezaurus)ni yaratish vazifalarini qo‘yadi.

Tezaurus – hozirgi kundagi zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o‘rtasidagi semantik aloqalar – omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqa tushunchalarni ko‘rsatadigan umumiy yoki maxsus lug‘at, shunday lug‘atlarning maxsus turi hisoblanadi.

Nazariy jihatdan tezaurus leksik-semantik tizimning ehtimoliy modellaridan biridir. Amalda undan individual lug‘atni boyitish va tezkor qidiruv vositasi sifatida foydalaniladi.

Tezaurus termini ikki xil ma‘noda ishlatiladi:

1. Muayyan leksik birlik semantikasiga oid lingvistik tahlillarga asoslangan to‘liq ma‘lumot yoritilgan lug‘atlar;

2. Bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmui.

Tezaurus milliy til, qayta ishlangan tabiiy til, axborot uslubi sifatida shaklangan sun‘iy til semantikasini belgilaydi. Dunyoning rivojlangan tillaridan hisoblangan ingliz, rus tillaridagi tezauruslar milliy korpuslarning tarkibiy qismi

sifatida ma‘lumotlar bazasi va tadqiqotlar uchun material bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu lug‘at boshqa lug‘atlardan farqli o‘laroq, biror bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birliklar yoki biror mavzu tarkibida joylashtirilgan ana shunday birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug‘atdir.

Tezaurus umumiy ma‘noda – maxsus terminologiya, ya‘ni lug‘at, ma‘lumotlar yig‘indisi, korpus yoki jamlanma, ma‘lum sohadagi bilimlar yoki faoliyat sohasidagi tushunchalar, ta‘riflar va terminlarni to‘liq o‘z ichiga oladi.

Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksik birliklarni yoppasiga terib olishga asoslangan (masalan, yunon, lotin tillariga tuzilgan) lug‘atlar tezaurus hisoblanadi. So‘z tanlash tamoyillariga ko‘ra yozuvchilar yoki ularning ijodiga mansub biror asar tili bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar ham tezaurus bo‘ladi.

U leksik-semantik, korporativ kommunikatsiya (bir fan yoki kasb orqali o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslarning mulqotda bir-birlarini tushinishlari) uchun xizmat qiladi. Tezauruslar ma‘lum bir fanni talqin qilishda muhim vositalardan biridir.

Lug‘at va tezaurus tushunchalarini qiyoslasak, unda har ikkisi so‘z va uning ma‘nolarini bilish uchun xizmat qilsa-da, biroq ularning so‘z ma‘nolari haqida ma‘lumot berish usullari har xil, ya‘ni o‘zaro farqlanadi.

Lug‘at va tezaurus so‘zlari lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra, ot hisoblanadi. Lug‘at ko‘proq til o‘rganuvchilar tomonidan so‘zlarning ma‘nolari, talaffuzi va orfografiyasini aniqlash

uchun ishlatilsa, tezaurus tadqiqotchilar tomonidan so'zning sinonim, antonim, omonim va boshqa ma'no shakllarini topish uchun ishlatiladi.

Tezaurus – so'z yoki terminning tegishli tushunchalar guruhidagi ro'yxati. U murojaat qilinayotgan so'z bilan bir xil bo'lgan boshqa so'zlar to'g'risida ham keng qamrovli ma'lumotlar beradi.

Aksariyat tadqiqotchilar sinonim, antonim, paronim va boshqa shu kabilarni bilish uchun tezaurusdan foydalanishadi. Odatda, tezaurus tilda so'zlarning kelib chiqishiga unchalik bog'liq bo'lmaydi, xususan, so'zlarning etimologiyasi haqida qo'shimcha ma'lumotlar bermaydi. Ammo, tezaurus so'zlarning boshqa shakllari, masalan, nominal shakllari, sifatlar va adverbial shakllar haqida juda ko'plab ma'lumotlar beradi.

Lug'at – bu tildagi so'zlarni (odatda alifbo tartibida) ro'yxatga oladigan va ularning ma'nosini izohlab beradigan yoki shunday so'zlarni boshqa tilda beradigan, ko'pincha to'g'ri talaffuz haqida ma'lumot beradigan kitob yoki elektron manba hisoblanadi. Boshqacha qilib ifodalasak, lug'at tildagi so'zlar haqida bilim beradigan etimologik va grammatik vositadir.

Lug'atda so'zning jinsi va nutqda ishlatilishi haqida qo'shimcha ma'lumotlar mavjud. U tildagi birorta so'z bilan bir qatorda, unga qo'shimcha ravishda ma'lumotlar ham berishi mumkin. Lug'at bir nechta aniq tillarda tuzilishi mumkin, masalan, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarda. Bir tilda tuzilgan lug'atda boshqa tillardagi shu so'zning ekvivalent ma'nolari ham beriladi. Odatda, bu sifatlar tezaurusga tegishli emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Birinchi zamonaviy ingliz tili tezaurusi Piter Mark Roger tomonidan 1805 yilda yaratilgan. Mazkur tezaurus 1852 yilda Angliyada nashr etilgan, taxminan 15 mingta tushunchani o'z ichiga oladi va shu vaqtdan beri foydalanib kelinadi. Bunday lug'atlarning asosiy maqsadi matn yozishda tegishli so'zlarni tanlashga yordam berish, mavzu doirasida atama yoki termin o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni qidirib topishdan iborat. Bunday lug'atlar ma'lum bir soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan va mavzu doirasidagi ma'lumotni qidirib topish uchun mo'ljalangan.

1870 yillarda tezauruslardan ma'lumot izlash ishlarida faol foydalanila boshlandi. Shunday lug'atlardan yana biri Vikilug'at deb ataladi. U ko'p tili bepul yangilanadigan lug'at va tezaurus bo'lib, "Vikimediya" fondi loyihasi doirasida yaratilgan va 2004 yildan hozirgi kungacha ishlatilib kelinadi. Unda 250 mingta tushuncha va 67 mingta semantik munosabatlar o'z aksini topgan.

Rus tilidagi xuddi shunday tezauruslardan biri "RuTez" deb nomlangan. Bu lug'at 1997 yilda Axborot tadqiqotlar markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya vositasi sifatida yaratilgan. U hozirgi kunga qadar ishlab chiqilgan 45 mingta tushuncha, 107 mingta so'z va iboralar, 177 mingta semantik munosabatlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida tezaurus terminiga quyidagicha izoh berilgan: "Tezaurus – muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'la-to'kis aks ettiradigan lug'at" [2].

Tezaurus – bu lug'atlar tushunchasi va uning birliklari o'rtasidagi sobit semantik aloqalar bo'lib, har ikkala mustaqil xususiyat ham tushuncha aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

"Tezaurus termini, avvalambor tilning lug'at fondini maksimal darajada to'liqlik bilan ifodalaydigan xazina sifatida talqin etiladi. Matnlarning adekvat talqini va ma'lumotlari uning sistem ma'nolarini o'zida mujassam etgan va soha vakillari tomonidan e'tirof etilgan tezaurusda aniqlanadi" [3].

Hozirgi vaqtda ushbu tushunchaga kompyuter texnologiyalarida so'zlarni qidirishda axborot

texnologiyalarining tarqalishi, Internet va mashinalarning tarjimasi bilan bog'liq lug'atlar kiradi. Psixologiyada shaxsning tezaurusi ma'lumotni idrok etish va tushunish bilan xarakterlanadi. Bunda aloqa nazariyasi va uning elementlari o'zaro ta'sir ko'rsatadigan murakkab tizimning umumiy tushuncha-tezislari ko'rib chiqiladi.

Kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo'lgan tezauruslar leksemalarning o'z va ko'chma ma'nolari, kommunikativ xususiyatlari, emotsional-ekspressiv funksiyalari haqida keng ma'lumot berishi bilan qimmatlidir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, korpus tushunchasiga doir ilk ma'lumotlar XX asrning qirqinchi yillarida yuzaga kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan [4]. O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari sifatida keng o'rganila boshladi.

Xususan, Sh.M. Hamroyevaning "O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari" nomli dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida birinchi marta korpus, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, til korpusining lingvistik hamda nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan [5].

Shuningdek, korpus lingvistikasining shakllanish tarixi, taraqqiyot yo'li, o'ziga xos xususiyatlari va bugungi holati masalalari atroflicha talqin qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-son qarori (2019 yil 4 oktabr), "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni (2020 yil 20 oktabr) hamda tilshunoslik sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda davlat tilini yanada rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish, maishiy xizmat, harbiy, tibbiyot va boshqa sohalarda keng qo'llanilayotgan xorijiy so'z va terminlarning o'zbekcha muqobillari va ularning lug'atini yaratish, o'zbek tiliga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarni qo'llab-quvvatlash singari dolzarb masalalar ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi Farmon va qarorlar ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilini jahon tillari qatorida rivojlantirish, uni dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o'rganish hamda o'rgatishda kompyuter lingvistikasi fani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma'lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining mashina yordamida qisqa muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslik yo'nalishlaridan biridir. "Amaliy lingvistika" termini esa ko'p ma'noli termin bo'lib, bu termin umumtilshunoslikda har xil talqin qilinadi. G'arb tilshunosligida applied linguistics, angewandte linguistik termini, birinchi navbatda, o'qitish metodikasi, grammatik xususiyatlarni qamrab olgan holda, ona tili va chet tillarini o'qitish amaliyoti bilan bog'lanadi.

Aslida mazkur tushunchalar kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqilishi va axborotni qayta ishlash tizimi (boshqaruvning avtomatlashgan tizimi, informatsion qidiruv tizimi, matnni qayta ishlashning avtomatik tizimi) shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

Xorijiy tillar, jumladan rus tilida yaratilgan tezauruslar o'rganilganda ularning tuzilishi, modellari jihatidan har xillikni kuzatdik [6]. YA'ni tezaurus tuzishda bir xil prinsip yoki kriteriy mavjud emas, shuningdek axborot qidiruv jarayonida foydalanuvchilarga qulaylik yaratishga asosiy e'tibor qaratilganini ko'ramiz.

Ayrim rus tilidagi adabiyotlarda, ko'p hollarda, "kompyuter lingvistikasi" ("computational linguistics"), "hisoblash lingvistikasi", "avtomatik lingvistika", "injener lingvistikasi" tarzida qo'llaniladi [7]. Amaliy lingvistikaning mazkur nomlar bilan yuritilishi uning faoliyati xarakterini belgilaydi. Ushbu terminlarda amaliy lingvistikaning integratsiyaga asoslanishi, avtomatlashish xususiyati o'z ifodasini topgan.

Mavjud tezaurus maqolalarining modellari (O.Baranov, S.YE.Bikova, N.R.Valitova, YE.V.Smirnova va boshqalar izlanishlarida qayd etilgan) va boshqa tadqiqotlar xarakteridan kelib chiqib [8], tezaurus maqolasining quyidagi umumiy modelini keltirish mumkin:

termin; 2) aniqlovchi; 3) sinonimlari; 4) antonimlari; 5) golonimlari; 6) o'z ichida komponent, belgi, funksiya, xususiyat, aspekt munosabatlarini qamrab oluvchi meronimlari; 7) giperonimlari; 8) giponimlari.

Xulosa va takliflar. Tezaurus – bu umumiy ma'noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta'riflari, atama yoki terminlarini to'liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, yanada qat'iy va obyektiv ravishda lug'at, ma'lumotlar to'plami, korpus yoki kod, demakdir.

Tilda tezauruslar elektron formatda, alohida fan sohalarini tavsiflashning samarali vositalaridan biri bo'lib, biror fan yoki kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar va shu munosabatlardagi tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tezaurusning milliy tilshunoslikka tatbiq etilishi axborotlarning tezkorlik bilan o'zlashtirilishi, shuningdek bajariladigan amallarning aniqligini ta'minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi har bir tilning o'ziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qo'yandagina lingvistik taraqqiyot omili bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. "Халқ сўзи" газетаси // 2019 йил, 22 октябрь, 218-сон.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2004
3. Валитова Н.Р. Формирование профессионального тезауруса у студентов физкультурного вуза. Автореф. на соиск. уч. степени канд. пед. наук. – Омск, 2012
4. Кутузов А.Б. Курс "Корпусная лингвистика". Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported - // lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf.
5. Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. ф. бўйича ф.д.(PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2018
6. Лукова В.А. таҳрири остида "Тезаурусный анализ мировой культуры". Сборник научных трудов. // – М.: 2013., Крюкова М. И. Экфрастический тезаурус в прозе А.С.Грина. Дисс., на соиск уч. степени к.ф.н. // – Новосибирск: 2018 ва б.
7. Баранов А.Н.таҳрири остидаги "Словарь тезаурус современной русской идиоматики". – М.: "Мир энциклопедии", 2007
8. Баранов О. Русский тезаурус (Электронное издание). – М.: 2014
9. Быкова С.Е. Тезаурусное моделирование юридической терминологии (на материале французского языка в сопоставление с русским). Автореф. на соиск. уч. степени канд. фил. наук. – Екатеринбург, 2006
10. Валитова Н.Р. Формирование профессионального тезауруса у студентов физкультурного вуза. Автореф. на соиск. уч. степени канд. пед. наук. – Омск, 2012
11. Смирнова Е.В. Структурно-семантические и лексикографические аспекты медицинской терминологической (на примере кардиологической лексики). Автореф. дис. на соискание уч. степени канд. филол. наук. – Ярославль, 2012. – 48 с.
12. Суёнов Б.Т. Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси. Монография. – Тошкент: 2022
13. Суёнов Б.Т. Тезаурус – ҳозирги замонавий лугат тури. IX Global science and innovations 2020: Central Asia. International scientific practical conference. Kazakhstan, Nur-Sultan (Astana).
14. Суёнов Б.Т. Tezaurus va uni turkiy tillarga tatbiq etish. "Turkiy filologiyaning dolzarb masalalari, nazariya va innovatsion ta'lim texnologiyalari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami / Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti. – Нукус: 2021



Dilbar TURAYEVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi(PhD)
E-mail: DilbarTurayeva9977@gmail.com

BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) M. G. Rustamovna taqrizi asosida

THE EMERGENCE OF THE AUTHOR'S PUNCTUATION AND NEW TRADITIONS IN THE PUNCTUATION SYSTEM

Annotation

The strengthening of the tradition of using punctuation marks according to the author's style made it possible to use punctuation marks in a way that does not obey the norm. Author's punctuation - the occasional usage of punctuation marks according to the author's style, although observed since the 18th century, reached its final stage of development at the end of the last century. These traditions entered the Uzbek script through the punctuational calka in the process of translation of artistic and scientific works written in English and Russian into Uzbek language.

Key words: Linguistics, punctuation, author's punctuation, tradition.

ПОЯВЛЕНИЕ АВТОРСКОЙ ПУНКТУАЦИИ И НОВЫЕ ТРАДИЦИИ В СИСТЕМЕ ПУНКТУАЦИИ

Аннотация

Укрепление традиции использования знаков препинания в соответствии со стилем автора позволило использовать знаки препинания не подчиняющимся норме. В пунктуации авторская пунктуация - периодическое употребление знаков препинания по авторскому стилю, хотя и наблюдается с XVIII века, но окончательной стадии своего развития достигла в конце прошлого века. В процессе перевода на узбекский язык художественных и научных произведений, написанных на английском и русском языках, эти традиции вошли в узбекскую письменность.

Ключевые слова: Языкознание, пунктуация, авторская пунктуация, традиция.

MUALLIF PUNKTUATSIYASINING YUZAGA KELISHI VA PUNKTUATSION TIZIMDAGI YANGI AN'ANALAR

Annotatsiya

Tinish belgilaridan muallif uslubiga ko'ra foydalanish an'anasining kuchayishi tinish belgilarining me'yorga bo'ysunmagan tarzda qo'llanishiga imkon yaratdi. Bu holat "tinish belgilarining qo'llanishi yozuvchining "shaxsiy didi"ga bog'liq bo'lib qolishi", deb izohlandi. Puntuatsiyada muallif puntuatsiyasi - tinish belgilarining muallif uslubiga ko'ra okkozional qo'llanishi garchi XVIII asrdan kuzatilsa-da, o'tgan asr oxirlarida o'z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga ko'tarildi. Ingliz, rus tilida yozilgan badiiy, ilmiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu an'analar puntuatsion kalka asosida o'zbek yozuviga ham kirib keldi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, puntuatsiya, muallif puntuatsiyasi, an'ana.

Kirish. Puntuatsiyada muallif puntuatsiyasi - tinish belgilarining muallif uslubiga ko'ra okkozional qo'llanishi garchi XVIII asrdan kuzatilsa-da, o'tgan asr oxirlarida o'z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga ko'tarildi. Ingliz, rus tilida yozilgan badiiy, ilmiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu an'analar puntuatsion kalka asosida o'zbek yozuviga ham kirib keldi. B.Bahriddinova tinish belgilarini individual qo'llash - muallif puntuatsiyasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan uch omilni ko'rsatib o'tadi: 1) puntuatsiya me'yorlari qat'iy belgilanmagan davrda yashagan ijodkorlar, yozuvchilar, olimlar asarlarida tinish belgilarining ishlatilishida mavjud umumiy puntuatsion (ko'pgina tillar uchun umumiy bo'lgan) me'yorlarga amal qilishda ham, o'zbek tili qurilishidan kelib chiqib xususiy puntuatsion qonuniyatlarni shakllantirishda ham bir xillik kuzatiladi. Ya'ni, muallif uslubi puntuatsiyaning tayanch me'yorlarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi; 2) puntuatsiyada umumiy me'yorlar ishlab chiqilgan, biroq mualliflarning turli asoslariga ko'ra tinish belgilarini qo'llashda individual yondashishi davom etaveradi[1]. Bu puntuatsiyada uzuslarni yuzaga keltiradi. Uzun - qonun-qoidadan chetlashish puntuatsiya istiqbolidagi zamonaviy umumiy g'oyalarni aks ettiradi va asta-sekinlik bilan me'yorlarni o'zgartirish, tilning milliy tabiatiga yaqinlashtirish, mavjud me'yorlarni isloh qilish uchun zamin yaratadi; 3) ijodkorlarning tinish belgilaridan poetik vosita

sifatida foydalanish maqsadida okkozional qo'llashi, shuningdek, zamonaviy ijodkorlarning puntuatsion kompetentlikka ega emasligi, nashriyotlarda tahrir jarayonlarining sustligi.

Birinchi va ikkinchi holatda muallif puntuatsiyasi me'yorlarni shakllantirish va takomillashtirish uchun xizmat qilsa, uchinchi holat tartibga solinmagan, me'yordan tashqari puntuatsiya taraqqiyotiga zamin hozirlaydi. Bu esa amaliyotda joriy me'yorlarga bo'ysunmagan fors-major holatlarga olib keladi. Bu o'z-o'zidan individual yondashuvga zarurat tug'diradi. Shu bilan birga zamonaviy badiiy va publitsistik asarlarda me'yoriy holatlar bilan birga tinish belgilaridan tartibga bo'ysunmagan holda foydalanish an'analarning kuchayishi puntuatsion uzun va puntuatsion okkozionalizmni ajratishni taqozo etmoqda. Bu esa puntuatsion stilistikada turli nutq uslublariga xos qo'llanishlarni individual o'rganish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muallif puntuatsiyasi zamonaviy puntuatsiya amaliyotida "sevimli" va "yoqimsiz" belgilar tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Qaysidir ijodkor tirega ko'proq murojaat qilsa, qaysi biri nuqtali vergul yoki ikki nuqtani ko'proq qo'llaydi. Misol uchun, Linn Transs bugungi kunda tirega, xususan, elektron tarjimada matn tarkibidagi ko'plab tinish belgilarini o'rni almashirishiga ko'ra "grammatikaning dushmani" deb

qaralayotganini ta'kidlaydi: I saw Jim – he looked gr 8 – have you seen him – what time is the thing 2 morrow – CU there. Uningcha, tirening bu qadar ommabopligi mazkur belgining doimo to'g'ri qo'llanishi va matnda qoldirib ketib bo'lmashligi bilan bog'liq.

Xuddi shu an'ana rus tilida ham kuzatildi. Xususan, N.S.Valgina shunday deydi: “Hozirgi paytda tire boshqa tinish belgilarini siqib chiqaryapti, xususan, ikki nuqtaning ko'plab funksiyalarini egallab bormoqda. Zamonaviy nashrlarda tirening funksiyalarining kengayib borayotgani ushbu tinish belgisining universallashtirishidan dalolat beradi”. N.N.Goncharovanning ta'kidlashicha, “Virjini Vulf prozasi nuqtali vergul bilan to'lib-toshgan[3]. Ko'p nuqta Agata Kristi va Garrold Pinterning sevimli belgisi. Tire Lourens Stern uslubining asosiy belgisi, Jeyn Osten, Emili Dikkinson tireni yozuvchining tafakkuri aks etgan tushunchalar mohiyatini xuddi oynadagidek aks ettiradi. Uningcha, aksariyat zamonaviy yozuvchilar nuqtali vergulni yoqirtmaydilar, uni burjuaziyaga xos xarakterini tan oladilar: “keraksiz belgi” (Jorj Oruyell), “jirkanch xunuk, itning qornidagi kana misoli” (Donald Bartelmi). Fey Ueldon va Martin Emis nuqtali vergulsiz matn tuzishga harakat qilmoqdalar. Hillari Mantelning fikricha, nuqtali vergulsiz matnda ikki yuzdan ortiq so'zni davom ettirib bo'lmaydi. Gertruda Steyn vergulni “laganbardor, tobe belgi” ekani, nuqtali vergul esa unga qaraganda qo'llanishi ancha erkin, kuchli, ammo ichki mohiyatiga ko'ra vergul bilan teng (“Poeziya i grammatika”, 1935) deydi. Xuddi shuningdek, ikki nuqta atrofida ham ikki xil munosabat yuzaga keldi. Jeyms Joys uni haqiqiy klassik belgi sifatida yaxshi ko'rsa, Pelam Grenvill Vudxaus undan foydalanmaslikka harakat qildi. Biroq undov belgisi eng ko'p tanqidga sabab bo'ldi. Masalan, Mark Tven va Frensis Skott Fitsjeraldlar uning ishlatilishiga qarshi chiqdi. So'roq belgisi bu borada alohida mavqega ega edi. Faqat juda dovyurak ijodkorlar Jeyms Joys va Gertruda Steyn kabilar ularni qo'llamaslikka jur'at qildilar[4].

D.Kristal esa bugungi davrni “internet davri va kuchsizlangan punktuatsiya davri” deb ataydi. U ayni paytdagi matnlarda ishlatiladigan tinish belgilarning 90 % vergul yoki nuqtaga to'g'ri kelishini, aksariyat tinish belgilarining bajaradigan funksiyasi faqat nuqta va vergul zimmasiga yuklanib qolayotgani, ayrim tinish belgilari, masalan, nuqtali vergul deyarli qo'llanmayotganini, Amerika ingliz tilisiga qaraganda britanacha variantda juda kam uchratish mumkinligini ta'kidlaydi[5]. Umuman, boshqa olimlar ham, masalan, N.N.Goncharova XXI asrga kelib nuqtali vergulning ko'p vazifalarini ikki nuqta egallab borayotganiga urg'u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tinish belgilari taraqqiyotining so'nggi bosqichiga kelib, ayrim murakkab qurilishli gaplar tarkibida qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta kabi tinish belgilarini mavjud me'yorlarga ko'ra qo'llash yozuvning estetik didga mosligiga ta'sir etishi bilan bog'liq holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'la boshladi. Masalan, qoidaga ko'ra har qanday gapdan so'ng gapning ifoda maqsadiga qarab biror tinish belgisi qo'yiladi. Ma'lumki, sarlavha matnning mustaqil komponenti. U ko'pincha atov gap, darak, so'roq, buyruq gap, ba'zan his-hayajon gap bo'lishi mumkin. Masalan, Muhammad Yusuf qalamiga mansub ayrim she'rlarning sarlavhasini keltiramiz: “Tug'ilgan kun”, “O'zbekning ayollari”, “Tunda she'r aytishdik”, “Armonlarning bor”, “Kokilingni kim kesdi?”, “Ona, meni nega tug'ding?”, “Shukr deysan, sen qachon!”, “Kinoga kirmayman!”, “Men seni sevaman!..”, “Tanish terak...”, “O'zim yomon...”, “Marhamat tomonga yo'lingiz tushsa...”, “Sevgi bu ...” va b. Shu bois nafaqat boshqa tillar, xususan, o'zbek tilida ham punktuatsiyaga bag'ishlangan dastlabki ishlarda sarlavhadan so'ng nuqta qo'yilishi kuzatiladi. Bu shunchaki punktuatsiyaning amalda bo'lgan qoidalariga

asoslangan. Davrlar o'tishi bilan dastlab nemis, ingliz, keyinchalik rus tilida va u orqali o'zbekcha matnlarda ham sarlavhadan so'ng gap oxirida qo'llanuvchi belgilardan nuqtaning ishlatilmasligi an'anaga aylandi. Bugungi kunda bu holatga hamma odatlandi. Ammo sarlavha oxirida so'roq, undov, ko'p nuqtaning qo'llanilishida mavjud me'yorlarga amal qilinadi. Gap shundaki, nuqtaning qo'llanilishida ko'p nuqta, undov, so'roqlar kabi mantiqiy (semantik) prinsip emas, balki intonatsion va struktur-sintaktik prinsiplar ustunlik qiladi. Mantiqan yondashilganda sarlavhani ajratish, chegaralash ehtiyoji yo'q. So'roq, undov, ko'p nuqta matn qismlarini ajratish bilan birga, semantik funksiya ham bajaradi. Sarlavha so'ngida kelganda ularning faqat shu funksiyasi “ishlaydi”. Ma'lumki, tillarda punktuatsiyaning me'yoriy qo'llanishi shu til uchun umumiy tan olingan bo'lib, mualliflik huquqi bilan himoyalanganmaydi, ya'ni muayyan muallifgagina xos individual qo'llanish – anormal (okkazonal, noodatiy) holat hisoblanmaydi. Tinish belgilarining noodatiy qo'llanishi unga intellektual mulk sifatida qarashga olib keldi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy rus tilida badiiy, ilmiy, publitsistik asarning o'zi kabi unda qo'llangan tinish belgilari ham mualliflik huquqi bilan himoyalangan darajasiga yetdi. Masalan, tilda mavjud bo'lgan umumiy me'yorlarga zid ravishda qo'llangan undov yoki so'roq belgilari shaklidan ko'zga tez tashlanadigan tarzda poetik personajlarni yaratishda foydalanish: “А по поводу Гузя и Наримбекова я вот что скажу: вообще не понятно, как можно не любить стволы родных берёз? Человек, родившийся и выросший в России, не любит своей природы? Не понимает её красоты? Её заливных лугов? ... Русского характера? Ведь ты же русский? Ты родился в России? Ты ходил в среднюю школу? Ты служил в армии? Ты учился в техникуме? Ты работал на заводе? Ты ездил в Бобруйск? В Бобруйск ездил? Ездил, а? Ты в Бобруйск ездил, а? Ездил? Чего молчишь? ... Чего сопишь? Так, б...? Так, б...? Так вот? Вот? Вот? Вот? Вот, б...? ...[6] Yoki: “... и посему знавших Вас в годы соблазнов Ваших и мрачных фантазий, что несомненно отложилось в беззащитном и ранимом сознании их и способствовало возможным фактам их будущей жизни, нами обсуждаемым выше, на их восприятие литературы и культуры целиком ... внуков Ваших, правнуков и внуков Ваших правнуков! Не страшен ли Вам суд их будущий? И вообще – суд будущего? а? страшен? – страшен, страшен! я знаю! суд-то будущего, неужто ли не страшен! – нет! не страшен! – ну, ну, не страшен – нет, нет, никогда! уж полноте, Владимир Георгиевич! а, может, и суда-то никакого нет? а? [Ерофеев, 2002, с. 249 –250]”.

Marina Svetayeva “Sentabr” to'plamiga kiritilgan “O'rmon” she'rida bir misrada tirening bir necha funksiyasidan foydalanish orqali o'rmonning badiiy tasvirini berishda o'rinni foydalaniladi:

Видел, как рубят? Руб –
Рубом! – за дубом – дуб.
Только убит – воскрес!
Так же, как мёртвый лес
Зелен – минуто чрез! –
(Мох – что зеленый мех!)
Не погибает чех.

Yoki M.Svetayeva “Стихи к Блоку” deb nomlangan she'rida ham tirening nutqni ixcham bayon etish vositasi sifatidagi funksiyasidan unumli foydalangani kuzatiladi:

Зверю – берлога,
Страннику – дорога,
Мёртвому – дроги,
Каждому свое.
Женщине – лукавить,
Царю – править,

Мне – славить

Имя твоё[7].

Umuman, bu kabi holat o'zbek punktuatsiyasida ham kuzatiladi. B.Bahriddinovaning ta'kidlashicha, "Tiredan individual foydalanish, ayniqsa, qisqa, lo'nda nutqli mualliflarda seziladi. Deylik, Tog'ay Murot uslubida tiringning faolligini oshirish nutq vositalarini "iqtisod qilish" bilan bog'liq: Sizga yolg'on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor – bir! Yoshnikiyam bor – ikki! Momonikiyam bor – uch! Qiznikiyam bor – to'rt! Chaqaloqnikiyam bor – besh! Xo' o'sh, beshta bo'ldimi? (T.M.) X.Do'stmuhammad esa nutq vositalarini tejashda ko'p nuqtadan o'rinni foydalanadi: Faqat, ko'pdan buyon ko'nglimga tugib yurgan orzum-armonim hurmati so'nggi marta xat yoza qolay.....; Mayli, ularning soni ko'paygandan-ko'paysin, ammo Siz yolg'iz meni, xo'p?

Kel, oqibatli Do'st, beg'ubor tuyg'ularimiz qissasiga g'oyat oddiy, lekin bag'oyat yuksak maqomdagi so'zsiz savol-javobimiz nuqta vazifasini o'tasin:

–

– ...-?

–!.. ("Men – sensiz, Sen – mensiz")"[2]

Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham dunyo tillarining ta'siri, qolaversa, davlatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy-siyosiy taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda punktuatsiyaning yangi-yangi muammolari yuzaga kela boshladi. Masalan,

A.Oripovning qaysi she'rida shunday jumlar uchraydi: "Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!"?

Sen M.Yusufning quyidagi she'rini o'qiganmisan "Kokilingni kim kesdi"???

Sen M.Yusufning quyidagi she'rini o'qiganmisan: "Shukur deysan, sen qachon?!"? ko'rinishidagi gaplarda tinish belgilarining joriy me'yorlarga muvofiq qator kelib qolishi bilan bog'liq.

Devid Kristalning nuqtayi nazaricha, ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasini ikki yo'nalishda o'rganish kerak: birinchisi, minimalizm – barcha tinish belgilarini bir-biriga zich joylashtirib qo'llash; ikkinchi yo'nalish, maksimalizatsiya – muayyan tinish belgisidan ketma-ket, bir necha marta qator foydalanish. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda so'roq belgisining faolligi oshdi. Hatto kommunikantlarning kamdan-kam hollarda uni yolg'iz holda ishlatishi, asosan, kompleks qo'llashi «?????????????????????» kuzatilyapti.[6] Insonning hissiyotini, hayratini yozuvda ifodalash istagida qo'llangan undov belgilarining soni, berilayotgan savolning muhimligi, unga javobni tezroq olish istagi so'roq belgilarining soni bilan ko'rsatildi. Masalan, «У меня есть отличная новость!» «Она как-нибудь связана с новым годом?» «Да, и тебя она касается лично». «Рассказывай!» (спустя время) «Что случилось????????????????? Как это касается меня?????»

??????» Yoki: «Выходи!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!! Я тебя уже жду!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!»[8]

Ushbu holat o'zbek badiiy uslubida ham aks eta boshladi. Masalan, "X.Do'stmuhammad uslubida tinish belgilarining o'ziga xos tarzda qator ishlatilishi ham muallif individualligini belgilab beradi: – Qayerdasaannn?????!!!!!! – deya oh chekadi. Tap topmay takrorlayveradi: – Qayerdasaannn?????!!!!!! ("Men – sensiz, Sen – mensiz") [2]

Ingiliz va o'zbek tillarida bo'lgani kabi rus tilida ham murakkab qurilishli konstuksiyalarda tinish belgilarining qator qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab savollar yuzaga keldi. Masalan,

Quyidagi holatda gap oxirida nuqta qo'yiladimi, yo'qmi?: Я читаю роман "Кто виноват?". Quyidagi holatda ko'chirma gapni yopuvchi qo'shtirmoq qo'llanadimi, yo'qmi?: Профессор указывает, что "в золотой фонд литературы вошли такие произведения русской классики, как "Евгений Онегин"".

Gapda ichki va tashqi qo'shtirmoqlar orasida so'roq yoki undov belgisi qo'llangan bo'lsa, bir xil qo'shtiroqlardan foydalaniladimi yoki ikki xil?:

Quyidagi holatlarda qaysi tinish belgisi tejaladi?: Не только песен нет, куда девался сон; всё подозрительно, и всё его тревожит. / Появились в продаже дачная мебель: столы, стулья, диваны и т.д./ У него было три дочери: Вера, Надежда, Любовь.; Вся эта область – дно моря в прошлом[12].

Xulosa va takliflar. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tinish belgilari tadqiqiga bo'lgan yondashuvlar har qancha taraqqiy etmasin, rus tinish belgilari taraqqiyotining yangi bosqichida ham an'anaviy qarashlar yetakchi bo'lib qolmoqda. Sababi an'naviy me'yoriy punktuatsiya matni tushunishni osonlashtirsa, me'yordan tashqari – tartibga bo'ysunmaydigan punktuatsiya hammaning birdek matn mazmunini to'g'ri anglashi va tushunishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois barcha davrlarda tilning me'yorlashtirilgan punktuatsiyasi tilshunoslik bo'limi muammosi doirasida qaraladi. Hozirgi kunga qadar ham rus punktuatsion tizimida tinish belgilarining qo'llanish prinsiplarini belgilashda uch asosiy yo'nalish – sintaktik, mantiqiy, intonatsion prinsiplar ustunligicha qolmoqda. XX asrning oxirlarida ushbu sanalgan an'anaviy yo'nalishlar qatoriga tinish belgilarining kommunikativ – yozma nutqda tinish belgilari orqali axborot uchun muhim zaruriy bo'laklarni – kommunikativ maqsadni oydinlashtirish jihatiga ham diqqat qaratila boshladi. Kommunikativ vazifani ajratish masalasi tinish belgilarining an'anaviy asosiy vazifasi – og'zaki nutqni yozuvda to'g'ri ifodalash uchun xizmat qiladigan alifbodagi harflardan tashqari belgilar tizimi bilan bog'liq bo'lib, u ham o'quvchiga yozuvchi qanday maqsadda qo'llagan bo'lsa, shunday tushunarli bo'lishini taqozo qilardi.

ADABIYOTLAR

1. Кольцова Л. Художественный текст через призму авторской пунктуации: дисс. докт. филол. наук. – Воронеж, 2007. -377с.
2. Bahriddinova V.M. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2015. -66b.
3. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – Москва : Высшая школа, 2004. -259с.
4. Гончарова Н.Н. К вопросу о современных тенденциях в английской пунктуации // НАУЧНЫЙ ДИАЛОГ. 2018. № 4. – С.54-64.
5. Crystal D. Making a point: the pernicky story of English punctuation – London : 2016. -378p.
6. Розенталь Д. Универсальный справочник по русскому языку: Пунктуация. Практическая стилистика / Розенталь Д. – Москва: Мир и Образование, 2013. -704с.
7. Сафронова И.П. Эстетические функции пунктуации в поэзии Марины Цветаевой: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 23 с.
8. Холодковская Е.В. Пунктуация как средство реализации просодии при общении в социальной сети facebook (на материале англоязычной версии) // Вестн. Волгogr. гос. ун-та. Сер. 2, Языкозн. 2014. № 5 (24)
9. Стурикова М.В., Кирпичикова Е. Пунктуация в текстах социальных сетей//https://rsvpu.ru/filedirectory/8692/Sturikova-Kirpichikova_Doklad.pdf

10. Щевцова О.Н. Стилистические функции знаков препинания: На материале прозы В.Маканина: дисс. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1998. – 243 с.
11. Нашхоева М.Р. Особенности пунктуации в сетевых текстах форумов и блогов (на материале английского языка): Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2012, - 248 с.
12. Шавлукова Б.Ю. Знаковые качества пунктуации в текстах художественного и научного регистров: “авторская пунктуация”: автореф. дисс. ... к.ф.н. – Махачкала, 2008. – 23 с.



UDK:801.82:821.512.133

Muhayyo TO‘RAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: torayevamuhayyo0@gmail.com

Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.d Sh. Nuriddinov taqrizi asosida

SHARIF YUSUPOV'S RESEARCH ON THE BIOGRAPHY OF FURQAT

Annotation

The article analyzes the scientific researches of the source scholar Sharif Yusupov, who made a great contribution to the development of Uzbek source studies, on the biography of Furqat. In the scientist's works, comments were made about the study of Furqat's life, friends, going abroad and the main reasons why he wandered in other countries and could not return to his country.

Key words: Source studies, enlightenment, source, archival documents, debate, biography, ignorance, fellow believer, governor-general, colony.

ИССЛЕДОВАНИЕ ШАРИФА ЮСУПОВА ПО БИОГРАФИИ ФУРКАТА

Аннотация

В статье анализируются научные исследования источниковеда Шарифа Юсупова, внесшего большой вклад в развитие узбекского источниковедения, по биографии Фурката. В трудах ученого даны комментарии об изучении жизни Фурката, его друзьях, поездках за границу и основных причинах, по которым он скитался по другим странам и не мог вернуться в свою страну.

Ключевые слова: Источниковедение, просвещение, источник, архивные документы, полемика, биография, невежество, единоведец, генерал-губернатор, колония.

SHARIF YUSUPOVNING FURQAT BIOGRAFIYASIGA OID TADQIQOTLARI

Anotatsiya

Maqolada o‘zbek manbashunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan manbashunos olim Sharif Yusupovning Furqat biografiyasiga oid ilmiy quvvatli tadqiqotlari tahlil etilgan. Olim asarlarida Furqat hayoti, do‘stlari, chet elga ketish va o‘zga yurtlarda sarson bo‘lib, yurtiga qaytolmasligining asosiy sabablari tadqiq etilgani xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Manbashunoslik, ma‘rifatparvarlik, manba, arxiv hujjatlar, munozara, biografiya, jaholat, hammaslak, general-gubernator, mustamlaka.

Kirish. Milliy adabiyotimiz tarixidagi XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari adabiy merosini mustaqillik mafkurasi tamoyillari asosida xolis va haqqoniy tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. Bu davrda yashab ijod etgan ma‘rifatparvar adiblarning, ilm-fan homiylarining merosini o‘rganish ayricha ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, milliy uyg‘onih davrining yirik namoyondasi, ma‘rifatparvar adib, shoir, etnograf, muarrix, tattot Furqatning hayotini, ijodiy merosini, ayniqsa, umrining 18 yilini xorijda hijronda o‘tkazganligining sabablarini manbalar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Sho‘rolar siyosati natijasida xalqimizning bir qancha fidoyi, ma‘rifatparvar ijodkorlariga ta‘na-malomat toshlari otilgani, tariximiz soxtalashtirib talqin etilganligi ayni haqiqatdir. Bu davrda yartilgan asarlarning tag zamiridagi haqiqatlar zahmatkash olimlarimiz izlanishlari natijasida qalqib chiqmoqda. Furqat hayoti va ijodiy merosi borasidagi bahslar bugungi kunda ham to‘xtagani yo‘q. Furqatning hayot yo‘lidagi murakkabliklar, soxtaliklar, yolg‘onchiliklar olimlarimiz tomonidan shoir ijodiy merosini sinchiklab o‘rganish natijasida tag zamiridagi haqiqatlar kundan-kunga ravshanlashib borayotganligi ham ayni haqiqatdir. Ana shunday fidoyi manbashunos olimlardan biri professor Sharif Yusupovdir. Olim haqida jurnalist Ahmadjon Meliboyev shunday yozadi: “Professor Sharif Yusupov o‘tgan asrning yetmishinchi yillari boshlarida ToshDUning (hozirgi O‘zMU) jurnalistika fakultetida talabalarga so‘nggi xonlik davridan saboq bergan. Domlaning yaqin o‘tmishimizga doir maroqli suhbatlari qiziqarli bo‘libgina qolmay, o‘sha payt uchun bir

muncha kutilmagan xulosalari, ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan faktlari bilan boshqa saboqlardan ajralib turar edi”[Ahmadjon Meliboyev 2019, 2].

Ustoz ilmiy faoliyatining kattagina qismi Furqat biografiyasini tiklashga, Qo‘qon adabiy muhitining Xudoyorxon davri tarixini yoritishga bag‘ishlagan edi. Olimning mashaqqatli mehnatlari evaziga Furqatning chet ellardagi hayoti, do‘stlari, maslakdoshlari bilan bog‘liq bir qancha chalkash va noma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlar topilib, ilmiy istifodaga olib kirildi. Uning adabiy manbalar bilan ishlash va Furqat ilmiy biografiyasini tiklashga doir tadqiqotlari natijasida “Furqat yo‘llarida”, “Xudoyorxon va Furqat”, “Xufiya qatlamlar”, “Tarix va adab bo‘stoni” kabi salmoqli kitoblari bugungi matnshunoslik va manbashunoslik sohosi taraqqiy topishida muhim ahamiyat kasb etib kelayotir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Furqatning vatanjudolikda yashashga majbur qilgan omillarni aniqlash har doim mutaxassislarning diqqat markazida bo‘ldi. Bu xususida, bir talay olimlar tadqiqotlarida o‘z mulohazalarini bayon etdi. Ulardagi qarama-qarshiliklar, yakdil fikrlarning yo‘qligi, bahs-munozaraga sabab bo‘ldi. Prof. Sharif Yusupovning tadqiqotlari natijasida bu bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan bir talay haqiqatlar oydinlashdi. U 1990-yili “Furqat va o‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyotining yangi bosqichi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Mustaqillik yillarida olimning “O‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyoti va Furqat” nomli uslubiy qo‘llanmasi nashr etildi. Olim o‘z tadqiqotlarida Furqat ijodining ma‘lum bir qirralarini arxiv ma‘lumotlari, matbuot materiallariga asoslangan holda yoritib beradi. Sharif

Yusupovning ilmiy faoliyatida muhim o'rin tutadigan asarlaridan "Furqat yo'llarida" monografiyasi 1989-yili e'lon qilindi. Unda Furqatning chet elga ketish va qolib ketish sabablari, shoirning vatanjudolikda kechgan og'ir hayoti to'g'risida arxiv hujjatlari hamda ishonchli manbalar asosida e'tiborli mulohazalar bayon qilindi. Tadqiqotning yana bir diqqatga sazovor jihati shundaki, olim mazkur masalalar yuzasidan ilgari ilmiy ishlarda bildirilgan fikrlar bilan munozaraga kirishadi va o'z qarashlariga ishonarli dalillar keltiradi.

Tahlil va natijalar. Furqatning chet elga chiqarilib yuborilishi va 18 yil sarson-sargardonlikda o'tkazib, aziz xoki o'zga yurtlarda qolib ketishining haqiqiy sabablarini izlab topish furqatshunos tadqiqotchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekanligini qayd etadi. Bu masala ko'pchilik furqatshunos olimlarni bahs-munozaraga tortganligi ham buning dalilidir. Ana shunday dolzarb masalaga Sharif Yusupov manbalarni, arxiv hujjatlarni titkilash mobaynida Furqatning chet ellarda sarson bo'lishiga asosiy sabab turkistonlik ayrim boy va amaldorlarni hajv qilishi yoki general-gubernator oilasi bilan shaxsiy nizosi tufayliga emas, balki chor hukumati Turkistonda yurgizgan yerlik aholini nodonlik va jaholatda saqlashdan iborat reaksiyon harakatlariga zid keladigan ma'rifatparvarlik faoliyati tufayli va chor idora usuliga qarshi bo'lgan ilg'or fikrli kishilar bilan hammaslak bo'lganligi uchun ham yurtdan chiqarilib yuborilganligini aniqlaydi. Olim izlanishlari davomida Furqatning 1892-yil bahorida Istanbuldan yozilgan maktubini topish orqali shoir ko'pgina tadqiqotchilar da'vo qilganidek, yurtdan yashirin qochib ketmaganligini, aksincha general-gubernatorlik doiralari qo'yan tuzoqqa ilinib qolib, "ixtiyoriy sayohat"ga jo'natilganligini aniqlaydi.

Olimning tinimsiz mehnatlari, arxiv hujjatlari, qo'lyozmalar fonlarini titkilash davomida yaratilgan asarlarining qiymati nihoyatda beqiyosdir. Ana shunday asarlaridan biri "Furqat yo'llarida" asaridir. Asarning daslabki bobi "Bolalikdan balog'atga" deb nomlanib, unda Furqatning ilk savodi chiqishida muhim rol o'ynagan ustozlari, bolalik yillari, savdogarlik bilan shug'ullangan davrlari, Marg'ilonda yashagan yillari va Muqimiy, Zavqiy, Nisbat kabi ma'rifatparvarlar bilan ilk uchrashuvlar, turmushi haqidagi qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari Furqatning Marg'ilondagi hayoti ko'p adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilganligini ta'kidlaydi. Xususan, adabiyotshunos olim H. Hojiboyev tomonidan Furqatning marg'ilonlik suxandonlar davrasida amalga oshirgan ishlari, bu davrda yaratilgan ba'zi asarlari haqida talaygina qiziqarli hikoyalar 2 ta maqolasida bayon qilinganligini aytib, marg'ilonlik do'stlari shaxsini aniqlash bo'yicha hech bir ish amalga oshirilmaganligini ta'kidlaydi. Olim Furqatning marg'ilonlik do'stlarining shaxsini aniqlashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotida bunday yozadi: "Muhammad Sharif ham she'riyatga ixlosmand bo'lib, Obid taxallusi bilan shuhrat topgan. U Furqat, Zavqiy, Rojij Marg'iloniy va boshqalar bilan do'st bo'lgan. Sho'ro hokimiyatining daslabki yillarida Mirzo Sharif qo'rboshilarni o'xshatib hajv qilgani uchun Marg'ilon rastasida kaltaklanadi va o'zini o'nglalmagan shoir 1920-yil vafot etadi". [Sharif Yusupov 1984, 19]

Furqat "Sarguzashtnoma"sida "ko'p borikbin va xirad oyin kishi" (nozik narsalarni ko'ra biluvchi, aql idrokli kishi) sifatida ta'rifangan do'sti Mulla Shamsiddin mufti marg'ilonlik ilm ahllari davrasida mashhur bo'lgan. Furqat Mulla Shamsiddin orqali Rojij Marg'iloniy bilan tanishadi. Rojij "aruz fanida ko'b mohir kishi" bo'lib, "turkiy g'azal mashqida ko'b latif va ravon" ligi haqida Furqat qayd etib o'tganligini keltiradi. Shuningdek, Sharif Yusupov Rojiyning Marg'ilonda rus-tuzem maktablari ochilishida ham faol bo'lganligini aniqlaydi. Olim "Yorkand shahridan Toshbultuga xat"da Furqat salom yo'lagan Hoji domla bilan

Qarshiy domla haqida ham ba'zi ma'lumotlarni oydinlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Hoji domla Mahdumboy madrasasida mudarrislik qilgan. Qarshiy domla ham shu madrasada mudarrislik qilgan. Uning ilmiy komil, she'riyatda peshqadam bo'lganligi marg'ilonliklar orasida mashhur bo'lgan. Marg'ilonlik qariyalardan Abdullaxon Alixonovning qo'lida Qarshiy domla o'zi kitob qilgan qimmatli bayoz ham bo'lib, undan Furqat asarlari ham joy olgan. Furqat Yorkentdan yozgan she'riy maktubida yo'llangan Toshbolta esa Roij taxallusi bilan asar yaratgan. Olim uning Muxtorxon ismli yolg'iz o'g'li o'sha paytlar hayot ekanligini aniqlaydi ammo u bilan uchrashish imkoniyati bo'lmaydi

Sharif Yusupov bu kabi ma'lumotlarni Marg'ilondagi safari chog'ida yoshi ulug' insonlar bilan muloqatda oydinlashtiradi. Xulosa sifatida olim "Marg'ilonda Furqat ijodkor sifatida yangi bosqichga ko'tarilishiga, ilmini takomillashtirishiga, she'riyat bobida ustoz darajasiga yetgan qalam sohiblari bilan abadiy do'stlashuviga yordam berishdan tashqari, o'sha davrdagi mahalliy xalq hayotida yangi va ulkan voqealardan bo'lgan gazeta bilan tanishuviga, gazeta orqali ma'rifatparvarlik faoliyatida ilk odimlarni tanlashiga ham ko'p jihatdan qulay sharoit vujudga kelgan edi" [Sharif Yusupov 1984, 23]deydi.

Sharif Yusupov o'zidan oldingi Furqatshunos olimlar asarlari bilan tanishib chiqadi va hali Furqat ijodi qirralarining ochilmay qolgan jihatlari mavjudligini anglab, Furqat hayotining Toshkent davri o'zidan oldingi tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha o'rganilmay qolgan haqida qayd etib, tinimsiz izlanishlarini davom ettiradi. Uning "Furqat yo'llari"da asarining ikkinchi qismi "Toshkentdagi faoliyat" deb nomlangan bo'lib, unda Furqatning Toshkentdagi hayoti aks ettirilgan. Ko'pgina furqatshunos olimlar shoirning uzoq vaqt Toshkentda yashashining sababi qilib, ona shahrida oilasi bilan yashashning imkoni yo'qligi, muhimi, rus hayoti, rus madaniyati bilan yaqindan tanishish istagi borligini ta'kidlashgan. Sh. Yusupov esa shoir qon-tomir kasalligiga da'vo topish maqsadida Toshkentga yo'l olganligini ta'kidlaydi. Olim bunga sabab qilib quyidagilarni keltiradi: "Furqat Muqimiy vositasi bilan g'oyibona tanishgan do'sti Hoji A'zam Sarimulla Oxund o'g'lining Toshkentga taklif etib ketma-ket yo'llagan maktublarini ham qo'shimcha qilsak, shoirning Toshkentda uzoq muddat yashash haqida qarorga kelishi qay tariqa pishib yetilganini ko'z oldimizga keltirish qiyin bo'lmaydi"[Sharif Yusupov 1984, 24].

Olimning ta'kidlashicha, Furqat Toshkentda do'sti Hoji A'zam ko'magi bilan Ko'kaldosh madrasasidagi bir hujraga joylashadi. Shoir bu yerda Sattorxon Abdug'afforov, Jo'rabek Qalandarqori o'g'li, Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja o'g'li, Saidrasul Saidrasul o'g'li va boshqalar bilan do'st tutunadi. Sh. Yusupov ularning faoliyatlarini va Furqat bilan qanday aloqasi bo'lganligini izohlab beriladi. Bundan tashqari, Furqat rus ziyolilaridan S. Gramenitskiy, G. Mitropolskiy, V. Stepanov, M. Lyutov, E. Gradusov va boshqalar bilan tanish bo'lgan ulardan so'nggi madaniy, ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lib turgan.

Arxivda saqlanayotgan N. Ostroumovning kundaligini o'rganib chiqqan Sharif Yusupov N. Ostroumovning qanchalar ikkiyuzlamachi, tuban kimsa bo'lganligiga, ruslar tomonidan ziyolilarimizga nibatan amalga oshirilgan soxtaliklar, nohaqliklarga guvoh bo'ladi. N. Ostroumov Furqatga boshqa shaharlarga borib yangiliklar bilan tanishib kelishini taklif qilib, shoir ketgach, Turkistonning barcha darvozalarni u uchun yopib qo'yanini ta'kidlaydi.

Olim davr vaqtli matbuoti, boy arxiv materiallari, Furqat do'stlarining barhayot farzandlari bilan uchrashib, shoirning Toshkentda kimlar bilan do'stona munosabatda bo'lganligini, kimlar uning ma'rifatparvarlik faoliyatiga haqiqiy ko'mak berganligini haqidagi haqiqatlarni arxiv hujjatlari asosida aniqlaydi.

Sharif Yusupov Furqat ijodini o'rganishda birlamchi manbalardagi hujjatlardan foydalanib, o'z qarashlarini isbotlashga harakat qiladi. Olimning 1978 yilda "Guliston" jurnalida "G'urbatda Furqat" deb nomlangan maqolasi chop etiladi. Olim ushbu yuksak saviyali maqolasi uchun "Guliston" jurnalining yillik mukofotiga sazovor bo'ladi. Bu maqola "Furqat yo'llarida" kitobidan ham o'rin olgan. Ushbu maqolada shoirning chet elga ketish sababi va aziz xoki o'zga yurtlarda qolib ketishining asosiy omillari haqida bir qancha haqiqatlarni ochiq qilganligi haqida ma'lumotlarni keltiriladi. Bu davrgacha Furqatning chet elga ketish sabablari haqida bir qancha olimlar o'z asarlarida xulosalarini berib bo'lishgan edi. Unga ko'ra, "Furqat toshkentlik Sayidzimboy xususidagi:

Sayidzimboyning laqablari siyok,

Nimsafid jog'i tangugon engok, baytini va Shayxovandtahir dahasining qozisi Sharifxo'ja haqidagi:

Hangoma talab bo'lsang,

Mahkomaga yo'rto ko'r.

To'rt echkini bir lo'li

Afsun birla o'ynotur, -

Hajvini bitgani uchun hamda Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan general Aprelov uni haddan tashqari yomon ko'rgani uchun chel ellarga qochgan"[Sharif Yusupov 1978, 7:24] kabi fikrlar bayon etilganligini ta'kidlaydi. Olim bu xulosalar haqiqatdan yiroqligini bir qancha inkor etib bo'lmaydigan faktlar bilan izohlaydi. Olim bu to'rt shaxsdan faqat bittasini general Aprelovni shoir hajv qilganligini inkor etmaydi. Bunga sabab qilib ana shu hajvning bir necha nusxalari toshkentlik keksha she'riyat ixlosmanlari, xususan, Shotursun Shomaqsudov qo'lidan to'plangan materiallar orasida mavjudligi keltiradi. Sh. Yusupov Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarni ko'zdan kechirish mobaynida esa fon Kaufmanni Furqat Toshkentga kelishidan yetti yil avval 1882-yilda vafot etganligini, Saidzimboy Muhammadboyev Kaufmandan ham oldin 1881-yilda vafot etganligini aniqlaydi. "Turkiston viloyati gazetasi"da 1891-yil 22-yanvarda Furqat tomonida Sharifxo'ja qozi to'g'risidagi iliq fikrlarga tayanib, olim ular o'rtasida ziddiyat emas hurmat bo'lganligini ta'kidlaydi. Shoir va qozi orasidagi munosabatlar yomon bo'lmaganini Sharifxo'ja tomonidan tuzdirilgan "Majmuat ush-shuaro" deb nomlangan kitobda Furqat asarlaridan ham namunalar keltirilganligi bilan izohlaydi.

Professor Sh. Yusupov shoirning chet ellarga ketishining asosiy sababi qilib quyidagilarni ko'rsatadi: "... birinchidan, Furqat chor tuzumiga oppozitsiyada bo'lgan ilg'or ziyolilar davrasida ekanligi, ikkinchidan, ehtimol tutilgan yaqin oradagi uning isyonkor kayfiyatdagi boshqa do'stlari bilan birga qatnashish ehtimoli va, nihoyat, eng asosiysi, Furqat o'z ulkan ma'rifatparvarlik faoliyati bilan chor hukumatining o'lkada yurgizib turgan mahalliy aholini nodonlikda saqlash siyosatiga butunlay zid yo'l tutganligi o'lka bosh hokimi general-gubernatorning o'zida shoirni uzoq muddatga Turkistondan jo'natib yuborish niyatining tug'ilishiga sabab bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin"[Sharif Yusupov 1990, 276].

Furqat hayoti, uning chet ellarga ketish sababini aniqlash bilan bog'liq tadqiqotlar bir necha yillardan beri butun jahon olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, mustaqillik davrida ham bir necha olimlarimiz tomonidan qayta-qayta tadqiqot markaziga tortildi. Bu borada bir talay olimlar bahs-munozaraga kirishdilar. Xususan, oxirgi yillarda amalga oshirilgan bir qancha olimlarning mashaqqatli mehnatlari, izlanishlari natijasida ba'zi haqiqatlar ochiqlandi, xulosalar berildi. Ularning aksariyatida Sh. Yusupovning tadqiqotlari haqiqatga ancha yaqin ekanligi e'tirof etildi. Xususan, keyingi davr tadqiqotchilaridan biri f.f.d. prof N. Jobborov ham o'zining "Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Sharif Yusupovning shoirning chet

elga ketish sabablariga oid xulosalari haqiqatga ko'proq yaqinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, N. Jobborov bu masala yuzasidan quyidagi fikrlarni keltiradi: "... keyingi izlanishlar natijasida shoirning chor Rossiyasi mustabid siyosatini fosh etuvchi, o'sha paytlarda mutaxassislariga ma'lum bo'lmagan bir qancha asarlari, dastxat she'rlari aniqlandiki, ular Furqatning vatanjudolikda yashashga majbur bo'lishi sabablarini yanada oydinlashtirishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu dalillar asosida shoirning vatanjudolik sabablarini quyidagi ikki omil bilan izohlash mumkin.

Furqatning chor Rossiyasi mustamlaka siyosatini ochiqdan-ochiq qoralab asarlar yozganligi.

Shoirning Vatan va millat manfaatiga asoslangan ma'rifatparvarlik faoliyati mustamlaka ma'muriyatiga xush kelmadanligi"[Nurboy Jabborov 2004, 18]. Bundan ko'rinib turibdiki, olim shoirning hali topilmagan asarlarida bayon etilgan tagzaminidagi haqiqatlarni mavjud manbalar asosida ongi va ichki hissiyotlari bilan his qila olgan va to'g'ri xulosalarni bera olgan.

Bundan tashqari, olimlar o'rtasida Furqat ikki xil Rossiyani (ilg'or madaniy Rossiya va mustamlakachi chor Rossiyasi) anglab yetganmi? degan savol furqatshunoslar o'rtasida ko'plab bahs-munozaraga sabab bo'lgan [Nurboy Jabborov]. Bu borada olimlarning fikrlari turlicha edi. Ko'pchilik furqatshunoslar shoirning ikki Rossiyani anlab yetmagan deb hisoblaydi. Bu xususida, Sh. Yusupov shunday keltiradi: "Ba'zi tadqiqotchilar Furqat o'z ma'rifatparvarlik faoliyatini boshlagan dastlabki haftalarida bitgan:

Jahon bastu kushodi ilm birla,

Nadur dilning murodi ilm birla.

Ko'ngullarning sururi ilmdandur,

Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandur

misralarini dastak qilib, go'yo u jamiyat

taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushunib yetmagan, shuning uchun ham ilm-fanning ahamiyatiga keragidan ortiqcha baho bergan, degan fikrlarni bildirgan edilar" [Sharif Yusupov 2003, 109]. Tadqiqotchi olim bu borada ham, boshqalardan farqli o'laroq, furqat ijodiga oid faktlarga tayanib quyidagicha fikr bildiradi: "Rossiya differensial munosabati ko'p hollarda uning asarlari tagmazmunida ifodalangan" ligi, buning sabablari esa "... bu asarlarning beistisno barchasi Turkiston general-gubernatorligi amaldorlarining, oxranka va chor senzurasining kundalik qattiq nazorati ostida chiqib turgan gazetada e'lon qilish uchun mo'ljallab yozilganligi"da ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, "Lekin shunga qaramay, Furqat bu asarlarning ichki mazmuniga, tag oqimiga o'sha davr sharoitida aytish g'oyat xatarli bo'lgan qaltis fikrlarni joylab borgan"[Sharif Yusupov 1190, 336]. keyinchalik prof. N. Jobborov o'zining "Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida bu masala yuzasidan olimlarning qarama-qarshi fikrlarini keltirib, keyingi davrlarda topilgan shoir ijodiga mansub bo'lgan ayrim asarlarining tahlili asosida quyidagi fikrlarni qayd etadi: "... furqatshunoslikda mazkur masala yuzasidan turlicha, bir-birini inkor etadigan mulohazalar bildirilgan. Ularning aksariyati uchun xos bo'lgan masalaning qo'yilishidagi mahdudlikni o'sha zamondagi hukmron mafkura talablari bilan, ayrim hollarda esa, o'sha paytdagi hali shoirning chor mustamlakasini ayovsiz fosh etgan asarlari ko'pchilik mutaxassislariga ma'lum bo'lmagani bilan izohlash mumkin"[20]. prof. N. Jabborovning keltirishicha, Furqatning "... mustamlaka siyosatiga bo'lgan munosabatini yillar o'tishi bilan ham o'zgarmagan. Faqat istibdodni qoralash ruhi dastlabki asarlarida ochiqroq aks etgan bo'lsa keyingilarida ko'proq obraz va timsollar zamirida berilgan"[Nurboy Jabborov 2004, 32]. N. Jabborov bu boradagi haqiqatga eng yaqin fikrlarni I. Mo'minov, Sh. Yusupov tadqiqotlarida va B. Qosimovning monografiyasida keltirilganligini ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Furqat hayoti va ijodiga bag'ishlangan qimmatli tadqiqotlari bilan o'zbek manbashunosligi rivoji va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olim prof. Sharif Yusupov biror bir manba ustida ishlar ekan, yuzaki qarashni xohlamaydi. Buning isobotni esa keyingi davrlarda yaratilgan tadqiqotlarda ham ko'rish mumkin. Har bir manbani yaratilish tarixiga jiddiy e'tibor qaratdi. Boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq uning tabiatidagi sinchikovlik, tarix ilmiga bo'lgan muhabbat bir zum ham haqiqatlarni oydinlashtirishga bo'lgan qiziqishini

so'ndirmaydi. Furqat biografiyasiga oid bahs-munozaralarga oydinlik kiritib, uning do'stlari, hammaslklari shaxsini aniqlash maqsadida arxiv hujjatlariga, Furqatning yozishma maktublariga, N. Ostromovning kundaliklaridagi qaydlariga qayta-qayta murojat qiladi. Nihoyat, bu mashaqqatli mehnatlar o'z mevasini berdi. Olimning sa'y-harakatlari natijasida, nafaqat Furqat hayoti, Toshkentda, Marg'ilonda yashagan yillardagi turmush tarzi, adabiyot olamiga kirib kelishi, ma'rifatparvar ijodkorlar bilan tanishuviga doir haqiqatlar oydinlashdi va iste'foda etildi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmadjon Meliboyev. "Tarix ummonidan qatralar". "Jahon adabiyoti" jurnali 2019-yil 2-son
2. Юсупов Ш. Фуркат йўлларида. Т.: Адабиёт ва санъат, 1984. 19-24
3. Шариф Юсупов. Фурбатда Фуркат. // Гулистон. 1978, 7:24.
4. Ш. Юсупов. Фуркат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Ф.ф.д. диссертация. Т., 1990.
5. Н. Жобборов. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Ф.ф.д... диссертация, Т.: 2004. 18-32 бет
6. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. Т.: Маънавият, 1999.
7. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. Т.: Маънавият, 2003. 109
8. Интернет сайтлар:
9. www.ziyouz.uz
10. Xurshid Davron kutubxonasi.uz



UDK: 812.533.134.(041).81121

Mo'min TURDIBEKOV,
Renessans ta'lim universiteti professori, fil.f.doktori
E-mail: mominjonturdibekov@mail.ru

Amaliy fanlar universiteti professori, fil.f.doktori B.Mengliyev taqrizi asosida

ТОПОНИМЛАРИНИНГ ЯСАЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ (SHIMOLIY TOJIKISTON TOPONIMLARI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada toponimlarda yasaliş masalasiga bo'lgan qarashlar va bu qarashlardagi har xilliklar masalasi turlicha ekanligi talqin qilingan. Aslida toponimlarda yasaliş masalasi biroz bahstalab ekanligi va yasaliş aslida toponimlikkacha bo'lishi Shimoliy Tojikiston toponimlari misolida atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Toponim, apellyativ birlik, topoasos, morfologik usul, sintaktik usul, konversiya usuli, tranonimizatsiya usuli, soda, murakkab, qo'shma toponim.

ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ТОПОНИМОВ (НА ПРИМЕРЕ ТОПОНИМОВ СЕВЕРНОГО ТАДЖИКИСТАНА)

Аннотация

В этой статье объясняется, что взгляды на вопрос о происхождении топонимов и вопрос о различиях в этих взглядах расходятся. На примере топонимов северного Таджикистана подробно показано, что на самом деле вопрос о происхождении топонимов является несколько спорным, и что происхождение на самом деле восходит к топонимии.

Ключевые слова: Топоним, апеллятивная единица, топоазос, морфологический метод, синтаксический метод, метод преобразования, метод трансонификации, сода, комплексный, составной топоним.

FEATURES OF THE FORMATION OF TOPONYMS (ON THE EXAMPLE OF TOPONYMS OF NORTHERN TAJIKISTAN)

Annotation

This article explains that the views on the question of the origin of toponyms and the question of the differences in these views differ. Using the example of the toponyms of northern Tajikistan, it is shown in detail that in fact the question of the origin of toponyms is somewhat controversial, and that the origin actually goes back to toponymy.

Key words: Toponym, appellative unit, topoazos, morphological method, syntactic method, transformation method, transonification method, soda, complex, composite toponym.

Toponimlarning morfologik tuzilishi va yasalishi masalasi turli yondashuvni taqozo qiladi. Shunga ko'ra, toponimlarning tuzilish va yasaliş jihatini alohida tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Garchi toponimika nom, atoqli ot sanalishi nuqtai nazaridan onomastika doirasida qaralsa-da, o'ziga xos, alohida xususiyatlarga ham ega. Birinchidan, toponimika doirasida qaraladigan lug'aviy birliklar faqat geografik joy nomlarini atash bilan funktsional chegaralanadi. Ikkinchidan, bu birliklar atama sanalishi jihatidan barcha onomastik birliklar bilan umumiylikni tashkil qilsa-da, yasaliş modellariga ko'ra muayyan farqlarga ega. Nomlanishning aniq bir obyektga ega bo'lishi, nomlanish jarayonida turli ekstralingvistik vaziyatlarning rol o'ynashi, toponimik yasaliş, garchi o'zbek tili so'z yasaliş qonuniyatlaridan oziqlansa-da, yana o'z yasaliş usullarining mavjudligi, so'zning apellyativ holatdan onomastik holatga o'tishidagi sotsiolingvistik omillar, nomlarning saqlanishidagi turg'unlik va beqarorlik kabi holatlar ana shu o'ziga xosliklardir". Ta'kidlanganidek, toponimlarning yasaliş, apellyativ birlikning onomastik qatlamga yoki onomastik birlikning boshqa bir onomastik guruhga ko'chish kabi hodisalar toponimik tizimda ham alohida o'rin tutadi. Onomastik yasaliş tizimi masalasi doirasida N.V.Podolskaya onomastik so'z yasalişining quyidagi usullarini qayd etib o'tadi: affiksatsiya, so'zlarni qo'shish, so'zlarni yonma-yon qo'llash, so'zni takror qo'llash, birikmali otlar hosil qilish, sintaktik qurilmalar qismini tushirish, so'z birikmasini qo'shma so'z shakliga keltirish, abbreviatsiya. Olima tomonidan qayd etilgan onomastik so'z yasaliş usullarining

atoqli otlar tizimidagi faollik darajasi turlicha bo'lishi kuzatiladi.

Rus olimi R.Z.Muryasov nemis tili toponimlarini struktur jihatdan sodda, yasama qo'shimchali, murakkab yasama toponimlar va tarkibiy toponimlarga ajratgan. Qoraqalpoq toponimlari tadqiqiga doir maqola mualliflari T.Begjonov, K.Abdimuratov ham toponimlarning strukturasi va yasaliş bilan bog'liq masala doirasida o'z mulohazalarini quyidagicha bildirishgan: "Toponimlar strukturasi deyilganda, odatda, ularning aniq morfologik tiplari, ya'ni so'zning ma'lum ma'noda o'zgarishi, muayyan qo'shimchalar bilan uyg'unlashishi va so'z yasalişining ayrim ko'rinishlariga asos bo'lib xizmat qiladigan tiplariga oid xarakterli xususiyatlari tushuniladi. Yasaliş xususiyatlariga ko'ra ularni sodda va murakkabga ajratish mumkin. Sodda toponimlar bosh kelishidagi otlar yoki yasama sifatlardir. Murakkab toponimlar esa yasalişiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: qo'shma, birikmali va juft toponimlar...". Har ikkala iqtibosda ham toponimlarning strukturasi va yasaliş yuzasidan mulohaza va tasnif o'rin olgan, biroq har ikkala yondashuvda ham leksik birlikning strukturasi va yasaliş qorishtirilgan holda tasniflangan. Bizningcha, leksik birlikning tuzilish va yasaliş jihatida boshqa-boshqa, ular alohida tamoyil va yondashuv asosida tahlil qilinishi lozim. Ya'ni tuzilish bu tarkibni tashkil qiluvchi unsurlarning morfologik xususiyatlari asosida, yasaliş esa birlikning semantik jihatida tavsiflanishi, baholanishi kerak. Shunday yondashilganda hodisa mohiyatiga yaqinlashish, uni to'g'ri talqin qilish imkoniyati yuzaga keladi. Leksik birlikning tarkibiy tuzilishiga

ko'ra sodda, qo'shma va murakkab (birkmal) turga, yasaliş jihatidan tub va yasamaga ajratilishi mantiqqa mos bo'ladi. Tasnifning birinchisi uchun "tuzilish (tashkil etish)", ikkinchisi uchun esa "yasaliş" tasniflash asosi sifatida belgilanadi. Yasama birlik, o'z navbatida, yasaliş usuliga, ya'ni yangi ma'noning hosil bo'lish yo'siniga ko'ra morfologik usul, sintaktik usul, leksik usul kabilar asosida yasalgan birliklar guruhiga bo'linishi maqsadga muvofiq. Shunga binoan Shimoliy Tojikiston toponimlarini yasaliş nuqtai nazaridan tub va yasamaga ajratib, asosiy diqqatni yasama toponimlarning yasaliş usuli, yasovchi asosi va yasovchi vositalariga qaratish kerak.

Shimoliy Tojikiston toponimiyasi tarkibidagi nomlarning yasalişida morfologik, sintaktik va onomastik konversiya usullarini qayd qilish lozim. Mazkur hudud toponimiyasi tarkibi tahlil qilinsa, toponimlarning qo'shimcha qo'shish, so'z qo'shish, so'zlarni yangi ma'noda qo'llash usullari asosida tarkib topganligini ko'rsatdi.

Shularga asoslangan holda, Shimoliy Tojikiston toponimlarini yasaliş usuliga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Morfologik usul bilan hosil bo'lgan toponimlar.
2. Sintaktik usul bilan hosil bo'lgan toponimlar.
3. Konversiya va transimimizatsiya usuli bilan hosil bo'lgan toponimlar.

Morfologik usul bilan hosil bo'lgan toponimlar. Ma'lumki, apellyativ leksika sathidagi kabi toponimlar yasalişida qo'shimcha qo'shish usuli orqali toponimlarning yasalişini kuzatiladi, morfologik usul deb qayd qilinadigan bu usulning mohiyatini yasovchi asos va so'z yasovchi qo'shimchalar tashkil qiladi, ya'ni "asos+so'z yasovchi qo'shimcha=yasama so'z" qolipini nazarda tutadi.

Shimoliy Tojikiston toponimiyasidagi Qo'rg'oncha, Qayirma, Maydoncha, Sarimsoqli, Ishqili, Sho'rchi, Ko'ktunlik kabi yasama toponimlar asosga -cha, -chi, -ma, -lik yasovchilari orqali yuzaga kelgan. Hozirgi o'zbek tilida -chi (kasb-hunar oti yasovchi), -ma (sifat va narsa-jism oti yasovchi), -lik (mavhum egalik oti yasovchi) affiksleri yasovchilik xususiyatini u yoki bu darajada saqlagan deyish mumkin. Maydoncha, Qo'rg'oncha toponimlarida yasovchi obyektning hajmiga ishora qiladi. Itorchi, Ovchi, Qarapchi toponimlarda totemistik sema jamlangan: Itorchi – yalovida it belgisi, Ovchi – tug'ida sigir belgisi, Qarapchi – tug'ida ulug'vorlik (cho'qqi) belgisi mavjud bo'lganlikni anglatgan. Ma'lum bo'ladiki, qayd qilinganlar tarkibidagi yasovchi vositalarning o'rni va vazifasi bir xil emas, ayrimlari toponim yasalişiga, ba'zilarida esa topoasosning yasalişiga xizmat qilgan.

Qipchoqcha toponimidagi -cha hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kichraytirish-erkalash oti yasovchi qo'shimchaning analogi bo'lib, ayrim lingvistik adabiyotlarda yasovchi muhim komponent sifatida qayd etiladi. Ammo hozirgi o'zbek tili bo'yicha darslik va qo'llanmalarda bu qo'shimchaning so'z yasovchilik xususiyati haqida fikr bildirilmagan. Agar mazkur morfologik shaklning yuqoridagi ikki belgisiga tayanib affikal omonimiyasi sirasiga kiritilish lozimligi tan olinadigan bo'lsa, bu imkoniyat ham hech qaysi adabiyotlarda o'z aksini topmagan. Chunonchi, Sh.Sho'abdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev, I.Rasulov, X.Doniyorovlar muallifligida nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida affikal-omonimiyasi haqida shunday qaydlar kuzatiladi: "Omonimlik hodisasi bir xil yoki turli xil affikslar o'rtasida bo'lishi mumkin:

Affiksning omonimligi yuqoridagilardan murakkab holatda bo'lishi mumkin: -ma affiksi: 1) ot yasaydi: suzma, ko'rgazma; 2) sifat yasaydi: ivitma (palov), yasama (so'z); 3) fe'ning bo'lishsiz formasini yasaydi: borma, aytma, so'rama".

Yoki tilshunoslikning eng so'nggi taraqqiyot bosqichi davrida yuzaga kelgan R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev,

G.H. Boqiyeva, M.M. Qurbonova, Z.Q. Yunusova, M.Q.Abuzalovanning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ham bu haqda fikr bildirilmaydi: "Morfemik omonimiyasi. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfema orasida ham bo'lishi mumkin.

1) derivatsion omonimiyasi: -ki I: turtki, tepki, ko'chki (ot yasovchi); -ki II: ichki, kechki, ustki (sifat yasovchi);

2) grammatik omonimiyasi: -(i)sh I: (borish), (kelish), (ketish) (harakat nomi shakli); -(i)sh II: (birga) (yuvish), (tarash), (ishlash) (birgalik nisbat shakli);

3) derivatsion-grammatik omonimiyasi: -(i)m I: yig'im, terim, sig'im (ot yasovchi morfema); -(i)m II: uyim, kitobim, soatim (egalik morfemasi)".

Demak, -cha qo'shimchasining morfologik imkoniyatlarini hozirgi o'zbek tili parametrlari bilan talqin qilganda, uning aniq mohiyati yuzaga chiqmasligi ko'rinib turibdi. Bu mohiyatni muayanlashtirish uchun obyektga reliktolingvistik jihatdan, ya'ni sinxronik va diaxronik talqin omuxtaligida yondashilganda "o'z sirini" namoyon etadi. "Ona tilimizning ichki strukturasi diaxronik va sinxronik yondashuvlarning omuxtaligida nazar solinsa, bundan ham ko'proq, bundan ham turli-tuman munozarali vaziyatlarni ko'rish mumkin".

Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfemik tarkibida ham boshqa hudud toponimiyasidagi singari grammatik qo'shimchalarning shakl yasovchi, so'z yasovchi kabi turlarining ishtiroki kuzatiladi. Bunday holat apellyativ leksikadagidan biroz boshqacharoq xususiyat kasb etib, toponimiyada o'ziga xos tarzda talqin qilinishni taqozo qilib turadi. Toponimist T.Nafasov Qashqadaryo viloyati hududi toponimlariga bag'ishlagan tadqiqotida toponimlarning yasalişini va tuzilishi xususida ham fikr yuritadi, unda asos va negizga so'z yasovchi formantlarning qo'shilib toponimlar hosil qilinishi xarakterli ekanligi ta'kidlangan, xususan, toponimlarning morfologik usul bilan yasalişida mahsuldor yasovchilar sifatida -li, -lik, -liq (Tutli, Ilonli, Jiydali, Terakli, Kulollik, Jizzalik, Yorg'ullik, Uychilik va b.) qo'shimchalari qayd qilinadi, bundan tashqari, hudud toponimlarining yasalişida -loq (Qumloq, Toshloq), -lov (Qamishlov, Andizlov), -toy (Chivintoy, Kaltatoy), -chi (Ko'mirchi, Ko'zchi), -ma (Jorma, Ko'tarma), -chak, -choq, -chik (To'pchoq, Tuvachak, Moychiq), -cha (Qishloqcha, Mergancha), -zor, -xona, -iston, -obod, -ak, -i affikslerinin yasovchi vosita sifatidagi ishtiroki ham misollar asosida ko'rsatib berilgan. Bu usul asosida toponimlarning yasalişini, hosil qilinishi xususida Boysun tumani hududi mikrotoponimlari tadqiqi bilan shug'ullangan X.Xolmo'minov tomonidan ham hudud mikrotoponimlari tarkibida uchraydigan -li (O'rikli, Archali), -lik, -liq, (To'dalik, Rabotlik, Boysunlik), -chilik (Jomchilik, Kulolchilik, Misgarchilik), -cha (Qo'rg'oncha, Bibicha, Qizilcha), -chi (Ko'nchi, Misgarchi, Kulolchi), -ma (Ko'tarma, Sakirtma, Izma, Oqma), -loq (Toshloq, Qumloq, O'tloq, Tuzloq), -lov (Qamishlov, Qishlov), -zor (Olmazor, O'rikzor, Chashmazor) affiks yoki topoformlar yasovchi qo'shimchalar maqomida tahlil qilinadi. Urgut tumani mikrotoponimlari tadqiqini amalga oshirgan S.Bo'riyevning ishida ham -zor (Archazor, Irg'iyzor), -lik (Do'stlik, Shilxolik), -li (Shullukli, Irg'ayli), -lar (Oqbovalar), -iston (Guliston, Kuygiston), -cha (Yayloqcha, Qishloqcha) kabi affikslarning toponim yasovchilik tahlili amalga oshirilgan, bular sirasida -cha qo'shimchasining mahsuldorligi qayd etiladi. Ko'rinadiki, T.Nafasov, S.Bo'riyev qayd etgan qo'shimchalardan tashqari -lar affiksini ham toponim yasovchi affiks sifatida qaraydi.

Tadqiqotimiz obyektidagi toponimlarning tarkibida -cha, -loq, -li, -lik, -ma, -liq, -chak, -zor, -iston kabi so'z yasovchi qo'shimchalar mavjudligi, ularning toponimlar tarkibida ishtirok etish o'rni va vazifasi, salmog'i har xil, ya'ni ba'zi o'rinlarda toponim yasash uchun, ayrim holatlarda

toponim yasalishi uchun asos bo'lgan birlikni yasashga xizmat qilganligi kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, toponimlar tarkibidagi qo'shimchalarning toponim hosil qilishdagi o'rni va vazifasi masalasi ham mas'uliyat bilan yondashuvni taqozo qiladi. Chunki toponimlar tarkibidan o'rin olgan so'z yasovchi qo'shimchalar turlicha maqom, vazifa kasb etadi. Shunga doir fikrlar borasida A.Superanskayaning ham munosabatini qayd etib o'tish joiz: "Atoqli otlarning tuzilishi haqida gap borganda asos va formantlar haqida gap yuritish kerak. Chunki toponimik negiz tarkibiga kiruvchi old qo'shimchalar, o'zak va suffiksalar, odatda, atoqli otlikkacha bo'lgan yasashga tegishlidir. Ular atoqli ot tarkibida tayyor negiz (enonim) sifatida keladi". Shu bilan birga, toponimlarning tuzilishi yoki yasash tizimi faqat asos leksema (topoasos) munosabatidan iborat bo'lmay, atoqli otlarga xos ichki xususiyatlarga ham egaligini e'tibordan qochirish lozim. Bu borada tadqiqotchi A.Aslonov ta'kidlaganidek, sodda toponimlar tarkibida uchraydigan yasovchi morfemalarning nomni hosil qilishdagi o'rni ikki xil xarakter kasb etadi: toponim yasashga xizmat qiluvchi morfemalar va nom yasalishiga asos bo'lgan leksemani yasashga xizmat qilgan qoldiq formantlar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Shimoliy Tojikiston toponimlari yasalishi tizimidagi so'z yasovchi qo'shimchalarni ham toponim yasashga xizmat qiluvchi qo'shimchalar hamda toponim yasalishiga asos bo'lgan so'zni yasashga xizmat qiluvchi qo'shimchalarga ajratish mumkin:

1) toponim yasashga xizmat qiluvchi so'z yasovchi qo'shimchalar: -li (Yantoqli, Olmali, Tutli); -lik (Zog'chalik, Pistalik, Balandlik, Toshkandlik, Ichkarilik, Tashqarilik, Yoriqlik); -(a)k (Kunjak, Ko'chkak, Tikonak, Qizak); -ma (Ko'tarma, Qotma); -chi (Yilqichi); -zor (Yantoqzor); -iston (Shahriston);

2) toponim yasalishiga asos bo'lgan so'zni yasashga xizmat qiluvchi qo'shimchalar: -li (Qo'zovullik, Bolg'ali, O'roqli, Ishqili); -lik (Ko'kto'nlik, Jingilik); -chi (Axtachi, Taqachi, Cho'yanchi, Itorchi, Dukchi, Ovchi); -zor (Lolazor); -ak (G'azandarlik, Qizak); -ma (Sachratma, Qayirma); -loq (Toshloq, Qishloq). Ushbu ikkinchi guruhda qayd qilingan toponimlar tarkibida ishtirok etgan so'z yasovchi qo'shimchalar toponimlarni yasash uchun emas, toponim yasalishi uchun asos bo'lgan topoasosni, apellyativ birliklarni yasashga xizmat qilgan. Ushbu apellyativ birliklar shu holatda toponimik birliklar vazifasiga ko'chib o'tgan. Bu haqda Z.Do'simov ham o'z munosabatini quyidagicha bildirib o'tgan: "...Bazzozlik, Hurlik va boshqa toponimlarning toponimga aylanguncha bo'lgan ma'nosi bazzozlik, hurlik kabi leksemalarning ma'nolari orqali konkretlashadi. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan toponimlar -lik affiksi bilan hosil qilingan emas, balki bazzozlik, hurlik so'zlarining toponimga ko'chishi natijasida vujudga kelgan. Demak, bu o'rinda toponimlarning affiksali yasalishi emas, balki toponim yasalishining boshqa bir usuli bilan to'qnash kelyapmiz". Shunga monand ravishda Shimoliy Tojikiston toponimlari sirasidagi Zog'chalik, Pistalik, Jingilik, Ichkarilik, Tashqarilik kabilar tarkibidagi -lik qo'shimchasi toponim yasovchilik xususiyatiga ega, Balandlik, Toshkandlik, Ko'kto'nlik,

Yoriqlik kabilar -lik qo'shimchasi topoasoslarni yasashga xizmat qilgan deyish mumkin. "Toponimlar tarkibida uchraydigan ko'pgina so'z yasovchi qo'shimchalar toponimga emas, balki toponimik negiz – apellyativga mansubdir".

Shimoliy Tojikiston toponimlari tarkibidagi joy nomlarining yasalishida quyidagi qo'shimchalar yasovchi vosita sifatida xizmat qilgan:

-chi qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Yilqichi (yaylov), Sho'rchi (qishloq) kabilar;

-zor qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Yantoqzor (ekin maydoni, yaylov), Lolazor (buloq) kabilar. Bu qo'shimchani "genezisi eroniy tillarga tegishli bo'lib", fors-tojik va o'zbek tilida qo'llanadigan affiksalar sifatida joy nomlarini yasashda faol ishtirok etadi.

-xona qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Tulkixona (bog'), Kaptarxona (ekin maydoni), Bo'rixona (yaylov), Arabxona (mahalla) kabilar;

-cha qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Sho'rcha (ekin maydoni), Qo'rg'oncha (qishloq, mahalla), Bog'cha (guzar, mahalla), Qipchoqcha (qishloq);

-lik qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Zog'chalik (adir), Pistalik (ekin maydoni), Toshkandlik (guzar), Jingilik (ovul), Ichkarilik, Tashqarilik (guzar) kabilar;

-li qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Qizili (qishloq, dasht), Yantoqli (yaylov), Tutli, Olmali (ovul) kabilar;

-loq qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Toshloq (bog') kabi; -loq qo'shimchasi qadim davrlardan buyon joy nomini yasashda faol ishtirok etib kelganligini quyidagi fikrlar ham asoslab turadi: "Iloq so'zining turkiy ekanligiga hech shubha qilib bo'lmaydi. Uning ikkinchi komponenti –loq fikrimizning isbotidir, -loq qo'shimchasi qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, joy nomini yasaydi: yaylov-yoylog' (yoyloq) – "yozda turiladigan joy", qishlog' (qishloq) – "qishlanadigan joy".

-iston qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Shahriston (tuman) kabi;

-obod qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Xonobod, Navobod (qishloq), Hotamobod (guzar) kabilar;

-ma qo'shimchasi bilan yasalgan toponimlar: Qayirma (qishloq), Ko'tarma (bog'), Qotma (ekin maydoni) kabilar.

Yuqorida qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, toponimlarning morfologik usul yordamida hosil qilinishi bo'yicha qat'iy xulosa, hukm chiqarish nihoyatda nozik va ayni paytda shartlidir. Chunki atoqli otlarning, xususan, toponimlarning sinxron yoki diaxron tuzilish tarkibi mavjud mezonlar doirasiga ba'zan sig'may qoladi, ayniqsa, toponimlar hozirgi o'zbek tili onomastik tizimining birligi bo'lish bilan birga uzoq ijtimoiy-tarixiy davr mahsuli hamdir. Kuzatuvimizdagi toponimlarning morfologik usul bilan yasalishi masalasida bahstalar, munozarali holatlar ham bo'lishi tabiiy. Umuman olganda, asosga qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilingan toponimlar soni boshqa usul bilan yasalgan toponimlarga nisbatan kam miqdorni tashkil qilib, bu borada boshqa hudud toponimlari bilan umumiyliklarga egali kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараккиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 15–16.
2. Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) // Вопросы языкознания. – Москва, 1990. – № 3. – С. 40–43.
3. Мурясов Р.З. Имя собственное в современном немецком языке. – Уфа: Башгосуниверситет, 1983. – 90 с.
4. Бегжанов Т., Абдимуратов К. Структура Каракалпакских топонимов // Советская тюркология. – Баку, 1971. – № 6. – С. 85–87.
5. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳоҷиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 165.
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 196.

7. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с.
8. Суперанская А.В. Структура имени собственного. – М.: Наука, 1969. – С. 22.
9. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 19.
10. Дўсимов З. Топонимларнинг ясашиши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 2-сон. – Б.45.
11. Қораев С. Топонимика – жой номлари ҳақидаги фан. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 29.
12. Turdibekov M. Shajarayi turk onomastikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 78.
13. Turdibekov M. Shimoliy Tojikiston tarixiy toponimlari. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – B.54,



UDK:811.1

Шукрулла ТУРСИНМУРАТОВ,
Старший преподаватель КГУ имени Бердаха
E-mail: tursinmuratov72@bk.ru

По отзыву С. Эшимбетовой, доцента Педагогического института им. Ажинияза

PROBLEMS OF POETIC TRANSLATION OF A.S.'S WORKS PUSHKIN INTO THE KARAKALPAK LANGUAGE (USING THE EXAMPLE OF THE POEM "BLACK SHAWL")

Annotation

When translating a text of classical literature, the translator is faced with the task of determining the purpose and methods of conveying the national identity of a generally recognized literary masterpiece. This problem is considered in the article in the context of translations of the poem "Black Shawl" into the Karakalpak language. The purpose of this study was to substantiate the importance of the linguocultural function of comments and prefaces, which also made it possible to identify the features of the translations themselves and emphasize their continuity.

Key words: Translation, linguoculturology, Karakalpak language, analysis, text, poet, poetry.

A.S. PUSHKIN ASARLARINI QORAQALPAK TILIGA SHE'RIY TARJIMA MUAMMOLARI ("QORA RO'MOL" SHE'RI MISOLIDAN FOYDALANIB)

Annotation

Klassik adabiyot matnini tarjima qilishda tarjimon oldida umume'tirof etilgan adabiy asarning milliy o'ziga xosligini etkazishning maqsadi va usullarini aniqlash vazifasi turadi. Bu muammo maqolada "Qora shol" she'rining qoraqalpoq tiliga tarjimalari kontekstida ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotdan ko'zlangan maqsad sharh va so'zboshilarning lingvomadaniy funksiyasining ahamiyatini asoslab berish bo'lib, bu ham tarjimalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning davomiyligini ta'kidlash imkonini berdi.

Kalit so'zlar: Tarjima, til madaniyati, qoraqalpoq tili, tahlil, matn, shoir, she'riyat.

ПРОБЛЕМЫ ПОЭТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА ПРОИЗВЕДЕНИЙ А.С. ПУШКИНА НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК (НА ПРИМЕРЕ СТИХОТВОРЕНИЯ «ЧЁРНАЯ ШАЛЬ»)

Аннотация

При переводе текста классической литературы перед переводчиком встает задача определения цели и способов передачи национального своеобразия общепризнанного литературного шедевра. Эта проблема рассматривается в статье в контексте переводов на каракалпакский язык стихотворения «Чёрная шаль». Целью данного исследования стало обоснование важности лингвокультурной функции комментариев и предисловий, что позволило также выявить особенности самих переводов и подчеркнуть их преемственность.

Ключевые слова: Перевод, лингвокультурология, каракалпакский язык, анализ, текст, поэт, поэзия.

Введение. Проблема перевода на иностранные языки национальных шедевров литературы той или иной страны является, с одной стороны, проблемой классической, традиционной, с другой, безусловно, актуальной. Сохраняя константу национального достояния, литературный шедевр продолжает жить и как актуальное литературное произведение. В связи с этим возникают важные вопросы. Главный из них - вопрос о самой необходимости новых переводов, противопоставленных более ранним, или, напротив, «созвучных» им. Но и те, и другие отражают очередную попытку «улучшения» перевода не только в рамках заданной стилистики времени, но и с позиций пиетета переводчика перед национальным шедевром.

Результаты исследования. Обращение к Пушкину является следствием огромного интереса Каракалпакских переводчиков к его произведениям.

В 1983 году в издательстве «Каракалпақстан» вышла книга под названием «Журектен журекке» («От сердца к сердцу») куда были включены произведения из мировой литературы, и в том числе стихи А.С. Пушкина.

Сборник был переведён и составлен известным переводчиком М.Қарабаевым. А в 1985 году в том издательстве вышла книга «А.С.Пушкин. Қосықлар ҳам поэмалар» (А.С.Пушкин. Стихи и поэмы). В сборник

были включены наряду со стихами поэмы «Бақшасарай фонтаны» (переводчик Т.Айтмурагов) и «Цыганлар» (переводчик М.Сейтниязов). В 1985 году вышел сборник произведений из мировой поэзии, переведенные поэтом-переводчиком И. Юсуповым «Мэнги булақлар» (Вечные родники), и наконец в 1993 году в издательстве «Билим» увидела свет книга поэта и переводчика Ж. Избасқанова «Дунья Меридианлары» (Меридианы мира). Во всех сборниках особое место занимают переводы поэзии А.С.Пушкина.

Особое место среди этих переводов занимает стихотворение «Черная шаль». Каракалпакские переводчики обращались к этому произведению три раза, что интересно, они по-разному перевели даже название стихотворения: «Қара орайпек. Молдаван қосығы» М.Қарабаев, «Қара шалғыш» И.Юсупов, «Қара орамал» Ж.Избасқанов.

Перевод стихотворения «Черная шаль» заслуживает высокой оценки в целом, три варианта перевода имеют достоинства, но и есть, безусловно, и погрешности, потому что у каждого переводчика имеется свой, индивидуальный подход к оригиналу.

Впервые стихотворение с заголовкой «Черная шаль» и подзаголовкой «Молдавская песня» было напечатано в журнале «Сыны отечества» [1]

Этим Пушкин подчеркивает, что сюжет произведения взято им из народной молдавской песни. Поэт стремясь, видимо, подчеркнуть восточное происхождения сюжета, «Черную шаль» написал типичной для восточной поэзии строфой двустушиями, так называемыми «бейтами».

Уже название стихотворения несет эмоциональную нагрузку, настраивает читателя на что-то печальное, трагическое. Семантика цвета «черный» всегда несет отрицательную энергетику, поэтому каракалпакские переводчики были правы, когда они использовали эквивалент слова «шаль» - они пошли разными путями; У Карабаева «Қара орайпек», у Юсупова «Қара шалғыш», а у Избасканова «Қара орамал». Из выше названных переводчиков, только М.Қарабаев сохранил и перевел оригинальное пушкинское название произведения «Қара орайпек». «Молдаван косыгы».

Первое двустушие поэта «Гляжу как безумный на черную шаль/И хладную душу терзает печаль», если мы внимательно прочтем «черная шаль» плавно переходит в эпитет «черную печаль» [2]. Эту мысль правильно уловили М.Қарабаев и Ж.Избасканов: соответственно «Қара қайғы» и «Қара қайғыдан». В произведении семантика цвета «черный» (кара) имеет особое значение, и несет главную эмоциональную нагрузку (начало и конец произведения). Если будем рассматривать значение «черного» (кара) цвета в художественной литературе, и в русской и в каракалпакской литературе несет одинаково отрицательно-негативное значение: черная ночь, темнота, животное (кошки, овцы, коровы, лошади, собаки и др.), птицы (вороны, куры и др.) земля, грязь, тучи, смерть, неизвестность, зло, тревога, несчастье, мистика и др. общее смысловые значения.

Пушкин в «Черной шали» использует семь словосочетаний связанных со значением «черный»; черная шаль, черный день, глаза потемнели, не взвидел я света, текущую кровь, вечерняя тьма, не знаю веселых ночей. Каракалпакские переводчики в целом удачно перевели эпитеты и словосочетания: Қара қайғы, қоршады қайғы, көзим гуңгирт тартты, көзим жер көрмеді, аққан қан, кара орайпек, шымырт жабылудан, кеуилли тун көрмедім (М.Қарабаев); Қара шалғыш, кара кунге, көзим карауытты, кеш тускенде, шадлы тун (И.Юсупов); Қара орамал, кара кунлер, этирапым тас-тунек, мезгилдиң кешин, айлы тунлерди (Ж.Избасканов). Но, несмотря на удачные переводы отдельных словосочетаний, они в контексте перевода всего произведения, в некоторых местах не вписываются в общую структуру оригинального текста. Например:

«Жанымды алды назыменен қыз бала,

Қара кунге болдым,бирақ, мутала» (перев. И.Юсупова)

«Прелестная дева ласкала меня;

Но скоро я дожил до черного дня». (А.Пушкин)

Сравнительный анализ перевода «Черная шаль» в каракалпакской литературе еще никем не рассматривалось. Это первая попытка

В произведении «шаль» (платок) выполняет «двойную функцию»; можно накидать на плечи, и использовать, как головной убор. Это деталь как бы подчеркивает двойственность характера героини.

В вступительной части стихотворения, переведенной М.Қарабаевым:

«Қара орайпекке қарасам ессіз,

Қайғы жүрегімди ништердей тести.»

«Гляжу как безумный на черную шаль,

И хладную душу терзает печаль...» (А.Пушкин)

Первая строка переведена замечательно, а при переводе второй строки, он руководствовался не

принципом лексического словоупотребления, а семантическим: поэтому замены «душу» - «сердцем», а «терзает» - «ништердей тести». Подстрочный перевод: «печаль сердце колит как игла (ништер) еще «ништер» - это архаизм, сейчас никто не пользуется этим словом, поэтому заменили словом «ийне»- (игла).

«Когда легковерен и молод я был,

Младую гречанку я страстно любил». (А.Пушкин)

«Жеңил ойлайтуғын жаслық шағымда,

Мен грек қызын суйдим жанымдай». (М.Қарабаев)

«Аңқау жаслық гезде ынтығып мен өзим

Суйген едим гректин бир жас қызын». (И.Юсупов)

«Жеңилтек жас пайтым,

Бирақ, жалындай.

Бир грек сулыуын

Көрдим жанымдай». (Ж.Избасканов)

В анализе этого фрагмента, чтобы быть более достоверными в своих утверждениях мы воспользуемся словарями. Все три переводчика исказили оригинал, ведь у Пушкина слово «легковерен» - а не как утверждают переводчики: «жеңил ойлайтуғын» -«легкомысленный» (Қарабаев), «аңқау» -1)«разиня»,розотей;2) недогадливый, наивный человек, простак (Юсупов) (в каракалпакском языке слово «аңқау»- всегда имеет отрицательное значение.); «жеңилтек» - «легкомысленный», «ненадежный»- (отрицательном значении- всегда) (Избасканов).

У переводчиков главный герой приобретает образ-легкомысленного, ненадежного розотея. Мы считаем, что было бы правильно использовать слово «исениушил» [2] - «легковерный».

Дальше больше, у Избасканова «младая гречанка» Пушкина, превратилась в «грек сулыуы» (красавицу гречанку).

У Пушкина «дева» - имеет высокое, традиционно-поэтическое значение, причем в стихотворении повторяется это слово трижды: «прелестная дева ласкала меня», «неверную деву лобзал армянин», «и молча на деву, бледная, взирал».

Перевод этого фрагмента не может не вызвать ряд существенных возражений.

Нельзя не обратить внимание на четвертое двустушие:

«Однажды я созвал веселых гостей / Ко мне постучался презренный еврей» (Пушкин)

Бир сапары уйге шақырдым мийман / Бир еврей келди де: деди: Сиз бийғам (Қарабаев)

Қонақ кутип уйде отырған уақтым / Бир оңбаған жоқуд есигимди қақты. (Юсупов)

Бирде қонақлар мол / Кеуилли уақты / Қандай да бир еврей / Қапымы қақты. (Избасканов)

Здесь нас интересует вторая строка двустушия: «презренный еврей» -потому что, каракалпакскому читателю по историческим причинам вообще незнакомо это понятие (в статье не можем дать подробное разъяснение, это тема отдельного разговора). У Карабаева «бир еврей» келди... (пришел один еврей). У. Юсупова, хотя он и применил каракалпакский эквивалент «жоқуд» (еврей) использование прилагательного «оңбаған» испортил общее представление отрывка. Здесь нужно было применить не буквальный, а смысловой перевод. Во времена Пушкина словосочетание «презренный еврей» имело не столько национальную, сколько социальную подоплеку: это брезгливость дворянина, барина к торгашу, человеку готовому на пресмыкательство и готового ради «злата» на гнусный поступок.

В предоставленных переводах более правильным с точки зрения эквивалентности является вариант М.Қарабаева. Вот несколько примеров:

«Оған тилла бердим хэм нәлет айттым».
(М.Қарабаев)

«Бир алтын бердим де, сөктим изинен»
(И.Юсупов)

«Алтын берип / Нәлет айттым да оған».
(Ж.Избасқанов)

«Я дал ему злата и проклял его» (А.С.Пушкин)

У М.Қарабаева «тилла» имеет значение денежного эквивалента, а у И.Юсупова и Ж.Избасқанова алтын-золото (нарицательное), хотя ради справедливости нужно сказать, что слово «алтын» иногда тоже используется в значении «деньги». Но в нашем случае более правильным будет использование «тилла». И еще И.Юсупова «сөктим изинен». У переводчика здесь слово «сөктим» [2] двусмыслен и неблагозвучен (нелитературное).

Следующее двустушие: «Я помню моления... текущую кровь...

Погибла гречанка, погибла любовь!» (А.Пушкин)

Вторая строка этого двустушия стала афоризмом и у русских, и у каракалпаков: «Өлди грек қызы, өлди мухаббат!» (М.Қарабаев). У И.Юсупова: «Өлди грек қызы, сөнди [2] мухаббат. «Сөнди мухаббат»- «погасла любовь» гораздо слабее, не передает ту эмоциональную нагрузку, которую вложил поэт в оборот «погибла любовь». «Сөнди» (погасла) имеет оттенок того, что может возродиться, зажечься заново, «погибнуть» (өлди) – уже безвозвратно.

Очень удачный перевод этого двустушия сделал Ж.Избасқанов: «Есимде бөлмениң / Қанга толғаны...

Қыздыңхэм ышқымның / Набыт болғаны!

Но есть один существенный недостаток, он не сохранил форму оригинала, да и слово «набыт» хотя и является синонимом «өлди» в каракалпакском языке используется в значении – «гибель», «погибель», «смерть».

1. А. Пушкин: Прервать поцелуя злодей не успел.

2. И. Юсупов: Өлди поса устинде ол жауыз ойнас.

3. М. Қарабаев: Жауыз улгермеди ол қызды суйип.

У. Пушкина нет слова «любовник» - «ойнас», здесь нет художественной необходимости использовать это слово, «ойнас» просто загружает текст.

Есть один существенный недостаток в переводах следующих строк Пушкина: «Мой раб, как настала вечерняя мгла / В дунайские волны их бросил тела».

Однако ни в одном из вариантов переводчики не обратили внимания на оборот «дунайские волны», являющегося ключевым в данном тексте; Например,

«Олардың денесин атты Дунайға» (М.Қарабаев)

«Қулым кеш тускенде келип Дунайға / Олардың өлигин таслады сууға» (И.Юсупов)

«Дунайға олардың \ Атты денесин (Ж.Избасқанов)

Переводчики не перевели словосочетание «дунайские волны», а использовали просто «Дунай» (река).

Анализ перевода «Қара орамал» Ж.Избасқанова дает возможность понять, что это переложение темы, или даже пересказ на свой манер оригинального стихотворения Пушкина. Здесь нарушены основные принципы поэтического перевода, и в том числе размер стихотворения. Текст перевода Ж.Избасқанова почти вдвое больше текста оригинала, не говоря уже о неудачных местах перевода: «Шақырдым кулымды / Ер дейип маған / Алтын берип / Нәлет айттым да оған». Подстрочный перевод: Позвал раба/ Последуй за мной/ Дал золото/ И проклял его. Здесь куда-то исчез «презренный еврей» Пушкина, получается что герой даёт «злато» своему рабу, или еще: «Атқа коньп алып / Ушып кеттик биз». Подстрочный перевод: Сев на коня/ Полетели мы...

Вот таким «вольным» получился перевод у Ж.Избасқанова. Форма стихотворения – четверостишие. Тем не менее, перевод передает основную мысль оригинала, но следует отметить, что перевод Избасқанова по форме отличается от оригинала.

Заключение. В результате проведенной работы можно сделать вывод о том, что существующие переводы на каракалпакском языке стихотворения Пушкина «Черная шаль» могут быть признаны эквивалентными, хотя и есть некоторые недостатки, по крайней мере, на лексическом уровне.

В будущем, комплексный анализ позволит открывать новые и до сих пор не исследованные факты и поиск новых переводческих решений в каракалпакском переводоведении. Мы обратили свое внимание лишь на проблемы перевода стихотворения «Черная шаль» на каракалпакский язык.

ЛИТЕРАТУРА

1. Журнал «Сыны отечества» за 1821 г №15 от 9.04.
2. Каракалпакско- русский словарь. Под редакцией Н. Баскакова Москва – 1958 г. С. 458, С. 585, С. 256
3. Пушкин А. С. «Сочинения в трех томах. Том I» М.- 1985 г.
4. Сборник переводов из мировой поэзии, составленный М. Қарабаевым. Издательство: «Қарақалпақстан» 1983 г.
5. Сборник переводов из мировой поэзии. Состав. И. Юсупов. Нөкіс «Билим» -1985 г.
6. «Дунья меридианлары» («Меридианы мира») переводчик Ж. Избасқанов. Нөкіс «Билим» - 1993 г.
7. Пушкин А.С. «Сочинения в 3-х томах» том - поэма «Евгений Онегин». Москва- 1985 г.
8. Словарь русского языка под редакцией Н. Ожегова. Москва 1985 г.



UDK:420=415.614(045)

Jahongir TURSUNOV,

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: jakhongirtursunov@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) P. A. Qurbonov taqrizi asosida

AJRATILGAN GAP BO'LAKLARINI YUZAGA KELTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR

Аннотация

Ushbu maqolada Nemis tilshunos olimlari tomonidan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelinayotgan munosabatlarni bir-biriga qiyos qilib o'rganish, ularning bu sohada fikr-mulohazalari bir xil emasligi, germanshunos olimlarning ajratish hodisasiga nisbatan qarashlari bundan tashqari, fikr-mulohazalarining xilma-xil bo'lishidan qat'iy nazar, ular yagona bir narsaga, ya'ni tanlangan mavzuning barcha xususiyatlarini izohlab berishga yo'naltirilganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Germanshunos, aniqlovchili, to'ldiruvchi, ma'no xususiyatlari, ifodalanish usullari, ifodalanish usullari, ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni, komponent funksiyasida kelishi.

THE MAIN FACTORS THAT CREATE MAIN PARTS OF THE CLAUSES

Annotation

In this article, a comparative study of the attitudes expressed by Germanic scholars regarding the factors affecting the separation of parts of speech, the fact that their opinions in this field are not the same, the views of Germanic scholars on the phenomenon of separation, in addition to the fact that their opinions are different regardless of their variety, it is analyzed that they are focused on one thing, that is, to explain all the features of the selected topic

Key words: Germanic, determinative, complement, features of meaning, methods of expression, the role of secondary clauses in the sentence, their occurrence in the component function.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ОБРАЗУЮЩИЕ ОТДЕЛЬНЫЕ ЧАСТИ ПРЕДЛОЖЕНИЯ.

Аннотация

В данной статье проводится сравнительное исследование взглядов германистов на факторы, влияющие на разделение частей речи, на то, что их мнения в этой области не совпадают, взгляды германистов на явление разделения, по мимо того, что их мнения различны независимо от их разновидности, анализируется, что они ориентированы на одно, то есть на объяснение всех особенностей выбранной темы.

Ключевые слова: Германское, определительное, дополнение, особенности значения, способы выражения, роль второстепенных предложений в предложении, их появление в функции компонента.

Kirish. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir necha yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti soati keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020- yildagi PF-6097-sonli Farmonida "Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab va Oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining mezoniga aylanishi lozim", - dedi Sh. Mirziyoyev [1].

Ishning maqsadi, Germanshunos olimlar tomonidan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelinayotgan munosabatlarni bir-biriga qiyos qilib o'rganish, ularning bu sohada fikr-mulohazalari bir xil emasligini ilmiy jihatdan asoslab berish.

Tadqiqotning vazifasi quyidagilardan iborat: ikkinchi darajali bo'laklarning ma'no xususiyatlari, ikkinchi darajali bo'laklarning ifodalanish usullari, aniqlovchilarning ifodalanish usullari, ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni, bir nechta ikkinchi darajali bo'laklarning parallel mavjudligi va ularning bir birlariga nisbatan izohlanayotgan komponent funksiyasida kelishi, ikkinchi darajali bo'laklarning hajmlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Germanshunos olimlarning ajratish hodisasini o'rganishga bag'ishlab yozgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishish davomida, ular tomonidan ajratish hodisasining yangi-yangi xususiyatlari izohlanayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar ichida, birinchi navbatda, ularni yuzaga keltirishda bevosita ta'sir etuvchi omillar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Shu sababli ham biz ushbu ilmiy maqola doirasida ayrim germanshunos olimlarning shu soha bo'yicha aytgan fikr-mulohazalarini keltirishni va ularga nisbatan ma'lum darajada tegishli munosabat bildirishni asosiy maqsad qilib olamiz. Masalan, K.Y.Petrovskaya ingliz tili ustida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida holli aniqlovchili va to'ldiruvchili ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishi jarayonida, gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi tartibda izohlaydi:

- 1) ikkinchi darajali bo'laklarning ma'no xususiyatlari;
- 2) ikkinchi darajali bo'laklarning ifodalanish usullari;
- 3) aniqlovchilarning ifodalanish usullari;
- 4) ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida tutgan o'rni;
- 5) bir nechta ikkinchi darajali bo'laklarning parallel mavjudligi va ularning bir birlariga nisbatan izohlanayotgan komponent funksiyasida kelishi;
- 6) ikkinchi darajali bo'laklarning hajmi;
- 7) muallifning shu gap bo'laging ma'nosini bo'rttirib, boshqalardan ajratib ko'rsatish niyati.

Ikkinchi darajali gap bo'laklarning ma'no xususiyatlari; Ingliz tilida gap turlarining to'rt turi mavjud: darak, undov, buyruq va so'roq. Har bir gap turi har xil maqsadga xizmat qiladi. Har xil turdagi gaplarning tushunish va ulardan qanday foydalanish yozish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bularga undovlar (ingliz tilida masalan, "WOW", and "What is the hell"), aforistik iboralar (Like fathr, like son) , savollarga javoblar (Not wright now), o'zini o'zi aniqlash (Mary here), undovlar ("Go!") va h.k. Asosiy semantik xususiyatlar ma'nolilik yoki ma'nosizlikni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ikki qismli gaplarni ifodalashda esa tobe bo'laklarning eng keng tarqalgan turlari to'ldirivchi, hol va qo'shimchalar hisoblanadi. Ularning har biri gapda o'ziga xos vazifani bajaradi va shakllanish va qo'llanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gapning bu qismlari ega, kesim, hol va aniqlovchidir. Bular, berilgan jumalarning bu qismlari sizning yozish uslubingizga rang-baranglik qo'shadi va gaplarning har bir qismni joylashtirganingizga qarab, ular gap hamda so'zlaringizning ma'nosini o'zgartirishga amaliy yordam beradi. Bundan tashqari, gap tarkibidagi kichik ergash gaplarning o'rni tobe ergash gap bo'lib o'z-o'zidan to'liq gap sifatidagi gap emas, u shunchaki gapning bosh qismini to'ldiradi va shu yo'l bilan butun semantik gapni tugallaydi. Tobe ergash gapning ma'nosi bosh gapga doimo bog'liq bo'lganligi uchun u ergash gap ham deyiladi. Gaplarni ikki guruhga bo'lish mumkin: tobe va mustaqil. Tobe ergash gapda mavzu va fe'l bor, lekin o'z-o'zidan to'liq gap sifatida ishlatilmaydi. Mustaqil gap predmet va fe'lni o'z ichiga oladi va to'liq fikrni ifodalaydi.

Lekin, bizningcha gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi. Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmun jihatdan murakkablashadi va gapning asosiy qismi ifodalagan ma'lumotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha ma'lumot yoki axborot qo'shiladi. Gap bo'laklarining ajratilishida ta'sir etuvchi, K.Y. Petrovskaya tomonidan taklif etilgan bunday omillar, G.V. Kolshanskiyning "Грамматическая функция обособления членов предложения" mavzusida 1962 yilda chop etilgan ilmiy maqolasi ma'lum darajada morfologik umumiy xarakterga ega bo'ladi. Muallif rus, nemis va boshqa bir qator tillarda uchraydigan ajratilgan bo'laklarning grammatik funksiyasini o'rganish jarayonida, ularni yuzaga keltiruvchi omillar to'g'risida quyidagicha xulosaga keladi:

- 1) aniqlovchining morfologik xususiyati;
- 2) aniqlanmishning morfologik xususiyati;
- 3) aniqlanmishli guruhlarning tarkibiy qismi va ularning kengayish usullari;
- 4) aniqlanmishli guruhlarning tutgan o'rni;
- 5) aniqlovchilarga nisbatan yonma-yon turuvchi boshqa aniqlovchilar;
- 6) boshqa bir qator grammatik omillar.

Germanshunos olimlar tomonidan gap bo'laklarining ajratilishiga ta'sir qiluvchi omillarga nisbatan bildirib kelinayotgan bunday munosabatlarni bir-biriga qiyos qilib o'rganar ekanmiz, ularning bu sohada fikr-mulohazalari bir xil emasligiga guvoh bo'lamiz. Lekin shu narsaga alohida urg'u berish lozimki, germanshunos olimlarning ajratish hodisasiga nisbatan qarashlari, fikr-mulohazalari xilma-xil bo'lishidan qat'iy nazar, ular yagona bir narsaga, ya'ni tanlangan mavzuning barcha xususiyatlarini izohlab berishga yo'naltirilgan. K.Y. Petrovskaya va G.V. Kolshanskiylarning ushbu soha bo'yicha aytgan ba'zi bir fikr-mulohazalari ham yuqorida keltirilgan tezisni yana bir bor tasdiqlamoqda. Ular tomonidan ajratilgan bo'laklarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash buyicha qo'llanilgan metodlari aynan bir-biriga o'xshab ketadi. Ularning bir biriga yaqinligini quyidagicha

izohlash mumkin. Masalan: K.Y. Petrovskayaning № 2, 3-raqamlar bilan qayd etilgan omillari, G.V. Kolshanskiyning № 1, 2-raqamlarda qayd etgan omillariga; shuningdek, № 4-raqam bilan berilgan omil, № 4-raqamda berilgan omilga, № 5-raqam bilan berilgan omil xuddi shunday № 5-raqamdagil omilga, №6-raqam bilan berilgan omil esa, № 3-raqam bilan berilgan omillariga ma'lum darajada mos kelishi mumkin. Biroq mualliflar tomonidan bu yerda keltirilgan omillar o'rtasida, K.Y. Petrovskayaning № 7-raqam bilan berilgan omili kitobxonda katta qiziqish uyg'otadi, chunki "muallif" tushunchasi bizningcha u yoki bu yozuvchining individual uslubini eslatadi[2].

K.Y. Petrovskaya va G.V. Kolshanskiylarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilgan bunday omillar boshqa bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarida yanada konkretlashtiriladi, to'ldiriladi va yangi-yangi tomonlar bilan boyitiladi [3].

Gap bo'laklarining ajratilishida ishtirok etuvchi va muallif tomonidan taklif etilgan ushbu omillar ajratilgan bo'laklarga xos bo'lgan barcha funksiyalarning, ya'ni, sintaktik, semantik, stilistik va kommunikativ funksiyalarning shakllanishida ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Gap bo'laklarining ajratilishida yozuvchining individual uslubi qolgan boshqa omillar ichida yagona, eng muhim, yetakchi omil ekanligini alohida ta'kidlash maqsadida B.T. Tursunovning quyidagi tezisini bu yerda keltirishni o'rinni deb bilamiz. Muallif ajratish hodisasini ilova hodisasiga qiyos qilib o'rganish natijasida shunday yozadi: "Ajratish va ilova hodisalari - bu o'z tabiatlariga ko'ra stilistik hodisalardir, shu sababli ham ularning badiiy matn doirasida yoyilish darajasi faqatgina u yoki bu yozuvchining individual uslubi bilan belgilanadi" [3].

Haqiqatan ham u yoki bu yozuvchining individual uslubi nafaqat ajratilgan bo'laklarning, hatto shunga yaqin bo'lgan sintaktik hodisalarning (biz bu yerda ilova, ellipsis hodisalarini, shuningdek so'z tartibini nazarda tutamiz) ham matn doirasida yoyilish darajasini, qo'llanilish darajasini belgilovchi birdan-bir omildir.

Germanshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida gap bo'laklarining ajratilishida ta'sir etuvchi omillar to'g'risida keltirilgan fikr-mulohazalarini ma'lum darajada o'rganish, ma'lum tartibga keltirish va ularga nisbatan tegishli munosabatlarni bildirish quyidagi xulosalarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin:

1) ajratilgan bo'laklar muhim uslub vositalaridan biridir, chunki ularning qo'llanilishi, yoyilish darajasi, hatto xilma-xil struktural shakllanishi, bularning barchasi u yoki bu yozuvchining individual uslubining mahsulidir. Shu sababli ham ajratilgan bo'laklar masalasi grammatika fani bilangina emas, balki stilistika, semantika, shuningdek fonetika masalalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi;

2) gap bo'laklarining ajratilishida bir qator omillar ta'sir qilishi mumkin: gap bo'laklarining tartibini o'zgarishi; struktural tuzilishining kengayishi; inversiya holati; tinish belgilarining stilistik funksiyalari; ajratilgan bo'laklarning izohlanayotgan bo'laklarga nisbatan pre-, inter-, postpozitsiya holatlarda kelishi; tobeklik darajasi; mono- va polifunksionallik tabiati; mavjud kontekstual muhit; sintaktik aloqaning bo'shligi; qo'shimcha ma'no xususiyatlari; muallifning ajratilgan bo'lakni boshqa oddiy gap bo'laklaridan alohida ajratib ko'rsatish niyati va h.k.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiqi etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlariga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi hamda shu asosida ma'lum bir yangilik yaratishni anglatadi. Adabiyotning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O'z mazmuniga ko'ra har qanday tadqiqot

ayni shu sohaga yaratilgan avvalgi bilimlar negizida quriladi. Tilshunoslik bo'yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma'lumot manbalari asosida amalga oshadi (mavzuga oid maqolalarni kalit so'zlar yordamida www.scholar.com) qidiruv tizimidan topishi mumkin.

Tahlil metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida leksik-semantik, komponent, kontekstual, kognitiv-diskursiv, statistik kabi tahlil metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasidan avval belgilab olingan. Tahlil usullari orqali to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bunda faqat tahlil natijalari bayon etiladi.

Xulosa va takliflar. Ikki qismli gaplarni ifodalashda esa tobe bo'laklarning eng keng tarqalgan turlari to'ldirivchi, hol va qo'shimchalar hisoblanadi. Ularning har biri gapda o'ziga xos vazifani bajaradi va shakllanish va qo'llanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gapning bu qismlari ega, kesim, hol va aniqlovchidir. Bular, berilgan jumalarning bu qismlari sizning yozish uslubingizga rang-baranglik qo'shadi va gaplarning har bir qismni joylashtirganingizga qarab, ular gap hamda so'zlaringizning ma'nosini o'zgartirishga amaliy yordam beradi. O'ylaymizki, bu yerda keltirilgan omillar ko'p sonli misollar tahlili yordamida yanada kengaytirilishi va yangi-yangi omillar bilan boyitilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Videoselektor. 7-may, 2021-yil
2. Колшанский Г.В. Грамматическая функция обособления членов предложения // Филологические науки, М., 1962, №1 с 31-41.
3. Петровская К.Я. Обособленные второстепенные члены предложения в современном английском языке. // Автореф. Дисс. На соиск. Учен. Степ. филол. Наук.-1953, с. 18-20
4. Турсунов Б.Т. Обособление и присоединение // Илмий тадқиқотлар ахборотномаси – Самарканд. СамДУ, 2004. №2-6-57-59
5. Rymond Murphy English grammar in use 3rd edition. Cam bridge University Press 2004. P.379
6. Качалова К. И., Израилевич Е. Е. Практическая грамматика английского языка: Учебник.– Б., 2001.– 672 с.



Sherzod USMONOV,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Filologiya fanlari doktori, professor T. Jumayev taqrizi asosida

LIRIK PSIXOLOGIZM VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotda badiiy obrazni shakllantirish maqsadida foydalaniladigan turli xil usullar haqida fikr yuritiladi. Shulardan biri va eng asosiysi badiiy psixologizm hodisadir. Badiiy psixologizm keng qamrovli hodisa sifatida og‘zaki va yozma adabiyot yaratilgan davrdan buyon namoyon bolmoqda. Nazmda psixologik portret yaratish muhim shartlardan biridir. Psixologik portretga farzand, aka, uka, opa, singil, sevimli yor yohud boshqa bir shaxs, shu bilan bir qatorda joy, tabiat, makon, zamon, tuzum kabi talay omillar etakchilik qiladi.

Kalit so‘zlar: Psixologik portret, milliy kolorit, tasvir omili, emotsional manzara, personajning xayolot olami, lirik psixologizm, ruhiy drammatizmning chuqurlashuvi.

LYRICAL PSYCHOLOGISM AND ITS CHARACTERISTICS

Annotation

This article discusses various methods used to create an artistic image in literature. One of them and the most important is the phenomenon of artistic psychology. Artistic psychology as a comprehensive phenomenon has been manifested since the time when oral and written literature was created. Creating a psychological portrait in a poem is one of the important conditions. A child, a brother, a sister, a loved one or another person, as well as many other factors such as place, nature, space, time, system, are leading in a psychological portrait.

Key words: Psychological portrait, national color, image factor, emotional landscape, fantasy world of the character, lyrical psychology, deepening of spiritual drama.

ЛИРИЧЕСКИЙ ПСИХОЛОГИЗМ И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются различные методы, используемые для создания художественного образа в литературе. Одним из них и важнейшим является явление художественной психологии. Художественный психологизм как комплексное явление проявляется со времени создания устной и письменной литературы. Создание психологического портрета в стихотворении – одно из важных условий. В психологическом портрете доминируют ребенок, брат, сестра, любимый тот или иной человек, а также множество факторов, таких как место, природа, пространство, время, система.

Ключевые слова: Психологический портрет, национальный колорит, имиджевый фактор, эмоциональный ландшафт, фантастический мир персонажа, лирический психологизм, углубление духовного драматизма.

Kirish. Adabiyotda badiiy obrazni shakllantirish maqsadida turli xil usullardan foydalanish mumkin. Bunday omillardan eng asosiysi badiiy psixologizm hodisadir. Badiiy psixologizm keng qamrovli vosita sifatida og‘zaki va yozma adabiyot yaratilgan davrdan buyon qo‘llaniladi. Badiiy psixologizm termin sifatida lirik va epik janrlarni o‘zida umumlashtiradi. Mazkur atama bevosita psixologik sohalar, psixologik tadqiq va tahlil usullari, ruhiy tahlil va tasvir obyektlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Tadqiqotchi olim A. B. Yesin ta’kidlaganidek, “badiiy psixologizm – bu asar personajning xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berishdir”[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotshunosi E.Xudoyqulov psixologizmni emotsionallik va ekspressivlikni ta’minlovchi vositaviy bir tur sifatida ko‘rsatadi: “Bu hol qahramonning ruhiy ahvolini ko‘rsatishdir. U obrazning o‘yi, kechinmasi, hayoli orqali ham yuzaga chiqadi”[3]. Adabiyotning o‘ziga xos maxsus turlari sifatida e’tirof etiladigan lirik, epik va dramatik turda badiiy psixologizmning ifoda yo‘sinlari birmuncha farqlanadi. Har bir turda qahramonlar, voqea-hodisalar, psixologik jarayonlarning berilish holati turlicha. Lirikada psixologizm inson emotsional holatidan tashqari muallifning “men” tasviri ham aniq sezilib turadi. Lirik psixologizm boshqa turlardan farqli ravishda obraz tashqi qiyofasi tasviri, borliqning shakli

in’ikosi modelini yaratish orqali ta’sir doirasini kengaytirishidan ko‘ra uning ichki olami, uning ichki dunyosida kechayotgan holatlar rakursiga yuqori diqqat qaratish orqali emotsional-ekspressivlikni ta’minlaydi. Buning uchun u mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatidan keng foydalanadi. Psixologizm atamasi ruhiy jarayonlar, hissiy tebranishlar, inson inchi dunyosi real qiyofasini tasvirlash nuqtayi nazaridan poeziyada katta mavqe egallaydi.

Nazmda psixologik portret yaratish muhim shartlardan biridir. Lirik asarlarda obrazlarning suratini o‘quvchi ko‘z oldiga gavdalanirish asosiy muddao sanalmaydi, aksincha, undagi biz ko‘rib tasavvur hosil qila oladigan qiyofasi orqali uning tiynati, siyratiga kirib borish, uning ruhiyatidagi sakinat va bo‘hronlarni kitobxonga yuqtirish maqsad qilinadi.. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, “ijodkor asosiy e’tiborini personaj yoki lirik qahramonning ichki dunyosi, uning his-tuyg‘ulari, fikrlari, kechinmalari, xohish-istaklariga qaratadi”[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Psixologik portret farzand, aka, uka, opa, singlim yohud boshqa bir shaxs, shu bilan bir qatorda joy, tabiat, makon, zamon, tuzum kabi talay omillar bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Tahlilga tortilayotgan ijodkorlar Nodira Afoqova va Zebo Mirzo she’rlarida bunday psixologik portretlarning turli ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Lirik asarlarda qanday psixologik portret yaratilishidan qat’i

nazar unda, avvalo, ijodkorning psixologik qiyofasi, o'z "Men"i turadi.

Shoira Nodira Afoqovaning "Ayol portretiga tashbeh" she'rida surat va siyrat tasviri parallel ravishda bir-birini to'ldiradi:

Bir mahal xush ishlari bilan
Kimlarni mast etmagan butkul:
Va tiyramoh saharlarida
Boshin oppoq qirov bosgan gul.

Tasvirdagi tashbehning tiniqligi kitobxonni hayajonga solsa, serqatlamligi uni tafakkur qilishga, o'ylashga majbur qiladi. Ya'ni "xush is" tashbehi orqali obrazning go'zalligi, muomalasi, uning didi namoyon bo'lib turadi. Oddiygina tashqi tarovat hech bir insonni "mast qiluvchi" darajaga solishi mumkin emas. So'z qo'llashdagi mahorat psixologik portretning qiyofasini yanada oydinlashtiradi, ta'sir kuchini oshiradi. "Tiya" so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da fors tilidan olinag so'z sifatida "qorong'i, qora; g'am-g'ussali" (86-b)kabi ma'nolarni ifodalashi izohlangan. "Moh" forscha so'z bo'lib, o'zbek tilida oy ma'nosini ifodalaydi. Bunda o'zining yuzini bulut to'sganmi yoki o'zining xira tortganmi buni badiiy matnning g'oyaviy salohiyati belgilaydi. "Tiyramoh sahar" g'am-g'ussaga botgan, kechasidan to sahar uyqusiz tunlarni o'tkazgan, sochlari g'ambodalikdan oqargan munisa ayol ko'z oldimizda gavdalanadi.

Keyingi satrlarda haqiqiy milliy koloritga ega bo'lgan tasvir omili tamomila yangicha psixologik qiyofani ochib berishga xizmat qilgan:

Hech tamasiz bor-u yo'g'ini
Bera-bera o'g'il-u qizga;
Va songgida eng uchidagi
Ko'saklari ochilgan g'o'za.

Farzandlari uchun hamma narsaga tayyor ona ulardan hech narsa kutmaydi, kulgani ham zurriyodlarining baxtga burkangan kelajagidir. "...eng uchidagi ko'saklari ochilgan g'o'za" esa eng saodatmand, oppoq orzularning ro'yobi desak, hech shubhasiz, adashmagan bo'lamiz.

"Yig'layotgan ayol" portreti" she'rida batamom boshqacha ruhiy kayfiyat hukmronlik qiladi. Jahon adabiyotida bosh obrazi nomlanmagan yohud millati aniq ismida zuhurlanmaydigan asarlar ham bor. Bunday asarlardan ko'zlangan asosiy maqsad umummilliy qadriyatlarini namoyon qilish, dunyo xalqlarining mushtarak qadriyatlarini tasvirlashdan iborat bo'ladi. Chingiz Antmatovning "Oq kema" qissasida ayni shu holatni kuzatish mumkin. Bolaning ismi yo'q, har qanday bola ota-onasidan yetim qolganidan so'ng, nosog'lom ijtimoiy muhitga tusib qolgach, tanazzulga yuz tutishi, alaloqibat, o'zini halok etishi mumkin. Bunday fojia millat, makon yo zamon tanlamaydi. Umuminsoniy psixologik tasvirlarning asarlarda voqelanishi uning ta'sir doirasini oshiradi, umuminsoniylik qadrini belgilaydi. Endi shoironing misralariga e'tibor qarataylik:

Kimidan ajralgan bu ayol,
Yo yitirgan nimasini, ayt?
Mijjalari suvda bemalol
O'sib yotgan daraxt-ku daraxt.

Tahlil jarayonida "mijjalari suvda bemalol o'sib yotgan daraxt" majnuntol ekanligini zukko o'quvchi tezda anglashi mumkin. "Majnuntol" timsoli badiiy adabiyotimizda "g'amgin, qaddi egilgan oshiq" yoki "sochlari yoyilgan yor" va boshqa semalarni ifodalashi mumkin. Biroq shoira to'g'ridan to'g'ri majnuntol nomini keltirmaydi, uning sifatleri orqali chiroyli, ayni chog'da emotsional manzara yaratadi.

Keyingi misralarda shaxs timsoli umuminsoniy qiyofa hosil qila boshlaydi:

Sochlari ham buncha parishon,
Mag'lublarning egik tug'iday.
Yig'layotir bunchalar nolon
Ayirilganday bor-u yo'g'idan.

Nuktadon ijodkor obrazni ayaydi, bu bilan kitobxonga rahm go'yoki rahm qiladi. U "bor-u yo'g'idan ayrilgan" deyihi ham mumkin edi.

Kim bu ayol, tojikmi, arman,
Yoki Nayman onami haqir?
O'zbekmi yo? O'zbek dey desam
Chakkasida paxtasi yo'qdir.

Ushbu misralarni oddiygina tadqiq yo tahlil qilish mumkin emas. Dastlabki banddagi "Mijjalari suvda bemalol o'sib yotgan daraxt", ikkinchi banddagi "Mag'lublarning egik tug'i", uchinchi banddagi "Chakkasida paxtasi yo'qdir..." kabi jumlarlar sirdan qaraganda bog'liq emasday tuyuladi. Aslida, ular bir bir-biri to'ldiradi, tasvir maydonidan oshib o'tib, ijtimoiy-maishiy deapozonga tadjriy o'tib boradi. Dastlabki misrada g'amdan ko'zyosh to'kayotgan ayollar, ikkinchi band tadjrijida mag'lub bo'lgan mazlum xalq, keyingi bandda eda mustabidlik domiga tushib qolgan xalqlar onaning buyuk dardi miqyosida keng sarhadlarni oshib o'ta olgan. Jahon adabiyotida ayni bir mavzu doirasida birgina shaxsning yohud butun bir millat qayg'usi ifodasi sifatida yozilgan asarlar mavjud.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zebo Mirzo she'riyatida obrazning psixologik portreti badiiy tasvir vositalari asosida ketma-ket uyg'unlikda beriladi. Obrazlar tasvirida ijtimoiy-falsafiy yuk misralarda u qadar ko'zga tashlanmaydi. Shoironing shaxsning ruhiy tasvirini "Onamga" she'ri orqali tahlil qilish mumkin:

Oq sochlari oppoq tun uning,
Umri halol ishqqa bayroqdir.
Oh, yuzlari dunyoyi dunning
Go'zalidan chiroyliroqdir.

Bunda ijodkor an'anaviy tasvirlash yo'lidan boradi, ya'ni o'z onasini hammadan ham yaxshi inson ekanligini badiiy talqin bo'g'ida beradi. "Oppoq tun" birikmasida oksimoron, ya'ni bir-biriga teskari bo'lgan tushunchalarni yonma-yon keltirib, qiynalgan ona iztiroblarini ifodalaydi.

(Bo'lolmadim hassasichalik),
Otam dardin ko'targan mohim,
Ushoqqina onam ko'ngliga
Bir hovuch nur bergin, ilohim!

Dastlabki misradan onaning qarib qolganligi anglashiladi, g'amga to'lgan, hayotdan ozurda bo'lgan jonga Allohdan yaxshiliklar so'raydi.

Zebo Mirzo she'rlarida psixologik portret shaxs obrazi sifatida uncha ko'p bo'y ko'rsatmaydi, balki tabiat, histuyg'ularning jonli ruhiy portreti yaratilganday bo'ladi. Ijodkorning "Tog' manzaralari", "Qashqadaryosan", "Shohi Zinda zinalarida", "Zangor planeta" kabi qator she'rlarida lirik psixologizmdagi portret tushunchasi yularga o'tadi. "Tog' manzaralari" she'ridagi tasvir obyektlari umumiy qiyofa bilan yagonalik hosil qiladi. Bu qiyofa ijodkorning tasavvuridagi yagona, yaxlitlikni hosil qiladi:

O'yinqaroq
Tog'larning seli
Ular izlab o'tirmas o'zan,
O'ngirlardan Sirpanib kelib,
Chopib kelar yo'llar izidan...

Misralardagi tasvir bamisli quvnoq bolalik onlarini eslatadi, bolalarning yo'llarda sho'x-shodon chopib yurishi, ularning kichik yo'llardan katta yo'llarga chopib chiqishlari xuddi o'ngirlardan oqib tushayotgan sellarga qiyoslanadi.

Daralarning oraliq'idan
pastlab o'tsa yo'llar loylanib,
Uzoq o'yab o'tirmay
Birdan
toshib kelar Ko'klam soylari...

Bundagi manzara tashxis san'atini hosil qilish bilan bir qatorda inson ruhiy holatini ajoyib tarzda ifodalab kelgan. Birdaniga qarorlar chiqarish, o'yamasdan tezda xulosalarga

kelish bolalik davrining xususiyatlaridan biridir. Aslida, sellar vayronakor, qutqu soluvchi kuch sifatida qaralsa-da, shoirani batamom o'zgacha tarzda tasvirlaydi va betakror psixologik obraz yaratadi.

Taniqli o'zbek adabiyotshunosi H. Umurov psixologik portret yaratishning dinamik, analitik va sintetik prinsiplari bor ekanligini aytadi va ularni psixologizm prinsiplari deb ataydi. Ulardan birinchisi-dinamik prinsipga quyidagicha ta'rif beradi: "yozuvchi uchun ichki dunyoning-ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda ko'rinishini tasvirlashda dinamik prinsip asosiy mezondir"[5]. Demak, bu prinsipda psixologik portretni yaratishda asosiy

omil tashqi qiyofa, tashqi xatti-harakatlar, tashqi shakli shamoyil ekan. Bunday prinsip asosida yozilgan she'rlar har ikki shoiraning she'rlarida uchraydi. "Soch" timsoli mumtoz adabiyotimizda ham go'zallikning bir belgisi sanalgan, uzun sochlilik o'zbek ayollarining umumiy mentalitetiga ham xos.

Xulosa. Lirik psixologizm ijodkorning murakkab qiyofasini belgilab beruvchi bosh omildir. Lirik psixologizm ilmiy-nazariy kategoriya sifatida har qanday ijodkorning maqsad-muddaosi, orzu-istaklarini, hayotiy tutumlari, o'zligini tanish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalaydi. Bularning barchasi umumga daxldorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html> 8. Исхкрв Ё. Навоий поэтикаси.
2. А. Н.Николюкин. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Интелвак. Москва. 2001.
3. Е. Худойберdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Iqtisod-Moliya.
4. Afoqova N.Bahorning boshlanishi. – Buxoro, "Buxoro" nashriyoti, 1995.5. Mirzo Z. Nur kukunlari. –Toshkent:, Yangi asr avlodi. 2004.
5. H.Umurov.Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004.



UDK:81'42:811.512.13:811.111

Dildora XOLBOYEVA,

O'zbekiston Milliy Universiteti Fakultetlararo (ingliz tili) kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: dildora.kholboeva1985@gmail.com

Oriental universiteti dotsenti, f.f.d.N.E.Yuldasheva taqrizi asosida

METHODS AND DIFFICULTIES OF TRANSLATION OF TOURISTIC TERMS INTO ENGLISH AND UZBEK

Annotation

The article discusses the most common techniques, features and effects of translation of the touristic texts. Realities - are the specific words expressing objects, history, culture of people. Tourist communication is an intercultural discourse, therefore the translator must not only be fluent in two languages, but also deeply studies two cultures, that is, understand and take into account differences in cultures, concepts and others when translating in order to reliably convey the original meaning.

Key words: Realities, culture, text, translation

МЕТОДЫ И ТРУДНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В статье рассматриваются наиболее распространенные приемы, особенности и эффекты манипуляции при переводе туристических текстов. Реалии – это конкретные слова, выражающие предметы, понятия и события, характерные для истории, культуры или периода жизни народа. Туристическое общение – это межкультурный дискурс, поэтому переводчик должен не только свободно владеть двумя языками, но и глубоко изучать две культуры, то есть понимать и учитывать различия культур, понятий и другие при переводе для того, чтобы достоверно передать первоначальный смысл.

Ключевые слова: Реалии, культура, текст, перевод.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TURIZM TERMINLARINI TARJIMA QILISH METODLARI VA QIYINCHILIKLARI

Annotatsiya

Maqolada turistik matnlarni tarjima qilishda eng ko'p uchraydigan manipulyatsiya usullari, xususiyatlari va ta'sirlar haqida fikr yuritiladi. Realialar – u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqea-hodisalarni ifodalovchi xos so'zlaridir. Turistik aloqa – bu madaniyatlararo nutq, shuning uchun tarjimon nafaqat ikki tilni yaxshi bilishi, balki ikki madaniyatni chuqur o'rgangan bo'lishi kerak, ya'ni asl ma'noni ishonchli yetkazish uchun tarjimada madaniyatlar, tushunchalar va boshqalardagi farqlarni tushunishi va hisobga olishi kerak.

Kalit so'zlar: Realialar, madaniyat, matn, tarjima.

Kirish. Turistik nutq matnlarini tarjima qilish uchun biz nafaqat tashrif buyuradigan mamlakat tilini yaxshi bilishimiz, balki turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishimiz va hisobga olishimiz kerak. Turistik aloqa – bu madaniyatlararo nutq, shuning uchun tarjimon nafaqat ikki tilni yaxshi bilishi, balki ikki madaniyatni chuqur o'rgangan bo'lishi kerak, ya'ni asl ma'noni ishonchli yetkazish uchun tarjimada madaniyatlar, tushunchalar va boshqalardagi farqlarni tushunishi va hisobga olishi kerak.

Asosiy qism. Tarjimada nutq yo'naltirilgan o'quvchilar uni tushunishlari va funktsiyasidan kelib chiqqan holda aniq harakatlarni amalga oshirishlari kerak. Tilshunos olim Dann turizm tiliga xos bo'lgan 4 ta xususiyatni aniqlaydi va shuning uchun tarjimada yo'qolmasligi kerak:

1. yuboruvchini identifikatsiyalashning yetishmasligi;
2. monolog;
3. eyforiya;
4. tautologiya.

Ba'zi tilshunoslar turistik nutqni reklamaniing pastki turi deb ta'riflashlari bejiz emas, chunki diqqatga sazovor joylarni tavsiflovchi matnlar sayyohlik agentliklarining shiorlaridir, ular bu orqali o'z xizmatlarini reklama qiladi. Turizm sohasidagi reklama tili qisqa bayonoti bilan ajralib turadi, shu bilan birga xizmatni tanlashga yordam beradigan yorqin tasvir va tavsiflarga to'la.

Sayohat reklamalarida eng ko'p uchraydigan manipulyatsiya usullari: ijtimoiy munosabat, yuqori darajadagi (elitizm) xizmatning o'ziga xosligini ta'kidlash, jamoatchilik fikriga murojaat qilish. Discovering Cape Town Table Mountain: is one of the must-see sights. No visit to the city would be complete without a jaunt to the summit of Table Mountain. (Siz faqat tashrif buyurishingiz kerak. Keyptaundagi Stol tog'i. Keyptaun bilan tanishish Stol tog' tepasiga qiziqarli sayohatsiz to'liq emas deb hisoblanadi.)

Keyinchalik iste'molchini ma'lum bir mahsulot bilan bog'lash uchun uning hissiyotlarini qo'zg'atish zarur:

Kipr. Ta'tilga chiqish vaqti keldi! Chiroyli bo'lish vaqti keldi!

Olam tasviri-taniqli aksioma sifatida xizmat qiladigan joy, diqqatga sazovor joyning ma'lum bir qiyofasini shakllantirish:

Karintiyadagi Bad-Kleinkirxaymga o'z sog'lig'iga chanqoq bo'lganlar 19-asrning oxirida Yevropadagi eng shifobaxsh buloqlar mavjudligi sababli kela boshladilar.

Taqqoslashning turli shakllari:

Yerga ozgina qoldi. Hozir sayohat qiling. The world has less time left. Travel now. WHITE COLLAR HIPPIES, sayyohlik kompaniyasi.

Tarjimon yetkazilayotgan tilda o'quvchilarga xuddi shunday kommunikativ ta'sir ko'rsatishi kerak, chunki ular

ona tilida sodda so'zlaydi. Aks holda, o'quvchilar matnни juda murakkab deb bilishadi va uni o'qishni to'xtatadilar.1

Bundan tashqari, turistik matnlarni tarjima qilishda hisobga olinishi kerak bo'lgan besh turdagi ta'sirlar mavjud:

- assotsiativ va konnotativ ma'nolarning ta'siri;
- turli xil tushunchalar va fikrlarning ta'siri;
- metafora va iboralarning ta'siri;
- mif va afsonalarning ta'siri;
- qadriyatlar va turmush tarzining ta'siri.

Buning sababi shundaki, turistik matnlarning maqsadi chet el madaniyatlarini o'quvchiga yetkazishdir va shu ma'noda tarjimon asl madaniyatni shu tilni o'rganuvchisiga yetkazish uchun javobgardir. Shu munosabat bilan, turistik nutq matnlarini tarjima qilishda eng katta qiyinchilik realiyalarni, toponimlarni va mikrotoponimlarni iloji boricha aniq va tushunarli tarzda yetkazish zaruratini keltirib chiqaradi, quyida biz batafsilroq to'xtalamiz.

Realiyalarni tarjima qilish. Realialar leksik birlik bo'lib, ularning ma'nosi milliy tasvirning shakllanishini belgilaydigan turli konnotativlik asosida ramziy qilish va farqlash jarayonlariga ega bo'ladi. Realialar – u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqea-hodisalarni ifodalovchi xos so'zlardir. Ular so'z birikmalari, frazeologizm, maqol, matal ham bo'lishi mumkin.

Realialarni tarjima qilish muammosini o'rgangan tilshunos M. Beyker "mavhum (odat, diniy marosim) va o'rganuvchi til madaniyatiga begona bo'lgan

o'ziga xos (taom, uy-ro'zg'or buyumlari) tushunchalarni ifoda etadigan" so'zlarni realiya deb ataydi. Turistik sohada realialar qo'llanma va entsiklopedik maqola janrlarida bo'lib, ushbu janrlarning adresatlari tasvirlangan mamlakat haqida to'liq ma'lumot olishlari kerak, shuning uchun ularni tarjima qilinishiga alohida e'tibor berilishi kerak.

Turistik nutqning janr tizimini o'rganish jarayonida aniqlanganidek, qo'llanmalar va entsiklopedik maqom matnlari - bu sayyohlik saytlarining og'zaki mazmuni, reklama ma'lumotlari bilan bir qatorda, potensial sayyohni boshqa mamlakat madaniyati bilan chuqur tanishtirish strategiyasi emas. S. Vlavov va S. Florin realiyani tarjima qilish uchun quyidagi vaziyatga bog'liq usullarni ajratib ko'rsatishadi: transkripsiya; transliteratsiya (маршрутка-маршрутка, чебурашка-cheburashka). Natijada paydo bo'ladi:

1. Neologizm:

a) Kal'ka (ekskursiya programmasi - programme of excursions)

б) yarim kal'ka (spagheti bolon'eze – spagheti bolognese)

в) o'zlashma so'zlar (boleadoralar—boleadoras)

г) semantik neologizm (bar'ersiz turizm - barrier-free tourism).

2. Taxminiy tarjima:

a) radio-video muvofiqligi (чучвара –meat dumplings)

б) функционал аналог (пар хаммом – sauna, шашлик – barbecue);

в) ta'rif berish, tushuntirish, talqin qilish (квас – mildly alcoholic drink made from fermented rye bread, yeast or berries).

3. Kontekstual tarjima:

«Zomin kurortiga chipta qancha turadi?» – «How much are accommodations at Zomin health resorts?»

Barcha misollar turistik matnlardan olingan, ya'ni ular tarjimonlar tomonidan qo'llaniladi, ammo Vinogradovning so'zlariga ko'ra, neologizmlarning kiritilishi haqiqiy realiyani

saqlamaydi, chunki u qo'shimcha tarjima sharhlarisiz kerakli darajadagi tushunishni ta'minlay olmaydi va taxminiy tarjima usullari faqat asl leksik birliklarning taxminiy ma'nosini beradi, madaniyatlararo masofa va milliy rang-baranglikni yo'q qiladi. Bundan tashqari, neologizm ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va keng qo'llanilishi uchun bir necha yil kerak bo'lishi mumkin. Italiyalik tilshunos M. Petillo, boshqa tasnifga amal qiladi. U realiyani tarjima qilishning quyidagi strategiyalarini ta'kidlaydi:

1) chet tilidagi so'z / so'z birikmasi + kalkalash (stupor mundi - wonder of the world);

2) chet tilidagi so'z / so'z birikmasi + tavsiflovchi tarjima (The trabucco is a picturesque and complex system of fishing nets made up like scales);

3) gibrid forma (soft 'burrata' cheese);

4) moslashtirilmagan chet tilidagi so'z.2

M. Petillonning so'zlariga ko'ra, tarjima matnida moslashtirilmagan xorijiy so'zlarni ishlatish strategiyasi pragmatik nuqtai nazardan kamdan-kam qo'llaniladi va samarasiz, shuning uchun mahalliyashtirish va globallashtirish jarayonlari uchun qabul qilinishi mumkin emas. Biz shunga o'xshash misollarni frantsuz tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan ikkinchi darajali matnlarda uchratishimiz mumkin: local boulangerie, grab an apéro-dinatoire, along the «voies vertes».

Tarjimonning vazifasi turistik nutqning o'ziga xos xususiyatlari doirasida asl madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolish va shu bilan birga ularni iloji boricha qulay va soddaroq qilishdir. Ushbu qiyinchilik ikkinchi darajali matnlarda realiyalarni tarjima qilishning eng samarali shakli haqidagi savolni ochiq va hal qilinmagan holda qoldiradi.

Realialar turistik matnning kognitiv va estetik funksiyalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega, ammo ularga to'liq mos so'zlarni mavjud emas, ularni chet tilidan so'zma-so'z tarjimadan foydalanishga imkon beradi.

Petillonning 1- va 2-strategiyalar biz belgilagan toponimlar va mikrotoponimlar tarjima strategiyalariga mos keladi va ko'pincha turistik matnlarni tarjima qilishda ishlatiladi.

1) chet tilidagi so'z/so'z birikmasi + kalkalash usuli yordamida tarjima: Shaharda aholi yilning shu davrida odatda erta kuzgi bo'ronlardan qochib, binolardan chiqmaydigan, do'konlar va muzeylar erta yopiladigan vaqtda nishonlaydigan yillik madaniyat kechasi (Kulturdaten) boshqa tadbirlardan juda ajralib turadi.

2) chet tilidagi so'z / so'z birikmasi + tavsiflovchi tarjima: Tog'lardagi toshlar! Vinjerokda (vinyerok dengiz sathidan 1 060 metr balandlikda nishonlaniladigan musiqa festivali) mashhur norvegiyalik va xorijiy musiqachilar mehmon bo'ladi

3) Gibrid shakl bir vaqtning o'zida ikkilamchi tarjima matnida asl voqelik va mos so'zlar yozuvidan foydalanishni o'z ichiga oladi va ma'no eksplikatsiyasining past darajasi bilan tavsiflanadi - matryoshka doll, bouillabaisse soup va boshqalar.

4) Tarjimaning semantik usulini amalga oshirishda tarjimon uchun maqbul yechim, shu jumladan milliy sayyohlik va sanoat tushunchalarini tarjima qilish-taxminiy kontekstli tarjima usullaridan foydalanish, chunki neologizmlar kerakli mos ma'noni ta'minlamaydi.

Xulosa. Shunday qilib, turistik soha matnlarida tarjimoni murakkablashtiradigan ko'plab xususiyatlar mavjud. Tarjimonga matnни boshqa tilga yetarli darajada aniq yetkazish uchun tarjimoni boshlashdan oldin haqiqiy tilidagi so'zlarni boshqa mamlakat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab vaziyatlardan

chiqib ketish uchun batafsil tahlil qilish kerak. Siz quyidagilarni amalga oshirish orqali tarjima strategiyasini ishlab chiqishingiz mumkin:

1. Asl matnning o'ziga xos xususiyatlari va kommunikativ holatini tahlil qilish;

2. Ushbu kommunikativ vaziyat doirasida tarjima maqsadini aniqlash;

3. Belgilangan maqsadga mos keladigan o'zingizning harakatlar rejangizni ishlab chiqish;

4. Tarjima taktikasini tanlash, ya'ni qaysi tarjima operatsiyalari (transformatsiyalar) bilan ishlash kerak.

ADABIYOTLAR

1. Dann, Graham, *The Language of Tourism. A Sociolinguistic Perspective*, Oxon: CAB international, 1996, P.39
2. Baker, M. *In other words* / M. Baker. – London: Routledge, 1992. – 332p.
3. Влахов, С. И. *Непереводимое в переводе* / С. И. Влахов, С. П. Флорин. – М.: Р. Валент, 2012. – 406 с.
4. Виноградов, В. С. *Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы)* / В. С. Виноградов. – М.: Изд-во ин-та общегосреднего образования РАО, 2001. – 224 с.
5. Petillo, M. *Translating cultural references in tourism discourse: the case of the Apulian region* / M. Petillo // *Altre Modernita*. – 2012. – P. 248–263
6. <https://www.momondo.ru/kuda-poehat/post/6-osiennikh-festivaliei-vskandinavii>
7. <https://www.visitnorway.ru/things-to-do/whats-on/>
8. <https://www.slavorum.org/you-know-youre-slav-when-you-drink-oneof-these/>



UDK:811.523

Vazira XOLMATOVA,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti, (PhD)
E-mail: vazira8707@gmail.com

QarDU dotsenti, (PhD) Jumanov V.I. taqrizi asosida

CONNOTATIVE SECTIONS OF THE SEMANTICS OF SPEECH STRUCTURES

Annotation

In the process of speech activity, the pragma-stylistic feature and its connotative meaning fragment ensure that the communicated information is compatible with the speaker's communicative purpose and the norm of language use in the communication environment. Most importantly, it contributes sufficiently to the effectiveness of communication. One of the main tasks of pragmalinguistics is to study the relationship between connotative and nominative meaning fragments of speech structures.

Key words: Discourse structure, semantic structure, connotation, intention, communication situation, presupposition, implication, pragmalinguistics.

КОННОТАТИВНЫЕ РАЗДЕЛЫ СЕМАНТИКИ РЕЧЕВЫХ СТРУКТУР

Аннотация

В процессе речевой деятельности прагма-стилистический признак и его коннотативный смысловой фрагмент обеспечивают совместимость сообщаемой информации с коммуникативной целью говорящего и нормой употребления языка в среде общения. Самое главное, это в достаточной степени способствует эффективности коммуникации. Одной из основных задач прагматологии является изучение взаимоотношений между коннотативными и номинативными смысловыми фрагментами речевых структур.

Ключевые слова: Структура дискурса, семантическая структура, коннотация, интенция, ситуация общения, пресуппозиция, импликация, прагматология.

NUTQIY TUZILMALAR SEMANTIKASINING KONNOTATIV BO'LIMLARI

Аннотация

Nutqiy faoliyat jarayonida pragma-stilistik xususiyat va uning konnotativ ma'no bo'lagi yetkazilayotgan axborotning so'zlovchi kommunikativ mo'ljali va tildan foydalanish meyorini muloqot sharoitiga mos kelishini ta'minlaydi. Eng muhimi, u muloqot samarasiga yetarlicha hissa qo'shadi. Nutqiy tuzilmalar konnotativ va nominativ ma'no bo'laklari o'rtasidagi munosabatni o'rganish pragmalingvistikani asosiy vazifalaridan biridir.

Kalit so'zlar: Nutqiy tuzilma, semantik struktura, konnotatsiya, intensiya, muloqot vaziyati, presuppozitsiya, implikasiya, pragmalingvistika.

Kirish. Muloqot jarayonida so'zlovchi shaxs voqelikdagi narsa-hodisalar haqidagi oddiy axborotni yetkazish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ushbu hodisaga nisbatan o'z munosabatini bildirishi hamda shu yo'sinda tinglovchining ongi, hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Asosiy qism. Tadqiqotchilar xabarni yetkazish uchun zarur bo'lgan asosiy lisoniy birlik sifatida gapni ajratishga odatlanishgan. Gap yaxlit mazmunga ega bo'lgan birlamchi nutqiy hodisa hisoblanadi. M.YA. Bloxning talqinicha, gap nutqiy faoliyat jarayonida, o'z ma'nosini vaziyat bilan bog'liq axborot mundarijasiga moslashtirgan holda, nominativ va predikativ xususiyatlar yaxlitlashuvini namoyon qiladi (Blox 1986:98-99). Nominativ jihat namoyon bo'lishida voqea-hodisaning nomlanishi ko'rinishidagi ma'lum bir vaziyat ifoda topadi. Predikativ xususiyat voqelanishida esa propozitsiya yoki voqea nomi voqelik bilan boglanadi. Bunda so'zlovchi voqeani haqiqiyliги yoki xayoliligini, qaysi paytda va qanday sharoitda kechayotganini belgilaydi va natijada xabar turli modal bo'yoqlarini oladi (O'sha yerda, 123 b).

Har bir nutqiy harakat obyektiv va subyektiv xususiyatlarining o'zaro murakkab munosabati nutqiy tuzilmaning ko'p jihatli bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu munosabatlar doirasida asosiy nominativ va predikativ ma'no bo'laklari bilan bir qatorda, ko'plab o'ziga xos qo'shimcha ma'no bo'laklari ham ifoda topadi. Mazkur qo'shimcha ma'nolarning yuzaga chiqishi muloqot konteksti, ma'lum

muhit bilan bog'liqdir. Bunda so'zlovchi va tinglovchi ijtimoiy maqomi shaxsiy xususiyatlari ham o'ziga yarasha o'rinni egallaydi. Eslatilgan qo'shimcha ma'nolarning ko'pchiligi tagma'noli ko'rinishga ega bo'lib, kontekst vositasida anglashiladi. O'zbek tilshunolarining qaydicha, "ifodaning yashirin bayoni, jumlaning tagma'nosi kommunikatsiya ishtirokchilarining fikrlash faoliyati bilan va ularning olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'lanadi. So'zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvuri qancha keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi. Shuning uchun ham ifoda semantik strukturasidagi axborot ko'rinishlarini oshkora yoki yashirin bayon qilish, oshkora ifodalab bo'lmaydigan axborot ko'rinishini tagma'no shaklida berish so'zlovchining ichki maqsadi bilan bog'liqdir" (Hakimov, Gaziyeva 2020: 73).

Lisoniy birlikning qo'shimcha, ba'zan bo'yoqdor ma'nosi tilshunoslikda ko'pincha "konnotatsiya" tushunchasi bilan bog'lanadi. Konnotatsiya termini lotin tilidagi connotare – "qo'shimcha ifodalash" so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslik uni mantiq fanidan o'zlashtirgan. Ushbu termin dastlabki paytlarda lug'at birliklariga nisbatan qo'llanilgan edi. Maxsus lug'atlarda berilayotgan izohlarda konnotatsiyaning semantik-stilistik maqomi bilan birgalikda, uning til birliklari emotsional-ekspressiv xususiyatlariga ishora qilishi ta'kidlanadi.

Jumladan, D. Kristalning lug'atida quyidagi izohni o'qiydiz: "A term used on semantics as a part of a

classification of types of meaning; opposed to denotation. Its main application is with reference to the emotional associations (personal or communal) which are suggested by, or are part of the meaning of a linguistic unit, especially a lexical item..." (Crystal 2008:102).

A.Hojiyev tomonidan tuzilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida ham konnotatsiya tushunchasi denotatsiya tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi: "Til birligining konnotativ ma'nosi (ekspressiv, uslubiy munosabat kabi qo'shimcha ma'no yoki ma'nolarning) ifodasi" qabilida izohlanadi (Hojiyev 2002:51-52).

I.V.Arnoldning "Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika" nomli kitobida "konnotatsiya" tushunchasi mundarijasida to'rtta qism ajratiladi. Bular quyidagilardan iborat: ekspressivlik, emotsionallik, baho va funksional-uslubiy bo'yoqdorlik (Arnold 1990:7).

Matnshunoslik va uslubshunoslik sohalarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari konnotatsiya hodisasi mohiyati va uning mundarijasi borasida ayrim mulohazalarni bildirishga imkon beradi. Ushbu tushunchaning qo'llanish ko'lami haqida gap ketganida, uning tatbiqi faqat so'z yoki so'z birlamasi qatlami bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Konnotatsiya tushunchasi, eng avvalo lisoniy unsurning ma'lum kontekst muhitida qo'llanish mo'ljali ishora qilishi sababli, tilning asosiy axborot birligi, ya'ni nutqiy tuzilmasiga nisbatan ishlatilishi lozim. Zotan, nutqiy faoliyat jarayonida faollashgan gap ko'rinishidagi tuzilma axborot yetkazish maqomiga diktema, ya'ni gaplarning mavzuiy birlashuvi tarkibiga ega bo'ladi. Ushbu birlashma, o'z navbatida, ma'lum pragmatik- lisoniy xususiyatlar majmuasiga ega bo'ladi (Blox 1986: 120).

Tadqiqotchilar tomonidan an'anaviy ravishda ajratib kelinayotgan konnotativ ma'no bo'laklari haqida fikr yuritayotib, eng avvalo ekspressivlikning boshqa konnotativ bo'laklardan farqi ahamiyat qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Ekspressivlik, aslini olganda, nutqiy hodisa bo'lib, nutqiy faoliyat natijasida yuzaga keladi. Demak, ekspressivlikning oddiy semantik unsur sifatida qarash noto'g'ri. Ekspressivlik nutqiy tuzilmaning pragma-stilistik xususiyatidir va uning konnotativ ma'no bo'lagini tashkil qiladi. Ushbu xususiyat yetkazilayotgan axborotning so'zlovchi kommunikativ mo'ljali va tildan foydalanish meyorining mazkur muloqot sharoitiga mos kelishini ta'minlaydi. Eng muhimi, u muloqot samarasiga yetarlicha hissa qo'shadi.

Konnotatsiya mazmun shakllanishiga qo'shadigan hissasi emotsionallik, baho va uslubiy bo'yoq bilan chegaralanib qolmasdan, balki yanada kengroq ko'lamda namoyon bo'ladi. Sanab o'tilgan ma'no bo'laklaridan tashqari, muloqot qatnashchilari va sharoiti bilan bog'liq va o'zaro munosabatlar ko'lamida yuzaga keladigan ma'no bo'laklarini ham e'tibordan qochirish kerak bo'ladi.

Biroz oldinroq nutqiy tuzilma semantikasi nominativ va predikativ jihatlarini uyg'unlashuvini qayd etgan edik. Xuddi shu jihatlariga konnotatsiyaning ma'lum ko'rinishlari muqobillashuvini kuzatadigan bo'lsak, unda nominativ sathda to'rtta, predikativ sathda esa uchta komponentni ajratish mumkin. Jumladan nominativ sathga faktual (voqelikda sodir bo'ladigan), funksional-stilistik, baho va etik konnotatsiyalar voqelansa, predikativ sathda esa fatik, muloqot maqsadi bilan bog'liq (intensiya) va emotiv konnotatsiyalar harakatlanadi.

Ushbu yetti turdagi konnotatsiyaning har biri keyingi bosqichda konnotativ semantikaning turli ko'rinishlarini farqlovchi tagturlariga ajralishi mumkin.

Faktual (voqelik bilan bog'liq) konnotatsiyalar asosiy propositiv sifatida so'z ketayotgan predmet-hodisani bevosita nomlash mo'ljali ega. Bu holatda asosiy mantiqiy axborot qo'shimcha ma'nolar hisobidan kengayadi. Mazkur ma'no bo'laklarining paydo bo'lishi tavsiflanayotgan vaziyat haqidagi umumiy va muloqot ishtirokchilari xabardor bo'lgan bilimning faollashuvi bilan bog'liq. Tilshunoslar "fon bilimi" deb atayotgan ushbu bilim turining mavjudligi muloqot yuritishning asosiy shartlaridan biri bo'lib, tadqiqotchilar uni presuppozitsiya hodisasi bilan tenglashtiradilar (Maxmudov 1986: Filmore 1971).

Z.Rasulovning e'tiroficha, "axborot strukturasi shakllantirishga ishtirok etayotgan lisoniy birliklar har xil ko'rinishda bo'lishi bilan bir qatorda, ularning diskursda faollashuvi ham turlicha kechadi" (Rasulov 2022:49). Shu bois, presuppozitsiyani unga yondosh, ayni paytda tamoman boshqacha maqomga ega implikatura hodisasi bilan chalkashtirmaslik lozim. Yuqorida aytilganidek, presuppozitsiya oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimni anglatadi, implikatsiya yoki implikatura mazmuni maqsadli ravishda tagma'noli, matn ichidagi matnda ifodalash hodisasi.

Implikaturalar ko'pincha muloqot vaziyati, kontekst doirasida yuzaga keladi va anglashiladi. Misol tariqasida L.Kumming keltirgan Bill is meeting a woman this evening tuzilmasini oladigan bo'lsak, Bill uchratadigan ayol uning sevgilisi, xotini, singlisi, opasi emasligini tushunish uchun kontekstga murojaat qilish unchalik shart emas. Chunki bu yerda noaniq artiklning qo'llanishi muhimroqni o'tamoqda (Cummings 2005:14). Ammo What a delightful child! Gaping ham tarkibida noaniq artikl ishtirok etayotgan bo'lsa-da, lekin ushbu gapning kinoya mazmuniga egaligini faqat kontekst orqali anglash mumkin. (O'sha asar, 13 bet).

Presuppozitsiya va implikatsiya o'rtasidagi farqni quyidagi misollar vositasida namoyish qilishga harakat qilamiz:

"I say, are you first year?" he said.

—"Yes," answered Phillip.

—"Where's the lecture room, do you know?"

It's getting on for eleven." (W.S.Maugham).

Ushbu dialog ikkita student o'rtasida kechmoqda. Dialogning presuppozitsiya asosida ularning har ikkalasi ham tibbiyot sohasi studenti ekanligi, o'quv yurtida birinchi kurs talabalari uchun maxsus ma'ruza o'qilishi va tez orada ushbu ma'ruzaning boshlanishi kabi ma'lumotlar mavjud. Dialogning uchinchi replikasida yashiringan implikatura esa ma'ruzaga kechikmaslik uchun so'zlovchiga notanish bo'lgan auditoriyaga shoshilish lozimligi tagma'noli ifodalanmoqda. Mazkur ma'no konnotativ xususiyatga ega va uning vositasida ma'ruzaning boshlanishiga oz vaqt qolganligiga ishora mavjud.

Xulosa. Shunday qilib, nutqiy tuzilmalar semantikasi nominativ va konnotativ ma'nolar o'ziga xos jamlamasidan tashkil topadi. Tuzilmalar konnotativ va nominativ ma'no bo'laklari o'rtasidagi munosabatni o'rganish pragmatik-vistikaning asosiy vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Blox M.Y. Teoreticheskaya osnovi grammatiki. –M.: Visshaya shkola, 1986.
2. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmatik-vistika asoslari. –Farg'ona: Classic, 2020. – 420b.
3. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Blackwell Publishing, 2008. – 529 p.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.
5. Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika. –M.: Visshaya shkola, 1990.
6. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. //O'zbek tili va adabiyoti, 1986.6–son. 29b.
7. Fillmore Ch. Types of lexical information //Semantics.– Cambridge: Cambridge University Press, 1971.

8. Rasulov Z. N. Nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi jarayonida tejamkorlik tamoyilining faollashuvi. –Buxoro: “Sadriiddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.–168b.
9. Cummings L. Pragmatics. A Multidisciplinary perspective. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2005. – 336 p.



Shahlo HOJIEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

E-mail: sh.hojiyeva@mail.ru

Dilruxjon ABDILAKIMOV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: adilruxjon@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori N.Jabborov taqrizi asosida

SOME VIEWS ON THE STUDY OF CHULPAN'S WORK

Annotation

This article highlights the views and principles of analysis of the early periods of studying Chulpan's work. The importance of the studies of contemporaries of critics in Chulpan studies was noted.

Key words: Chulpan, lyrics, critic, Jadid literature, Chulpan studies, Zarif Bashari, Olim Sharafiddinov, Aibek, Abdurakhman Saadi, Vadud Mahmud, criticism.

НЕКОТОРИЕ ВЗГЛЯДЫ ОБ ИЗУЧЕНИИ ТВОРЧЕСТВА ЧУЛПАНА

Аннотация

В данной статье освещены взгляды, принципы анализа ранних периодов изучения творчества Чулпана. Было отмечено значение исследований современников критиков в чулпановедении.

Ключевые слова: Чулпан, лирика, критик, джадидская литература, чулпановедение, Зариф Башари, Олим Шарафиддинов, Айбек, Абдурахман Саади, Вадуд Махмуд, критика.

CHO'LPON IJODINI O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Аннотация

Mazkur moqoladi Cho'lpon ijodi o'rganilishining ilk davrlaridagi qarashlar, tahlil tamoyillari yoritib berilgan. Cho'lponga zamondosh munaqqidlar tadqiqotlarining cho'lponshunoslikdagi ahamiyati belgilandi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, lirika, munaqqid, jadid adabiyoti, cho'lponshunoslik, Zarif Bashariy, Olim Sharafiddinov, Oybek, Abdurahmon Sa'diy, Vadud Mahmud, tanqid.

Kirish. Cho'lpon iqtidorining kamol topishida uning bolalik davrida olgan ta'limi va tarbiyasi, shubhasiz, muhim o'rin tutadi. Otasi Sulaymon bazzoz o'z davrining ko'zga ko'ringan savdogari, tadbirkorlaridan biri bo'lishi barobarida "Rasvo", "Volai Rasvo" kabi taxalluslar bilan she'rlar yozgan, andijonlik qalamkashlar doirasiga mansub kishilardan edi. Tabiiyki, u o'z o'g'lining ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan. Akademik Naim Karimovning yozishicha, Sulaymon "zamonasining taraqqiyparvar kishilaridan biri bo'lgani bois boshqa mamlakatlarda ro'y berayotgan voqyealardan, xususan, shu mamlakatlardagi savdo-sotiq ishlaridan xabardor bo'lish maqsadida bir necha xorijiy gazetalarga yozilgandi. Abdulhamidning dunyo haqidagi, Sharq va G'arb mamlakatlaridagi xalqlar haqidagi tasavvuri va bilimi shu nashrlar yordamida shakllanib bordi"[9]. Uning 15 yoshida, 1913 yili Ismoil Gaspirinskiydek mashhur kishiga maktub yo'llashi e'tiborga molik voqyealardan bo'lib, o'sha maktubda "Shalola", "Turk yurdi", "Shahbal", "Vaqt", "Iqbol" va "Tarjumon" gazetalari materiallaridan yaxshi xabardorligi oila muhitining nechog'li ma'rifatlari ekanidan dalolat beradi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodi doimo adabiyot ahlining e'tibor markazida bo'lgan. Uning yangicha poetik obrazlar, hech bir ijodkorni takrorlamaydigan ohorli talqinlar, yoniq milliy ruh bilan sug'orilgan she'riyat nazm osmonida tong yulduzi yanglig' charaqlagani, bu yulduz shu'lasi o'sha davrning barcha shoir-u adiblarini birday hayratga solgani sir emas. Biroq shoir ijodiga bo'lgan munosabat e'tirofdan e'tirozga, yuksak baholardan siyosiy ayb taqashga, undan buyuk iste'dod egasini mahv etishga qadar og'ir, iztirobli yo'lni bosib o'tgani ham, afsuski, ayni

haqiqatdir. Bu taqriz va maqolalarda biryozlamalikka berilish kuchli bo'lsada bunday chiqishlar shoir ijodi o'rganilishining deochasi bo'lganidan katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda jadid adabiyotini o'rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar qilinmoqda. Ammo jadidshunoslik, uning bosqichlari, o'rganish tamoyillariga bag'ishlan ishlar nisbatan kam amalga oshirilmoqda. Shu jumladan cho'lponshunosligimizda ham shu holagtni kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Cho'lponshunoslikda shoir zamondoshlarining tanqidiy qarashlariga birinchilardan bo'lib O.Sharafiddinov munosabat bildirdi[1]. Turli Gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqola va taqrizlarni taniqli adabiyotshunosh B.Karim alohida kitob holda chop ettirgani cho'lponshunoslikda katta yutuq bo'ldi[3]. D.Jabborovning ham izlanishlari diqqatga sazovor[2].

Tadqiqot metodologiasini. Ushbu maqolani yozishda qiyosiy tahlil metodiga asoslanildi. Bundan tashqari qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Cho'lponning birinchi she'riy to'plami "Uyg'onish" to'plamga yozilgan dastlabki taqriz ham aynan shu nom bilan "Uyg'onish" deb atalgan (1923-yil 23-mart "Turkiston gazetasi") bo'lib, muallifi noma'lum bo'lib qolmoqda. Imzosiz holda chop etilgan bu taqriz o'zbek matbuotida Cho'lpon ijodiga qaratilgan dastlabki ishlardan biri sifatida e'tiborga molik. Bu maqola muallifi shoir she'riyatining umumiy mavzusini yoritib berishga harakat qiladi: "Turmushimizda o'zgarishlar boshlandi, shoirlarimiz gul va bulbul madhi o'rniga zamon va muhit kuylarini o'qimoqqa boshladilar"[10]. Noma'lum munaqqid o'zbek she'riyatidagi o'zgarishlarni munosib baholay olgan. Ayni shu

o'zgarishlarni Cho'lpon ijodi misolida yoritishga harakat qiladi. Muallif fikrlarini davom ettirib, Cho'lpon lirikasining ustuvor mavzusi adabiyotimizdagi "rohat" davri hayotning "achchiq haqiqatlari"ga almashganligida deb biladi. Bu o'zgarishlarni muallif "Uyg'onish"dan keltirilgan parchalar tahlili bilan asoslashga uringan. Bu taqrizda asosiy e'tibor ijtimoiylikka qaratilgan nazarimizda. Endigina shakllanayotgan o'zbek adabiy tanqidchiligidan bu kabi kamchilik keyinchalik ham davom etdi.

Aynan shu yili "Uyg'onish"ga yana bir munaqqid Zarif Bashariy "O'zbek shoiri Cho'lpon she'rlari" deb nomlangan taqriz yozadi va 4 may kuni "Turkiston" gazetasida e'lon qilingan bu maqola Cho'lponshunoslikka oid ilk maqola sifatida qarab kelinadi. Bu taqriz Cho'lpon she'rlarining g'oyaviy-badiy tomonlarini ham ancha chuqur yoritib bera olgan dastlabki ishlardan biri. Munaqqidning takidlashicha "Cho'lpon o'rtoq keyingi davrlardagi o'zbek shoirlaridan eng oldingisi va chin ma'nosi bilan shoir deb atalishga loyiq bo'lganidan, uning she'rlarini chin adabiyot va she'r ko'zi bilan tekshirish va tahlil qilishga yaraydir"[11]. Bu ta'rifda munaqqid Cho'lponni o'sha davrdagi eng zo'r shoir ekanligini tan oladi va uning she'rlari adabiyotning har qanday talablariga javob berishini takidlaydi. "Uning she'riyatini hislik, yo qizg'in va nafis bo'lganidek, ochiq va ma'lum bo'lgan maqsadga qarab yoziladi. To'la va to'kis natija beradi"[12] deya shoir she'riyatida hislar yetakchilik qilishini, bu hislarni qizg'in va nafislik bilan ifodalay olishini takidlaydi. Cho'lpon shoir chin yurak va his shoiri ekanini o'sha vaqtlarda Zarif Bashariy o'z tahlillari orqali isbotlab bera olgan. Taqrizning yana bir xususiyatli jihati munaqqid shoir asarlarining tiliga ham alohida e'tibor qaratganligidir. "Uning she'rlari tasvirga boy bo'lib, ma'nosidan so'zi oz bo'lishi va shularni sof o'zbek tilida yozilishidir"[13]. Munaqqid o'z tahlili davomida ana shunday haqli fikrlarni ilgari suradi. Cho'lpon ijodi esa bunday kamchilikdan holi edi. Yana munaqqid shoir so'z qo'llashda mohir ekani, kam so'z ishlatib, ko'p ma'no ifodalashini ham nihoyatda topqirlik bilan bohalaydi. Zarif Bashariy shoir she'rlaridan parchalar keltirib, muallif mahoratini, tuyg'ular teranligini, tasviriylikni haqqoniy baholay oladi-yu, lekin maqola oxirida Cho'lpon uslubi haqida fikr bildirayotib, "Cho'lpon o'rtoq "el" va "xalq" so'zlarini qancha ko'p yozsa va so'zlash ham, ul xalq shoiri emas. Xalqqa yaqin bo'lgan ziyolilar shoiridir. Uning uslub va ruhida xalqchilik juda oz"[14]. Munaqqidning bu fikriga qisman bo'lsada qo'shilib bo'lmaydi. Zarif Bashariyning bu fikrlaridan siyosiy qarashlarni izlamaslik kerak. Bu gaplar aytilgan vaqtda "ziyoli" so'zi siyosiy ayblov bo'lmagan. Munaqqidning bunday fikrga kelishiga adabiyotda "jadidchilik" va yana boshqa oqimlarning mavjudligi deb o'ylaymiz.

Cho'lpon yashagan ijtimoiy-adabiy muhit haqida so'z borar ekan, cho'lponshunos olim, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori SH.Hojieva shunday fikr bildiradi: "Cho'lpon mansub ijtimoiy adabiy muhitni O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo bilangina chegaralash yaramaydi. U Rossiya, Turkiya, Germaniya va boshqa bir qator mamlakatlardagi adabiy harakatlar bilan bevosita tanishib, o'ziga xos alaqada bo'lgani yaxshi ma'lum. Negaki, Ismoil Gaspirinskiy ilgari surayotgan turkiy xalqlar boshida asrlar bo'yi davom etib kelayotgan milliy inqirozni bartaraf etish va dunyoning ilg'or xalqlari qatoriga olib chiqishni ko'zda tutuvchi jadidchilik harakati, milliy uyg'onish shoir ijodining mafkuraviy asosini tashkil etar edi"[15]. Yuqoridagi fikrni qo'llab-quvvatlab aytish mumkinki, Cho'lpon ijodiga zamonadoshlarini fikrlari ijobiy ta'sir ko'rsatgan, ularning tanqidlari asosida Cho'lpon ijtimoiy-adabiy muhitni o'rgana boshlagan. Natijada u jahon estetik tafakkuriga yuz tutgan.

Cho'lponning ikkinchi she'riy to'plami "Buloqlar" nomi bilan e'lon qilinadi. Bu she'riy to'plamga Vadud

Mahmud "Cho'lponning buloqlari" nomli taqrizini "Turkiston" gazetasining 1923-yil 10-dekabr sonida e'lon qiladi. Bu maqola muallifi ham Cho'lpon ijodi va she'riyatiga umumiy planda katta baho beradi. Maqolada ayniqsa "Buloqlar" to'plamiga kiritilgan she'rlarning yuksak baholanganini ko'ramiz: "Cho'lpon o'zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o'zbek elining bu kungi ruhi, holi, sezgisi "Buloqlar"da qaynaydir. O'zbek tili, o'zbek ohangi "Buloqlar"da sayraydir, o'qiydir. O'zbekning ruhiy to'lqinlari bunda ko'piradir, ko'klar tomon uchadir, ko'tariladir"[16]. Bunday go'zal o'xshatishlar bilan shoir she'rlarining tili, uslubi, ruhiyatini mohirlik bilan bayon etib o'tadi. Bu yerda "yangi shoir" iborasi yosh shoir manosida kelmayapti. Sababi shoirning ilk she'ri "Turkistonlik qardoshlarimizga" nomi bilan 1914-yili e'lon qilingan. "Buloqlar" to'plami haqida so'z borar ekan, taniqli adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimov shunday yozadi: "O'zbek ziyolilarining joni shirin bo'lgan qismi matbuot sahifalarida, "millatchilik" yakkilik bilan qoralangan majlislarda, hattoki xonaki o'tirishlarda Cho'lponga – chivingam ham ozor bermagan insonga qarshi tilmat toshlarini yog'dira boshladi. Yozuvchilar uyushmasining 1937-yil iyulida bo'lib o'tgan plenumida, Hamza nomidagi teatrning umumiy yig'ilishida buloqlar kuychisi millatchi sifatida qoralanib, ijod ahlining qahrg'azabiga duchor bo'ldi". Olimning fikrlariga e'tibor qaratsa, Cho'lponning "Buloqlar"i qattiq tanqidga uchragan, ammo u zarracha ijoddan to'xtamaganini aytish mumkin.

Shundan keyin Cho'lpon qizg'in ijod bilan shug'ullangan va bu to'plam ikkinchisi ("O'zbek yosh shoirlari" to'plamida ham shoir she'rlari berilgan) bo'lib, bu kabi vaziyatda "yangi shoir" iborasini yosh shoir ma'nosida tushunish mantiqan to'g'ri emas. Bu yerda muallif "yangi usulda yozadigan", "yangicha yozadigan" degan ma'nolarni nazarda tutgan bizning fikrimizcha. Munaqqid shoir she'rlarida o'zbek xalqining ruhiyati, holati va sezgisi o'z aksini topganligini takidlamog'da. Bunday yuqori bahoni munaqqid shunchaki o'ylab topmagan. Bu fikrlar asosli va chuqur o'ylab aytilganiga shubha yo'q. Bir o'rinda "Amalning o'limi" she'rini tahlil etar ekan "Shu qisqagina parchaning o'zidagina qancha she'riyat, qancha ohang uydirg'ondir"[17]. Bu fikrda munaqqid Zarif Bashariy aytgan "oz so'z qo'llab, ko'p ma'no yuklash"ni boshqachoroq ifoda etgan. E'tiborli tomoni bu fikrni ikki to'plamga nisbatan ikki munaqqid bildirgani, bunday fikrlar o'z-o'zidan aytilmaganligining isbotidir.

Yana bir munaqqid Abdurahmon Sadiy "Zarafshon" gazetasining 1924-yil ikkinchi sonida "O'zbek yosh shoirlari" degan maqolasini e'lon qildi. Bu maqola Fitrat va Cho'lpon ijodiga bag'ishlangan bo'lib, Cho'lponga bag'ishlangan fasli sakkiz qismdan iborat. Bu maqolada shoir ijodi ancha jiddiy tahlilga tortilganini ko'rishimiz mumkin. A.Sa'diy Cho'lponning faqatgina bir to'plami bilan cheklanmasdan har ikki to'plamini va shoirning 1919-1924 yillarda e'lon qilingan she'rlarini tahlilga tortadi. Cho'lpon ijodini yuksak baholaydi va qisqagina qilib "U yonadir ham yondiradir", - degan go'zal ta'rif beradi. Munaqqid shoir ijodini yuqori baholaydi. Maqolaning Cho'lponga bag'ishlangan faslining to'rtinchi qismida shoir ijodida ko'zga tashlanadigan kamchiliklarni sanab o'tadi. Munaqqid shoir ijodini chuqur va sinchikovlik bilan kuzatgan. Natijada ba'zi o'rinlarda badiiylikka zarar yetganligini aniqlaydi. Bulardan biri sifatlashning ko'p qo'llanishi bo'lib, munaqqid o'z fikri isboti uchun bir qancha misollar keltiradi. "Sovuq, g'amli, qora qish..." misrasida haqiqatdan munaqqid aytgandek sifatlashda ortqlik bor nazarimizda. Maqolada keltirilgan fikrlar munaqqidning Cho'lpon ijodi bilan yaqindan tanish bo'lganini ko'rsatadi. Ammo maqola so'ngida munaqqid Cho'lpon ijodida umidsizlik kuchli ekanini va bu umidsizlik kuchayib borayotganini aytarkan, "Men shoirmi" she'rini keltirib, "Bu

shoir endi hatto o'zining shoirligidan shubhalanib umidsizlana boshlag'on"[18] ini uqtirmoqchi bo'ladi. Ammo munaqqid bu she'r badiyatini baholamay, o'z fikri isboti uchun munosib yo'lni tanlaydi. Maqola davomida munaqqid o'z fikrlarini davom ettiradi: "Cho'lpon omma-xalq shoiri emas, o'qimishlilar, ziyolilar shoiridir. Uni omma-jalpi xalq tez anglyadi. Lekin shuning barobarinda, u xalq qayg'usi bilan (faqat hech bir sinfga ayirmasdan) yozuvchi "xalqchi" (narodnik) bir shoiridir. Cho'lponda asl ko'zga qattiq berilib turg'on tub xususiyat ham shundadir"[19]. Afsuski, har ikki munaqqid ham deyarli bitta kamchilikni aytishadi-yu, lekin xalq shoiri qanday bo'lishi kerakligi haqida hech biri gapirishmaydi. Yaxshiyamki bu vaqtlarda "xalq shoiri emas, ziyolilar shoiri" degan gaplarga siyosiy tus berilmaydi va Cho'lpon yana bir muncha vaqt taqib va tazyiqlarsiz yashaydi. Ehtimol har ikki maqola avvalidagi ijobiy ta'riflarni aytish munaqqidlar uchun oson bo'lmagandir. Bunday deganimizning sababi Cho'lponning ijodi haqida haqiqatga yaqin bo'lgan biron fikrni aytgan zahoti munaqqidlar uning ijodiga nisbatan yopishmagan gaplarni darrov o'sha maqolaning o'zidayoq aytib qolishadi. Qanday qilib ham yaxshi, ham yamon deyish mumkin. Juda tushunilishi qiyin bo'lgan bu holatni ham o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog'lash mumkin.

1927 yilda "Qizil O'zbekiston" gazatasida Cho'lpon ijodi yuzasidan bahs boshlanadi. Bu bahslarni boshlab bergan Ayn - Olim Sharafiddinovning 1927 yil 14 fevralda e'lon qilingan "O'zbek shoirlari, Cho'lpon" nomli maqolasidir. Maqolani shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda O'zbek she'riyati va unda Cho'lponning o'rni haqida umumiy gapiriladi. Olim Sharafiddinov Cho'lpon haqida quyidagi fikrlarni yozadi: "Eski klassitsizmning tor ramkasini buzib, parchalab, uning ifoda yo'sinini, ommaga anglashilmaydirgan tilini soddalashtirib, ommaga yaqin qo'yish uchun urinishidir. Ham yana shul soddada ifoda yo'sinida soddada tilda amaliy namunalar bilan bizni ta'min etadir"[20]. Bu bilan munaqqid Cho'lponning "Eski klassizmning tor ramkalari" (Aruz)dan xalqqa yaqin barmoq vaznida ijod qilishni boshlab berganligini munosib baholaydi. O'z fikrlarini davom ettirar ekan shoirga yanada yuksak baho berganiga guvoh bo'lamiz: "Uning tili soda, ham turli fikr tuyg'ularini ifoda qilishga yararlik ham nuqsonsizdir. Bu kungi o'zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho'lpon tilidir. Butun adabiy yoshlik uning tilini o'rnak taniydir. Unga taqlid qiladi. Cho'lpon buning bilan taqdir etilarlik, maqtanarlikdir"[21]. Uning tili deya munaqqid shoirning ifoda yo'siniga baho bermoqda va adabiy tili deganda esa badiiy ijod usulini nazarda tutgan fikrimizcha. Munaqqid Cho'lponning o'zbek adabiyotiga ta'sirini to'g'ri baholay olgan edi. Oybekdan tortib Rauf Parfigacha Cho'lponning ta'sirini sezish mumkin. Shuncha iliq fikrlarni aytgan Olim Sharafiddinov Cho'lponni ortiq maqtaganlar yetarli ekanini va endi uning nuqson tomonlari jumladan mafkurasi va adabiy ta'siri haqida to'xtalishga qaror qiladi va maqolaning ikkinchi qismida xuddi shu haqida so'z yuritiladi. "Cho'lpon yo'qsil xalqning shoiri emas, u millatchi, vatanparast, badbin ziyolilar shoiridir. Uning mafkurasi ularning mafkurasidir. Uni qaynatgan, ilhom bergan shulardir"[22] – degan qat'iy hukmni e'lon qilib, shoirning ba'zi inqilobiy asarlari borligini, ammo ular zo'rma-zo'rakilik bilan yozilganini takidlaydi. Shu o'rinda munaqqidning topqirligiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Haqiqatdan Cho'lpon ijodida ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yaratilgan asarlar badiiy tomondan ancha oqsab qolgan. Bu asarlar "Cho'lpon yo'qsil xalqning inqilobchi shoiri" deb aytishga yetarli bo'lmasligini aytadi. Bor kuch-g'ayrati bilan uning millatchi ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Maqola davomida ilmiylikdan uzoqlashib: "Cho'lpon xayolparastdir. Chunki millatchilar, ziyolilar va shu mafkurani qabul qilganlar uchun xayoldan shirin, xayoldan lazzatli narsa yo'q"[23].

Munaqqid shoir asarlaridan namunalar keltirib, ulardan o'ziga kerakli narsalarni topishga berilib ketadiki, na badiiyat, na haqiqat bilan umuman hisoblashmaydi. "Xalqni hech qanday qatlama ajratmasdan, "xalq uchun yonaman" deyish, "men millatchiman" deyish bilan barobardir"[24]. Shunday keskin fikrlarni aytish bilan ham munaqqidning "ko'ngli" xotirjam tortmaydi. Maqola so'ngida munaqqid yakunlovchi hukm o'qiydi: "Cho'lponning asarlari bostirilgan ekan, uni qattiq tahlil qilib, kuchli senzurdan o'tkazib, muvofiqlarini bosish kerak"[25]. Bular munaqqidning mafkura haqidagi qarashlari edi. Uchinchi qismda Cho'lponning adabiy ta'siri haqida munaqqid qattiq xavotirlanadi va Cho'lpondan ta'sirlanib yozilgan bir qancha she'rlarni keltiradi. Bu o'sha davr adabiy muhitida Cho'lponning ta'siri katta bo'lganini isbotlaydi. Qolaversa munaqqid ayrim o'quvchilar Cho'lponga "Buyuk xalq shoiri" unvonini berishganini xato deb baholasa-da, bizga bu haqida ma'lumot yozib qoldirgandir. Munaqqid Cho'lponning sovetlarni kuylamaganligini to'g'ri tahlil qilgan holda, uni "Ko'k yozuvchisi" deya xato hukm chiqargan. Bu maqolaga javob tariqasida shu gazetada Oybekning "Cho'lpon. Shoirmi qanday tekshirish kerak" nomli maqolasi e'lon qilinadi. Bu maqola Cho'lpon ijodiga emas ko'proq Aynning maqolasi tahliliga va shoir ijodini qanday tekshirishga qaratilgan. Yosh Oybek san'at nuqtai nazaridan uzoqlashmaslik kerakligini, g'oyaviylikka berilmaslik lozimligini aytar ekan, u ham sinfiylik degan savolga javob berishga majbur bo'ladi: "Cho'lpon proletar shoir emas, U "proletar shoiri bo'lmaydi" ham. Negaki, shoirlarni qulog'idan cho'zib yurib, "yo'qsillar shoiri bo'l", deyish mumkin emas"[26]. Oybek badiiy asarlarni ijtimoiy (sotsiyolo'gicheskiy) metod bilan tekshirish kerakligini va Aynda aynan shu narsa yetishmasligini keskin tanqid qiladi. Aynning maqolasi haqida gapirib uch-to'rtta she'rmi keltirib shoir ijodiga baho berish xayolparastlik ekanini takidlaydi. Ruslarning Pushkinni inqilobdan keyin ham sevib o'qishlarini, ammo u ham yo'qsillar shoiri emasligini, mafkurasi ham hozirga to'g'ri kelmasligini misol qilib keltiradi va "biz ham Cho'lpondan qo'l tortolmasligimiz"ni o'sha vaqtlarda ayta oladi. Sabab qilib: "Cho'lpon yangi adabiyotda yangi narsa yaratdi. Muashshah adabiyot o'rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha yoqimli, go'zal she'rlarni o'rtaga chiqardi. Bu kungi yosh nasl uning soddada tilini ko'p sevadi. Undan ko'p go'zalliklar oladi. Cho'lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalar o'qiladi, voz kechilmaydi"[27] – degan fikrlarni aytadi. Haqiqatdan badiiy yuksak asar mafkuraga mos kelsa-kelmasa o'z badiiyiligi yo'qotmaydi. Bu maqolada asarlarni siyosiy tuzum nuqtai nazaridan emas, balki, badiiylik jihatidan baholashga zamondoshlarini chaqirgan edi. Afsuski, bu chaqiriqqa quloq tutadigan kishi topilmadi. E'tiborli tomoni bu maqolaga Ayn negadir javob yozmaydi.

Bu maqolaga yana bir munaqqid Usmonxon javob yozadi va Cho'lpon bahsiga aralashadi. U "Munaqqidning munaqqidi" maqolasida Oybek fikrlarini keskin tanqid qiladi. Aynning fikrlarini yoqlab Cho'lponni tanazzulparvar xayolparast sifatida qoralaydi. Abdulla Qodiriyning "ko'z yoshlardan chechaklar undirmoqchi" degan fikrining mantiqsiz ekanligi, shunchaki adib Cho'lponni oqlashni maqsad qilib olganligini ta'kidlaydi. Shoir ijodi haqida esa "Cho'lpon o'zbek millatining yangi adabiyotida bir turli nuqtai nazardan eng oldingi o'rinni tutadi degan da'voga qarshilik yo'q ko'rinadi"[28], – degan fikrni aytadi va sabab qilib shoir asarlari soni va texnikasini ko'rsatadi. Ammo munaqqid maqolada shoir ijodini qattiq qoralaydi: "Cho'lpon va uning to'zg'on "cho'lponizmi" yoshlar uchun g'oyatda zararli"[29]". Munaqqid bu maqolasida Cho'lponning Tagor ijodiga maftunligini kamchilik sifatida aytib o'tadi. Munaqqid Cho'lpon ijodini tahlil qilarkan shoirning bir umid, bir umidsizlik haqida kuylashini tuturiqsizlik deb qaraydi. Aslida

bu qarash mantiqan xato. Sababi bir ijodkor qachondir baxt haqida yozgan bo'lsa, u endi hech qachon dard haqida yozmaydi degani emas. Munaqqid Oybekni ham burjuaziya qarashlari tarafdori sifatida baholab, Cho'lponning ijodi va mafkurasi shaydosi deb unga ham ma'naviy hujum qiladi. 1927-yil 29-avgustda yana shu gazetada Oybek "Munaqqidning munaqqidi" maqolasining egasiga" nomli maqolasini e'lon qilib, yana Cho'lponni va u haqidagi qarashlarini himoya qilib chiqadi. Oybek yosh bo'lishiga qaramasdan o'z qarashlarini asosli dalillar bilan himoya qiladi. Ammo uning Cho'lpon mafkurasi haqidagi qarashlari Ayn va Usmonxonnikidan ko'p ham farq qilmaydi. "Cho'lpon – shoir. Faqat tarix sahnasiga buyuk amallar bilan chiqqan yo'qsil, mehnatkashlarning shoiri emas"[30] – degan jumlar fikrimizning isbotidir. 1927 yil 4 oktyabrda O'zbekiston madaniyat xodimlarining II quriltoyida Akmal Ikromovning so'zlagan nutqi Cho'lpon va uning ijodi ustidagi qizg'in bahslarni to'xtatdi va uning ijodi ustidan qat'iy hukm bo'lib yangradi.

30-yillar matbuotida Cho'lpon nomi tez-tez ko'zga tashlanib qoladi. Achinarli tomoni shundaki, Cho'lponning she'rlarini yoddan bilgan, ijodini qadrlaydigan ba'zi munaqqidlar ham matbuotdagi maqolalarida unga loy chaplashga majbur bo'lar edi (Otajon Hoshim). Cho'lponning "Soz" to'plamiga Yunus Latif taqriz e'lon qiladi. Muallif

Cho'lponning to'plamdan joy olgan 26 ta she'ri qattiq qoralaydi. Aslida to'plamga kirgan she'rlarning katta qismi zamonasozlikda yozilgan asarlar edi. Bu davrga kelib munaqqidlar ta'na toshlarini tortinmay ota boshlagan edi. Munaqqid Cho'lponning qayta tarbiyalanmagani, ijodi hamon eskilikni kuylash bilan bandligini isbotlashga jon-jahdi bilan harakat qiladi. "Yana oldim sozimni" she'rini tahlil qilarkan, bu qalam eskiligini, shoir uni vaqtincha "qantargani"ni takidlaydi. "She'rda sotsiologizm g'oyalari ochiq-ravshan, asarning butun tuzilishi bo'yicha oqib borishi lozim. Cho'lpon ijodida inqilobiy ko'tarankilik chin ifodasini topmagan"[31]. Bu jumalarda munaqqidning umumiy she'riyat haqidagi fikrlari o'z ifodasini topgan va shoirming yangicha she'riyatga asos solayotganligini ham anglash qiyin emas.

Xulosa va takliflar. Yuqorida Cho'lpon ijodiga qaratilgan taqrizlar, uning ijodini to'la yorita bera olmagan bo'lsa-da, badiiylikdan ko'ra, siyosiy tuzumga berilganlik seziladi, ammo cho'lponshunoslikdagi ilk qadamlar deb baholash mumkin. Ta'kidlash joizki, eng muhimi Cho'lpon ijodiga qiziqqanlik, baholash va tahlil qilish seziladi. Zamonadoshlari befarq bo'lmagan, bu narsa uning ijodi adabiyotshunoslikda yangi bir nafasni olib kirganligini aytish mumkin. Bugungi kunda nafaqat cho'lponshunoslik, balki jadisshunoslik uchun ham birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Жабборов Н. Чўлпон шеъриятида миллий истиқлол орзусининг бадий талқини / Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. – Тошкент: Mashhur-press, 2018. – Б. 45-52.
2. Жабборова Д. Чўлпоншунослик. – Т.: Muharrir, 2019. – Б. 194
3. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 47
4. Жабборова Д. Чўлпоншунослик. – Т.: Muharrir, 2019. – Б. 194
5. Чўлпон ва танкид // мақолалар тўплами (Нашрга тайёрловчи: Баходир Карим) – Т.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – Б. 11
6. Куронов Д. Жадидлар. Абдулхамид Чўлпон. Рисола, Тошкент: Ёшлар нашриёти уйи, 2022. 160-б.
7. Ҳаққулов И. "Қутулиш юлдузи" йўқликка кирмас... / Ҳаёт, адабиёт ва абадиёт. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – Б.60.
8. Ҳожиёва Ш. Чўлпон ва миллий шеъриятнинг янгилиниши. Т.: "Muharrir nashriyoti", 2019, Б. 10
9. Каримов Н. Чўлпон ҳақида сўз. / Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.1. – Тошкент: Академнашр, 2016, 6-бет.
10. Чўлпон ва танкид // мақолалар тўплами (Нашрга тайёрловчи: Баходир Карим) – Т.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – Б. 11
11. Чўлпон ва танкид // мақолалар тўплами (Нашрга тайёрловчи: Баходир Карим) – Т.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – Б. 12 (keying o'rinlarda ushbu manbaga murojat qilinganda Ko'rsatilgan asr deb, beti yozib ketiladi – D.A)
12. Ko'rsatilgan asar. – B. 12
13. Ko'rsatilgan asar. . – B. 13
14. Ko'rsatilgan asar. – B. 14
15. Ҳожиёва Ш. Чўлпон ва миллий шеъриятнинг янгилиниши. Т.: "Muharrir nashriyoti", 2019, Б. 10.
16. Ko'rsatilgan asar. – B. 16
17. Ko'rsatilgan asar. – B. 16
18. Ko'rsatilgan asar. – B. 25
19. Ko'rsatilgan asar. – B. 24
20. Ko'rsatilgan asar. – B. 28
21. Ko'rsatilgan asar. – B. 29
22. Ko'rsatilgan asar. – B. 29
23. Ko'rsatilgan asar. – B. 30
24. Ko'rsatilgan asar. – B. 32
25. Ko'rsatilgan asar. – B. 34
26. Ko'rsatilgan asar. – B. 36
27. Ko'rsatilgan asar. – B. 38
28. Ko'rsatilgan asar. – B. 40
29. Ko'rsatilgan asar. – B. 41.
30. Ko'rsatilgan asar. – B. 54
31. Ko'rsatilgan asar. – B. 61



Sabohat SHUKUROVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)

O'zDJTU professori, Filologiya fanlari doktori X.Paluanova taqrizi asosida

JON STEYNBEKNING "G'AM-TASHVISHLARIMIZ" ROMANIDA INSON MA'NAVİYATI VA ERKI, SHAXS PSIXOLOGIYASI VA XARAKTERI HAMDA UNING O'ZBEK NASRI NAMUNALARI BILAN MUSHTARAKLIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, nobel mukofoti sovrindori, romanlari jahon adbiyotining durdonalari hisoblangan Jon Steynberkning o'zbek adabiyotshunosligi durdonalari bilan o'xshash va farqli jihatlari keltirilgan. Yozuvchining asarlari dunyodagi ijtimoiy-siyosiy muxitni real voqealarga asoslagan xolda badiiy bo'yoqlar orqari tasvirlash maxorati, o'z obrazlarini yorqinlik bilan tasvirlashiga yo'l ochgan. Yozuvchi asarlaridagi badiiy ruh, vatan madhi, shaxs erkinligi kabi ma'naviy g'oyalar o'zbek yozuvchisi Nazar Eshonqulning o'z romanlarida tasvirlagan realizm, majoz va poetik uslublar bilan mushtarakdir.

Kalit so'zlar: "G'am tashvishlarimiz", "Javohir", siyosiy-ijtimoiy g'oyalar, vatanparvarlik, romannavis adiblar.

JOHN STEINBECK'S NOVEL "OUR SORROWS" DISCUSSES HUMAN SPIRITUALITY AND WILL, PERSONAL PSYCHOLOGY AND CHARACTER, AS WELL AS ASPECTS OF COMMONALITY WITH EXAMPLES OF HIS UZBEK PROSE

Annotation

In this article, the similarities and differences between the masterpieces of Uzbek literary studies and the novels of John Steinberg, the winner of the Nobel Prize, whose novels are considered masterpieces of world literature, are presented. While the author's works are based on the real events of the social and political environment of the world, the artist's ability to describe his images with artistic colors opened the way for him to portray his characters with brilliance. Spiritual ideas such as bad spirit, national anthem, personal freedom in the writer's works are common with the realism, figurative and poetic styles described by the Uzbek writer Nazar Eshanqul in his novels.

Key words: "Our discountant", "The Pearl", political and social ideas, patriotism, novelist writers.

В РОМАНЕ ДЖОНА СТЕЙНБЕКА «НАШИ ПЕЧАЛИ» НА ПРИМЕРАХ ЕГО УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ РАССМАТРИВАЮТСЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ДУХОВНОСТЬ И ВОЛЯ, ЛИЧНАЯ ПСИХОЛОГИЯ И ХАРАКТЕР, А ТАКЖЕ АСПЕКТЫ ОБЩНОСТИ

Аннотация

В данной статье представлены сходства и различия шедевров узбекского литературоведения и романов Джона Стейнберга, лауреата Нобелевской премии, романы которого считаются шедеврами мировой литературы. Хотя произведения автора основаны на реальных событиях общественно-политической среды мира, умение художника описывать свои образы художественными красками открыло ему возможность с блеском изображать своих персонажей. Духовные идеи, такие как злой дух, национальный гимн, свобода личности, в творчестве писателя перекликаются с реализмом, образным и поэтическим стилями, описанными узбекским писателем Назаром Эшанкулом в его романах.

Ключевые слова: «Наш дисконтант», «Жемчужина», политические и социальные идеи, патриотизм, писатели-романисты.

Jon Steynbek nafaqat Amerika adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham yirik romannavis yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning yuksak badiiy san'atkorlikka asoslangan adib sifatidagi mavqeyi adabiyot olamida sotsial-ijtimoiy, maishiy-psixologik romanlar muallifi sifatida namoyon bo'ladi. 1961-yili yorug'lik yuzini ko'rgan "G'am-tashvishlarimiz" romani – adibning so'nggi yirik asari. 1962-yilning kuzida Jon Steynbekka adabiyot bo'yicha xalqaro Nobel mukofoti beriladi.

Nobel mukofoti qo'mitasining bu haqdagi qarorida shunday deyiladi: "Jon Steynbek bu mukofot bilan yuksak realistik va puxta badiiy jozibadorlik bilan omuxtalangan nasriy uslubdagi ijodi uchun taqdirlandi. Chuqur hamdardlik tuyg'usi, kinoyaviy yumor hamda sotsial pafos bilan bog'liq asarlarida adib hamisha xo'rlangan, miskin bechoralar va muhtoj kambag'allar himoyachisi sifatida ko'zga tashlanadi".

Yana bu tarixiy qarorda Nobel mukofoti berilishida ayniqsa "Nafrat uchquni", "G'am-tashvishlarimiz" romanlari, "Javohir", "Sichqonlar va odamlar haqida" nomli qissalarining

ahamiyati muhim rol o'ynaganligi, bular Jon Steynbek ijodining xarakterli namunalari ekanligi maxsus ta'kidlangan.

"G'am-tashvishlarimiz" romani o'z xarakter mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-psixologik asar sanaladi. Yozuvchi do'sti Paska Kovichga maktubida mazkur roman romantik-badiiy nasrning yirik ko'lamlil namunasi ekanligini izohlab beradi.

Odatda, Jon Steynbek asarlarining aksariyat voqealari, obrazlari uning o'z tug'ilib o'sgan vatani Kaliforniya, Salinas vodiysi bilan bog'liq bo'lgan. "G'am-tashvishlarimiz" romani voqealari esa qadimiy arxitektura va madaniyatga ega yangi Angliya shaharchasi muhiti bilan bog'liq. Asar qahramonlari ham Steynbekning avvalgi asarlaridagi kabi bechora va kambag'al kishilar emas. Roman markazida yangi Angliya shahrining asoschilaridan biri bo'lgan madaniyatli, kasbi bo'yicha me'mor kishi, uning oilasi yaqin atrofidagi ezgu niyat odamlar timsoli tasvirlanadi.

Roman markazida turgan Iten Allen Xouli – tashqi tomondan madaniyatli, tartibli, siyosiy-ijtimoiy jihatdan shakllangan obraz. Ammo uning asosiy maqsadi – avvalo

o'zining shaxsiy foydasi, boy-badavlat bo'lib olish yo'llarini izlashdan iborat. Bu faylasuf adibning AQShda barcha narsa pul-mablag' bilan o'lchanishi kabi ijtimoiy karyeraning shakllanayotganligi bilan aloqador qarashlari va realistlik talqinga doir hayotiy haqiqat in'ikosini hisoblanadi. Taniqli amerikalik adabiyot tanqidchisi Maksvell Geysparning "Bugungi kunda pul bizning milliy zamonamizda barcha narsaning asosi va yashash manbasi bo'lib bormoqda." degan qaydi ayni "G'am-tashvishlarimiz" romani g'oyaviy-ijtimoiy pafosining o'zagini belgilagan. Bu asarning juda tezda ommalashib, qayta-qayta nashr etilishiga sabab bo'lgan omillardan sanaladi.

Jon Steynbek har qanday jiddiy, qaltis yoki murakkab siyosiy-ijtimoiy g'oyalar, jarayonlar haqida fikr yuritganda, shunga muvofiq kishilar timsolini yaratganda ham o'zining shakllangan yengil yoki kinoyaviy, achchiq yoki falsafiy yumoridan unumli foydalanadi. "G'am-tashvishlarimiz" kabi sarlavhasining qoyilishidanoq ancha og'ir va tashvishli muammolar talqiniga bag'ishlanganligi ma'lum bo'ladigan roman tizimida ham bu maroqli va qiziqarli uslub o'zini namoyon etgan. Buni hatto asarning boshlanish qismlaridanoq, Iten Allen Xoulining xotini Meri Xouli o'rtasidagi do'stona hazilomuz munosabatlaridanoq ko'rish mumkin.

Yozuvchi o'z qahramoni Itenning hayvonlar bilan munosabatlari jarayonida ham erk, ma'naviy, insoniy qiyofa, orzu-umidlar kabi masalalar atrofidagi qarashlarini ifodalaydi. Masalan, Itenning "Men turibman-u uyimga qarayapman. Oldingi zamonlarda qurishni bilganlar" so'zlarida imoratsozlik sohasining muammosiga tanqidiy daxl qilayotgani ma'lum bo'ladi. Oldingi zamonlarda qurilgan imoratlarining ancha sifatligi, puxtaligi ta'kidlanayotganligi ma'lum. Keyingi musobaqa asosida shiddat bilan bunyod etilayotgan imoratlarining esa ancha-muncha sifatsizligini kinoyaviy tarzda aytayotganligini anglash mumkin. Taraqqiyot, sarmoya yuksalgani sari, odamlarda ochko'zlik, oz mehnat bilan ko'p narsaga erishish istagi, balki nafs o'vorali oshib boraverishi kabi ijtimoiy muammo adib diqqat markazida turganligini sezish mumkin.

Iten Xouli bank rahbari Beyker bilan yaqinlashib, asta-sekin uning ishonchiga kirib olarkan, tegishli mafiya guruhi bilan bankdan katta miqdorda pul o'g'irlaydi. Yozuvchi bu bilan noteng zamon, chalkash va noodatiy siyosat odamlarni jinoyatchiga aylantirishini badiiy sferada asoslagan.

Jon Steynbek yoshlar, jumladan, farzandlar ma'naviyatida o'z yurtini, o'z tug'ilib o'sgan go'shasini sevish ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratish muhimligini hech qachon unutmaydi.

Romanning ko'p o'rnida bu masala talqini hisobga olingan. Masalan:

"G'am-tashvishlarimiz" qanchalik jiddiy sotsial yoki falsafiy roman bo'lmasin, baribir uning tarkibida oilaviy saodat, er-xotinning o'zaro mehrlil munosabatlari tasviri ham yetakchilik qilib, asarning hayotbaxshlik mohiyatini ta'minlagan:

Sotsial-ijtimoiy pafosning kundalik oilaviy-maishiy hayot bilan uyg'unlikdagi talqinlari "G'am-tashvishlarimiz" romaniga xos xususiyatlardan biri hamdir. Yozuvchi siyosiy mojarolarsiz, ijtimoiy talo-to'plarsiz ham sotsial masalalar talqiniga erisha olgan. Aslidayam har qanday sotsial-ijtimoiy muammolar oila, yashash va kundalik turmush bag'ridan unadi.

"G'am-tashvishlarimiz" romanini mulohazalar-mushohadalar asari desa ham bo'ladi. Davr manzaralari, siyosiy-ijtimoiy voqelik sevimli er-xotin Meri va Iten xayollari, o'lchovlari, reja-niyatlari bilan istifoda etilishi uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik yaratma mohiyatini belgilagan.

Iten mushohadalaricha, Meri oila, ro'zg'or, farzandlar uchun naqadar kuyunchak. Unga pul to'lash kerak emas, pul

kerak, ammo bu pul – yangi kiyim uchun, bolalarini bilimdon qilish uchun, muhimi, do'st-dushman oldida boshini tik ko'tarib yurish uchun. Va muhimi, pul bo'lsa, mening o'zim va oilam oldida uyalib-tortinmasligimni o'ylab-qayg'urish uchun pul lozim deb biladi, xolos.

Jon Steynbek diqqat markazidagi muhim masalalardan, ma'naviy-axloqiy niyatlardan biri – bu oqila ayol sabr-toqati qiyinchilik va yetishmovchiliklardan balandda bo'lishi bilan bog'liq. Bu masala ham yana uning eri Iten mulohazalari, o'ylovlari tarkibida namoyon bo'ladi: "Olamning chordog'i" – ramziy obrazli ifoda. Bu – ma'naviyat o'lchovi, qadimgi did va aql-idrok majmuyi deb qaralishi mumkin. Qadimgi buyumlar ota-bobolarga xizmat qilgan noyob osori-atiqalar kabi qadrlil narsalarga sadoqat – ma'naviy mo'tadillikka da'vat mazmuniga ega.

Saranjom-sarishta Merining tozalikka e'tibori – kitoblarning chang-chungsiz asrashi, ularning bir tartibda, rangiga qarab joylashtirilishi tarzida o'zini namoyon etgandir. Va anglashiladiki, xonadon vakillari iqtisodiy nochorlikka qaramasdan, hayot mazmuni, ma'naviy yuksaklik ibratlari jamuljam bo'lgan kitoblarni mehr va ixlos bilan mutolaa qilishadi.

Oilada farzandning – Iten va Merining o'g'li Allenning "Men Amerikani nima uchun yaxshi ko'raman?" mavzusida yozgan inshosi besh g'olib orasida yutuqqa erishishi bu oila ma'naviy yetukligi nishonasi sanaladi.

Yozuvchi bu xarakterli hodisa orqali ma'naviy karyera har qanday yetishmovchilik hukmron muhitdan baland bo'lishini, aslida ma'naviy hayot shunday oddiylik bag'rida nash'u ma'no topishini ta'kidlaydi. Boylikni, uni qayerga qo'yishini bilmaydigan oilaviy davralarda o'z yurtini Allende odmi oila farzandi sevgan kabi sevishlari dargumonligi o'z-o'zidan ayondir. Demak, tug'ilgan yurtning boyligi, to'kis maishiy shart-sharoiti, milliard-milliard dollarlari uchun emas, balki uning hech narsaga alishish mumkin bo'lmagan mehri, qadri uchun jon-dildan sevishgina ma'naviy yetuklik fazilati sanaladi. Beixtiyor Hadisi sharifda aytilgan "Vatanni sevmoq iymondandir" degan ilohiy fikr yodga tushadi. Abdurauf Fitrat "Vatan – sajdagohim" deb bilgan.

"G'am-tashvishlarimiz" romanining, umuman, Jon Steynbek ijodining fazilatlaridan biri – qahramonlariga xos falsafiy mushohadakorlik bilan bog'liq.

Iten jiddiy mushohadalarning ma'naviy-axloqiy yetuklikka xizmat qilishini o'ylaydi. Shu ma'noda "G'am-tashvishlarimiz" romanining markazida turgan yetakchi masalalardan asosiyi – bu ma'naviyat haqida ekanligini ta'kidlash mumkin bo'ladi. Asar so'ngida Iten insholar tanlovida g'olib bo'lgan o'g'li Allen Xoulining daftarlarining ko'p joyida yog'li qora qalam bilan takror-takror qayd qilgan, katta-katta harflar bilan yozgan "Men Amerikani sevaman" degan shior ma'nosidan qalb so'zlarini o'qib, naqadar zavqlanishiga, naqadar faxrlanishiga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotshunos olimi Natalya Leonova ta'kidlaganidek, "Jon Steynbek o'z ijod olamida yetakchi mohiyatni tashkil etadigan ma'naviy-axloqiy masalalarni o'z vatani Kaliforniya odamlari va manzaralari, fermerlari yoki oddiy ishchi-xizmatchilari talqini, sotsial-ijtimoiy muammolar negizida yuksak badiiy san'atkorlik bilan talqin etishni ijod uslubiga aylantirgan edi". Bunga "G'am-tashvishlarimiz" romanining g'oyaviy-poetik salmog'i ham yorqin isbot bo'la oladi.

Jon Steynbek ijodiy izlanishlariga xos fazilatlar umuminsoniy ma'naviy-axloqiy masalalar, badiiy mahoratdagi jozibali pafos, syujet yoki kompozitsiya, eng muhimi, inson erki masalalari bilan ijodiy mushtarakliklar o'zbek nasri vakillari ijodida ham e'tiborni tortadi.

Nazar Eshonqulda uning dadil izlanishlari bilan jahon nasri namunalari xos fazilatlar in'ikosini kuzatish mumkin.

Adabiyotshunos Feruza Burxonova dissertatsion tadqiqotida Nazar Eshonqul ijod evolyusiyasini izchil kuzatib, shunday nazariy xulosalarga kelgan: "Nazar Eshonqul realistik tasvir usulini romantika, sentimentallik, simvolik ifoda yo'sinlari bilan boyitadi. Hayotiy voqealar bilan xayoliy hodisalarni falsafiy-majoziy mazmun bilan uyg'unlashtiradi. Xususan, "Maymun yetaklagan odam", "Sharpa", "Evolyutsiya", "Bahouddinning iti" kabi asarlarida bu jihat yaqqol ko'rinadi".

Olima iste'dodli adib Nazar Eshonqulning tasvirlash uslubiga xos bo'lgan yetakchi xususiyat ularda manzaralar, detallar, ranglar, tovushlar, hidlar, vayronalar tasviri, suratlar va boshqa poetik unsurlar metaforiklik kasb etib, katta badiiy mazmunni ifoda etishni alohida ajratib ko'rsatadi. Bu jihatdan Nazar Eshonqul ijodiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydigan "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romani alohida ajralib turadi. Roman istiqloq davri navqiron ijodkorlari faoliyatida muhim mavzu – mustabid tuzum davridagi xalqning boshi egik, mutelik fojialarini ko'rsatish g'oyasi bilan bog'liq. Muallifning asar muqaddimasidagi so'zida aytishicha, bu roman 90-yillarda yaratilgan, ammo uni e'lon qilishga shoshilmagan. Nihoyat, xulosaga keladiki, "devorini zax bosgan, insonning botiniy quvvatini so'rish evaziga yashagan tuzumning badbo'y hidlari anqib turgan" romanini chop etishga qaror qiladi.

Asar boshida "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi keltirilgan "Aysam yetgaymikan, enajon, zorimni, Yurakda g'amim ko'p, ichda zanglarim!.." degan Go'ro'g'li monologidan olingan, "Gilgamish" dostonidan olingan "... Hayot suvin izlab o'tdi Gilgamish" kabi epigraflar mazmunan mustabid sho'ro tuzumi davrida yashagan mute, erksiz insonning g'amgin hayot manzaralarini eslatadi va asar aynan o'sha erksiz bandalarning g'amgin hayotidan bahs yuritishini anglatadi. Romanda qahramonlar ismi-sharifi yashirilgan bo'lib, ular bosh harflari bilan talqin etilgan. Bu majoziy usul sovet davridagi mute, erksiz inson timsolini nomsizlik bilan umumlashtirish, balki, bu davrda barcha aholi muteligini anglatish va ta'kidlash maqsadiga xizmat qiladi.

E'tibor bersak, Jon Steynbek "G'am-tashvishlarimiz" romanida kapital va biznes-foydah muhitidagi oddiy amerikalik kishilarning mute, tushkun hayotini bir qadar ochiqchasiga tasvirlagan. Shu bilan birga, ma'naviyatning, insoniy fazilatlarining barcha narsadan ustunligini va muhimligi g'oyasini ulug'lash maqsadini ko'zlaganligiga guvohmiz.

Nazar Eshonqul romanida esa, mustabid tuzum bandalari qiyofasi bir qadar yopiq-yashirin, ramzlar, majoziy poetika og'ushida talqin etishga harakat qilingan. Mutelik va erksizlik timsoli bo'lgan bechora inson N. deb ataladi. Roman boshlanishidanoq uning bunday tushkun hayoti namoyon bo'ladi.

Yozuvchi rahbarning kimligini, nomini, hatto vazifasiniyam ochiq aytmaydi. U mustabid tuzum timsoli, xalqni mute va qaram holda saqlaydigan yakkahokim rahbar, xolos. Aniqrog'i, sovuqqon, ma'naviyatsiz rahbarning modeli.

Behchora N.ni rahbarning o'z huzuriga chaqirtirgani atrofdegilar uchun hayratli hodisa. Chunki rahbar har kimniyam chaqirmaydi, har kim bilan maslahat-kengash ham qilmaydi. Oddiy xodimni rahbarning chaqirtirishi, demak, bu bechora uchun misoli bayram ekanligi atrofdegilar katta-kichikning ham bayrami. Bu manzara insonni oddiy odam o'rindayam ko'rmagan mustabid siyosat portretining muhim qirrasini.

Rahbar huzuriga kiradiganlar o'ziga, sochiga, kiyim-boshiga jiddiy e'tibor berishi lozim. Behchora N. ham shoshapisha sartaroshxonaga yo'l oladi.

"Rahbar sinchkov odam, – dedi sartarosh unga soqolini qirtishlayotanda. – Orastalikni yaxshi ko'radi. O'zi har kuni ikki marta soqol oldirishga chaqiradi. Aynan bugun chaqirishining ham xosiyati bor.

Navbatda turgan ikkita xodim bu fikrga so'zsiz qo'shilganday, baravariga bosh iring'ab tasdiqlashdi."

Darhaqiqat, atrofdegilar katta-kichik xodimlar uchun bechora insonga ko'rsatilayotgan iltifot bayram shodligidek holat edi. Sartaroshxona eshigidan mo'ralab turgan odamlarning endilikda rahbar e'tiboriga loyiq ko'rilgan bandadan ham hayiqayotganliklari, shuningdek, unga behad havas qilayotganliklari ham ma'lum edi.

Ishxonasidagi sheriklar N.ga rahbarini maqtashini, hamma ishlar joyida ekanligini bildirishini qayta-qayta ta'kidlashadi.

"N. hadiksirab qabulxonaga chiqqanda, kotiba oynaga qarab o'ziga oro berib o'tirardi: U N.ga o'girilib ham qaramaydi. N. esa uning o'zini bamaylixotir tutishidan shu yerda bo'lib turishim zarur ekan, deb o'ylaydi. Odatda qabulxonaga rahbarning imzosi kerak bo'lgan va tanishish shart hujjatlarni olib kirib turishar, hamma ham yurak betlab kiravermasdi. Kotiba hamon pardozi qilishda davom etardi. Qabulxonada ikki bo'lmagan iborat edi. Birinchi bo'lmada katta eshik yoniga kursilar terib qo'yilgan, bundan tashqari, xiyla katta, ikki kishi ham yotsa bo'ladi, kirgan odamni yotishga undaydigan suyanchig'i baland maxfil turar, uning bir yonboshiga rahbarnikimi yoki kotibanikimi, yuvinish payti kiyiladigan xalat tashlab qo'yilgandi. Uzun va viqorli qo'shqanotli eshik yopiq turardi. Demak, yordamchi ham shu yerda. Eshik yordamchining xonasiga olib chiqadi, deb tushuntirgandi sartarosh. Undan keyin rahbarning xonasiga kiriladi. Kotiba esa keldi-ketdini belgilab turuvchi shunchaki xodim. Rahbar bilan bog'liq ishlarining hammasi yordamchisi orqali bitadi. Agar yordamchi N.ni taklif qilibdimi, demak, rahbarning qabul qilishi aniq. Xonaning havosi bo'g'iq, ustiga-ustak upa-elik, atir hidi kelib turardi. Bu bo'lma qabulxonadan ko'ra har qanday mahal har qanday erkakni qabul qilishga mushoq turgan ayolning yotog'iga o'xshardi. Devorda esa turli jadvallar, idoraning turli bo'lim va shu'balarning telefon raqamlari, yana N. tushunmaydigan qandaydir yozuvli ustunlar bor edi."

Sirli-majoziy hodisotlar yetakchilik qiladigan romanda N.ning poyezd ostida qolib o'lganligi haqidagi gazetada berilgan yanglish xabar uning qiziqarliligini yanada oshirgan. Hatto o'zi o'lmagan bandani o'zi ishtirokidagi motam marosimini o'tkazib, dafn etiladi.

Muallif majoziy uslubdan foydalanib, mustabid tuzum mutasaddilarining bechora odamlar erki, qiziqishi bilan mutlaqo ishi-dardi bo'lmaganligi kabi sovuqqon, iblisona mohiyatni talqin qilishga erishgan. Behchora N.ning o'zining tirikligini, uyam jamiyat odami ekanligini jon uzib tushuntirishga urinishi befoyda.

Tirik odamning o'ldiga chiqarilishi asli gazetada bosilgan yanglish xabar bilan bog'liq. N. hammomga kirganda hamyoni va hujjatlarini o'g'irlab ketishgan. O'g'ri poyezd tagida qolib o'lgan, o'g'irlangan hujjatlarni ko'rib, bu N.ni o'lganiga chiqarishga asos bergan. Gazetaning oxirgi sahifasida shunday holatda o'lganlar xabari bosiladi.

Rahbar N.ni o'lganlar ro'yxatiga qo'shib, o'miga yangi xodimni ishgayam tayinlaydi. Rasmiyatchilik, qog'ozbozlik, tirik shaxsga emas, balki quruq qog'ozga, yolg'on ma'lumotga ishonish – mustabid tuzum xususiyatlaridan biri.

Yozuvchining o'zi roman avvalidagi so'zboshida aytganidek, bu shafqatsiz realizm asosida yaratilgan asar har satridan o'sha sobiq mustabid tuzumning zax bosgan, chirigan, yovuz basharasi ko'rinish turadi, badbo'y hidi anqib turadi. Va yana ma'lum bo'ladi, bu kabi olchoq jamiyatda ma'naviyatning o'rni, hatto nomi ham bo'lmaydi. Aksincha, bor ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar ham mahv etiladi. Chunki yovuzlikka, aldovga, adolatsizlikka asoslangan jamiyat, bunday jamiyatning olchoq yetakchilari uchun odam qadri, ma'naviyatdek ulkan qudrat dushman hisoblanadi.

Bular “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” kabi majoziy, sirli-g‘aroyib, retrospektiv uslub asosida yaratilgan realistik roman mohiyatidan kelib chiqadigan hayotiy va ijtimoiy xulosalar hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, istiqloq davrida shakllangan yangi dunyoviy o‘zbek adabiyotining jasoratli navqiron ijodkorlari o‘z asarlarida sobiq mustabid davr illatlarini poetik ko‘lamda ochib tashlashda ancha dadil izlanishlar olib bora boshladilar.

Nazar Eshonqul mustabid tuzum kirdikorlarini fosh etish, istiqloq qadriga yetish va uni jon-dili bilan himoya etish sari da’vatkorlik niyatlarini “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romanida yanada batafsil va poetik yuksaklik bilan talqin etdi.

Slovak romannavis adibi Branko Chopich o‘z tajribasi, yozuvchilik izlanishlari va ijodkorning vazifalari bilan bog‘liq holda shunday yozadi: “Men yozuvchi sifatida o‘z yurtim va xalqimning Ikkinchi Jahon urushida fashizmga qarshi mardona kurashgan va endilikda farovon hayot, tinch-osuda yashash, o‘zi va jahon ahlining ham erki va tegishli huquqi

uchun fidokorona harakat qilayotganligini yorqin tasavvur qilaman. Albatta, men ham izlanishlarim bilan shu kurash jabhasida ma’naviy-axloqiy va estetik qarashlarim, harakatlarim bilan faol ishtirok etishimni kanda qilmayman”. Branko Chopich ijod ahlining vatan va xalq oldidagi tub vazifalari, mas’uliyati haqida mazmunli fikrlagan. Darhaqiqat, har bir so‘z san’atkori urush yoki ezilgan xalqning erki haqida yozadimi, baribir, u shu xalqning ma’naviy yuksalishi, farovon hayotga intilishi, noyob o‘y-xayollari, ezgu maqsadlari haqida bevosita qayg‘uradi.

Jon Steynbek va Nazar Eshonqul kabi taniqli yozuvchilarning romanlarida, jumladan, “G‘am-tashvishlarimiz”, “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romanlarida olg‘a surilgan va chuqur badiiy tahlil qilingan inson erki va ma’naviyat masalalarining mukammal yechimlari ham Branko Chopich fikrlari va vazifalariga munosibligi bilan o‘ziga xos ahamiyat va mashhurlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Tўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001;
2. Тўраев Д. Ҳаёт манзаралари. – Тошкент: Akademnashr, 2016. 412 б
3. Холбеков М.Н. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Мақолалар тўплами. “Мумтоз сўз”, Тошкент, 2013.
4. Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас. – Т.:Шарк, 2004.
5. Эшонкул Н. Ижод фалсафаси. –Т: Akademnashr, 2018. – 89 б.
6. Бурханова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Назар Эшонкул ва Улуғбек Ҳамдам ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2019;
7. Ганиева О. Жон Стейнбек ҳамда Одил Ёқубов асарларида инсон ва жамият муносабатларининг тасвирланиши. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2021.
8. Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар). – Филол. фан.д-ри... дисс. – Тошкент, 1994. 312-б.
9. Чулиева Н. Ижодкор маҳорати ва жанр поэтикаси (Назар Эшонкул қиссалари мисолида): Филол. фан. фалс. докт. ...дисс. – Қарши, 2020.
10. Стейнбек Ж. Собрание сочинений в шести томах. – М.,1989. 566-б.
11. Стейнбек Ж. Карвон // Жаҳон адабиёти, 1997 йил, 3-сон.
12. Стейнбек Ж. Одамлар ва сичқонлар // Жаҳон адабиёти, 2014 йил 11-сон.
13. Стейнбек Ж. Одамлар ва сичқонлар. Икки пардали драма. “Жаҳон адабиёти” журнали, 2014, 11-сон.
14. Стейнбек Ж. Ҳайбатли тоғлар. – Тошкент: Маънавият, 1963. 212-б.



Noira YAKUBOVA,
Uzbekistan State University of World Languages senior teacher (PhD)
E-mail: yakubova_n@gmail.com

TDTU dotsenti, f.f.f.d., Ilhom Rustamov taqrizi ostida

LEXICAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF TERMS RELATED TO TOURISM

Annotation

In the modern world, tourism is one of the most important areas of human activity. Tourism is one of the most important sectors of the country's economy today, and the development of tourism is accompanied by the emergence of new types of tourism, as well as the emergence of new terms. This article presents a comparative analysis of terms related to tourism, as well as highlighting the lexical-semantic features of terms related to tourism.

Key words: Terms for the modern world, travel, tourism, tourist, tourism, lexical-semantic features, pronouns.

TURIZMGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda turizm inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biridir. Turizm – bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, turizmning rivojlanishi uning yangi turlarini paydo bo‘lishi bilan birga yangi terminlarni ham vujudga keltrimoqda. Ushbu maqolada turizmga oid bo‘lgan atamalarning qiyoslangan tahlili keltirilgan, shuningdek, turizmga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy dunyo, sayohat, turizm, turist, turizmga oid terminlar, leksik-semantik xususiyatlar, olinma so‘zlar.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ТУРИЗМУ

Аннотация

В современном мире туризм является одной из важнейших отраслей человеческой деятельности. Туризм-одна из важнейших отраслей экономики страны на сегодняшний день, и развитие туризма сопровождается появлением новых его видов, а также появлением новых терминов. В этой статье представлен сравнительный анализ терминов, относящихся к туризму, а также освещены лексико-семантические особенности терминов, относящихся к туризму.

Ключевые слова: Современный мир, путешествия, туризм, турист, термины, относящиеся к туризму, лексико-семантические особенности, производные слова.

Introduction. The modern stage of development of linguistic science is characterized by a deep interest in the description of sublanguages serving professional communities: every year the number of both theoretical and applied terminological works increases. Currently, using the material of various languages, the authors investigate the specific features of scientific texts, the structure of terms and ways of their formation, issues of standardization and ordering of terminology.

The identification of such similarities and differences in the terminological systems of the two languages allows us to provide a basis for the comparative typological study of terms both in the field of lexical semantics and in the field of structural proper. In the works of this direction, there is still no unity in the goals, principles and methodology of research, since they are mainly aimed at solving certain particular problems of comparative terminology. Thus, there is a need to summarize the results achieved, systematize the available methods, and outline the prospects for the development of this area. Given the theoretical importance and applied meaning of this approach to the study of terminology, it is advisable to use the terminological material of a sublanguage that has not yet been subjected to a deep systematic study. In this regard, this paper explores the terms of the tourism sector.

Literature review. Tourism arose during the period of development of society, when a person had the opportunity to think not only about meeting the primary, vital needs, but also about rest. Although people have always traveled, it was only at a certain stage of the economic development of society, with the growing need for travel, that individuals and

institutions appeared to provide them, which led to the formation of a special type of product - tourist services. Further, tourism became a separate branch of the national economy, which required the formation of an appropriate industry, the availability of qualified personnel, etc. All this made it necessary to isolate a whole layer of lexical units into an independent terminological system.

The tourist terms in the Uzbek language mostly came from other languages through Russian. Most assimilated words come from English words. To date, the process of assimilation into the Uzbek language through the Russian language of tourist terms used in English continues. The Russian language defines the scope of stylistic, lexical, grammatical and phonetic aspects of the Uzbek language related to tourism.

It is known that the lexical structure of a language consists of different lexical layers. The term "tourism" is also a lexical layer of special knowledge. In words and expressions, you can see that the development of the industry is connected with the social life of the country. The material and spiritual development of society and historical changes in society are reflected in the lexical unity of the language.

Over time, the tourism business continues to develop; contacts between Uzbek and foreign partners are becoming more active, who are forced to use tourist terminology; Uzbek travelers are also constantly faced with the need to understand the terms used in the field of tourist services. The science of tourism is also developing rapidly, new specialties of the tourist profile have been allocated in the education system. All this draws attention to the terminology of tourism and

generates controversy about it, which is the subject of a lot of publications.

Tourism uses it to turn a place unfamiliar to the public into a tourist destination. Therefore, language is the strongest factor in the field of tourism. "Its goal is to gain the trust of millions of people, slowly discover them and "seduce" them, resulting in their transformation from potential to real customers"[1]. However, although the terms on tourism and their translation have not been sufficiently studied in comparative-typological terms, Russian linguists V.N.Yarseva, P.N.Golovin, V.G.Denisov, V.G.Gak has pointed to the need to create a lexical typology on the typological similarity and differences of lexical systems in different languages[2]. Identification of such similarities and differences in terminological systems of both languages makes it possible to lay the groundwork for a systematic study of conditions on a comparative-typological basis, even in the field of literal semantics. For the study of the term, it is advisable to use the terminology of sublinguistics, taking into account the theoretical significance of this approach and the meaning that it is being applied, but it has not yet been involved in research as a full-fledged system. In this regard, this article will examine the conditions of the tourism industry. In the travel industry, the need for translation involves different directions: websites, catalogs, booklets, menus, flaes, or signs associated with the travel industry are among them[3]. Therefore, the work of translators is very important for airports, hotels, restaurants, museums, guides or tour operators to provide the best service and meet the needs of tourists.

In a period of developing science and technology, the passion and enthusiasm of people for the study of the history, culture, customs of other countries is growing. And in place it is causing the emergence of words and concepts related to tourism in our daily lexicon, while the existing ones have a new color. Today, a huge number of tourist lexemes and phrases in our speech give rise to new changes in lexicography and give impetus to the development of lexicography. Various forms of strengthening relations, diplomatic relations, large-scale celebrations of various events are laying the groundwork for the further development of tourism lexicology.

In recent years, several specialized dictionaries of tourist terms, small in volume, have been published. Special mention should be made of the voluminous work of the team of authors edited by M.B. Birjakov and V.I. Nikiforov, which is not a dictionary, but a glossary of international tourism terms, since the dictionary article does not contain a definition, but a detailed, sometimes even lengthy, description of a concept; at the same time, the term itself is given in English, and its description is in Uzbek.

Research methodology. In general, it can be concluded that the authors of such lexicographical works are not philologists and terminologists, but subject matter specialists, as a rule, candidates and doctors of economic sciences. As a result, a comprehensive linguistic examination of the term "tourism" and its comparative analysis in Uzbek, Russian and English is a prerequisite for creating a high-quality dictionary of tourist terms.

Result and analysis. As we all know, tourism in Uzbekistan is one of the areas that is developing rapidly, contributing significantly to the country's economy. Each field has its own terminology. Tourism terminology also occupies a large place in the Uzbek terminological system. In its enrichment, linguistic (linguistic) and non-linguistic (extralinguistic) factors are distinguished. While in the last century, terms related to different areas have borrowed Uzbek from European languages through Russian, to date, they are borrowed directly from foreign languages, and, as an example, we will consider the lexical semantic meanings of Uzbek words related to business tourism in the table below:

Ticket - the use of something (vehicles), somewhere (theater, sports palace, etc.) document giving access, ticket.

Visa - a special permission mark that is placed in a passport by the relevant administrative office in order to go to a foreign country, live in it and pass through its territory.

Flotel is a floating orphanage ship. A huge otel in the water will be specially jhoxed.

Rotel - a moving hotel, a hotel with a number of one or two seats in the form of a wagon, a dressing room, a communal dining room, a communal hostel.

Motel - a hotel for autotourists. From convenient numbers, without is also provided to tourists with car accommodations. Usually motels are also served by restaurants, bars, cinema film, conference halls, cinema halls, pools, tennis courts.

Botel - a floating hotel. This type of hotel is not found in tourism in Uzbekistan.

Guide - a professional guide who shows tourists the sights of a city or certain sights, knows one or more languages. The term is actively used in consumption[4].

In addition, when we go on a tourist trip, we come across several more terms related to business tourism. An example of this is the following: One - star hotel-a hotel with a budget account, placed in the center of cities, with a minimum of amenities. A two - star hotel is a tourist class hotel with a bar and restaurant in addition to one star. A three-star hotel is a medium-sized hotel, but with a high level of service. A four-star hotel is a hotel with the first class, with very high quality of living and excellent service. A five-star hotel is a high-category hotel with an extremely high level of service and living. The star system is a form of systematization widely used in the classification of hotels of France, Austria, Hungary, Arabia, Russia, Uzbekistan and other countries. Each type of tourism has its own terms. As well as business tourism. These are faced by us from the moment we set out for the trip. Subsequent processes also have their own terms. In the Oxford dictionary of English, Longmen dictionaries, we have observed the following meanings of words related to business tourism:

1. Plane- n. vehicle that flies in the air and has wings and at list one engine.
2. Airline-n a company that provides regular flights to take passengers and goods to different places.
3. Transient business- segment of business comprised of individual booking as opposed to bookings from a group [5]
4. Flight-n travel by plane.
5. Hotel-n a building where people pay to stay and eat meals.
6. Motel-n a hotel for people travelling by car, usually with a plane for the car near each room.
7. Guesthouse-n a prive house where people can pay to stay and have meals.
8. Hostel/youth hostel-n a very cheap hotel where people can stay for a short time while they are travelling.
9. Above the line - commission received from advertising like TV, radio, poster, and press. [6]

Also, considering that the English language is in the leading position in international tourism terminology, it is quite natural that the main part of the Uzbek language acquisitions has borrowed from this language, of course. When comparing two languages, Uzbek and English, in one area-tourism terminology, we witnessed the use of some terms in Uzbek as an alternative. The concept of "travel" directly relates to the field of tourism. This concept can serve as an intermediary in cross-cultural communication during the tourist practice. Since nations are interdependent in the intercultural dialogue, it is important to study the linguistic patterns of the dissemination of concepts within the same culture and cross-culturally and interlinguistically[7].

Cultural theories in relation to tourism have also been developed for the study of national identity. On the one hand, the researchers focused on the contribution of tourism to the construction of national identity. So we can characterize heritage tourism as "the most common view of nationality" and "the most common way of presenting our culture to the rest of the world" or consider the power of historical tourism in the process of building and preserving English national identity. Using content analysis, it can be shown that verbal messages have a structure of twelve subjects, each of which is polarized into four isotopic triangles around the active elements of communication. Examples of stable phrases are lexical units:

"tourist product" - an economic category denoting tours, tourist and excursion services, tourist and souvenir goods, etc.;

"commodity image" is a specific idea formed by the consumer under the influence of advertising and other sources about a real or future product;

"hotel chain" is a group of enterprises engaged in collective business and under the control of the chain management, characterized by its recognizable brand, quality of service and accommodation, its architectural design, regardless of the location of the hotel. However, linguistic theories of tourism are mainly represented by discourse studies. Providing the first sociolinguistic interpretation of tourism, that the discourse of tourism tries to entice millions of people to become tourists and subsequently control their attitudes and behavior through the special use of language in verbalized media. Tourists, in turn, contribute to the development of the language of tourism by sharing their

experience. The meaning of the word "enjoy" and its derivatives in the reviews are identical. In both examples, the trip is considered as a kind of pleasure.

Eng: I liked traveling in Greece

Uzb: Menga Gretsiyada sayohat qilish yoqdi. In the example from the English review, there is an idea that tourists will just remember the trip, and in the example from the Uzbek review, tourists will remember the trip based on their impressions of the monument. The influx of borrowings in the modern Uzbek vocabulary of tourism is quite understandable if we consider this phenomenon from a cultural point of view. From a closed state with an undeveloped tourism sector, where the very word "tourism" is misunderstood, Uzbekistan overnight turns into a country open to all spheres of activity, including tourism.

Conclusion. In conclusion, we can say that the creation of explanatory, electronic and translation dictionaries of existing tourism terms in Uzbek is one of the important tasks of Uzbek terminology. In explanatory dictionaries, in special dictionaries compiled for tourist terms, the issuance and interpretation of terms serves to make the reader familiar with the most necessary and general concepts in this discipline and increase its level of knowledge, in addition to generating interest in this area.

The obtained results open up new promising directions for further study of industry term systems from the standpoint of lexical typology. In particular, the establishment of lexical differences between the original tourist texts and their translations could be of undoubted interest, which would make it possible to identify lexical substitutions that are not provided for by dictionary correspondences.

REFERENCES

1. Dann G.M.S., *The Language of Tourism – A Sociolinguistic Perspective*, Oxford: CAB International, 1996, 294 p.
2. Denisova G., Drozd, A., Romanovich R. *Tourism Terminology in Social, Linguistic and Translation Contexts (Mezhkulturaia kommunikatsiia i obucheniie inostrannym iazykam)*, Oxford: CAB International, 2011, 356 p.
3. Mirzayev M., Aliyeva M. *Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.* – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Под ред. А. Мадвалиева и др. – В 5-и т. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – I – 679 с.; II – 671 с.; III – 687 с.; IV – 606 с.; V – 591 с. 15.
5. *Oxford Dictionary of English.* – Oxford: Oxford University Press, 2003.
6. *Longman dictionary.* – <http://global.longmandictionaries.com/>
7. Sadullaev F. B., Kudratova S. O. The benefits of extensive reading programme in language teaching // *Мировая наука.* – 2019. – №. 2 (23). – С. 48-50.